9. Ulzhayev, E., Ubaydullayev, U. M., & Ulzhayev, Z. E. (2014). Electronic on-board control system of operational and technological parameters of cotton harvesting units. Traktory i selkhozmashiny, 81(10), 11-14. https://doi.org/10.17816/0321-4443-65490.

EYXORNIYA CRASSIPES VA PISTIYA STRATIOTES SUV O‘SIMLIKLARI TARKIBIDAGI AMINO KISLOTALAR TAHLILI

Kh.Egamberdiyev
Guliston Davlat Universiteti
U.K. Abduraxmonova
Guliston Davlat Universiteti
A.D.Matchanov
Guliston Davlat Universiteti
E-mail: eoxi_kim@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada suv ekotizimlarida keng tarqalgan invaziv suv o‘simliklari — Eichhornia crassipes va Pistia stratioteslarning tarkibidagi biologik faol aminokislotalarning miqdoriy va sifat tarkibi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (HPLC) usuli yordamida o‘rganildi. Tadqiqotlar davomida dastlab Eichhornia crassipes va Pistia stratiotes o‘simliklar organlarining (barg, poya, ildiz va gul) namunalaridan ekstrakt tayyorlanib, ekstraktlar tarkibidan bir qator almashinadigan va almashinmaydigan aminokislotalar mavjudligi aniqlandi. Aminokislotalarning organlar bo‘yicha taqsimlanishi va miqdoridagi farqlar o‘simliklarning fiziologik xususiyatlari hamda metabolik jarayonlari bilan izohlandi. Eichhornia crassipes gul qismida eng ko‘p aminokislota treonin bo‘lib, uning miqdori 2,31 mg/g ni tashkil etadi), ildiz qismida arginin yuqori ko‘rsatkichni (3,03 mg/g) qayd etdi. Pistia stratiotes barg qismida treonin (4,34 mg/g), arginin (3,48 mg/g) va lizin (2,54 mg/g) ni tashkil etgan bo‘lsa, ildiz qismida treonin (2,00 mg/g) va lizin (2,40 mg/g) lar yuqori ko‘rsatkichga ega ekanligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Eichhornia crassipes, Pistia stratiotes, aminokislotalar, HPLC, suv o‘simliklari, biokimyoviy tarkib, oqsil, invaziv turlar.

Аннотация. В данной статье с помощью метода высокоэффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ) изучен количественный и качественный состав биологически активных аминокислот в инвазивных водных растениях Eichhornia crassipes и Pistia stratiotes, широко распространенных в водных экосистемах. В ходе исследования были первоначально приготовлены экстракты из образцов органов растений (листья, стебли, корни и цветки) Eichhornia crassipes и Pistia stratiotes, и определено наличие в экстрактах ряда обмениваемых и необмениваемых аминокислот. Различия в распределении и количестве аминокислот по органам объясняются физиологическими свойствами и метаболическими процессами растений. В цветочной части Eichhornia crassipes наиболее распространенной аминокислотой был треонин (его содержание составляло

ISSN 3030-3907

2,31 мг/г), тогда как в корневой части высокий показатель был отмечен для аргинина (3,03 мг/г). В листьях Pistia stratiotes содержались треонин (4,34 мг/г), аргинин (3,48 мг/г) и лизин (2,54 мг/г), а в корнях — треонин (2,00 мг/г) и лизин (2,40 мг/г).

Ключевые слова: Eichhornia crassipes, Pistia stratiotes, аминокислоты, ВЭЖХ, водные растения, биохимический состав, белок, инвазивные виды.

Abstract. In this article, the quantitative and qualitative composition of biologically active amino acids in the composition of invasive aquatic plants widespread in aquatic ecosystems - Eichhornia crassipes and Pistia stratiotes - was studied using the high-performance liquid chromatography (HPLC) method. During the research, extracts were initially prepared from samples of plant organs (leaf, stem, root and flower) of Eichhornia crassipes and Pistia stratiotes, and the presence of a number of exchangeable and non-exchangeable amino acids was determined in the extracts. The differences in the distribution and amount of amino acids in the organs were explained by the physiological properties and metabolic processes of the plants. In the flower part of Eichhornia crassipes, the most abundant amino acid was threonine, its content was 2.31 mg/g), and in the root part, arginine recorded a high index (3.03 mg/g). Pistia stratiotes leaf contained threonine (4.34 mg/g), arginine (3.48 mg/g) and lysine (2.54 mg/g), while the root contained threonine (2.00 mg/g) and lysine (2.40 mg/g).

Keywords: Eichhornia crassipes, Pistia stratiotes, amino acids, HPLC, aquatic plants, biochemical composition, protein, invasive species.

KIRISH.

Suv o‘simliklari Yer biosferasining turli ekologik tizimlarida muhim ekologik xizmatlarni amalga oshirib, biologik xilma-xillikni saqlash, suv havzalarining tabiiy tozalanishi hamda ko‘plab organizmlar uchun yashash makonini ta’minlashda fundamental ahamiyat kasb etadi. Xususan, Eyxorniya *crassipes* (suv giganti) va Pistiya *stratiotes* (suv salati) kabi tez o‘suvchi suv o‘simliklari global miqyosda keng tarqalgan bo‘lib, ular bir tomondan invaziv turlar sifatida ekologik muammolarni keltirib chiqarsa, ikkinchi tomondan, ularning boy biokimyoviy tarkibi tufayli turli sanoat tarmoqlarida foydalanish imkoniyatlari ilmiy hamjamiyatda qizg‘in muhokamalarga sabab bo‘lmoqda (Smith va boshq., 2018; Johnson va boshq., 2020).

O‘simliklarning biologik faoliyatida asosiy metabolitlar sirasiga kiruvchi aminokislotalar markaziy o‘rin tutadi. Aminokislotalar nafaqat oqsillarning asosiy qurilish bloklari vazifasini bajaradi, balki o‘simliklarning o‘sishini, rivojlanishini, stress omillariga chidamliligini va turli metabolik jarayonlarni tartibga solishda bevosita ishtirok etadi. Bundan tashqari, ular ikkilamchi metabolitlar, gormonlar va vitaminlar sintezi uchun prekursor vazifasini bajarib,

ISSN 3030-3907

oziq-ovqat zanjirida hayvonlar va insonlar uchun muhim oziq modda hisoblanadi (Taiz va Zeiger, 2010). Shu bois, o‘simliklar tarkibidagi aminokislotalar profilini chuqur o‘rganish ularning fiziologik holatini, ekologik moslashuv mexanizmlarini va, eng muhimi, potentsial iqtisodiy qiymatini tushunish uchun fundamental ahamiyatga ega.

Eyxorniya crassipes va Pistiya stratiotes o‘simliklarining yuqori biomassasi ularni bioyoqilg‘i ishlab chiqarish, kompostlash, chorva mollari uchun ozuqa va fitoremediatsiya jarayonlarida qo‘llash imkoniyatlarini ochib beradi. Mavjud tadqiqotlar asosan bu o‘simliklarning umumiy biokimyoviy tarkibiga, masalan, uglevodlar va lipidlarga qaratilgan bo‘lib, individual aminokislotalarning sifat va miqdoriy tahlili bo‘yicha chuqur ilmiy ishlar yetarli emas (Chen va boshq., 2019). Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Eyxorniya *crassipes* va Pistiya *stratiotes* suv o‘simliklarining tarkibidagi erkin va oqsilga bog‘langan aminokislotalar profilini zamonaviy yuqori samarali suyuqlik xromatografiya (HPLC) usuli yordamida sifat va miqdoriy jihatdan atroflicha tahlil qilishdan iborat. Ushbu ish orqali olingan ma’lumotlar Eyxorniya *crassipes* va Pistiya *stratiotes* o‘simliklarining biologik ahamiyatini yanada oshirishga va ulardan barqaror rivojlanish maqsadlarida samarali foydalanishga ilmiy hissa qo‘shadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Akvatik ekotizimlarda keng yoyilgan Eyxorniya *crassipes* (Pontederiaceae oilasi) va Pistiya *stratiotes* (Araceae oilasi) o‘simlik turlari salmoqli ekologik va iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Xalq orasida "suv giganti" nomi bilan mashhur bo‘lgan Eyxorniya *crassipes*, global miqyosda invaziv tur sifatida e’tirof etilishiga qaramay, uning tez o‘sishi va yuqori biomassa hosil qilish qobiliyati tufayli bioremediatsiya, bioyoqilg‘i ishlab chiqarish hamda chorvachilikda ozuqa manbai sifatida potentsiali atroflicha tadqiq etilmoqda [1, 2]. Shuningdek, "suv salati" deya e’tirof etiluvchi Pistiya *stratiotes* ham global miqyosda keng tarqalgan akvatik tur sifatida suvni tozalash va ozuqa moddalarini singdirish xususiyatlari bilan xarakterlanadi [3]. Mazkur o‘simliklarning kimyoviy tarkibini chuqur o‘rganish ularning amaliy qo‘llanilish sohalarini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Mavjud ilmiy adabiyotlar Eyxorniya *crassipes* va Pistiya *stratiotes* turlarining umumiy kimyoviy tarkibiga oid boy ma’lumotlar bazasini taqdim etadi. Xususan, Eyxorniya crassipes quruq moddasining taxminan 10-25% xom protein, 15-30% xom tolalar, 2-5% lipidlar va muhim miqdordagi mineral moddalar (ayniqsa, kaliy, azot, fosfor) dan iborat ekanligi qayd etilgan [4, 5]. Bundan tashqari, uning tarkibida fenolik birikmalar, flavonoidlar va alkaloidlar kabi ikkilamchi metabolitlar mavjud bo‘lib, ular antioksidant va mikroblarga qarshi xususiyatlarga ega ekanligi eksperimental tarzda ko‘rsatilgan [6]. Pistiya

ISSN 3030-3907

stratiotes ning kimyoviy profili ham Eyxorniya crassipes ga o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lib, uning quruq moddasida 8-20% protein, 10-25% tolalar va bir qator muhim minerallar mavjudligi aniqlangan [7, 8]. Ba’zi tadqiqotlar Pistiya stratiotes ning biomassa hosil qilish salohiyati Eyxorniya crassipes ga nisbatan kamroq bo‘lsa-da, uning ayrim biokimyoviy komponentlari (masalan, ba’zi polifenollar) miqdori yuqoriroq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi [9].

Ushbu akvatik o‘simliklarning ozuqaviy qiymatini baholashda proteinlar va ularning tarkibidagi aminokislotalar alohida e’tiborga molik. Proteinlar o‘simlik biomassasining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, ular o‘simlikning optimal o‘sishi, rivojlanishi va turli stress omillariga chidamliligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Eyxorniya crassipes va Pistiya stratiotes ning protein miqdori ularni chorva ozuqasi va biogaz ishlab chiqarish uchun istiqbolli xomashyo manbai sifatida qiziqarli obyektga aylantiradi [10]. Biroq, mazkur o‘simliklarning proteinlarining to‘liq aminokislota profili, xususan, muhim (essensial) aminokislotalar tarkibi bo‘yicha chuqur va qiyosiy tadqiqotlar cheklangan. Ayrim ishlar Eyxorniya crassipes da lizin, metionin va triptofan kabi muhim aminokislotalarning mavjudligini umumiy tarzda ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ularning miqdoriy tahlili va Pistiya stratiotes bilan aniq qiyosiy ma’lumotlar yetarli emas [11].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, akvatik o‘simliklarning kimyoviy tarkibi, shu jumladan aminokislotalar profili, o‘sish sharoitlari, geografik joylashuv va mavsumiy o‘zgarishlarga qarab sezilarli darajada farq qilishi mumkin [12]. Shu sababli, ma’lum bir mintaqada olingan namunalarning batafsil tahlili ilmiy va amaliy nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bu ikki tur o‘rtasidagi aminokislotalar tarkibidagi farqlarni aniqlash, ularning ozuqaviy qiymatini va turli sohalarda qo‘llanilish salohiyatini yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu bo‘limda Eyxorniya *crassipes* (suv giganti) va Pistiya *stratiotes* (suv lattasi) o‘simlik turlari tarkibidagi amino kislotalarning sifat va miqdoriy tahlilini amalga oshirishda qo‘llanilgan ilmiy-tadqiqot metodologiyasining batafsil tavsifi keltirilgan. Tadqiqot ob'ektlarini yig‘ish, ularni laboratoriya tahlillari uchun tayyorlash, ularning identifikasiyasi hamda miqdorini aniqlash usullari, shuningdek, ishlatilgan zamonaviy asbob-uskunalar va ilmiy yondashuvlar atroflicha yoritilgan.

1. O‘simlik namunalari yig‘ish va tayyorlash.

Mazkur tadqiqot uchun E. *crassipes* va P. *stratiotes* o‘simlik turlari namunalari 2025-yil oktyabr oyida Sirdaryo viloyati Guliston tumanining tabiiy suv havzalaridan (geografik koordinatalar: 40.525568 shimoliy kenglik,

ISSN 3030-3907

69.029565 sharqiy uzunlik) yetishtirib olingan. Ularning ildiz va barg qismlari ehtiyotkorlik bilan ajratildi hamda sirtidagi loy, qum va boshqa mexanik aralashmalarni to‘liq olib tashlash maqsadida distillangan suv bilan sinchkovlik bilan yuvildi. Tozalangan o‘simlik qismlari dastlab xona haroratida (taxminan 25°C) soya joyda quritildi. So‘ngra, ular 60°C haroratda ishlaydigan ventilyatsiyali quritish shkafida (Mikrotest MST-55, Turkiya) doimiy massaga erishguncha quritish jarayonidan o‘tkazildi. To‘liq quritilgan namunalarning har biri alohida maydalash tegirmonida (Vibrotexnik ID-65, Rossiya) yuqori darajada gomogen kukun holatiga keltirildi.

2. Amino kislotalarni aniqlash va miqdorini belgilash.

O‘simlik namunasi tarkibidagi aminokislotalar Sigma Aldrich (Germaniya)dan keltirilgan standart namunalar asosida sifat va miqdor ko‘rsatgichlarini Agilent Technologies, AQSh (Agilent) ishlab chiqarilgan YSSX Agilent 1260 II Infiniti qurilmasi Fluoressen (FLD) detektori yordamida aniqladi. Qo‘zg‘almas faza Poroshel 120 EC-C-18 (150 mm × 4,6 mm × 4 mkm) AQSH kalonkadan, foydalanildi. Kolonnadan oldingi derivatizatsiya avtomatik dasturlashtirilgan rejimda amalga oshirildi. Aminoksilotalar analizi amalga oshirishda ko‘chma faza sifatida A - natriy digidrofosfat eritmasi (40 mM) pH 7,8 va mobil faza B - asetonitril: metanol: suv (45:45:10) o‘zgaruvchan rejim asosida amalga oshirildi.

1-Jadval

Vaqt	**A faza % natriy digidrofosfat eritmasi (40 mM) pH 7,8**	**B faza % Asetonitril: metanol: suv (45:45:10)**
0.0	98	2
16	70	30
23	57	43
26	0	100
28	98	2
30	98	2

Oqim tezligi 1 ml/minda, termostat harorati 40^0C da ineksiya qilingan namuna hajmi 5 mkl, analiz vaqti 30 minutda amalga oshirildi va quyidagicha xromatogrammalar olindi.

Gidroliz 24 soat davomida magnit aralashtirgichda aralashtirildi. Gidroliz tugaganidan so‘ng eritma xona haroratigacha sovutildi va namunadan 10 ml olib, 10 minut davomida 12000 ayl/daq sentrafuga qilindi so‘ngra 5 ml olib 6 N natriy

ISSN 3030-3907

ishqori yordamida neytrallandi, so‘ngra 1 ml eritma 0,45 μm filtrda filtrlab olinib vialga joylashtirildi va quyidagi natijalar olindi:

TAHLIL VA NATIJALAR.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Eichhornia crassipes va Pistia stratiotes o‘simliklarining turli vegetativ organlari tarkibidagi aminokislotalar yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (HPLC) usuli yordamida tahlil qilindi. Olingan natijalar aminokislotalarning o‘simlik organlariga qarab notekis taqsimlanganligini ko‘rsatdi.

2-Jadval

№	Ko‘rsatkichlar nomi	Eyxorniya guli (mg/g)	Eyxorniya ildizi (mg/g)	Eyxorniya poyasi(mg/g)	Pistia bargi (mg/g)	Pistia ildizi (mg/g)
1.	Asparagin	0,01				
2.	Serin					
3.	Glutamin	0,19	0,13	0,05	0,11	
4.	Gistidin	1,78	1,61	0,83	1,92	1,11
5.	Glitsin	1,78	1,61	0,83	1,92	1,11
6.	Trianin	2,31	0,07	0,87	4,34	2,00
7.	Arginin	1,49	3,03	1,34	3,48	1,48
8.	Alanin	0,56		0,40	0,01	0,60
9.	Lizin	1,48		0,63	2,54	2,40
10.	Valin	1,53	0,08	0,03	0,55	0,15
11.	Metonin	0,60	1,44	0,39	1,71	0,47
12.	Glutamat	0,78		0,06		
13.	Triptofan					
14.	Fenilalanin	0,53	1,05	0,44	1,75	0,53
15.	Izoleysin			0,97		
16.	Prolin	5,41	9,50		3,08	4,61

Eichhornia crassipes gul qismida treonin (2,31 mg/g), gistidin va glitsin (1,78 mg/g), valin (1,53 mg/g) hamda arginin (1,49 mg/g) nisbatan yuqori miqdorda aniqlandi. Glutaminning miqdori 0,19 mg/g ni tashkil etdi. Asparagin esa juda kam miqdorda – 0,01 mg/g darajada qayd etildi.

Eichhornia crassipes ildiz qismida argininning eng yuqori ko‘rsatkichlardan biriga ega ekanligi aniqlandi va uning miqdori 3,03 mg/g ni tashkil etdi. Shuningdek, gistidin va glitsin 1,61 mg/g, metionin 1,44 mg/g hamda fenilalanin 1,05 mg/g miqdorda aniqlandi. Bu ko‘rsatkichlar ildiz qismida oqsil almashinuvi jarayonlari faol ekanligini ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907

Eichhornia crassipes poyasida aminokislotalarning umumiy miqdori boshqa organlarga nisbatan pastroq bo‘ldi. Biroq izoleysin faqat ushbu qismda 0,97 mg/g miqdorda aniqlanganligi bilan ajralib turdi. Arginin (1,34 mg/g) va treonin (0,87 mg/g) ham muhim miqdorda qayd etildi.

Pistia stratiotes barg qismida treoninning maksimal miqdori kuzatilib, u 4,34 mg/g ni tashkil etdi. Bundan tashqari, arginin (3,48 mg/g), lizin (2,54 mg/g), gistidin va glitsin (1,92 mg/g), fenilalanin (1,75 mg/g) hamda metionin (1,71 mg/g) yuqori miqdorda aniqlandi. Mazkur natijalar barg qismida metabolik jarayonlar faol kechishini ko‘rsatadi.

Pistia stratiotes ildizida treonin (2,00 mg/g), lizin (2,40 mg/g) va arginin (1,48 mg/g) nisbatan yuqori miqdorda aniqlandi. Shuningdek, gistidin va glitsin 1,11 mg/g miqdorda qayd etildi.

Prolin miqdori boshqa aminokislotalardan farqli ravishda foizlarda ifodalandi. Eng yuqori prolin miqdori Eichhornia crassipes ildizida aniqlanib, 9,50 % ni tashkil etdi. Gul qismida ushbu ko‘rsatkich 5,41 % bo‘lgan bo‘lsa, Pistia stratiotes barg va ildizida mos ravishda 3,08 % va 4,61 % ni tashkil etdi. Prolinning yuqori miqdorda to‘planishi o‘simliklarning turli stress omillariga moslashuvchanligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari suv o‘simliklari biologik faol aminokislotalarning muhim tabiiy manbai ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, arginin, treonin, lizin va prolinning yuqori miqdorda aniqlanishi ushbu o‘simliklardan farmatsevtika, biotexnologiya hamda oziqaviy qo‘shimchalar ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatlarini oshiradi.

XULOSA. O‘tkazilgan tahlillar natijalariga ko‘ra, har ikkala suv o‘simligi turi ham oqsil biosintezi uchun muhim bo‘lgan almashinadigan va almashinmaydigan aminokislotalarning sezilarli darajada boy manbai ekanligi aniqlandi. Ushbu natijalar, adabiyotlar sharhida keltirilgan mazkur invaziv turlarning yuqori biologik mahsuldorligi va biokimyoviy potentsiali to‘g‘risidagi ma'lumotlarni to‘liq tasdiqlaydi. Identifikatsiya qilingan umumiy aminokislotalar miqdorining salmoqli ekanligi ularning nafaqat ekologik muammo, balki muhim iqtisodiy qiymatga ega bo‘lgan qimmatli bioxomashyo bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Азимова Н.И., Алимов А.А. Ўзбекистон сув ҳавзаларидаги макрофитларнинг биокимёвий таркиби // Ўзбекистон биология журнали. – 2018. – №3. – Б. 45-49.

2. Ахмедова З.Р., Расулова М.Р. Ўсимликларнинг физиологияси ва биокимёси. – Тошкент: Фан, 2015. – 320 б.3. Воронцов В.Н., Смирнов А.П. Водные растения: биология и использование. – Москва: Наука, 2010. – С.

ISSN 3030-3907

112-118.
4. Каримов Б.Т., Халилов М.А. Сув ўсимликларининг экологик аҳамияти ва биокимёвий хусусиятлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2019. – 210 б.
5. Матчанов Б.А., Жумабоева Г.Р. Eyxorniya crassipes ва Pistia stratiotes ўсимликларининг агрокимёвий таркибини ўрганиш // Ўзбекистон аграр фани хабарномаси. – 2021. – № 1. – Б. 78-83.
6. Соколов С.Я. Химический анализ растений. – Ленинград: Химия, 1984. – 280 с.
7. Турсунов Н.О., Ҳамрокулов А.Т. Ўзбекистон флорасининг айрим турларида аминокислоталар спектри // Ўзбекистон кимё журнали. – 2017. – № 5. – Б. 60-64.
8. Abbasi S.A., Nipaney P.C. Water hyacinth (Eichhornia crassipes): The most promising candidate for wastewater treatment // Environmental Technology. – 1988. – Vol. 9, № 2. – P. 159-166.
9. Choudhary M., Kumar A., Sharma S. Biochemical constituents of water hyacinth (Eichhornia crassipes) and water lettuce (Pistia stratiotes) for their potential applications // Journal of Environmental Biology. – 2019. – Vol. 40, № 3. – P. 448-454.
10. Esha M., Khan M.A., Jahan S.N., Islam M.N. Evaluation of nutritional composition of water hyacinth (Eichhornia crassipes) and water lettuce (Pistia stratiotes) for potential feed value // International Journal of Natural Sciences. – 2016. – Vol. 6, № 1. – P. 36-41.
11. Kadam M., Shinde K., Jadhav S. Phytochemical analysis of selected aquatic plants and their antimicrobial activity // International Journal of Current Microbiology and Applied Sciences. – 2014. – Vol. 3, № 4. – P. 385-392.
12. Keskitalo J., Eloranta P., Salonen K. Comparison of the nutrient content of water hyacinth (Eichhornia crassipes) and water lettuce (Pistia stratiotes) // Aquatic Botany. – 2200. – Vol. 66, № 4. – P. 287-296.
13. Rattan K.S., Singh R.P., Singh R.P. Amino acid profile of some aquatic macrophytes // Journal of Plant Sciences. – 2011. – Vol. 6, № 2. – P. 119-123.
14. Sahoo D., Singh A., Rout P.K. Biochemical and proximate analysis of water hyacinth (Eichhornia crassipes) for its potential as a feed supplement // Journal of Advanced Scientific Research. – 22013. – Vol. 4, № 3. – P. 69-72.
15. Singh R.P., Singh R.P., Rattan K.S. Nutritional composition of water hyacinth (Eichhornia crassipes) and its utilization as animal feed // Journal of Environmental Biology. – 2010. – Vol. 31, № 5. – P. 637-640.

ISSN 3030-3907

KARBAMID ASOSIDA OLINGAN SEKIN ERUVCHI O‘G‘IT NAMUNALARINING KIMYOVIY TAHLILI

Fatilloyev Shamshod Fayzullo o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktorant
E-mail: fatilloyevshamshod@gmail.com
Usanbayev Najimuddin Xalmurzayevich
UzFa Umumiy va noorganik kimyo instituti professor, DSc.
E-mail: najim70@mail.ru
Voxidov Erkin Aliyevich
Buxoro davlat texnika universiteti dotsent, PhD.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda karbamid va sapropel asosida granulalangan sekin eruvchi organo-mineral o‘g‘it namunalari olindi hamda ularning fizik-kimyoviy xossalari kompleks ravishda o‘rganildi. Tadqiqot davomida sapropelning turli massa ulushlari (100 : 0–100 : 10) asosida tayyorlangan namunalar tarkibidagi umumiy azot (N), biuret, CaO, P_2O_5, K_2O va MgO miqdorlari standart metodlar asosida aniqlandi. Olingan natijalar regressiya tahlili yordamida baholanib, sapropel ulushi ortishi bilan azot miqdori kamayishi, mineral komponentlar miqdori esa chiziqli ravishda ortishi aniqlandi. Biuret miqdorining kamayishi sapropel tarkibidagi gumin va fulvo kislotalarning karbamid molekulalari bilan o‘zaro ta’siri bilan izohlandi. Yuqori determinatsiya koeffitsientlari olingan mahsulot tarkibining barqarorligi va texnologik jarayonning ishonchliligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari sapropel asosidagi mahalliy xomashyo yordamida ekologik xavfsiz va sekin eruvchi azotli o‘g‘itlar yaratish imkoniyatini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: karbamid, sapropel, sekin eruvchi o‘g‘it, organo-mineral o‘g‘it, biuret, regressiya tahlili, azot, CaO, P_2O_5, K_2O, MgO, granulalash, agroximik xossalar.

Аннотация. В данном исследовании были получены гранулированные медленно растворимые органо-минеральные удобрения на основе карбамида и сапропеля, а также комплексно изучены их физико-химические свойства. В ходе исследования в образцах, приготовленных при различных массовых соотношениях сапропеля (100 : 0–100 : 10), стандартными методами были определены содержания общего азота (N), биурета, CaO, P_2O_5, K_2O и MgO. Полученные результаты были оценены методом регрессионного анализа, при этом установлено, что с увеличением доли сапропеля содержание азота уменьшается, тогда как количество минеральных компонентов линейно возрастает. Снижение содержания биурета объясняется взаимодействием гуминовых и фульвокислот сапропеля с молекулами карбамида. Высокие коэффициенты детерминации

ISSN 3030-3907

подтвердили стабильность состава полученного продукта и надежность технологического процесса. Результаты исследования показали возможность создания экологически безопасных медленно растворимых азотных удобрений на основе местного сапропелевого сырья.

Ключевые слова: карбамид, сапропель, медленно высвобождающееся удобрение, органо-минеральное удобрение, биурет, регрессионный анализ, азот, CaO, P_2O_5, K_2O, MgO, гранулирование, агрохимические свойства.

Abstract. In this study, granulated slow-release organo-mineral fertilizer samples based on urea and sapropel were prepared, and their physicochemical properties were comprehensively investigated. During the research, the contents of total nitrogen (N), biuret, CaO, P_2O_5, K_2O and MgO in samples prepared with different sapropel mass ratios (100 : 0–100 : 10) were determined using standard methods. The obtained results were evaluated by regression analysis, which revealed that the nitrogen content decreased with increasing sapropel proportion, whereas the mineral component contents increased linearly. The reduction in biuret content was explained by the interaction of humic and fulvic acids present in sapropel with urea molecules. High coefficients of determination confirmed the stability of the obtained product composition and the reliability of the technological process. The research results demonstrated the possibility of producing environmentally safe slow-release nitrogen fertilizers based on local sapropel raw materials.

Keywords: urea, sapropel, slow-release fertilizer, organo-mineral fertilizer, biuret, regression analysis, nitrogen, CaO, P_2O_5, K_2O, MgO, granulation, agrochemical properties.

KIRISH.

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida azotli o‘g‘itlardan unumli foydalanish masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Azotli o‘g‘itlar orasida karbamid ($CO(NH_2)_2$) qishloq xo‘jaligida keng qo‘llaniladi. Karbamid dunyodagi eng ko‘p qo‘llaniladigan azotli o‘g‘it bo‘lib, yillik ishlab chiqarish hajmi 170 million tonnadan oshadi [1]. Karbamidning tuproqda tez eruvchanligi va yuvilib ketish ehtimoli yuqori bo‘lgani sababli oziqlanish samaradorligini kamaytiradi va atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Karbamid tarkibidagi azot asosan o‘simliklarga ammoniy (NH_4^+) va nitrat (NO_3^-) shaklida so‘riladi [2]. Karbamid qo‘llanganda uchraydigan asosiy muammolar yuqori uchuvchanlik, denitrifikatsiya va yuvilishdir. Ushbu xossalardagi kamchiliklar sababli karbamiddagi azotning faqat 25 % dan 50 % gacha qismigina o‘simliklar tomonidan o‘zlashtiriladi [3,4]. Tuproqqa qo‘llanganda karbamid biologik, kimyoviy va fizik jarayonlar orqali o‘zgarishga uchrab, o‘simliklar tomonidan o‘zlashtiriladigan mineral azot shakllarini hosil qiladi [1].

$$(NH_4)_2CO + 2H_2O \rightarrow (NH_4)_2CO_3 \quad (1)$$ (Ureaza fermenti ta′ sirida)

ISSN 3030-3907

$$(NH_4)_2CO_3 + 2H^+ \rightarrow 2NH_4^+ + CO_2 + H_2O \quad (2)\ (\text{Ammonifikatsiya})$$

$$2NH_4^+ + 3O_2 \rightarrow 2NO_2^- + 2H_2O + 4H^+ + \text{energiya} \quad (3)\ \text{Nitrozomonas}$$

$$2NO_2^- + O_2 \rightarrow 2NO_3^- + \text{energiya}\ (4)\ (\text{Nitrobakteriya})$$

$$2NO_3^- \rightarrow N_2 + N_2O\ (5)\ (\text{zichlashib qolgan tuproqlarda})$$

$$NH_4^+ \rightarrow NH_{3(g)} + H^+ (6)\ (\text{pH yuqori bo'lganda})$$

(2) va (4) reaksiyalar natijasida o‘simliklar tomonidan bevosita o‘zlashtiriladigan ammoniy va nitrat ionlari hosil bo‘ladi. Biroq o‘simliklarning dastlabki rivojlanish bosqichlarida ozuqa moddalarga bo‘lgan ehtiyoj nisbatan past bo‘lgani sababli, tuproqda hosil bo‘lgan ortiqcha azotli birikmalar, ayniqsa nitrat ionlari, yuqori harakatchanligi tufayli tuproq eritmasi bilan quyi qatlamlarga yuvilib ketadi. Shu bilan birga (5) va (6) reaksiyalar davomida molekulyar azot, azot(I) oksidi hamda ammiak gazi ko‘rinishida muhitdan yo‘qotiladi. Ushbu jarayonlar natijasida karbamid tarkibidagi azotning sezilarli qismi o‘simliklar tomonidan o‘zlashtirilmasdan yo‘qotiladi. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida sekin eruvchan azotli o‘g‘itlarni ishlab chiqarishga bo‘lgan ilmiy va amaliy qiziqish so‘nggi yillarda sezilarli darajada ortib bormoqda [5].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Sekin eruvchan azotli o‘g‘itlar olish bo‘yicha bir necha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va turli xil qo‘shimchalar qo‘shib modifikatsiyalangan karbamid olishga erishilgan. Karbamidga tabiiy bentonit hamda turli bog‘lovchilar sifatida makkajo‘xori kraxmali va gidroksipropil metilsellyuloza (HPMC) turli xil nisbatlarda qo‘shish orqali sekin eruvchi karbamid o‘g‘itlari (SRUFlar) olingan [4]. Qoplamali karbamid olish uchun termik ishlov berish davomida olingan eritmaga karbamid bo‘lakchasi botirilgan so‘ngra karbamid yuzasi qoploma bilan qoplangan. Karbamid chiqishini aniqlash uchun 30 kunlik inkubatsiya davrida tuproqda sinovlar olib borilgan va UV/ko‘rinadigan spektrofotometrda ajralib chiqgan karbamid konsentratsiyasi aniqlangan. Qoplamali karbamid hamda mexanokimyoviy usul orqali olingan o‘g‘itga nisbatan karbamid chiqishi sekinroq bo‘lganligi o‘rganilgan [5]. Yana bir ilmiy tadqiqot ishida bir soat davomida maydalashdan keyin tarkibida 20% karbamid bo‘lgan karbamid-kaolinit turli konsentratsiyasiga bog‘lovchi modda sifatida xitozan aralashtirilib, karbamid asosli sekin eruvchi azotli o‘g‘it namunalari olingan. Karbamid-kaolinit va xitozan o‘rtasidagi bog‘lanish granulalarni mustahkamligini oshirgan. Azot chiqishi 5 kunlik intervalda 527 nm to‘lqin uzunligida diatsetilmonoksim kolorimetrik usuli yordamida o‘lchandi. Natijalar xitozan konsentratsiyasini 3% dan 7,5% gacha oshirish orqali azot chiqishi bir kundan keyin 41,23% dan 25,25% gacha va 30 kundan keyin esa 77,31% dan 59,27% gacha kamayganligi aniqlangan [6]. O‘zbekistonda esa har yili 650 ming tonnadan ortiq karbamid ishlab chiqariladi.

ISSN 3030-3907

Granulalangan karbamidning sifat talablari GOST 2081-2010 standartida tartibga solingan bo‘lib, xalqaro standartlar (Yevropa Ittifoqi Reglament № 2003/2003) yanada qattiqroq talablarni qo‘yadi. Karbamid sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, xususan, granulalarning statik mustahkamligini oshirish ishlab chiqarishdan tortib qo‘llashgacha bo‘lgan butun ta’minot zanjirida yo‘qotishlarni kamaytirishga yordam beradi hamda tuproq–o‘simlik–o‘g‘it tizimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [7–9]. Shuni ham ta’kidlash kerakki, qishloq xo‘jaligi tuproqlari azot oksidi (N_2O) va azot oksidi (NO) ning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Azot oksidi issiqxona gazi bo‘lib, shuningdek, stratosferadagi ozon qatlamini yemirilishida ishtirok etuvchi birikma hisoblanadi. Atmosferaning yuqori qatlamlarida yog‘ingarchilikning yo‘qligi tufayli azot oksidlarining olib tashlanishi juda sekin kechadi, bu esa ularning ushbu hududda to‘planishiga va quyosh nurlanishining spektral tarkibining o‘zgarishiga olib keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Namunalar quyidagi bosqichlarda tayyorlandi:


Karbamid oldindan suyuqlantirilgan holda 130–140 °C haroratda eritildi. Olingan eritma haroratini saqlab turgan holda unga turli massa nisbatlarida ($CO(NH_2)_2$: sapropel = 100 : 0 dan 100 : 10 gacha) quritilgan va mayda kukunga aylantirilgan sapropel qo‘shildi. Aralashma mexanik aralashtirgich yordamida yaxshilab gomogen holatga keltirildi. Olingan massa laboratoriya pilot tipidagi granulyator orqali granulalash jarayonidan o‘tkazildi. Hosil bo‘lgan granulalar sovutish kamerasida xona haroratiga qadar sovutildi. Tayyor granulalar keyingi fizik-kimyoviy tahlillar (N, biuret, CaO, P_2O_5, K_2O, MgO va boshqalar) uchun ishlatildi.

Azot umumiy miqdori (N, %) - GOST 20851.75. Kalsiy oksidi (CaO, %) - GOST EN 16196-2016, Fosfor (V) oksidi (P_2O_5, %) - GOST 26717-85, Kaliy oksidi (K_2O, %) - GOST 26718-85, Magniy oksidi (MgO, %) - GOST EN 16198-2016, Biuret miqdori (%,) - karbamidda)- GOST 32555-2013 yordamida aniqlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Karbamid suyuqlanmasiga turli ($CO(NH_2)_2$: sapropel = 100 : 0 dan 100 : 10 gacha) massa nisbatlarida sapropel qo‘shilgan granula namunalarining kimyoviy tarkibi azot (N) miqdori aniqlandi. Natijalar 1-rasmda keltirilgan.

ISSN 3030-3907




1-rasm. Sapropel ulushining azot miqdoriga ta’siri va chiziqli regressiya tahlili

Rasmdagi natijalari sapropel ulushi ortishi bilan kompozitsiyadagi umumiy azot miqdori muntazam ravishda kamayishini ko‘rsatadi. Chiziqli regressiya tenglamasiga ko‘ra, sapropel miqdori har 1 % ga oshganda azot miqdori o‘rtacha 0,4122 % ga kamayadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, regressiya modelining determinatsiya koeffitsienti yuqori qiymatga ega bo‘lib, bu sapropel ulushi bilan azot miqdori o‘rtasida kuchli chiziqli bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur qiymat modelning eksperimental ma’lumotlarni yuqori aniqlikda tavsiflashini bildiradi. Azot miqdorining kamayishi sapropel tarkibida organik va mineral komponentlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Ya’ni, kompozitsiyada sapropel ulushi oshgani sari karbamidning nisbiy ulushi kamayadi va natijada umumiy azot konsentratsiyasi pasayadi. Shunga qaramasdan, sapropel tarkibidagi organik moddalar, gumus komponentlari va mikroelementlar o‘g‘itning agroximik samaradorligini oshirishi mumkin. Bundan tashqari, regressiya chizig‘ining deyarli to‘g‘ri chiziq shaklida bo‘lishi azot miqdorining sapropel ulushiga proporsional ravishda o‘zgarishini ko‘rsatadi. Bu esa kompozitsion o‘g‘it tarkibini oldindan bashorat qilish va kerakli azot miqdoriga ega formulalarni optimallashtirish imkonini beradi. Olingan natijalar sapropel asosidagi kompozitsion o‘g‘itlarni ishlab chiqishda azot balansini nazorat qilish hamda sekin eruvchi o‘g‘itlar texnologiyasini takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda granulalagan organo-mineral o`g`itlarda CaO, P_2O_5, K_2O va MgO miqdorlarining o‘zgarishi regressiya tahlili asosida aniqlandi. 2-rasmda ko‘rinadiki, sapropel ulushi ortishi bilan mineral komponentlar miqdori

ISSN 3030-3907

muntazam ravishda oshib boradi hamda ular orasida ijobiy chiziqli bog‘liqlik mavjudligi kuzatiladi.



2-rasm. Sapropel asosidagi kompozitsiyalarda CaO, P_2O_5, K_2O va MgO miqdorlarining regressiya tahlili

Sapropel asosidagi organomineral qo‘shimchaning karbamid tarkibiga kiritilishi natijasida makroelementlarining miqdori ortib borishi kuzatildi. Olingan natijalar yuqori regressiya koeffitsientlari bilan tavsiflanib, mineral komponentlarning mahsulot tarkibiga deyarli yo‘qotishsiz o‘tayotganini tasdiqlaydi.

Toza karbamid tarkibida CaO amalda (0,000 %). Sapropel miqdori ortishi bilan CaO konsentratsiyasi muntazam ravishda oshib bordi va 100 : 1 nisbatda 0,056 %, 100 : 5 nisbatda 0,270 %, 100 : 10 nisbatda esa 0,516 % ni tashkil etdi. Jarayonning regressiya tenglamasi: [CaO (%) = 0.05163x - 0.00485] bo‘lib, determinatsiya koeffitsienti (R^2 = 0.9998) ga tengligi CaO miqdorining sapropel ulushiga deyarli ideal chiziqli bog‘liqligini ko‘rsatadi. Sapropel tarkibidagi CaO ning nazariy miqdori (5,68 %) asosida hisoblangan qiymatlar tajriba natijalari bilan yuqori moslik namoyon qildi. Jumladan, 100 : 10 nisbat uchun nazariy qiymat 0,5164 % bo‘lib, tajribaviy natija (0,516 %) bilan deyarli aynan mos tushdi. 100 : 5 nisbatdagi tajriba natijasi (0,270 %) ham nazariy qiymatdan atigi 0,012 foiz punktga farq qilgani sababli, ushbu tafovut o‘lchov aniqligi doirasida qabul qilinadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, gektariga 250 kg miqdorda 100 : 5 nisbatdagi o‘g‘it qo‘llanilganda tuproqqa taxminan 675 g CaO kiritiladi. Bu esa tuproqning kalsiy bilan boyishini hamda agregat holatining yaxshilanishini ta’minlaydi.

P_2O_5 miqdori ham sapropel ulushi ortishi bilan chiziqli ravishda oshib bordi. Toza karbamidda fosfor mavjud bo‘lmagan bo‘lsa, 100 : 10 nisbatda P_2O_5

ISSN 3030-3907

miqdori 0,1245 % ga yetdi. Regressiya tenglamasi: [P_2O_5 (%) = 0.01246x - 0.00115] ko‘rinishida bo‘lib, (R^2 = 0.9999) qiymati jarayonning yuqori darajada qonuniy ekanini ko‘rsatadi. Sapropel tarkibidagi dastlabki P_2O_5 miqdori (1,37 %) asosida olingan nazariy hisob 100 : 10 nisbatdagi tajribaviy qiymat bilan to‘liq mos tushdi. Bu fosforning sapropeldan kompozit granula tarkibiga amalda yo‘qotishsiz o‘tayotganini tasdiqlaydi. Sapropeldagi fosfor asosan organik bog‘langan shaklda — fitinlar, fosfolipidlar va nuklein kislotalar qoldiqlari holida uchrashi sababli, tuproqda sekin minerallanadi va o‘simlik tomonidan bosqichma-bosqich o‘zlashtiriladi. Hisoblashlarga ko‘ra, gektariga 250 kg miqdorda 100 : 7 nisbatdagi o‘g‘it qo‘llanilganda tuproqqa 224 g P_2O_5 kirib boradi. Miqdor jihatdan katta bo‘lmasa-da, fosforning yuqori bioo‘zlashtiriluvchanligi ushbu ko‘rsatkichni agronomik jihatdan samarali qiladi.

Sapropel tarkibidagi kaliy birikmalari tufayli K_2O miqdori ham muntazam ravishda oshdi. Toza karbamidda K_2O aniqlanmagan bo‘lsa, 100 : 10 nisbatdagi namunada uning miqdori 0,0682 % ni tashkil etdi. Jarayon quyidagi regressiya tenglamasi bilan tavsiflandi:[K_2O (%) = 0.00682x - 0.00084] va chiziqli bog‘liqlikni ko‘rsatdi. Nazariy hisob-kitoblar sapropeldagi K_2O miqdori (0,75 %) asosida tajriba natijalari bilan to‘liq mos tushdi. Sapropeldagi kaliyning asosan xlorsiz shakllarda — K-gumat va K-fulvat ko‘rinishida mavjudligi olinayotgan mahsulotni xlorga sezgir ekinlar, jumladan tamaki, kartoshka va sitrus o‘simliklari uchun ayniqsa qimmatli qiladi. 100 : 7 nisbatdagi o‘g‘itdan gektariga 250 kg qo‘llanganda tuproqqa 122 g K_2O kiritilishi aniqlandi.


MgO miqdori ham sapropel ulushi ortishi bilan qonuniy ravishda oshib bordi. 100 : 1 nisbatdagi 0,0220 % dan 100 : 10 nisbatdagi 0,2018 % gacha kuzatilgan o‘sish quyidagi regressiya tenglamasi bilan ifodalandi:[MgO (%) = 0.02019x - 0.00164] Determinatsiya koeffitsientining tengligi magniy miqdorining ham juda yuqori aniqlikda chiziqli o‘zgarishini tasdiqlaydi. Sapropeldagi MgO miqdori (2,22 %) asosida hisoblangan nazariy qiymatlar tajribaviy natijalar bilan to‘liq mos tushdi. MgO miqdorining K_2O ga nisbatan ancha yuqori bo‘lishi tadqiq etilgan sapropelning kalsiy-magniyli turga mansubligi bilan izohlanadi. Magniy xlorofill molekulasining markaziy elementi hisoblanishi sababli, uning organomineral o‘g‘it tarkibiga kiritilishi O‘zbekistonning qurg‘oqchil va issiq iqlim sharoitida o‘simliklarning fotosintetik faolligini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 100 : 7 nisbatdagi o‘g‘itni gektariga 250 kg miqdorda qo‘llash natijasida tuproqqa 363 g MgO kiritiladi.

Umuman olganda, CaO, P_2O_5, K_2O va MgO miqdorlarining sapropel ulushiga proporsional ravishda ortishi sapropelning mineral komponentlari organomineral kompozit tarkibiga yuqori darajada saqlanib o‘tayotganini

ISSN 3030-3907

ko‘rsatadi. Regression tahlilda barcha ko‘rsatkichlar yuqori bo‘lishi olingan natijalarning statistik jihatdan ishonchli ekanini hamda ishlab chiqilgan texnologiyaning tarkibiy barqarorligini tasdiqlaydi.

Biuret miqdori toza karbamidda 1,412 % ni tashkil etgan bo‘lib, bu O‘z DSt 612-2018 talabi (≤ 1,4 %) darajasida. Sapropel ulushi oshishi bilan biuret miqdori tizimli kamaydi



3-rasm. Sapropel ulushining biuret miqdoriga ta’siri

Sapropel ulushining ortishi bilan biuret miqdorining muntazam kamayishi kuzatildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 100 : 1 nisbatdagi namunada biuret miqdori 1,386 % ni tashkil etgan bo‘lsa, sapropel konsentratsiyasining bosqichma-bosqich ortishi natijasida ushbu ko‘rsatkich izchil ravishda kamayib bordi va 100 : 10 nisbatdagi namunada 1,273 % ga yetdi. Oraliq qiymatlar mos ravishda 100 : 2 nisbatda 1,373 %, 100 : 3 da 1,359 %, 100 : 4 da 1,346 %, 100 : 5 da 1,333 %, 100 : 6 da 1,321 %, 100 : 7 da 1,308 %, 100 : 8 da 1,296 % hamda 100 : 9 nisbatda 1,284 % ni tashkil etdi. Regression tahlil natijasida aniqlangan determinatsiya koeffitsienti (R^2 = 0,9998) bo‘lib, bu sapropel ulushi bilan biuret miqdori o‘rtasida juda yuqori darajadagi chiziqli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Xususan, 100 : 10 nisbatdagi namunada biuret miqdorining kamayishi 0,139 foiz punktni tashkil etdi, bu esa nisbiy hisobda 9,8 % ga kamayganini bildiradi. Mazkur natija tadqiqotning muhim ilmiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. Biuret miqdorining kamayishi sapropel tarkibidagi gumin va fulvo kislotalarning karbamid molekulalari bilan sodir bo‘ladigan fizik-kimyoviy o‘zaro ta’siri bilan izohlanadi. Gumin moddalarning karboksil (–COOH) va gidroksil (–OH) funksional guruhlari karbamidning amid guruhlari (–CO–NH_2) bilan vodorod bog‘lari hosil qiladi. Natijada karbamid molekulalarining o‘zaro kondensatsiyalanib biuret hosil qilish reaksiyasi sekinlashadi.

Biuret hosil bo‘lish reaksiyasi quyidagicha ifodalanadi:

ISSN 3030-3907

$$2NH_2CONH_2 \rightarrow NH_2CONHCONH_2 + NH_3$$

Sapropel tarkibidagi gumin va fulvo komponentlari karbamid molekulalarining erkin harakatchanligini kamaytirishi natijasida ushbu reaksiyaning kinetik ehtimoli pasayadi. Shu sababli biuretning hosil bo‘lish darajasi kamayadi va karbamidning termik barqarorligi oshadi. Tadqiq qilingan barcha namunalar uchun biuret miqdori amaldagi standart me’yorlardan past ekani aniqlandi. Bu esa olingan mahsulotni nafaqat tuproqqa qo‘llash, balki barg orqali oziqlantirish (foliar qo‘llash) uchun ham xavfsiz ekanligini ko‘rsatadi. Biuret konsentratsiyasining pastligi o‘simlik barglarida fitotoksik ta’sir xavfini kamaytiradi hamda azotning bosqichma-bosqich va nazoratli o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Shunday qilib, sapropelning karbamid tarkibiga kiritilishi nafaqat organomineral kompozitning biologik va agroximik qiymatini oshiradi, balki karbamidning termik parchalanish mahsuloti bo‘lgan biuret hosil bo‘lishini ham sezilarli darajada kamaytiradi. Bu esa ishlab chiqilgan o‘g‘it kompozitsiyasining agronomik samaradorligi va ekologik xavfsizligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, karbamid–sapropel asosida olingan granulalangan organo-mineral o‘g‘itlarning tarkibiy va agroximik ko‘rsatkichlari sapropel ulushiga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Sapropel miqdori ortishi bilan umumiy azot miqdori muntazam kamaygan bo‘lsa-da, CaO, P_2O_5, K_2O va MgO miqdorlarining chiziqli ravishda ortishi kuzatildi. Regressiya tenglamalari uchun yuqori determinatsiya koeffitsientlari yuqoriligi texnologik jarayonning yuqori aniqlik va takrorlanuvchanlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Biuret miqdorining 1,412 % dan 1,273 % gacha kamayishi sapropel tarkibidagi gumin va fulvo kislotalarning karbamid molekulalari bilan vodorod bog‘lari hosil qilishi natijasida biuret hosil bo‘lish reaksiyasining sekinlashishi bilan izohlandi. Barcha namunalar uchun biuret miqdori amaldagi standart talablardan past bo‘lib, o‘g‘itlarning ekologik va agrotexnik jihatdan xavfsiz ekanligini tasdiqladi. Olingan natijalar sapropelning nafaqat organik modda manbai, balki kalsiy, fosfor, kaliy va magniy kabi muhim oziqa elementlari manbai sifatida ham yuqori agroximik samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Shu sababli sapropel asosidagi granulalangan sekin eruvchi o‘g‘itlarni ishlab chiqarish mahalliy xomashyodan samarali foydalanish, azot yo‘qotilishini kamaytirish hamda tuproq unumdorligini oshirish uchun istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Raximov K. I., Usanbayev N. X. & Namazov S. S. (2025). IR SPECTROSCOPIC AND THERMAL INVESTIGATION OF

ENCAPSULATED UREA WITH STABILIZED SOLUBILITY. Development Of Science, 11(5), pp. 157-166.

2. Trenkel ME. Slow- and controlled-release and stabilized fertilizers: an option for enhancing nutrient use efficiency in agriculture. Paris: International Fertilizer Industry Association; 2010.

3. Zheng T, et al. Superabsorbent hydrogels as carriers for the controlled release of urea: experiments and a mathematical model describing the release rate. Biosyst Eng. 2009; 102(1): 44–50. doi: 10.1016/j.biosystemseng.2008.09.027.

4. Chien SH, Teixeira LAJ, Cantarella H, Rehm GW, Grant CA, Gearhart MM. Agronomic effectiveness of granular nitrogen/phosphorus fertilizers containing elemental sulfur with and without ammonium sulfate: a review. Agron J. 2016; 108(3): 1203–1213. doi: 10.2134/agronj2015.0276.

5. Neto, João & Fernandes, Jucielle & M. Rodrigues, Alisson & Menezes, Romualdo & Neves, Gelmires. (2023). New Urea Controlled-Release Fertilizers Based on Bentonite and Carnauba Wax. Sustainability. 15. 6002. 10.3390/su15076002.

6. Roshanravan, Bita & Mahmoud-Soltani, Shahram & Abdul Rashid, Suraya & Mahdavi, Fari & Yusop, Mohd. (2015). Enhancement of nitrogen release properties of urea–kaolinite fertilizer with chitosan binder. Chemical Speciation & Bioavailability. 27. 1-8. 10.1080/09542299.2015.1023090.

7. Vitousek PM, Naylor R, Crews T, David MB, Drinkwater LE, Holland E, et al. Nutrient imbalances in agricultural development. Science. 2009; 324: 1519–1520. doi: 10.1126/science.1170261.

8. Ramalingappa, P., Singh, R., Shrivastava, M., Das, R., Sangwan, S., Misra, S. Environmental impact of nitrogen losses from agriculture under different management practices // iCRBE Procedia. 2020. Vol. 1, No. 1. P. 138–149. DOI: 10.32438/iCRBE.202052

9. Strelnikova, V. O., Taran, Yu. A. Production of a New Urea-Based Fertilizer Using Phosphogypsum as a Filler // Chemical Industry Today. 2023. No. 5. P. 29–37

10. Usanbayev, N. Kh., Namazov, Sh. S., Saydullayev, A. A. Application of bentonite in obtaining sulfur-containing urea based on a flush of urea and sulfur // Izvestiya Vuzov. Chemistry and Chemical Technology. 2024. Vol. 67, No. 4. P. 80–89. DOI: 10.6060/ivkkt.20246704.6922

ISSN 3030-3907

ZAMONAVIY KIYIMLARDA O‘ZBEK MILLIY NAQSHLARINI TASNIFLASH VA TAHLIL QILISH: VIRTUAL VA AN’ANAVIY DIZAYNNI SOLISHTIRISH

Temirova Gulnoz Ibodovna
Buxoro davlat texnika universiteti “Yengil sanoat muhandisligi va dizayn”kafedrasi,
Xabibov Faxriddin Yusupovich
Buxoro davlat texnika universiteti “Yengil sanoat muhandisligi va dizayn”kafedrasi,
Esanova Ma’rifat G‘ayratovna
Buxoro davlat texnika universiteti “Yengil sanoat muhandisligi va dizayn”kafedrasi,
E-mail: marifatesanova835@gmail.com

Annotatsiya. 3D virtual simulyatsiya texnologiyasi moda sanoatining turli vazifalarida, jumladan 3D namuna ishlari kabi mahsulot rejalashtirish, dizaynni rivojlantirish, marketing va namoyish etishda keng qo‘llaniladi hamda virtual modellarni o‘ziga xos qilish uchun uslublash imkonini beradi. Matolarning haqiqiy materiallarga yaqin raqamli tasvirini yaratish tolalar tarkibi, og‘irligi va qalinligi kabi asosiy xususiyatlardan tashqari tajribalar orqali olingan qo‘shimcha ma’lumotlarni talab etadi. Biroq milliy naqshlarning virtual kiyim muhitidagi vizual ko‘rinishi va zamonaviy kiyimlarga moslashtirilishini aks ettiruvchi tadqiqotlar nisbatan kam. Shuning uchun ushbu tadqiqot o‘zbek milliy naqshlarini zamonaviy kiyimlarda 3D virtual muhit asosida qo‘llash imkoniyatlarini tahlil qilish hamda virtual kiyimlarning estetik xususiyatlarini solishtirish orqali virtual kiyim simulyatsiyasining foydalanish qulayligini oshirishni maqsad qiladi. Shunday qilib, biz CLO 3D dasturi yordamida yaratilgan virtual kiyimlarda milliy naqshlarning vizual ko‘rinishi va kompozitsion uyg‘unligini taqqoslab tahlil qildik hamda har bir dizayn yechimi asosida estetik o‘zgarishlarni o‘rgandik. Bundan tashqari, kiyim mosligini solishtirish maqsadida turli naqshlardan foydalangan holda virtual kiyim yaratildi. Natijada, har bir dizayn usuli bo‘yicha naqshlarni bir necha guruhlarga tasniflab, ularning vizual xususiyatlarini aniqladik. Shuningdek, naqshlarning joylashuviga asoslanib kiyimlarning mosligini vizual solishtirish orqali kompozitsiya va estetik muvozanatdagi o‘zgarishlarni kuzatdik. Shuning uchun, biz ushbu tadqiqot natijalari 3D virtual kiyim-kechak ishlab chiqarish bo‘yicha kam malakaga ega dizaynerlarga dizaynda virtual naqshlardan qo‘llashda yordam berishi mumkin, deb hisoblaymiz. Ushbu topilmalar moda sanoatida onlayn savdo va marketing uchun, shuningdek, zamonaviy milliy kiyimlarni loyihalashda 3D virtual kiyim-kechak simulyatsiyalaridan foydalanishda qimmatli bo‘lishi kutilmoqda.

ISSN 3030-3907

Kalit so‘zlar: 3D virtual kiyim texnologiyasi, CLO 3D dasturi, milliy naqshlar, zamonaviy moda dizayni, virtual kiyim modellashtirish, raqamli moda texnologiyalari, o‘zbek ornamentlari

Аннотация. Технология 3D виртуального моделирования широко применяется в различных направлениях модной индустрии, включая разработку 3D образцов, проектирование, маркетинг и презентацию изделий, а также предоставляет возможности стилизации виртуальных моделей. Создание цифрового изображения тканей, максимально приближенного к реальным материалам, требует не только основных характеристик, таких как состав волокон, плотность и толщина ткани, но и дополнительных данных, полученных экспериментальным путем. Однако исследования, отражающие визуальное применение национальных орнаментов в среде виртуальной одежды и их адаптацию к современному дизайну одежды, остаются недостаточными. В связи с этим данное исследование направлено на анализ возможностей применения узбекских национальных орнаментов в современной одежде на основе 3D виртуальной среды, а также на повышение эффективности виртуального моделирования одежды посредством сравнительного анализа эстетических характеристик виртуальных изделий. В ходе исследования с помощью программы CLO 3D были проанализированы визуальные и композиционные особенности национальных орнаментов в виртуальной одежде, а также изучены эстетические изменения различных дизайнерских решений. Кроме того, для сравнительного анализа посадки одежды были созданы виртуальные модели с использованием различных орнаментов. В результате орнаменты были классифицированы по нескольким группам в зависимости от дизайнерских решений и определены их визуальные характеристики. Также на основе расположения орнаментов были исследованы изменения композиционного и эстетического баланса одежды. Полученные результаты могут быть полезны дизайнерам с недостаточным опытом работы в области 3D виртуального моделирования одежды при использовании виртуальных орнаментов в дизайне. Предполагается, что результаты исследования будут востребованы в онлайн-торговле и маркетинге модной индустрии, а также при проектировании современной национальной одежды с использованием технологий 3D виртуальной симуляции.

Ключевые слова: 3D виртуальные технологии одежды, программа CLO 3D, национальные орнаменты, современный дизайн одежды, виртуальное моделирование одежды, цифровые модные технологии, узбекские орнаменты

ISSN 3030-3907

Проведённый анализ показал, что оптоэлектронные уровнемеры на основе лазерных дальномеров обеспечивают высокую точность и оперативность измерения уровня жидкостей. Установлено, что выбор метода измерения (импульсного, фазового или частотного) определяется требованиями к точности, диапазону измерений и характеристиками контролируемой среды. Показано, что наличие встроенных температурных датчиков позволяет учитывать влияние внешних условий и снижать погрешность измерений. Определено, что применение современных телекамер на основе ПЗС-матриц способствует повышению чувствительности и пространственного разрешения измерительной системы. Использование лазерного излучения с оптимальными параметрами обеспечивает надёжное функционирование уровнемеров в широком диапазоне эксплуатационных условий.

ISSN 3030-3907

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. ГОСТ 8.595-2004 Масса нефти и нефтепродуктов. Общие требования к методикам выполнения измерений. - М.: Стандартинформ, 2006. - 18 с.
2. Джексон, Р.Г. Новейшие датчики / Р.Г. Джексон. - М.: Техносфера, 2007.- 384 с.
3. P. Mohindru, "Development of liquid level measurement technology: A review," Flow Measurement and Instrumentation, vol. 89, Mar. 2023, Art. no. 102295, https://doi.org/10.1016/j.flowmeasinst.2022.102295.
4. Study on level sensor with magnetic liquid August 2006 Gongneng Cailiao/Journal of Functional Materials 37(8):1220-1222
5. EMERSON Process Management [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.metran.ru (дата обращения 15.07.2014).
6. Yin, L.; Qin, Y.; Liu, X.-W. A new interface weak-capacitance detection ASIC of capacitive liquid level sensor in the rocket. Mod. Phys. Lett. B 2017.
7. Pal A.; Kalyan, U.P.; Harika, C.M.; Vasuki, B. Capacitive Sensor for Level Measurement in Hopper/Silos—Experimental Evaluation. In Proceedings of the International Conference on Intelligent Computing, Instrumentation and Control Technologies (ICICICT), Kannur, India, 5–6 July 2019.
8. Hao, H.-H.; Xiong, J.-Q. A method of liquid level measurement based on ultrasonic echo characteristics. In Proceedings of the 2010 International Conference on Computer Application and System Modeling (ICCASM 2010), Taiyuan, China, 22–24 October 2010; Institute of Electrical and Electronics Engineers(IEEE): Piscataway, NJ, USA, 2010; Volume 11, pp. V11–V682.

ISSN 3030-3907

CREATION OF NEW NUMERICAL SIMULATION ALGORITHMS FOR SOLVING INITIAL-BOUNDARY-VALUE PROBLEMS FOR DIFFUSION EQUATIONS

Tokhir Tozhiev
Fergana State University, Fergana, Uzbekistan
E-mail: T.Tozhiey@gmail.com
Shakhboz Abdullaev
Fergana State University, Fergana, Uzbekistan
E-mail: shaxboz.abdullayev@inbox.ru

Abstract. This article uses the Monte Carlo method to solve initial-boundary value problems in the diffusion equation. A Markov chain with absorption on the trajectory of this chain is constructed, an unbiased estimate for solving problems is constructed. Examples of estimates of solution functionals are given and the behavior of their variances is discussed. The resulting integral equation is solved using branched Markov chains with absorption.

Keywords: monte Carlo method, statistical modeling, diffusion equation, set-boundary problem, Markov chain, absorbing Markov chain, branching Markov chain, integral equation, dynamic solution generation, variance estimation, Brownian motion, transition function, parabolic equation, ultraparabolic equation, mathematical modeling, numerical mechanisms, e. conductivity, mathematics, investment portfolio, risk management, biological models, ecological processes, process algorithms, critical processes, boundary problems, diffusion processes, statistical control, computer modeling.

Аннотация. В данной статье для решения начально-краевых задач уравнения диффузии используется метод Монте-Карло. Построена цепь Маркова с поглощением на траектории этой цепи, получена несмещенная оценка для решения задач. Приведены примеры оценок функционалов решений и обсуждено поведение их дисперсий. Полученное интегральное уравнение решается с использованием разветвленных цепей Маркова с поглощением.

Ключевые слова: метод Монте-Карло, статистическое моделирование, уравнение диффузии, граничная задача, цепь Маркова, поглощающая цепь Маркова, разветвляющаяся цепь Маркова, интегральное уравнение, динамическое генерирование решений, оценка дисперсии, броуновское движение, функция перехода, параболическое уравнение, ультрапараболическое уравнение, математическое моделирование, численные механизмы, например, проводимость, математика, инвестиционный портфель, управление рисками, биологические модели, экологические процессы, алгоритмы процессов, критические процессы,

краевые задачи, диффузионные процессы, статистический контроль, компьютерное моделирование.

Annotatsiya. Ushbu maqola diffuziya tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni yechish uchun Monte-Karlo usulidan foydalanadi. Markov zanjiri uning traektoriyasi bo‘ylab yutilishi bilan tuziladi va muammolarni hal qilish uchun xolis baho olinadi. Yechim funktsiyalari uchun baholarga misollar keltirilgan va ularning dispersiyalarining xatti-harakati muhokama qilinadi. Olingan integral tenglama yutilishli tarvaqaylab ketgan Markov zanjirlari yordamida yechiladi.

Kalit so‘zlar: monte-Karlo usuli, statistik modellashtirish, diffuziya tenglamasi, chegaraviy masala, Markov zanjiri, yutuvchi Markov zanjiri, tarmoqlanuvchi Markov zanjiri, integral tenglama, dinamik yechim hosil qilish, dispersiyani baholash, Broun harakati, o‘tish funksiyasi, parabolik tenglama, ultraparabolik o‘tkazuvchanlik mexanizmi, nufuzli parabolik o‘tkazuvchanlik tenglamasi, mana shunday. matematika, investitsiya portfeli, risklarni boshqarish, biologik modellar, ekologik jarayonlar, jarayon algoritmlari, muhim jarayonlar, chegaraviy muammolar, diffuziya jarayonlari, statistik nazorat, kompyuter modellashtirish.

INTRODUCTION.

Diffusion equations (parabolic and ultraparabolic) are the object of research in such areas as mathematical physics, theory of dynamical systems, biology, ecology, economics, finance, management and mathematical modeling. Diffusion equations are the basis for solving a wide range of problems: thermal conductivity, nuclear physics, dynamic systems, gas dynamics, biological population dynamics and genetics, dynamics of changes in the securities market, management of investment and financial portfolios, financial risk management and analysis of environmental processes. Therefore, the study of mathematical models and the solution of diffusion equations remains an important task in the areas of applied mathematics, finance and management [1–5].

A.N. Kolmogorov [6] showed in 1931 that the transition function $P(x,t,\Gamma)$ is the probability that a Brownian particle leaving the point x, after time t, entering the set Γ, satisfies a certain diffusion parabolic differential equation. In the course of its development, the apparatus of the theory of probability began to be successfully applied in the study of boundary value problems. Therefore, the study of mathematical models and the solution of diffusion equations remains an important task in the areas of applied mathematics, finance and management, etc. Many scientific and applied research carried out at the world level lead to the problems of creating mathematical models of initial-boundary value problems for diffusion equations, therefore, the

ISSN 3030-3907

numerical solution of such problems by the method of statistical modeling (Monte Carlo method) is of great importance [7–10].

Algorithms of the Monte Carlo method for problems with initial conditions have been little studied even in the case of ordinary differential equations. The only study with examples of Monte Carlo solutions for systems of ordinary differential equations was considered in [10]. In these cases, Monte Carlo methods can be more efficient than classical computational methods. If we bear in mind that the application of the Monte Carlo method, which has shown its effectiveness in multidimensional problems, then the development of methods of numerical integration in a system with many noises is highly relevant.

Formulation of the problem

Consider in $(n+1)$-dimensional space of $\mathbb{R}^{n+1}$ points (y,z,t), $y \in \mathbb{R}^k$, $z \in \mathbb{R}^l$, $t \in \mathbb{R}^1$, $k+l=n$ equation

$$Lu = \frac{\partial u(y,z,t)}{\partial t} - \sum_{i,j=1}^{k} a_{ij} \frac{\partial^2 u(y,z,t)}{\partial y_i \, \partial y_j} + \sum_{j=1}^{k} \sum_{m=1}^{l} \beta_j^m \, y_j \frac{\partial u(y,z,t)}{\partial z_m} = f(y,z,t)$$

with constant coefficients α_{ij} and β_j^m $(i = 1,2,\dots,k, j = 1,2,\dots,k, m = 1,2,\dots,l)$.

Let $\alpha = (\alpha_{ij})$ be a $k \times k$ matrix, $\beta = (\beta_j^m)$ be an $l \times k$ matrix.

We assume:

• Matrix $\alpha = (\alpha_{ij})$ symmetric and positive definite.

• Matrix $\beta = (\beta_j^m)$, such that $l \times l$ the Gram matrix $\omega = (\beta\alpha\beta^T)^{-1}$ is positive definite (non-degenerate).

Let $D \subset \mathbb{R}^n$ – bounded area with border ∂D. Let's combine the variables (y,z) into one space variable - column $x = (y^T, z^T)^T \in \mathbb{R}^n$ (T – transpose operation).

Consider in space $\mathbb{R}^{n+1}$ variables $(x,t) = (x_1, x_2, \dots, x_n, t)$ cylinder $\Omega = D \times [0,T]$.

For functions $\psi(x,t) \in C(\partial D \times [0,T])$ and $\varphi(x) \in C(\overline{D})$ the following initial and creative problem is posed: find the function $u(x,t) \in C(\overline{\Omega}) \cap C^{2,1}(\Omega)$ satisfying in the cylinder Ω equation

$$(Lu)(x,t) = f(x,t) \qquad (1)$$

with a condition

$$u(x,t) = \psi(x,t), \quad x \in \partial D, \quad t \in [0,T] \qquad (2)$$

and the initial condition

$$u(x,0) = \varphi(x), \quad x \in D. \qquad (3)$$

ISSN 3030-3907

Function $f(x,t)$ will be considered continuous in $\overline{\Omega}$. Agreement condition $\varphi(x) = \psi(x,0)$ for $x \in \partial D$, necessary for the solvability of the problem, we will assume that it is satisfied.

Assuming that there is a solution to problem (1) - (3), we construct an algorithm for its numerical implementation.

Representation of probabilistic problem solving and construction of a Markov chain

The most common Monte Carlo algorithm is based on modeling Markov chains.

Using a fundamental solution to the equation (1) with a singularity at the point (y,τ) in space $\mathbb{R}^{n+1}$ we define domains (spheres) as follows.

$$B_r(x,t) = \left\{(y,\tau): (y-Cx)^T d\left(\frac{1}{t-\tau}\right) ad\left(\frac{1}{t-\tau}\right)(y-Cx) \le \gamma^2 \ln\frac{r^2}{t-\tau},\ t > \tau\right\}. \qquad (4)$$

From (4) it can be seen that satisfies the following conditions: $\tau < t$, $\tau > t - r^2$. Each section of a spherical plane by a horizontal plane $\tau = \text{const}$, $t - r^2 < \text{const} < t$, is an n-dimensional ellipsoid centered at the point $\left(e^{-(t-\tau)\beta}x, \tau\right)$. If $\rho < r$, then $B_\rho(x,t) \subset B_r(x,t)$. At $r \to 0$, $B_r(x,t)$ and $\partial B_r(x,t)$ monotonically shrink to the center (x,t). Therefore, there is such $r > 0$ what with $(x,t) \in \Omega$, $B_r(x,t) \subset \Omega$.

Let $r > 0$ such that $B_r(x,t) \subset \Omega$. Then the solution to problem (1) - (3) satisfies the following relation

$$u(x,t) = (E_r u)(x,t) + f(x,t). \qquad (5)$$

where

$$(E_r u)(x,t)$$

$$= \left(\frac{\gamma}{\pi}\right)^{\frac{n}{2}} \int_0^1 \lambda^{\gamma-1}\left(\ln\frac{1}{\lambda}\right)^{\frac{n}{2}} \int_{S_1(0)} u\left(y(\lambda,\theta),\tau(\lambda)\right) T(\theta) 4b\alpha b^T(\theta)\, ds\, d\lambda,$$

$$f(x,t) = \iint_{B_r(x,t)} \left(Z(x,t;y,\tau) - \pi^{-\frac{n}{2}} a^{\frac{1}{2}} r^{-\gamma}\right) f(y,\tau)\, dy\, d\tau$$

$$y(\lambda,\theta) = e^{-r^2\lambda^2\beta}x + \left(\gamma \ln\frac{1}{\lambda}\right)^{\frac{1}{2}} d\left(\frac{r}{2\lambda^2}\right) b^{-1} H(\theta)$$

$$\tau(\lambda) = t - r^2\lambda^2. \qquad (6)$$

It follows from (6) that if $r(x,t) \le t^{\frac{1}{2}}$, then at $(x,t) \in \Omega$ we have $B_r(x,t) \subset \Omega$. We define in Ω Markov chain $\left\{\left(x^j, t^j\right)\right\}_{j=0}^{\infty}$ by the following recurrence relations:

ISSN 3030-3907

$$x^0 = x, \quad t^0 = t, \quad t^j = t^{j-1} - r_{j-1}^2 \exp\left(-\frac{2\xi_j}{\gamma}\right),$$

$$x_i^j = x_i^{j-1} + r_{j-1}^2 \exp\left(-\frac{\xi_j}{\gamma}\right) \xi_j^{\frac{1}{2}} \sum b_{im} \omega_i^j, \qquad (7)$$

$$x_{k+p}^j = x_{k+p}^{j-1} - r_{j-1}^2 \exp\left(-\frac{2\xi_j}{\gamma}\right) \sum_{o=1}^{k} \beta_{po}\, x_o^j$$

$$+ r_{j-1}^3 \exp\left(-\frac{3\xi_j}{\gamma}\right) \xi^{\frac{1}{2}} \sum_{\nu=1}^{n} b_{k+p,\nu}\, \omega_i^j.$$

where $i = 1,2,\dots,k$, $p = 1,2,\dots,l$, $j = 1,2,\dots, r_{j-1} = r\left(x^{j-1}, t^{j-1}\right)$.

Relations (7) are derived from formula (6). Now we can write formula (5) in the following form

$$u\left(x^{j-1}, t^{j-1}\right) = E_{\left(x^{j-1}, t^{j-1}\right)} u\left(x^j, t^j\right) + f\left(x^{j-1}, t^{j-1}\right)$$

We define a sequence of random variables $\{\eta_l\}_{l=0}^{\infty}$ by the following equality,

$$\eta_l = \sum_{j=1}^{l-1} h\left(x^j, t^j\right) f\left(y^j, \tau^j\right) + u(x^l, t^l), \qquad (8)$$

where $\left(y^j, \tau^j\right)$ is a random point of the spheroid $B_r(x,t)$ with fixed $\left(x^j, t^j\right)$, having a distribution density of

$$\frac{Z\left(x^j, t^j; y, \tau\right) - \pi^{-\frac{n}{2}} a^{\frac{1}{2}} r^{-\gamma}}{h(x^j, t^j)}$$

where

$$h(x,t) = \iint_{B_r(x,t)} \left(Z(x,t;y,\tau) - \pi^{-\frac{n}{2}} a^{\frac{1}{2}} r^{-\gamma}\right) dy\, d\tau.$$

Let $\{\Im_l\}_{l=0}^{\infty}$ - sequence σ-algebras generated by random variables $\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_l$, sequence of vectors $\omega^0, \omega^1, \dots, \omega^l$ and random points $(y^0, \tau^0), (y^1, \tau^1), \dots, (y^{l-1}, \tau^{l-1})$, $u_{f,\psi,\varphi}(x,t)$.

The solution to problem (1) - (3) corresponding to the data f, ψ, φ.

Theorem [10]

a) The sequence $\{\eta_l\}_{l=0}^{\infty}$ forms a martingale with respect to the sequence σ-algebras $\{\Im_l\}_{l=0}^{\infty}$.

b) If $\| u_f \|_{2,0,0}\ (x,t) < +\infty$, then η_l is square integrable.

Let $N_\varepsilon = \min\{l: (x^l, t^l) \in (\partial\Omega)_\varepsilon\}$ - moment of the first hit of the process (x^l, t^l) in $(\partial\Omega)_\varepsilon$, i.e. N_ε is the moment of stopping the process (Markov moment).

Lemma [5]

The inequality

ISSN 3030-3907

$$E_{(x,t)}N_\varepsilon \le \frac{\gamma-2}{\gamma}\left(1+\frac{n}{2}\right)\frac{t}{\varepsilon}$$

holds.

NUMERICAL EXPERIMENT AND CONCLUSION.

As is typical for the numerical calculation of diffusion problems, the choice of a random spherical radius for the algorithm of wandering spheres creating trajectories of the Markov chain is essential, which characteristically preserves the properties of a finite propagation velocity, spatial localization, boundedness and destruction.

Solutions, which guarantees convergence with a given accuracy to the solution of the problem with the minimum number of trajectories. Note that due to the ambiguity of solutions in the numerical study, problem (1) - (3). Therefore, the question arises about the choice of the optimal radius of the approximation of the ball, which preserves the properties of convergent boundary value problems. Comparison of the statistical modeling method for solving boundary value problems by known grid methods suggests the following advantages of the first:

- simplicity and physical clarity;
- the ability to solve problems without significant simplifications (problems with complex multidimensional geometry and taking into account physical effects that have to be neglected when using other methods can be solved);
- the possibility of evaluating individual functionals without memorizing decision tables as a whole;
- the possibility of an empirical assessment of the error of the results under sufficiently broad assumptions;
- the possibility of parallel tracking of independent trajectories on multiprocessor computers, the algorithm is naturally parallelized.

As the area D we choose the unit cube with

$$f(x,y,z,t) = e^t\left(5\sin(x+y+z) + (x+y)\cos(x+y+z)\right)$$

$$\varphi(x,y,z) = \sin(x+y+z)$$

at $\alpha = \begin{pmatrix}1 & 0\\ 0 & 1\end{pmatrix}$, $\beta = \begin{pmatrix}1\\ 1\end{pmatrix}$.

Exact solution $u(x,y,z,t) = e^t\sin(x+y+z)$.

Table I.

Results of a numerical experiment

Number of trajectories	Point (x, y, z, t)	ε	Exact solution	Selective assessment	3-sigma
100	0.7, 0.7, 0.7, 0.7	0.005	1.738	1.732	0.017

ISSN 3030-3907

500	0.6, 0.6, 0.6, 0.6	0.005	1.774	1.647	0.005
100	0.6, 0.6, 0.6, 0.3	0.005	1.315	1.317	0.005
100	0.8, 0.8, 0.8, 0.8	0.005	1.503	1.513	0.020
100	0.5, 0.5, 0.5, 0.3	0.005	1.349	1.358	0.0058

REFERENCES

1. J. Doob, *Bull. Amer. Math. Soc* 12, 177 (1984).
2. S. Ermakov, “Selected algorithms of the Monte Carlo method,” (University, Tashkent, 1992) p. 132.
3. G. Mikhailov and A. Voitishek, Akademia, Moscow (2006).
4. M. N. Akhtar, M. H. Durad, and A. Ahmed, *Proc. IAM* 4, 149 (2015).
5. T.Kh. Tozhiev and S. Ibragimov, eds., *Fundamental and applied scientific research: topical issues, achievements and innovations*, collection of articles of the XVI International Scientific and Practical Conference (Science and Education, Penza, Russia, 2018).
6. A. Kolmogoroff, *Mathematische Annalen* 104, 415 (1931).
7. T.Kh. Tozhiev and Sh. Ulikov, *Modern research and development* 3, 141 (2018).
8. T.Kh. Tozhiev and A. Otakhonov, *Modern research and development* 3, 138 (2018).
9. S. Ermakov and T. Tovstik, *Vestnik St. Petersburg University, Mathematics* 52, 272 (2019).
10. T.Kh. Tozhiev and Sh.M. Ibragimov, *Scientific Bulletin of NamSU*, 33 (2019).

ISSN 3030-3907

UDK 622.765:534-8:681.5

ULTRATOVUSH YORDAMIDA MIS RUDASI FLOTATSIYASINI AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARISH TIZIMINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

Asqar Artikov
Toshkent kimyo-texnologiya instituti professori
ORCID: 0009-0007-3874-7096
E-mail: a.artikov@tkti.uz
Abror Isakov
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, Raqamli texnologiyalar va axborot xavfsizligi kafedrasi dotsenti, kafedra mudiri o‘rinbosari, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: https://orcid.org/0000-0003-4768-406X
Davron Panjiyev
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Avtomatlashtirish va raqamli boshqaruv kafedrasi magistranti
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-8067-9050
E-mail: d.panjiyev@tkti.uz
Shaira Nasirova
Navoiy davlat universiteti professori
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-6899-1205
E-mail: nosirova_61@mail.ru

Annotatsiya. Mis rudalarini flotatsiya usulida boyitish jarayonida texnologik parametrlarning o‘zgaruvchanligi hamda jarayonning murakkabligi boshqaruv tizimlariga yuqori talab qo‘yadi. Flotatsiya davomida havo pufakchalari dispersiyasining buzilishi, reagentlarning notekis taqsimlanishi va pulpa tarkibining o‘zgarishi misni ajratib olish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli flotatsiya jarayonini avtomatlashtirilgan holda boshqarish va texnologik parametrlarni optimal qiymatlarda ushlab turish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada ultratovush yordamida mis rudasi flotatsiyasini avtomatlashtirilgan boshqarish tizimini matematik modellashtirish masalalari tahlil qilingan. Tizim tarkibiga flotatsiya apparati, ultratovush generatori, datchiklar, boshqaruvchi qurilma va ijro mexanizmlari kiritilgan. Jarayonni boshqarishda havo sarfi, pulpa sathi, pH muhiti, ultratovush intensivligi hamda mis konsentratsiyasi asosiy parametrlar sifatida qaralgan. Tadqiqot davomida ultratovushning pufakchalar hosil bo‘lishi, zarracha yuzasining tozalanishi va massa almashinish jarayonlariga ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining ishlash algoritmi hamda texnologik parametrlarning o‘zaro bog‘liqligi matematik jihatdan ifodalangan. Model

asosida jarayon parametrlarini boshqarish orqali flotatsiya samaradorligini oshirish va texnologik jarayonning barqaror ishlashini ta’minlash imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: flotatsiya, mis rudasi, ultratovush, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi, matematik modellashtirish, pulpa, havo pufakchalari, massa almashinish, texnologik parametrlar.

Abstract. The variability of technological parameters and the complexity of the process in copper ore beneficiation by flotation impose high requirements on control systems. During flotation, disturbances in air bubble dispersion, non-uniform distribution of reagents, and changes in pulp composition negatively affect copper recovery efficiency. Therefore, automated control of the flotation process and maintaining technological parameters at optimal values remain among the most important challenges. This paper analyzes the issues of mathematical modeling of an automated control system for copper ore flotation using ultrasound. The system includes a flotation unit, an ultrasonic generator, sensors, a control device, and actuating mechanisms. Air flow rate, pulp level, pH environment, ultrasonic intensity, and copper concentration were considered as the main process parameters. The study investigated the effects of ultrasound on bubble formation, particle surface cleaning, and mass transfer processes. In addition, the operating algorithm of the automated control system and the interrelationships between technological parameters were mathematically described. Based on the developed model, the possibilities of improving flotation efficiency and ensuring stable operation of the technological process through effective control of process parameters were demonstrated.

Keywords: Flotation; Copper Ore; Ultrasound; Automated Control System; Mathematical Modeling; Mineral Pulp; Air Bubbles; Mass Transfer; Process Parameters.

Аннотация. Изменчивость технологических параметров и сложность процесса обогащения медных руд методом флотации предъявляют высокие требования к системам управления. В процессе флотации нарушение дисперсности воздушных пузырьков, неравномерное распределение реагентов и изменение состава пульпы оказывают отрицательное влияние на эффективность извлечения меди. В связи с этим автоматизированное управление процессом флотации и поддержание технологических параметров на оптимальном уровне являются одними из наиболее актуальных задач. В данной статье рассмотрены вопросы математического моделирования автоматизированной системы управления флотацией медной руды с использованием ультразвука. В состав системы входят флотационный аппарат, ультразвуковой генератор, датчики, управляющее

устройство и исполнительные механизмы. В качестве основных параметров процесса рассматривались расход воздуха, уровень пульпы, кислотность среды (pH), интенсивность ультразвука и концентрация меди. В ходе исследования изучено влияние ультразвука на образование пузырьков, очистку поверхности частиц и процессы массопереноса. Кроме того, математически описаны алгоритм функционирования автоматизированной системы управления и взаимосвязи между технологическими параметрами. На основе разработанной модели показаны возможности повышения эффективности флотации и обеспечения стабильной работы технологического процесса путем управления его параметрами.

Ключевые слова: Флотация; Медная руда; Ультразвук; Автоматизированная система управления; Математическое моделирование; Минеральная пульпа; Воздушные пузырьки; Массоперенос; Технологические параметры.

1. KIRISH.

Mis metalliga bo‘lgan talabning ortib borishi mis rudalarini samarali boyitish texnologiyalarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Hozirgi vaqtda flotatsiya usuli mis rudalarini boyitishda eng keng qo‘llaniladigan texnologik jarayonlardan biri hisoblanadi. Ushbu usul foydali mineral zarrachalarini havo pufakchalari yordamida ajratib olishga asoslanadi. Flotatsiya jarayonining samaradorligi ko‘plab texnologik omillarga bog‘liq bo‘lib, ularga pulpa tarkibi, havo sarfi, reagentlar miqdori, pH muhiti va pufakchalar dispersiyasi kiradi. Jarayon davomida texnologik parametrlarning o‘zgarishi foydali komponentlarning ajralib chiqish darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

So‘nggi yillarda flotatsiya jarayonini intensivlashtirishda ultratovush texnologiyalaridan foydalanishga qiziqish ortib bormoqda. Ultratovush ta’sirida mayda havo pufakchalari hosil bo‘lishi tezlashadi, zarracha yuzalarining tozalanishi yaxshilanadi hamda massa almashinish jarayoni faollashadi. Bu esa flotatsiya samaradorligini oshirish imkonini beradi. Flotatsiya jarayonini real vaqt rejimida boshqarish va texnologik parametrlarni optimal qiymatlarda ushlab turish avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini qo‘llashni talab etadi. Shu sababli flotatsiya jarayonlarini matematik modellashtirish va boshqaruv algoritmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ushbu maqolada ultratovush yordamida mis rudasi flotatsiyasini avtomatlashtirilgan boshqarish tizimining matematik modeli ishlab chiqilgan hamda texnologik parametrlarning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilingan.

2. Flotatsiya jarayonining avtomatlashtirilgan tizim strukturasi

ISSN 3030-3907


Mis rudalarini flotatsiya usulida boyitish jarayonida texnologik parametrlarning barqarorligini ta’minlash va foydali komponentlarni samarali ajratib olish avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini qo‘llashni talab etadi. Flotatsiya jarayonida pulpa tarkibi, havo sarfi, reagentlar miqdori va ultratovush intensivligining o‘zgarishi texnologik ko‘rsatkichlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli jarayon parametrlarini real vaqt rejimida nazorat qilish va boshqarish muhim hisoblanadi.

Taklif etilayotgan avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi flotatsiya apparati, ultratovush generatori, datchiklar, boshqaruvchi qurilma hamda ijro mexanizmlaridan tashkil topgan. Flotatsiya apparati boshqaruv obyekti sifatida qaraladi va unda pulpa hamda havo oqimlarining o‘zaro ta’siri natijasida mis zarrachalarini ajratib olish jarayoni amalga oshadi.

Tizimda mis konsentratsiyasi, pulpa sarfi, havo sarfi, pulpa sathi hamda pH muhiti asosiy nazorat qilinuvchi parametrlar sifatida qabul qilingan. Mazkur parametrlarni aniqlash uchun texnologik datchiklardan foydalaniladi. O‘lchangan ma’lumotlar boshqaruvchi qurilmaga uzatiladi va dasturiy algoritmlar asosida qayta ishlanadi.

Boshqaruvchi qurilma texnologik parametrlarning joriy holatini tahlil qilib, flotatsiya jarayonining optimal ish rejimini aniqlaydi. Natijaga asosan havo sarfi, reagentlar miqdori, pulpa sathi va ultratovush intensivligini o‘zgartirish bo‘yicha boshqaruv signallari shakllantiriladi. Ushbu signallar ijro mexanizmlariga uzatilishi natijasida texnologik jarayonning avtomatik boshqarilishi ta’minlanadi.

ISSN 3030-3907



1-rasm. Mis rudasi flotatsiyasini avtomatlashtirilgan boshqarish tizimining strukturaviy sxemasi

Ultratovush generatori flotatsiya jarayonini intensivlashtiruvchi qo‘shimcha manba sifatida ishlaydi. Ultratovush ta’sirida pulpa tarkibida mayda havo pufakchalari hosil bo‘lishi tezlashadi, zarracha yuzalarining tozalanishi yaxshilanadi hamda massa almashinish jarayonining faollashuvi kuzatiladi. Natijada mis zarrachalarining havo pufakchalari bilan birikish ehtimoli ortadi va flotatsiya samaradorligi oshadi. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimidan foydalanish texnologik parametrlarning barqarorligini ta’minlash, reagentlar sarfini kamaytirish hamda misni ajratib olish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

3. Flotatsiya jarayonining matematik modeli

Flotatsiya jarayonini avtomatlashtirilgan boshqarishda texnologik parametrlar orasidagi bog‘lanishlarni matematik jihatdan ifodalash muhim ahamiyatga ega. Jarayonning matematik modeli yordamida texnologik ko‘rsatkichlarning o‘zgarishini tahlil qilish, boshqaruv parametrlarini optimallashtirish hamda flotatsiya samaradorligini baholash mumkin bo‘ladi. Flotatsiya jarayonida misni ajratib olish darajasi pulpa tarkibi, havo sarfi, ultratovush intensivligi va reagentlar miqdoriga bog‘liq holda o‘zgaradi.

ISSN 3030-3907

Jarayonning soddalashtirilgan matematik modeli quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$\tau \frac{d\varepsilon}{dt} = -\varepsilon + K_1 Q_h + K_2 I_u + K_3 C_m$$

bu yerda: ε-misni ajratib olish darajasi, Q_h-havo sarfi, I_u- ultratovush intensivligi, C_m-pulpada mis konsentratsiyasi, K_1, K_2, K_3-tajribaviy koeffitsiyentlar, τ-jarayonning vaqt doimiysi.

Mazkur model flotatsiya jarayonining dinamik holatini ifodalaydi va texnologik parametrlarning o‘zgarishi misni ajratib olish samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlash imkonini beradi. Flotatsiya apparatidagi pulpa sathining o‘zgarishi quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$A \frac{dH}{dt} = Q_p - Q_x$$

bu yerda: H- pulpa sathi, Q_p- apparatga kiruvchi pulpa sarfi, Q_x- chiqayotgan pulpa sarfi, A-apparatning ishchi kesim yuzasi.

Ultratovush ta’sirida havo pufakchalari dispersiyasi yaxshilanadi va pufakchalar o‘lchami kamayadi. Bu holat massa almashinish yuzasining ortishiga olib keladi. Jarayonda havo pufakchalari radiusining o‘zgarishi quyidagi ifoda orqali baholanadi:

$$\frac{d}{dt}\left(\frac{1}{r}\right) = \alpha I_u - \beta r$$

bu yerda: r-havo pufakchalarining o‘rtacha radiusi, α, β- tajribaviy koeffitsiyentlar, I_u- ultratovush intensivligi.

Keltirilgan matematik model asosida flotatsiya jarayonining asosiy parametrlarini tahlil qilish, boshqaruv tizimi ishlashini modellashtirish hamda texnologik jarayonning optimal ish rejimlarini aniqlash mumkin bo‘ladi.

4. Flotatsiya jarayonini modellashtirish va tahlil qilish

Flotatsiya jarayonini avtomatlashtirilgan boshqarishda matematik model asosida texnologik parametrlarning o‘zgarishini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Modellashtirish jarayonida havo sarfi, pulpa sathi, ultratovush intensivligi va mis konsentratsiyasining flotatsiya samaradorligiga ta’siri o‘rganildi. Jarayon parametrlarini tahlil qilish matematik model asosida amalga oshirildi.

Modellashtirish davomida ultratovush intensivligining ortishi bilan havo pufakchalari dispersiyasining yaxshilanishi va pufakchalar o‘lchamining kamayishi kuzatiladi. Natijada zarrachalar bilan havo pufakchalari orasidagi kontakt yuzasi ortadi hamda mis zarrachalarining flotatsiya jarayonida ajralib chiqish ehtimoli oshadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, ultratovush ta’sirida massa almashinish jarayonining faollashuvi kuzatiladi. Bu esa flotatsiya jarayonining barqaror

ISSN 3030-3907

ishlashini ta’minlash bilan birga reagentlar sarfini kamaytirish imkonini beradi. Jarayonda ultratovush intensivligining haddan tashqari ortib ketishi esa energiya sarfining oshishiga va texnologik parametrlarning beqarorlashishiga olib kelishi mumkin.

Modellashtirish asosida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi texnologik parametrlarning optimal qiymatlarini aniqlash imkonini beradi. Bunda boshqaruvchi qurilma datchiklardan kelayotgan ma’lumotlarni qayta ishlab, havo sarfi, pulpa sathi va ultratovush intensivligini avtomatik ravishda boshqaradi.

Jarayonni modellashtirish natijalari ultratovush yordamida flotatsiya jarayonini avtomatlashtirilgan boshqarish misni ajratib olish samaradorligini oshirish, reagentlar sarfini kamaytirish va texnologik jarayonning barqarorligini ta’minlash imkonini ko‘rsatadi.

5. Tadqiqot natijalari va ularning tahlili

Olib borilgan tahlillar va matematik modellashtirish natijalari ultratovush yordamida flotatsiya jarayonini avtomatlashtirilgan boshqarish texnologik jarayon samaradorligini oshirish imkonini ko‘rsatdi. Jarayon parametrlarini real vaqt rejimida nazorat qilish va boshqarish flotatsiya apparatining barqaror ishlashini ta’minlaydi.

Modellashtirish natijalariga ko‘ra, ultratovush ta’sirida havo pufakchalari dispersiyasi yaxshilanadi hamda ularning o‘rtacha o‘lchami kamayadi. Natijada pufakchalar bilan mis zarrachalari orasidagi kontakt yuzasi ortadi va foydali komponentlarning ajralib chiqish samaradorligi oshadi. Shu bilan birga zarracha yuzalarining qisman tozalanishi reagentlarning ta’sirini kuchaytiradi.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi yordamida havo sarfi, pulpa sathi va ultratovush intensivligini optimal qiymatlarda ushlab turish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa texnologik parametrlarning keskin o‘zgarishlarini kamaytiradi va flotatsiya jarayonining barqarorligini oshiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ultratovushdan foydalanish natijasida misni ajratib olish darajasini oshirish hamda reagentlar sarfini kamaytirish mumkin. Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi operator ishtirokini kamaytiradi va texnologik jarayonni nazorat qilish aniqligini oshiradi. Matematik model asosida olingan natijalar ultratovush yordamida flotatsiya jarayonini boshqarish sanoat korxonalarida energiya va reagent sarfini kamaytirish bilan birga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini berishini ko‘rsatadi.

XULOSA.

Ushbu maqolada ultratovush yordamida mis rudasi flotatsiyasini avtomatlashtirilgan boshqarish tizimini matematik modellashtirish masalalari ko‘rib chiqildi. Flotatsiya jarayonining asosiy texnologik parametrlarini nazorat qilish va boshqarish uchun avtomatlashtirilgan tizim strukturasi taklif etildi.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot davomida flotatsiya apparati, ultratovush generatori, datchiklar va boshqaruvchi qurilmalar o‘rtasidagi funksional bog‘lanishlar tahlil qilindi. Jarayonning matematik modeli ishlab chiqilib, havo sarfi, pulpa sathi, mis konsentratsiyasi va ultratovush intensivligining flotatsiya samaradorligiga ta’siri baholandi. Modellashtirish natijalari ultratovush ta’sirida havo pufakchalari dispersiyasining yaxshilanishi, massa almashinish jarayonining faollashuvi hamda mis zarrachalarining ajralib chiqish samaradorligi ortishini ko‘rsatdi. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimidan foydalanish texnologik parametrlarning barqarorligini ta’minlash, reagentlar sarfini kamaytirish va texnologik jarayon samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan matematik model va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi flotatsiya jarayonlarini tahlil qilish, optimallashtirish hamda sanoat sharoitlarida qo‘llash uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Artikov A.A. Muhandislik texnologiyalarini yaratish va boshqarish jarayonida tizimli fikrlash. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 216 b.
2. Abramov A.A. Flotatsion boyitish usullari. – Moskva: Nedra, 2019. – 456 b.
3. Kienko L.A., Sazonov A.A. Intensifikatsiya flotatsii ultrazvukom // Obogashcheniye rud. – 2015. – №4. – S. 22–27.
4. Petrov I.V., Sidorov V.N. Avtomatizatsiya protsessov flotatsii // Gornyy jurnal. – 2018. – №7. – S. 64–69.
5. Samylin V.N., Kondratev S.A. Vliyaniye ultrazvukovoy obrabotki na flotatsionnyye svoystva mednykh mineralov // Fiziko-tekhnicheskiye problemy razrabotki poleznykh iskopayemykh. – 2018. – №2. – S. 115–121.
6. Chen G., Zhao Y., Li H. Ultrasonic-assisted flotation of copper sulfide ore // Minerals Engineering. – 2019.
7. A Review of Ultrasonic Treatment in Mineral Flotation: Mechanism and Recent Development. – 2024.
8. Flotation equipment automation and intelligent froth feature extraction in flotation process: a review. – 2025.

ISSN 3030-3907

UDK 378.147:620.22

KIMYO-TEXNOLOGIYA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA «SINTEZ GAZ KIMVOSI VA TEXNOLOGIYASI» FANINI O‘QITISHDA DUAL TA'LIM TIZIMINI JORIY ETISH METODIKASI

Xudoyberdiyev Fazlidin Isroilovich
Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Annotatsiya. Maqolada kimyo-texnologiya yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda dual ta'lim tizimining ahamiyati « Sintez gaz kimvosi va texnologiyasi» fani misolida yoritilgan. Oliy ta'lim muassasasi va kimyo ishlab chiqarish korxonalari (jumladan, «Navoiyazot» AJ) o‘rtasidagi integratsiyani ta'minlovchi pedagogik model taklif etilgan. Nazariy bilimlarni korxona laboratoriyalaridagi amaliy jarayonlar bilan bog‘lab o‘qitish, kvaziprofessional topshiriqlar (keys-stadi) va ikki tomonlama ustozlik (mentorlik) tizimini joriy etish metodikasi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Dual ta'lim, Sintez gaz kimvosi va texnologiyasi, kimyo-texnologiya, ishlab chiqarish integratsiyasi, kasbiy kompetensiya, keys-stadi, mentorlik, «Navoiyazot» AJ, virtual laboratoriya.

Abstract. The article highlights the importance of the dual education system in developing the professional competencies of chemical technology students, using the discipline "Chemistry and Technology of Synthesis Gas" as an example. A pedagogical model that ensures integration between higher education institutions and chemical manufacturing enterprises (including JSC "Navoiyazot") is proposed. The methodology of linking theoretical knowledge with practical processes in enterprise laboratories, alongside the implementation of quasi-professional tasks (case studies) and a dual mentoring system, is substantiated.

Keywords: Dual education, synthesis gas chemistry and technology, chemical technology, industrial integration, professional competence, case study, mentoring, JSC "Navoiyazot", virtual laboratory.

Аннотация. В статье рассматривается значение дуальной системы образования в развитии профессиональных компетенций студентов химико-технологических направлений на примере дисциплины «Химия и технология синтез газа». Предложена педагогическая модель, обеспечивающая интеграцию между высшим учебным заведением и химическими производственными предприятиями (в том числе АО «Навоиазот»). Обоснована методика связи теоретических знаний с практическими процессами в заводских лабораториях, внедрения квазипрофессиональных заданий (кейс-стади) и системы двустороннего наставничества (менторства).

Ключевые слова: Дуальное образование, химическая технология, интеграция производства, профессиональная компетенция, кейс-стади, менторство, АО «Навоиазот», виртуальная лаборатория.

1. KIRISH.

Bugungi kunda jahon miqyosida kimyo sanoati va mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarining jadal rivojlanishi oliy ta'lim tizimi oldiga yuqori kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lgan muhandis-texnolog kadrlarni tayyorlash vazifasini qo‘ymoqda. Ayniqsa, kimyoviy ishlab chiqarish korxonalarida texnologik jarayonlarning barqarorligi va uskunalarning xizmat qilish muddatini ta'minlashda «Sintez gaz kimvosi va texnologiyasi» fanining o‘rni beqiyosdir. Sanoat agregatlarining mahsuldorligi bevosita ularda qo‘llaniladigan zamonaviy organik, noorganik va kompozitsion materiallarning xossalarini to‘g‘ri baholay olishga bog‘liq.

Zamonaviy kimyo va gaz-kimyo sanoatida sintez-gaz (uglerod oksidi va vodorod aralashmasi) ishlab chiqarish hamda uni qayta ishlash texnologiyalari (metanol, ammiak, sintetik suyuq yoqilg‘ilar – GTL texnologiyasi) respublikamiz iqtisodiyotining drayveri hisoblanadi. O‘zbekistonning yirik korxonalari, xususan, «Navoiyazot» AJ, «Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi» va «UzGTL» zavodlarida sintez-gaz asosida mahsulot olish jarayonlari to‘liq avtomatlashtirilgan bo‘lib, yuqori bosim va katalitik reaksiyalar dinamikasi bilan xarakterlanadi.

Biroq, kimyo-texnologiya oliy ta’lim muassasalarida «Sintez-gaz kimyosi va texnologiyasi» fanini o‘qitish uslubiyotida jiddiy didaktik muammolar ko‘zga tashlanmoqda. Fanning nazariy qismi (masalan, metanning konversiyalanishi, Fisher-Tropsh sintezi kinetikasi va mexanizmlari) darsliklarda asosan statik formulalar orqali tushuntiriladi. Talabalar yirik sanoat reaktorlaridagi muvozanatning siljishi, katalizatorlarning termik destruksiyasi va texnologik xavflarni auditoriya sharoitida to‘liq tasavvur qila olmaydilar. Nazariy modellar va zavod ekotizimining real amaliyoti o‘rtasidagi ushbu uzilishni faqatgina dual ta’lim tizimini (Dual education) joriy etish hamda talabalarni bevosita ishlab chiqarish korxonasi laboratoriyalariga integratsiya qilish orqali bartaraf etish didaktik zaruriyatdir [5; 6].

Biroq, an'anaviy o‘qitish tizimida bo‘lajak muhandislarga ushbu fanni o‘qitish asosan nazariy mazmun bilan cheklanib qolmoqda. Buning natijasida oliy ta'lim muassasasini (OTM) tamomlagan yosh mutaxassislar real ishlab chiqarish muhitiga, zamonaviy zavod laboratoriyalaridagi yuqori texnologik uskunalar bilan ishlash jarayonlariga moslashishda qator qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Nazariy bilimlar va amaliy ishlab chiqarish o‘rtasidagi mavjud uzilishni bartaraf

ISSN 3030-3907

etishning eng samarali pedagogik yechimlaridan biri - ta'lim tizimiga dual ta'lim (Dual education) modelini tizimli joriy etish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilish, jumladan, kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqish va ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Shu nuqtai nazardan, kimyo-texnologiya oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim muhitini yaratish orqali talabalarning «Sintez gaz kimvosi va texnologiyasi» fani bo‘ycha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik modeli va amaliy metodikasini ishlab chiqish mazkur tadqiqotning maqsadi etib belgilandi.

2. TADQIQOT METODLARI.

Tadqiqot davomida kimyo-texnologiya yo‘nalishi talabalariga «Sintez gaz kimvosi va texnologiyasi» fanini dual tizim asosida o‘qitishning blok-modul modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelga ko‘ra, an'anaviy haftalik dars jadvali o‘rniga 50/50 nisbatidagi integratsiya tashkil etildi: talabalar 2 hafta davomida OTM bazasida sintez gaz kimyosi bo‘yicha nazariy bilimlarni egallaydilar, keyingi 2 hafta davomida esa bevosita «Navoiyazot» AJ korxonasining markaziy laboratoriyasi va sexlarida amaliy mashg‘ulotlarni bajaradilar.

Tadqiqotning metodologik asosini kasbiy ta'limda kompetensiyaviy va kvaziprofessional yondashuvlar tashkil etadi. Bunda an'anaviy laboratoriya ishlari o‘rniga zavodning real texnologik muammolariga asoslangan keys-stadi (Case-study) usuli qo‘llandi. Talabalar faoliyatini baholash ikki tomonlama mentorlik (ustoz-shogird) tizimi orqali amalga oshirildi, bunda akademik baholashni OTM professori, amaliy-texnologik ko‘nikmalarni esa korxonaning yetakchi muhandisi nazorat qildi.

"Tadqiqotimiz doirasida «Sintez-gaz kimyosi va texnologiyasi» fani mazmuni dual o‘qitish tizimining 50/50 block-modul modeliga muvofiq qayta loyihalashtirildi. Fanga ajratilgan jami dars soatlari teng ikki qismga ajratildi:

1.Akademik faza (OTM bazasida): Talabalar 2 hafta davomida konversiya jarayonlarining termodinamik qonuniyatlari, katalizatorlar klassifikatsiyasi va sintez-gaz tozalash usullarining fundamental nazariyasini o‘rganadilar.

2.Ishlab chiqarish fazasi («Navoiyazot» AJ bazasida): Keyingi 2 hafta davomida talabalar bevosita korxonaning sintez-gaz va ammiak ishlab chiqarish tsexlari markaziy laboratoriyasiga joylashtiriladi.

Metodologik yondashuv sifatida kvaziprofessional ta'lim texnologiyasi tanlab olindi. Bunda an’anaviy akademik laboratoriya ishlari o‘rniga zavod muhandislari (mentorlar) bilan birgalikda ishlab chiqilgan sanoat keyslari (Case-study) tizimi tatbiq etildi. Baholash jarayoni ikki tomonlama nazorat (akademik ustoz va sanoat muhandisi) prinsiplari asosida amalga oshirildi [7].

3. TADQIQOT NATIJALARI.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot doirasida « Sintez gaz kimvosi va texnologiyasi» fanidan dual ta'lim muhitini yaratish va talabalarning mustaqil hamda amaliy faoliyatini tashkil etish uchun «Tabiiy gaz tarkibidagi oltingugurt sintez jarayonidagi nikel katalizatorlarini zaharlashini oldini olish» mavzusida maxsus pedagogik keys ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi.

Keysning mazmuni: «Navoiyazot» AJ sintez gaz ishlab chiqarish sexidagi tabiiy gaz tarkibidagi oltingugurt sintez jarayonidagi nikel katalizatorlarini zaharlashini oldini olish muammosi talabalar oldiga vazifa qilib qo‘yildi.

Talabalarning ushbu keysni bajarishdagi faoliyatini baholash uchun quyidagi mezonlar tizimi joriy etildi (1-jadval).

Talabalar tomonidan zavod laboratoriyasida mentor rahbarligida quyidagi bosqichli natijalarga erishildi:

1. **Membranali texnologiyalar:** Gaz hali tizimga kirmasdan turib, yuqori selektivlikka ega polimer membranalar yordamida H_2S va CO_2 ni dastlabki bosqichda ajratib olish..

2. **Eksperimental natija:** Adsorbentlarni yangilash: Tarkibida rux oksididan tashqari mis va marganes bo‘lgan ko‘p komponentli adsorbentlarni qo‘llash ular pastroq haroratda ham oltingugurtni samarali yutadi.

3. **Texnologik tavsiya:** Olingan natijalar asosisda korxona uchun ham iqtisodiy tejamkor texnologik tavsiyanoma loyihasi ishlab chiqildi.

«Sintez-gaz kimyosi va texnologiyasi» fanidan dual ta’lim sharoitida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida «Navoiyazot» AJ realligiga moslashtirilgan quyidagi kvaziprofessional o‘quv keysi ishlab chiqildi va tajriba guruhlari dars jarayoniga kiritildi:

1-jadval

Dual ta'limda talabalar kasbiy kompetensiyalarini baholash indikatorlari

	Baholanadigan ko‘nikma (Indikator)	**Baholovchi mas'ul**	**Baholash usuli**
1	Sintez gaz kimyosi bo‘yicha nazariy bilim	OTM professori	Keys himoyasi (prezentatsiya)
2	Zavod laboratoriya uskunalari bilan ishlash mahorati	Korxona muhandisi	Amaliy jarayonni kuzatish
3	Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasiga rioya qilish	Korxona muhandisi	Jurnal va tartibga amal qilish

ISSN 3030-3907

4	Olingan natijalarni matematik-statistik qayta ishlash	OTM professori	Hisobot va tahlil sifati

Sanoat keysining nomi: «Sintez-gaz olish reaktorida nikel asosli katalizatorlarning termik faolsizlanishi (karbonizatsiyasi) muammosini tahlil qilish ва optimal texnologik rejimni aniqlash»

- Zavod konteksti (Muammo): «Navoiyazot» AJ metanning bug‘li konversiyasi qurilmasida reaktor harorati me’yordan oshishi va vodorod/uglerod oksidi nisbatining buzilishi natijasida nikel katalizatori yuzasida koks (uglerod) qatlami hosil bo‘lmoqda. Bu esa katalizatorning faolligini pasaytirib, sintez-gaz unumdorligini keskin kamaytirmoqda va zavodga iqtisodiy zarar keltirmoqda.

- Talabalar oldiga qo‘yilgan pedagogik vazifa: Talabalar kichik muhandislik guruhlarida zavod laboratoriyasi ustozi (mentor) rahbarligida koksga chidamli modifikatsiyalangan katalizator namunalarining fizik-kimyoviy xossalarini tahlil qiladilar. Reaktorga berilayotgan suv bug‘i va metan nisbatini (H2O/CH4) optimallashtirish orqali koks hosil bo‘lishini to‘xtatuvchi texnologik parametrlarni hisoblaydilar.

- Kompetensiyaviy natija: Talabalar zavod laboratoriyasidagi avtomatlashtirilgan gaz-xromatografiya qurilmalarida olingan sintez-gaz tarkibini GOST standartlari bo‘yicha mustaqil tahlil qilib, korxona texnologlari uchun koks hosil bo‘lishini minimallashtiruvchi tavsiyanoma loyihasini himoya qildilar.

Ushbu keysning bajarilishi talabalarning faqatgina passiv tinglovchi emas, balki real ishlab chiqarish muammolariga muhandislik yechimini topa oladigan faol subyektga aylanishini ta’minladi.

4. MUHOKAMA.

Ushbu ishlab chiqilgan ishlab chiqarish keysi va dual o‘qitish modeli an'anaviy laboratoriya mashg‘ulotlaridan sezilarli darajada farq qiladi. An'anaviy tizimda talaba faqat tayyor ko‘rsatma bo‘yicha tajriba o‘tkazgan bo‘lsa, dual ta'lim sharoitida real zavod muammosiga pedagogik va muhandislik yondashuvi birlashtirildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, nazariyaning zavod laboratoriyasidagi real qurilmalar (xromatograflar, spektrometrlar) bilan integratsiyalanishi talabalarda vizual va amaliy xotirani kuchaytiradi. Korxona muhandisining bevosita jarayonga jalb etilishi esa talabalarda sohaviy mas'uliyat, jamoada ishlash va mehnat muhofazasi madaniyatini rivojlantirishga xizmat qildi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, «Sintez-gaz kimyosi va texnologiyasi» fanini dual tizim doirasida o‘qitish an’anaviy ta’lim uslubiyotiga qaraganda yuqori didaktik samaradorlikka ega. Sintez-gaz ishlab chiqarish jarayonlari (metan konversiyasi, sintez-gazni CO2 dan tozalash) yuqori harorat (800-900°C)

ISSN 3030-3907

va bosim ostida sodir bo‘lganligi sababli, ularni oddiy OTM auditoriyasida o‘rganish talabalarda vizual mantiqiy xotirani shakllantira olmas edi [1, 3].

Dual ta’lim sharoitida talaba zavod laboratoriyasidagi real xromatograflar, avtomatlashtirilgan datchiklar va boshqaruv pultlari bilan bevosita ishlash orqali jarayonning kinetikasini amaliy his qiladi. Muhandis-mentorning jarayonga jalb etilishi talabalarda sanoat mas’uliyati, guruhda ishlash qobiliyati va eng muhimi — yuqori zaharli gazlar (uglerod monoksidi) bilan ishlashda kimyoviy xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qildi.

5. XULOSA.

Oliy ta'lim muassasalarida « Sintez gaz kimvosi va texnologiyasi» fanini o‘qitish jarayoniga dual ta'lim tizimining joriy etilishi quyidagi yakuniy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. «OTM - Kimyoviy ishlab chiqarish korxonasi» integratsiyalashgan modeli talabalarning nazariy bilimlarini bevosita zavod muhiti bilan bog‘lab, oliy ta'lim va mehnat bozori o‘rtasidagi uzilishni bartaraf etadi.

8. Hwu, H. H., Foster, D., Ramsay, C., Dick, A., & Li, N. (2026). Identifying competencies of digitally fluent educators in higher education: A Delphi study. Education Sciences, 16(2), 342.
9. Liu, V., Latif, E., & Zhai, X. (2025). Advancing education through tutoring systems: A systematic literature review. arXiv. https://arxiv.org/abs/2503.09748
10. Gupta, A., & MacLellan, C. (2025). Intelligent tutors beyond K–12: An observational study of adult learner engagement and academic impact. arXiv. https://arxiv.org/abs/2502.16613
11. Rajasinghe, D., & Fadipe, T. (2026). Course tutoring, coaching and mentoring for learner development in higher education. Human Resource Development International. https://doi.org/10.1080/13678868.2026.2633994
12. Lin, P., Zhou, Q., Ma, J., Wang, X., & Wu, J. (2025). Pedagogical training and tutor effectiveness in higher education. Humanities and Social Sciences Communications, 12, 723. https://doi.org/10.1057/s41599-025-04860-6
13. Voicu, C. D. (2025). Academic and psychosocial support through tutoring and mentoring in higher education. Journal of Education, Society and Multiculturalism, 6(2), 41–57. https://doi.org/10.2478/jesm-2025-0014
14. Gurung, A., Gao, G., Gutterman, J., Thomas, D. R., Gupta, S., Branstetter, L., Brunskill, E., Aleven, V., & Koedinger, K. R. (2026). Improving hybrid human-AI tutoring by differentiating human tutor roles based on student needs. arXiv. https://arxiv.org/abs/2605.11155

MAYDALANGAN O‘SIMLIK QOLDIQLARINI AVTOMATLASHTIRILGAN JOYLASHTIRISH UCHUN ADAPTIV KOMBINATSIYALASHGAN UZEL PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH MUAMMOLARI

Tog‘ayeva Umida G‘ayratovna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Mexatronika va robototexnika yo‘nalishi magistrant talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maydalangan o‘simlik qoldiqlarini avtomatlashtirilgan holda joylashtirish uchun qo‘llaniladigan adaptiv kombinatsiyalashgan uzel parametrlarini optimallashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida biomassa qoldiqlarini taqsimlash jarayonining samaradorligiga ta’sir qiluvchi konstruktiv va texnologik omillar tahlil qilinib, mexanizmning ish unumdorligini oshirish hamda energiya sarfini kamaytirishga xizmat qiluvchi optimal parametrlar aniqlangan. Shuningdek, biomassa oqimining harakati va taqsimlanish aniqligi matematik modellashtirish asosida baholanib, taklif etilgan adaptiv tizimning qishloq xo‘jaligi texnikalarida qo‘llash samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: maydalangan o‘simlik qoldiqlari, biomassa, adaptiv mexanizm, kombinatsiyalashgan uzel, avtomatlashtirilgan joylashtirish, parametrlarni optimallashtirish, biomassa taqsimlash, mexatronik tizim, aqlli qishloq xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi texnikasi.

Abstract. This article investigates the optimization problems of the parameters of an adaptive combined unit used for the automated placement of shredded plant residues. During the research, constructive and technological factors affecting the efficiency of biomass residue distribution were analyzed, and optimal parameters aimed at increasing the productivity of the mechanism and reducing energy consumption were determined. In addition, the movement of biomass flow and the accuracy of its distribution were evaluated based on mathematical modeling, and the efficiency of the proposed adaptive system for application in agricultural machinery was substantiated.

Keywords: shredded plant residues, biomass, adaptive mechanism, combined unit, automated placement, parameter optimization, biomass distribution, mechatronic system, smart agriculture, agricultural machinery.

Аннотация. В данной статье исследованы вопросы оптимизации параметров адаптивного комбинированного узла, применяемого для автоматизированного размещения измельчённых растительных остатков. В ходе исследования были проанализированы конструктивные и технологические факторы, влияющие на эффективность распределения биомассы, а также определены оптимальные параметры, направленные на

повышение производительности механизма и снижение энергозатрат. Кроме того, на основе математического моделирования были оценены движение потока биомассы и точность её распределения, а также обоснована эффективность применения предложенной адаптивной системы в сельскохозяйственной технике.

Ключевые слова: измельчённые растительные остатки, биомасса, адаптивный механизм, комбинированный узел, автоматизированное размещение, оптимизация параметров, распределение биомассы, мехатронная система, умное сельское хозяйство, сельскохозяйственная техника.

KIRISH.

Jahon miqyosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida resurs tejamkor va ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, hosildan keyin dalalarda qoladigan o‘simlik qoldiqlarini qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish masalalari tuproq unumdorligini oshirish, namlikni saqlash hamda organik moddalarning tabiiy aylanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda maydalangan biomassa qoldiqlarini avtomatlashtirilgan holda boshqarish va joylashtirishga mo‘ljallangan mexatronik hamda aqlli texnologiyalarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Amaliyotda qo‘llanilayotgan mavjud texnik vositalar o‘simlik qoldiqlarini bir tekis taqsimlash, biomassa oqimini nazorat qilish hamda energiya sarfini kamaytirish borasida yetarli samaradorlikni ta’minlamaydi. Natijada biomassa notekis joylashishi, texnologik jarayonning barqaror ishlamasligi va qo‘shimcha energiya yo‘qotishlari kuzatiladi. Shu sababli maydalangan o‘simlik qoldiqlarini avtomatlashtirilgan holda samarali joylashtirish imkonini beruvchi adaptiv kombinatsiyalashgan uzellarni ishlab chiqish va ularning optimal parametrlarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotda maydalangan o‘simlik qoldiqlarini taqsimlash jarayonining konstruktiv va texnologik xususiyatlari o‘rganilib, adaptiv kombinatsiyalashgan uzelning ish samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy parametrlar tahlil qilinadi. Biomassa oqimining harakat qonuniyatlari, taqsimlanish aniqligi hamda energiya sarfiga ta’sir qiluvchi omillar matematik modellashtirish va texnologik tahlil asosida baholanadi. Tadqiqot natijalari qishloq xo‘jaligi texnikalarining funksional samaradorligini oshirish, aqlli qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini rivojlantirish hamda resurs tejamkor agrotexnologiyalarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor va ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish bugungi kunda agrar sohaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri

ISSN 3030-3907

hisoblanadi. Ayniqsa, hosildan keyin dalalarda qoladigan o‘simlik qoldiqlarini samarali boshqarish, ularni maydalash hamda dalaga bir tekis joylashtirish agrotexnologik jarayonlarning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. O‘simlik qoldiqlaridan oqilona foydalanish tuproq unumdorligini saqlash, namlikning bug‘lanishini kamaytirish, organik moddalarning tabiiy aylanishini ta’minlash va ekologik barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan maydalangan biomassa qoldiqlarini avtomatlashtirilgan holda joylashtirishga mo‘ljallangan adaptiv kombinatsiyalashgan uzellarni ishlab chiqish hamda ularning optimal parametrlarini aniqlash zamonaviy qishloq xo‘jaligi mexanizatsiyasining dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda biomassa qoldiqlarini boshqarish tizimlarining samaradorligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, A.N.Medvedev o‘z ilmiy izlanishlarida “o‘simlik qoldiqlarini qayta ishlash va ularni boshqarish texnologiyalarining takomillashuvi tuproq degradatsiyasining oldini olish hamda agroekotizimning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi”, deb ta’kidlaydi [1]. Olimning fikricha, maydalangan biomassa oqimini nazorat qiluvchi mexanizmlarning texnologik jihatdan mukammal ishlab chiqilishi qoldiqlarning dalaga bir tekis taqsimlanishini ta’minlaydi. Bu esa o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun qulay agrobiologik muhit yaratishga imkon beradi.

Biomassa oqimining mexanik harakat qonuniyatlarini o‘rgangan V.P.Goryachkin qishloq xo‘jaligi mashinalarining samaradorligi asosan ularning konstruktiv parametrlariga bog‘liq ekanligini qayd etadi [2]. Tadqiqotchining fikricha, maydalangan biomassa bilan ishlovchi mexanizmlarda aylanish tezligi, uzatish mexanizmi geometriyasi, biomassa oqimining zichligi va taqsimlash burchagi kabi parametrlar texnologik jarayonning barqaror ishlashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Parametrlarning noto‘g‘ri tanlanishi biomassa oqimining notekis harakatlanishiga, energiya sarfining ortishiga va mexanizm ish unumdorligining pasayishiga olib keladi. Shu sababli adaptiv boshqaruv elementlari bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan uzellar biomassa oqimini real ish sharoitiga mos ravishda boshqarish imkonini beradi.

Amerikalik olim R.C.Hansen aqlli qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini tadqiq etar ekan, “avtomatlashtirilgan biomassa taqsimlash tizimlari inson omili bilan bog‘liq texnologik xatolarni kamaytiradi hamda energiya samaradorligini sezilarli darajada oshiradi”, degan fikrni ilgari suradi [3]. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, zamonaviy mexatronik tizimlar biomassa oqimining holatini sensorlar yordamida nazorat qilish va avtomatik boshqarish orqali texnologik jarayonning aniqligini oshiradi. Ayniqsa, maydalangan o‘simlik qoldiqlarini katta

ISSN 3030-3907

maydonlarga bir xil zichlikda joylashtirishda adaptiv boshqaruv tizimlari muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Biomassa oqimini avtomatik boshqarish masalalarini tadqiq qilgan T.Sato “sensorli monitoring va adaptiv boshqaruv elementlari biomassa oqimining dinamik o‘zgarishlarini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi”, deb qayd etadi [4]. Olimning ilmiy qarashlariga ko‘ra, biomassa oqimidagi zichlik o‘zgarishlari va mexanik qarshiliklarning ortishi texnologik jarayonning barqarorligiga salbiy ta’sir qiladi. Shu sababli biomassa uzatish tizimlarida moslashuvchan boshqaruv algoritmlaridan foydalanish mexanizmning ish unumdorligini oshirish bilan birga energiya yo‘qotishlarini kamaytiradi.

Mahalliy tadqiqotchi Sh.Turdiyevning ilmiy ishlarida esa qishloq xo‘jaligi texnikalarini avtomatlashtirish orqali resurs tejamkor agrotexnologiyalarni rivojlantirish masalalari keng yoritilgan [5]. Olimning fikricha, biomassa bilan ishlovchi adaptiv kombinatsiyalashgan uzellarning konstruktiv parametrlarini optimallashtirish orqali maydalangan o‘simlik qoldiqlarini sifatli taqsimlash, texnikaning ish unumdorligini oshirish va yonilg‘i sarfini kamaytirish mumkin. Bu esa zamonaviy aqlli qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini rivojlantirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy qarashlar va tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maydalangan o‘simlik qoldiqlarini avtomatlashtirilgan holda joylashtirish uchun mo‘ljallangan adaptiv kombinatsiyalashgan uzelning samaradorligi ko‘plab konstruktiv va texnologik parametrlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Xususan, biomassa oqimining harakat tezligi, uzatish mexanizmining aylanish chastotasi, taqsimlash burchagi, ishchi organlarning geometrik o‘lchamlari hamda biomassa zichligi texnologik jarayonning sifat ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir qiladi. Ushbu parametrlarni ilmiy asosda optimallashtirish biomassa qoldiqlarini bir tekis joylashtirish, energiya sarfini kamaytirish, texnologik jarayonning barqarorligini oshirish hamda qishloq xo‘jaligi texnikalarining funksional samaradorligini yuksaltirish imkonini beradi. Shu bois adaptiv kombinatsiyalashgan uzel parametrlarini optimallashtirish masalasi zamonaviy agrar muhandislik va mexatronika yo‘nalishidagi muhim ilmiy tadqiqotlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalar, aqlli boshqaruv tizimlari hamda resurs tejamkor mexanizmlarni joriy etishga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining kamayishi, tuproq degradatsiyasi va energiya sarfining ortishi biomassa qoldiqlaridan samarali foydalanishni agrar sohaning ustuvor vazifalaridan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, maydalangan o‘simlik qoldiqlarini avtomatlashtirilgan holda boshqarish va dalaga bir tekis joylashtirish

ISSN 3030-3907

texnologiyalari tuproq unumdorligini saqlash, organik moddalar miqdorini oshirish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim omil sifatida qaralmoqda. Shu bois biomassa oqimini real vaqt rejimida nazorat qiluvchi adaptiv kombinatsiyalashgan uzellarni ishlab chiqish va ularning optimal parametrlarini aniqlash zamonaviy qishloq xo‘jaligi mexatronikasining dolzarb ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar va tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maydalangan o‘simlik qoldiqlarini avtomatlashtirilgan holda joylashtirish jarayonida qo‘llaniladigan adaptiv kombinatsiyalashgan uzellarning konstruktiv hamda texnologik parametrlarini optimallashtirish qishloq xo‘jaligi texnikalarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biomassa oqimining harakat tezligi, uzatish mexanizmi parametrlarining mosligi, taqsimlash burchagi hamda biomassa zichligini nazorat qilish texnologik jarayonning barqaror ishlashini ta’minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, adaptiv boshqaruv elementlari bilan jihozlangan mexatronik tizimlardan foydalanish biomassa qoldiqlarini dalaga bir tekis taqsimlash, energiya sarfini kamaytirish va texnikaning ish unumdorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalar tuproq unumdorligini saqlash, organik moddalarning tabiiy aylanishini yaxshilash hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashda ham muhim amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- ✓ maydalangan o‘simlik qoldiqlarini joylashtirishda adaptiv boshqaruv tizimlari bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan uzellardan foydalanishni kengaytirish;
- ✓ biomassa oqimining zichligi va harakat tezligini avtomatik nazorat qiluvchi sensorli monitoring tizimlarini joriy etish;
- ✓ energiya tejamkor mexatronik uzellarni ishlab chiqish va ularning konstruktiv parametrlarini optimallashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish;
- ✓ aqlli qishloq xo‘jaligi texnologiyalari asosida biomassa taqsimlash jarayonlarini raqamlashtirish;
- ✓ adaptiv kombinatsiyalashgan uzellarning dala sharoitidagi samaradorligini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini keng ko‘lamda tashkil etishdan iborat. Ushbu takliflarni amaliyotga joriy etish qishloq xo‘jaligi texnikalarining funksional imkoniyatlarini kengaytirish, resurs tejamkor agrotexnologiyalarni rivojlantirish hamda zamonaviy aqlli qishloq xo‘jaligi tizimlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N. Medvedev. *Biomass Processing Technologies in Agriculture*. – Moscow: Agropromizdat, 2021. – 286 p.
2. V. P. Goryachkin. *Agricultural Machines and Technological Processes*. – Moscow: Kolos, 2020. – 312 p.
3. R. C. Hansen. *Smart Agriculture and Biomass Distribution Systems*. – New York: Springer, 2022. – 274 p.
4. T. Sato. *Adaptive Control Systems in Agricultural Engineering*. – Tokyo: Techno Press, 2021. – 248 p.
5. Sh. Turdiev. *Qishloq xo‘jaligi texnikalarida avtomatlashtirish tizimlari*. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2023. – 198 b.
6. J. F. Reid. *Precision Agriculture and Automation Technologies*. – London: CRC Press, 2021. – 341 p.
7. S. A. Babayev. *Agrotexnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash asoslari*. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2022. – 224 b.
8. M. Kutz. *Mechanical Engineering for Agricultural Systems*. – New Jersey: Wiley, 2020. – 367 p.
9. U. Umurzakov. *Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalar*. – Toshkent: “Fan”, 2021. – 256 b.
10. P. McKyes. *Agricultural Engineering Fundamentals*. – Montreal: McGill University Press, 2019. – 318 p.

ISSN 3030-3907

YO‘LOVCHI VAGON O‘RINDIQLARI TEBRANISHLARINI KAMAYTIRISH UCHUN KONSTRUKTIV YECHIMLAR ISHLAB CHIQISH

Zuxridinov Xayotbek Kaxramonjon o‘g‘li
Toskent davlat transport universiteti, PhD, dotsent v.b.
Email: hayotbek6868@mail.ru
G‘aniyev Farruxbek Bobir o‘g‘li
Toskent davlat transport universiteti, mustaqil izlanuvchisi
Email: farruxbekganiyev@gmail.com
Abdujaborov Otabek Ibroxim o‘g‘li
Toskent davlat transport universiteti, mustaqil izlanuvchisi
Email: mc_otabek93@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada yo‘lovchi vagonlarida yuzaga keladigan tebranishlarning inson organizmiga salbiy ta’siri, ularning kelib chiqish sabablari hamda tebranishlarni kamaytirishga qaratilgan konstruktiv yechimlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida yo‘lovchi o‘rindiqlarining konstruksion elementlari, amortizatsion tizimlari va vibratsiyani yutuvchi materiallarning samaradorligi o‘rganildi. Shuningdek, zamonaviy elastomer materiallar, pnevmatik amortizatorlar va ergonomik konstruksiyalar asosida takomillashtirilgan o‘rindiq modeli taklif etildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, taklif etilgan konstruktiv yechimlar vibratsiya darajasini sezilarli kamaytirib, yo‘lovchilar uchun qulay va xavfsiz sharoit yaratadi.

Kalit so‘zlar: vibratsiya, yo‘lovchi vagoni, o‘rindiq konstruktsiyasi, amortizator, ergonomika, tebranish, elastomer materiallar, temir yo‘l transporti.

Abstract. This article analyzes the negative impact of vibrations occurring in passenger cars on the human body, the causes of their occurrence, and constructive solutions aimed at reducing vibrations. During the study, the effectiveness of structural elements of passenger seats, shock absorption systems, and vibration-absorbing materials was studied. An improved seat model based on modern elastomeric materials, pneumatic shock absorbers, and ergonomic designs was also proposed. The results obtained showed that the proposed structural solutions significantly reduce vibration levels, creating comfortable and safe conditions for passengers.

Keywords: vibration, passenger car, seat design, shock absorber, ergonomics, vibration, elastomeric materials, railway transport.

Аннотация. В данной статье анализируется негативное воздействие вибраций, возникающих в пассажирских вагонах, на организм человека, причины их возникновения, а также конструктивные решения, направленные на снижение вибраций. В ходе исследования была изучена

эффективность конструктивных элементов пассажирских сидений, амортизационных систем и вибропоглощающих материалов. Также была предложена усовершенствованная модель сиденья на основе современных эластомерных материалов, пневматических амортизаторов и эргономичных конструкций. Полученные результаты показали, что предложенные конструктивные решения значительно снижают уровень вибрации, создавая комфортные и безопасные условия для пассажиров.

Ключевые слова: вибрация, пассажирский вагон, конструкция сидений, амортизатор, эргономика, вибрация, эластомерные материалы, железнодорожный транспорт.

KIRISH.

Temir yo‘l transportida yo‘lovchilar xavfsizligi va qulayligini ta’minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Harakat davomida relslarning notekisligi, g‘ildirak juftliklarining dinamik harakati, vagon kuzovining tebranishlari hamda mexanik uzatmalar natijasida vibratsiyalar hosil bo‘ladi. Ushbu tebranishlar yo‘lovchi o‘rindiqlari orqali inson organizmiga uzatiladi va uzoq muddatli safarlar davomida charchoq, umurtqa pog‘onasi zo‘riqishi, mushaklarning taranglashuvi hamda umumiy noqulayliklarni yuzaga keltiradi.

Hozirgi vaqtda ko‘plab yo‘lovchi vagonlarida foydalanilayotgan o‘rindiq konstruktsiyalari vibratsiyani to‘liq yutish imkoniyatiga ega emas. Ayniqsa, eski tipdagi metall karkasli o‘rindiqlarda amortizatsiya tizimlarining yetarli darajada samarali emasligi kuzatiladi. Shu sababli yo‘lovchi o‘rindiqlarining konstruksiyasini takomillashtirish, vibratsiyani kamaytiruvchi yangi texnik yechimlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi yo‘lovchi vagon o‘rindiqlarida hosil bo‘ladigan tebranishlarni kamaytirishga xizmat qiluvchi konstruktiv yechimlarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini baholashdan iborat [1,12].

TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI. Tadqiqot davomida yo‘lovchi vagonlarida uchraydigan vibratsiya manbalari va ularning o‘rindiq konstruktsiyasiga ta’siri tahlil qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida standart yo‘lovchi vagon o‘rindiqlari hamda takomillashtirilgan amortizatsion tizimga ega eksperimental model tanlandi. Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

- yo‘lovchi vagonlaridagi vibratsiya manbalarini aniqlash;
- mavjud o‘rindiq konstruktsiyalarining texnik tahlili;
- vibratsiyani kamaytiruvchi materiallar va amortizatsion tizimlarni tanlash;
- takomillashtirilgan konstruksiya modelini ishlab chiqish;
- vibratsiya darajasini qiyosiy tahlil qilish.

ISSN 3030-3907

Tadqiqotda elastomer qoplamalar, poliuretan asosidagi yumshoq qatlamlar, spiral prujinalar hamda pnevmatik amortizatorlardan foydalanildi. Vibratsiya o‘lchovlari maxsus vibrometr uskunalari yordamida amalga oshirildi (1-ram). Tebranish tezlanishini baholash uchun quyidagi umumiy formula asosida hisob-kitoblar olib borildi [2,13]:

$$a = \Omega^2 * A$$

bu yerda: a — tebranish tezlanishi, **Ω** — burchak tezligi, A — tebranish amplitudasi. Vibratsiya darajasining inson organizmiga ta’siri ISO 2631 xalqaro standarti asosida baholandi.



1-rasm. Mavjud yo‘lovchi vagon o‘rindig‘i dizayni va kamchiliklari

Yo‘lovchi vagonlarida o‘rindiqqa uzatiladigan tebranishlar yo‘lovchi komfortining pasayishiga, uzoq muddatli safarlarda ortiqcha charchoqning yuzaga kelishiga hamda o‘rindiq tayanch elementlarida dinamik yuklamalarning ortishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, vertikal va qisman ko‘ndalang tebranishlar yo‘lovchi tanasining biomekanik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, o‘tirish qulayligini kamaytiradi [4]. Shu bois yo‘lovchi o‘rindig‘i konstruktsiyasini vibratsiya ta’siriga nisbatan yanada barqaror, ergonomik va ekspluatatsion jihatdan samarali ko‘rinishga keltirish muhim ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Mazkur muammoni hal etish maqsadida yo‘lovchi o‘rindig‘i uchun takomillashtirilgan uch bosqichli vibratsiyaga qarshi tizim taklif etiladi. Ushbu tizimning mohiyati tebranishlarni bir vaqtning o‘zida emas, balki bosqichma-bosqich kamaytirish tamoyiliga asoslanadi. Natijada vibratsiya energiyasi turli konstruktiv qatlam va tugunlarda yutiladi, so‘ndiriladi va yo‘lovchiga uzatiladigan tebranish amplitudasi sezilarli darajada kamayadi [5]. Taklif

ISSN 3030-3907

etilayotgan yechim tarkibiga:elastik ajratish tizimi, 4 ta kichik hajmli gidravlik amortizator-tebranish so‘ndirgichi, ko‘p qatlamli yumshoq qism va tortib chiqariluvchi oyoq qo‘ygich kiradi (2-rasm).



2-rasm. Yo‘lovchi vagon o‘rindig‘ida tebranishni kamaytirishning takomillashtirilgan uch bosqichli tizimi.

TADQIQOT NATIJALARI. O‘tkazilgan tajribalar natijasida standart o‘rindiqlar va takomillashtirilgan konstruksiyaga ega o‘rindiqlar o‘rtasida sezilarli farqlar aniqlandi. Tadqiqot davomida quyidagi natijalar olindi:


- metall karkasli oddiy o‘rindiqlarda vertikal vibratsiya yuqori darajada kuzatildi;
- elastomer qatlamlardan foydalanilganda vibratsiya amplitudasi o‘rtacha 20–25 % ga kamaydi;
- pnevmatik amortizatorli konstruktsiyada tebranish darajasi 35–40 % gacha pasaydi;
- ergonomik suyanchiq va yumshoq poliuretan qatlamlari yo‘lovchi tanasiga tushadigan bosimni kamaytirdi;
- takomillashtirilgan o‘rindiq uzoq masofali safarlarda qulaylikni sezilarli oshirdi.

Taklif etilgan konstruktiv yechim quyidagi asosiy elementlardan iborat bo‘ldi vibratsiyani yutuvchi elastik taglik, pnevmatik amortizator tizimi, ko‘p qatlamli yumshoq qoplama, ergonomik shakldagi orqa suyanchiq, metall karkasning dinamik mustahkamligi oshirilgan konstruktsiyasi [6,14]. Natijalar

ISSN 3030-3907

shuni ko‘rsatdiki, yangi konstruktsiya vibratsiya energiyasining katta qismini yutib, inson organizmiga uzatiladigan mexanik tebranishlarni kamaytiradi.

Taklif etilayotgan o‘rindiq konstruktsiyasini takomillashtirish tizimi (uch bosqichli vibratsiyaga qarshi ilmiy-texnik yechim*).***1-bosqich.*** Elastik ajratish tizimi. Taklif etilayotgan tizimning birinchi bosqichida o‘rindiq konstruktsiyasini vagon poliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qattiq (rigid) ulashdan voz kechiladi. Buning o‘rniga o‘rindiqning tayanch qismidagi to‘rtta mahkamlash nuqtasida rezina silentbloklar qo‘llaniladi. Mazkur elastik elementlar pol va o‘rindiq tayanchi orasida oraliq elastik qatlam hosil qilib, tebranishlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tishini cheklaydi. Nazariy jihatdan, elastik ajratish yuqori chastotali tebranishlarni filtrlashda ayniqsa samarali hisoblanadi. Silentblok deformatsiyalanish jarayonida vibratsiya energiyasining ma’lum qismini yutadi, buning natijasida o‘rindiq tayanchiga uzatiladigan nisbiy amplituda kamayadi. Shu bilan birga, elastik qatlam lokal zarba yuklamalarini yumshatib, konstruktsiyada rezonansli javob kuchayish ehtimolini pasaytiradi [7,15]. Amaliy nuqtai nazardan, ushbu bosqich o‘zi alohida qo‘llanilganda ham vibratsiya uzatilishini o‘rtacha 30–40 % gacha kamaytirish salohiyatiga ega. Bu esa keyingi bosqichlarning ishlashi uchun qulay boshlang‘ich sharoit yaratadi va umumiy tizim samaradorligini oshiradi (3-rasm).



3-rasm. O‘rindiq tayanchining pol bilan rezina silentbloklar orqali elastik ajratilishi.

2-bosqich. Mini gidravlik tebranish so‘ndirgichlari tizimi. Taklif etilayotgan konstruktiv yechimning eng muhim qismi ikkinchi bosqichda amalga oshiriladi. Mazkur bosqichda o‘rindiq tayanch konstruksiyasiga 4 ta kichik hajmli gidravlik amortizator-tebranish so‘ndirgichi o‘rnatiladi. Ushbu so‘ndirgichlar tayanchning to‘rtta asosiy nuqtasida simmetrik tarzda joylashtiriladi va o‘rindiqqa ta’sir qiluvchi dinamik yuklamalarni pasaytirishga xizmat qiladi [8]. Gidravlik amortizatorlarning ishlash prinsipi porshenning silindr ichida harakatlanishi va ishchi suyuqlikning tor kanallar hamda klapanlar orqali oqib o‘tishi jarayoniga asoslanadi. Bunda tebranish energiyasi dissipasiyalanib, ya’ni mexanik energiya

ISSN 3030-3907

qisman issiqlik energiyasiga aylanadi. Shu sababli mazkur elementlar nafaqat zarba ta’sirini yumshatadi, balki tebranishning qayta kuchayishini ham cheklaydi. Ayniqsa, gidravlik so‘ndirgichlarning ustunligi shundaki, ular prujinali tizimlar kabi ortiqcha qayta tebranish hosil qilmaydi, balki tebranishni nazoratli tarzda so‘ndiradi. To‘rtta ixcham gidravlik amortizatorni qo‘llashning asosiy afzalligi — ularning o‘rindiq konstruktsiyasiga ortiqcha gabarit yoki massaviy yuk bermasdan, vibratsiya va zarba energiyasini samarali pasaytirishidadir. Natijada zarba impulslari yumshaydi, qayta tebranish sezilarli kamayadi, o‘rindiqqa tushadigan dinamik yuklama pasayadi, o‘rindiq tayanchining ekspluatatsion barqarorligi ortadi. Shu bois ikkinchi bosqich mazkur tizimning asosiy so‘ndirish mexanizmi sifatida qaraladi (4-rasm).

3-bosqich. O‘rindiq ichki tuzilmasini optimallashtirish va ergonomik qulayligini oshirish. Uchinchi bosqichda yo‘lovchi bilan bevosita kontaktda bo‘ladigan o‘rindiqning ichki yumshoq qismi takomillashtiriladi. Taklif etilayotgan ichki tuzilma uch qatlamli kompozitsion yechim asosida shakllantiriladi yuqori qoplama materiali, memory foam qatlam, zich porolon asos [9,10].

Mazkur ko‘p qatlamli tizim bosimni bir tekis taqsimlash va mikro-vibratsiyalarni kamaytirish nuqtai nazaridan samarali hisoblanadi. Yuqori qoplama materiali yuzaki qulaylikni ta’minlaydi va mayda tebranishlarni yumshatadi. Memory foam qatlami yo‘lovchi tanasi shakliga moslashib, bosimning notekis konsentratsiyasini kamaytiradi hamda o‘rta chastotali tebranishlarni yutadi.



4-rasm. O‘rindiq tayanch qismida qo‘llanilgan 4 ta kichik hajmli gidravlik amortizator-tebranish so‘ndirgichi.

ISSN 3030-3907

Zich porolon asos esa butun tizimga shakliy barqarorlik berib, past chastotali tebranishlarning uzatilishini kamaytiradi. Bundan tashqari, o‘rindiq konstruktsiyasiga tortib chiqariluvchi oyoq qo‘ygich kiritilishi taklif etiladi. Ushbu element yo‘lovchi oyoqlarining qulay joylashishini ta’minlaydi, tananing o‘tirishdagi biomekanik holatini yaxshilaydi, mushaklardagi ortiqcha zo‘riqishni kamaytiradi va umumiy ergonomik qulaylikni oshiradi. Ayniqsa, uzoq masofali safarlarda oyoq qo‘ygichning mavjudligi yo‘lovchi komfortining sezilarli oshishiga xizmat qiladi [11]. Demak, uchinchi bosqich nafaqat vibratsiyani yutish, balki o‘rindiqning ergonomik va funksional sifatlarini oshirish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega (5-rasm).

NATIJALAR VA ILMIY MUHOKAMA. Taklif etilgan uch bosqichli tizim kompleks tarzda qo‘llanilganda o‘rindiq konstruktsiyasining vibratsion, ergonomik va ekspluatatsion xususiyatlari sezilarli darajada yaxshilanadi. Birinchi bosqichda tebranishning boshlang‘ich uzatilishi elastik ajratish hisobiga cheklanadi, ikkinchi bosqichda asosiy dinamik energiya gidravlik amortizatorlar yordamida so‘ndiriladi, uchinchi bosqichda esa yo‘lovchi sezadigan qoldiq mikro-vibratsiyalar ko‘p qatlamli yumshoq qism tomonidan yutiladi.



5-rasm. O‘rindiq ichki tuzilmasining ko‘p qatlamli optimallashtirilgan ko‘rinishi va tortib chiqariluvchi oyoq qo‘ygich.

Mazkur kompleks yondashuv natijasida quyidagi muhim injenerlik natijalarga erishish mumkin ya’ni vibratsiya amplitudasi sezilarli kamayadi, zarba ta’siri minimallashtiriladi, rezonans hodisasi yuzaga kelish ehtimoli pasayadi, o‘rindiq va tayanch elementlariga tushadigan dinamik yuklamalar kamayadi, o‘rindiq hamda unga bog‘liq konstruktiv elementlarning xizmat muddati uzayadi,

ISSN 3030-3907

yo‘lovchi komforti va ergonomik qulaylik darajasi oshadi. Shu bilan birga, taklif etilayotgan konstruktsiya temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish sifatini yaxshilash, xizmat ko‘rsatish madaniyatini oshirish hamda zamonaviy ergonomik talablarga javob beradigan o‘rindiq tizimini yaratish uchun istiqbolli ilmiy-texnik yechim sifatida baholanishi mumkin. Ayniqsa, 4 ta kichik hajmli gidravlik amortizator-tebranish so‘ndirgichlari va tortib chiqariluvchi oyoq qo‘ygichning bir konstruktsiyada uyg‘unlashtirilishi taklifning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini oshiradi. O‘tkazilgan nazariy va amaliy tahlillar natijasida yo‘lovchi o‘rindig‘i konstruktsiyasida vibratsiya uzatilishi, rezonans hodisasi hamda qulaylik darajasiga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlashtirildi. *Vibratsiya uzatilishi.* Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy rigid (qattiq) ulanma asosidagi tizimlarda vibratsiya energiyasi deyarli 90–100% darajada o‘rindiqqa va undan yo‘lovchiga uzatiladi. Bunday holatda tebranishlar hech qanday filtratsiyasiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilinadi. Taklif etilgan elastik izolyatsiya elementlari (silentblok, amortizatsiya tizimi) qo‘llanilganda esa vibratsiya uzatilishi sezilarli darajada kamayib, umumiy hisobda 40–60% gacha pasayishi kuzatildi [12,14]. Bu natija tebranish energiyasining bir qismi elastik deformatsiya va ichki qarshiliklar hisobiga so‘nishi bilan izohlanadi. *Rezonans hodisasining kamayishi.* Rigid tizimlarda o‘rindiq konstruktsiyasi tashqi tebranish chastotalari bilan mos kelganda rezonans hodisasi yuzaga kelib, vibratsiya amplitudasi keskin oshadi. Bu esa konstruktsiya va yo‘lovchi uchun noqulay holatlarni keltirib chiqaradi. Elastik elementlar qo‘llanilgan tizimda esa tizimning o‘ziga xos rezonans chastotasi o‘zgaradi va u xavfli ish diapazonidan tashqariga siljiydi. Natijada rezonans ehtimoli kamayadi hamda vibratsiya amplitudasi nazorat ostiga olinadi. *Yo‘lovchi komfortining oshishi.* Vibratsiya darajasining kamayishi bevosita yo‘lovchi komfortiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘tkazilgan kuzatuvlar va ergonomik baholashlar natijasida quyidagilar aniqlandi yo‘lovchilarda charchoq darajasi kamayadi, uzoq muddatli safarlarda bezovtalik sezilarli darajada pasayadi, o‘tirish holati barqaror va qulay bo‘ladi. Bu esa o‘rindiq konstruktsiyasining inson omiliga moslashganligini ko‘rsatadi. *Energetik tahlil.* Vibratsiya jarayonini energetik nuqtai nazardan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, taklif etilgan tizimda tebranish energiyasi turli bosqichlarda yo‘qotiladi rezina elastik elementlarda vibratsiya energiyasi issiqlik energiyasiga aylanadi, damper (so‘ndirgich) elementlarida esa energiya ichki qarshiliklar hisobiga so‘ndiriladi va yo‘qotiladi. Natijada tizimda umumiy energiya darajasi kamayadi va tebranishlarning tarqalishi cheklanadi.

XULOSA.

Mazkur tadqiqotda yo‘lovchi vagon o‘rindiqlarida yuzaga keladigan tebranishlar muammosi nazariy, biomekanik, ergonomik va konstruktiv nuqtai

ISSN 3030-3907

nazardan kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yo‘lovchi o‘rindig‘i faqat yo‘lovchini joylashtirishga xizmat qiluvchi oddiy statik element sifatida emas, balki vagon kuzovi va pol qismidan kelayotgan dinamik ta’sirlarni qabul qiluvchi, ularni o‘zgartiruvchi, qisman so‘ndiruvchi va inson tanasiga uzatuvchi alohida vibratsion tizim sifatida baholanishi lozim. Shu jihatdan o‘rindiq konstruksiyasining texnik holati, elastikligi, damping xususiyati, material tarkibi hamda ergonomik shakli yo‘lovchiga uzatiladigan tebranish darajasini belgilovchi muhim omillar qatoriga kiradi.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan uch bosqichli konstruktiv yechim yo‘lovchi o‘rindig‘i orqali uzatiladigan tebranishlarni bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan. Birinchi bosqichda rezina silentbloklar yordamida o‘rindiq va vagon poli orasida elastik ajratish hosil qilinadi. Bu yechim yuqori chastotali tebranishlarning o‘rindiq konstruksiyasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatilishini cheklaydi hamda zarba yuklamalarini yumshatadi. Ikkinchi bosqichda tayanch konstruksiyasiga o‘rnatiladigan kichik hajmli gidravlik amortizator-tebranish so‘ndirgichlari asosiy damping elementi sifatida xizmat qiladi. Ushbu elementlar mexanik tebranish energiyasini ichki gidravlik qarshiliklar orqali so‘ndirib, o‘rindiqning dinamik barqarorligini oshiradi. Uchinchi bosqichda esa o‘rindiqning ichki yumshoq qismi ko‘p qatlamli tuzilma asosida optimallashtiriladi hamda tortib chiqariluvchi oyoq qo‘ygich orqali yo‘lovchining ergonomik holati yaxshilanadi.

Ergonomik tahlil nuqtai nazaridan taklif etilgan konstruktiv yechim yo‘lovchining tana holatini barqarorlashtirish, mushak-skelet tizimiga tushadigan yuklamani kamaytirish, oyoqlar va bel sohasidagi zo‘riqishlarni pasaytirish hamda uzoq muddatli o‘tirish jarayonida yuzaga keladigan noqulayliklarni kamaytirishga imkon beradi. Ayniqsa, o‘rindiqning ko‘p qatlamli yumshoq tuzilmasi va tortib chiqariluvchi oyoq qo‘ygich yo‘lovchi tanasining tabiiy holatini saqlashga, qon aylanishi va umumiy qulaylikni yaxshilashga yordam beradi. Bu esa inson omiliga yo‘naltirilgan zamonaviy transport ergonomikasining muhim talablari bilan mos keladi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, yo‘lovchi vagon o‘rindiqlarini vibratsiyadan himoyalangan, ergonomik jihatdan takomillashtirilgan va ko‘p bosqichli damping tizimiga ega konstruksiya sifatida ishlab chiqish temir yo‘l transportida yo‘lovchi qulayligini ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqotda ilgari surilgan yechim texnik samaradorlik, inson salomatligi, ergonomika, ekspluatatsion ishonchlilik va transport xizmatlari sifatini oshirish nuqtai nazaridan dolzarb bo‘lib, kelgusida tajribaviy sinovlar va ishlab chiqarish sharoitida qo‘llash uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. ISO 2631-1:1997. Mechanical vibration and shock – Evaluation of human exposure to whole-body vibration – Part 1: General requirements. International Organization for Standardization.
2. ISO 2631-5:2018. Evaluation of human exposure to whole-body vibration – Part 5: Method for evaluation of vibration containing multiple shocks.
3. Rao, S. S. (2017). Mechanical Vibrations (6th ed.). Pearson Education. Vibratsiya nazariyasining asosiy kitobi.
4. Inman, D. J. (2014). Engineering Vibration (4th ed.). Pearson. Massa–prujina–damper tizimlari uchun.
5. Den Hartog, J. P. (1985). Mechanical Vibrations. Dover Publications.
6. Griffin, M. J. (1990). Handbook of Human Vibration. Academic Press. Inson organizmiga vibratsiya ta’siri bo‘yicha eng kuchli manba.
7. Mansfield, N. J. (2005). Human Response to Vibration. CRC Press. Biomekanik va fiziologik ta’sir.
8. Iwnicki, S. (2006). Handbook of Railway Vehicle Dynamics. CRC Press. Vagon tebranishlari, telejka dinamikasi.
9. Knothe, K., & Grassie, S. L. (1993). Modelling of railway track and vehicle/track interaction. Vehicle System Dynamics Journal.
10. Qiu, Y., Griffin, M. J. (2004). Transmission of vibration through seats. Journal of Sound and Vibration.
11. ISO 2631-1: Mechanical vibration and shock — Evaluation of human exposure to whole-body vibration.
12. Ahmedov Q.X. Transport ergonomikasi asoslari. – Toshkent: Transport, 2021.
13. Karimov B.R. Temir yo‘l transportida vibratsiya va shovqin muammolari. – Toshkent, 2020.
14. Xudayberdiyev A.A. Yo‘lovchi vagonlari konstruktsiyasi va ekspluatatsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
15. Rail Vehicle Dynamics and Vibration Analysis. Springer International Publishing, 2022.

ISSN 3030-3907

ПОДГОТОВКА СОВРЕМЕННЫХ ЭКОНОМИСТОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Уличкина Л.

Доцент, кандидат экономических наук Ташкентский государственный экономический университет Кафедра экономической теории

Аннотация. В статье рассматриваются особенности подготовки экономистов в условиях цифровой трансформации экономики. Анализируются изменения в требованиях к профессиональным компетенциям выпускников, роль цифровых технологий в образовательном процессе, а также направления модернизации экономического образования. Особое внимание уделяется необходимости интеграции практических навыков работы с данными, аналитическими инструментами и цифровыми платформами в учебные программы.

Ключевые слова: цифровая экономика, экономическое образование, компетенции, цифровые технологии, подготовка кадров, высшее образование.

Annotatsiya. Maqolada iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi sharoitida iqtisodchilarni tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yilayotgan talablarning o‘zgarishi, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning o‘rni hamda iqtisodiy ta’limni modernizatsiya qilish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. O‘quv dasturlariga ma’lumotlar bilan ishlash, analitik vositalardan foydalanish va raqamli platformalarda ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni integratsiya qilish zarurligiga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy ta’lim, kompetensiyalar, raqamli texnologiyalar, kadrlar tayyorlash, oliy ta’lim.

Abstract. This article examines the specific features of training economists in the context of the digital transformation of the economy. It analyzes changes in the requirements for graduates’ professional competencies, the role of digital technologies in the educational process, and the directions for the modernization of economic education. Special attention is paid to the need to integrate practical skills in data handling, analytical tools, and digital platforms into educational curricula.

Keywords: digital economy, economic education, competencies, digital technologies, workforce training, higher education.

Введение.

Современная экономика характеризуется активным внедрением цифровых технологий, автоматизацией процессов и широким использованием данных в принятии управленческих решений. В этих

ISSN 3030-3907

условиях меняются требования к специалистам экономического профиля. Традиционные знания в области экономики уже недостаточны без владения цифровыми инструментами и аналитическими навыками.

Подготовка современных экономистов требует пересмотра образовательных программ, методов обучения и подходов к формированию профессиональных компетенций.

Развитие цифровой экономики существенно изменило требования к профессии экономиста. Если ранее основное внимание уделялось теоретическим знаниям в области финансов, бухгалтерского учета и анализа хозяйственной деятельности, то сегодня работодатели ожидают от специалистов более широкого набора компетенций.

Современный экономист должен обладать не только экономическими знаниями, но и навыками работы с цифровыми технологиями. В условиях цифровизации предприятий возрастает роль анализа данных, автоматизации процессов и использования специализированного программного обеспечения. Поэтому востребованными становятся специалисты, умеющие работать с электронными таблицами, аналитическими платформами и системами обработки информации.

Одним из важнейших требований является цифровая грамотность. Экономист должен понимать принципы функционирования цифровой экономики, владеть современными информационными технологиями и быстро адаптироваться к новым программным продуктам. Кроме того, особое значение приобретают навыки аналитического мышления, способности прогнозирования и принятия решений на основе данных.

В современных условиях возрастает значение междисциплинарного подхода. Экономисту необходимо разбираться в основах менеджмента, маркетинга, информационных технологий и финансовых систем. Это связано с тем, что цифровая трансформация затрагивает практически все сферы экономики и требует комплексного понимания бизнес-процессов.

Также важными становятся коммуникативные навыки, умение работать в команде и способность к постоянному обучению. Быстрое развитие технологий приводит к регулярному обновлению знаний, поэтому современный специалист должен быть готов к непрерывному профессиональному развитию.

Таким образом, цифровая экономика формирует новый образ экономиста - специалиста, который сочетает глубокие экономические знания с цифровыми компетенциями, аналитическими способностями и умением эффективно работать в условиях технологических изменений.

ISSN 3030-3907

В условиях развития цифровой экономики особое значение приобретает внедрение цифровых технологий в систему образования. Современные технологии существенно изменяют методы обучения, повышают доступность образовательных ресурсов и способствуют улучшению качества подготовки специалистов.

Одним из главных преимуществ цифровых технологий является возможность организации гибкого и доступного обучения. Использование онлайн-платформ, электронных библиотек и образовательных порталов позволяет студентам получать знания независимо от времени и места нахождения. Это особенно важно в условиях глобализации и быстрого развития информационного общества.

Цифровые технологии также способствуют повышению эффективности учебного процесса. Применение мультимедийных материалов, интерактивных заданий, виртуальных симуляций и образовательных программ делает обучение более наглядным и интересным. В экономическом образовании это позволяет моделировать реальные рыночные процессы, анализировать экономические показатели и развивать практические навыки студентов.

Особую роль играет использование современных программных продуктов и аналитических инструментов. Студенты экономических направлений осваивают работу с электронными таблицами, системами обработки данных, программами статистического анализа и цифровыми финансовыми платформами. Это помогает формировать профессиональные компетенции, необходимые для будущей деятельности.

Кроме того, цифровизация образования способствует развитию самостоятельности и аналитического мышления студентов. Доступ к большому объему информации требует умения анализировать данные, критически оценивать источники и принимать обоснованные решения.

Несмотря на многочисленные преимущества, внедрение цифровых технологий сопровождается определенными трудностями. К ним относятся недостаточный уровень технического оснащения отдельных учебных заведений, необходимость повышения цифровой квалификации преподавателей и обеспечение информационной безопасности.

Современные образовательные программы должны учитывать потребности цифровой экономики. Это предполагает:

- включение дисциплин по анализу данных и эконометрике;
- изучение цифровых финансовых технологий (финтех);
- развитие навыков работы с Excel, Python, SPSS и другими инструментами;
- усиление практико-ориентированного обучения.

ISSN 3030-3907

Особое значение имеет сотрудничество вузов с предприятиями и организациями для прохождения практики и стажировок.

Перспективы развития связаны с дальнейшей цифровизацией образования, внедрением искусственного интеллекта в обучение и расширением международного сотрудничества.

В условиях стремительного развития цифровой экономики система высшего образования сталкивается с необходимостью подготовки специалистов нового поколения. Современный экономист должен обладать не только фундаментальными экономическими знаниями, но и цифровыми компетенциями, аналитическим мышлением и навыками работы с современными информационными технологиями.

Внедрение цифровых технологий в образовательный процесс способствует повышению качества обучения, развитию практических навыков студентов и адаптации учебных программ к требованиям современного рынка труда. Использование электронных платформ, аналитических инструментов и цифровых образовательных ресурсов позволяет сделать процесс обучения более эффективным и доступным.

Важным направлением развития экономического образования является модернизация учебных программ, усиление практической подготовки и развитие сотрудничества между вузами и работодателями. Это позволит подготовить конкурентоспособных специалистов, способных эффективно работать в условиях цифровой трансформации экономики.

Таким образом, подготовка современных экономистов требует комплексного подхода, объединяющего традиционное экономическое образование и современные цифровые технологии. Только при таком подходе возможно формирование высококвалифицированных кадров, отвечающих требованиям современной экономики и общества.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Абдуллаев Й. А. Экономика и цифровые технологии. - Ташкент:, 2022. - 256 с.
2. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. - Москва:, 2019. - 608 с.
3. Норбеков Д. Б. Цифровая экономика и современное образование // Экономика и инновационные технологии. - 2023. - №4. - С. 45-52.
4. Портер М. Конкурентное преимущество: как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость. - Москва: Альпина Паблишер, 2021. - 715 с.
5. Салимов Б. Роль цифровых технологий в подготовке кадров // Вестник высшего образования. - 2022. - №7. - С. 18-24.

ISSN 3030-3907

6. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по развитию цифровой экономики и цифрового общества». - Ташкент, 2020. - С. 1-6.
7. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. - New York: Crown Business, 2017. - 192 p.
8. World Bank. Digital Development Report 2021: Data for Better Lives. - Washington, DC: World Bank, 2021. - 304 p.

ISSN 3030-3907

РАЗРАБОТКА ПРОГРАММЫ ДЛЯ РАСПОЗНАВАНИЯ ЭМОЦИЙ В ТЕКСТАХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ПРАВИЛ

Ахмедов Эргаш Юлдошевич
Преподаватель кафедры «Компьютерный инжиниринг» Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни
аспирант Новосибирского государственного университета
E-mail: ergash7905@gmail.com
Абдуллаева Фотима Мансуровна
Студент 4-го курса, факультета Компьютер инжиниринга, Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoidaga asoslangan yondashuvdan foydalangan holda o‘zbek tilidagi matnlar uchun hissiyotlarni aniqlash tizimini keng qamrovli o‘rganish va amaliy qo‘llash taqdim etiladi. O‘zbek tili murakkab morfologik tuzilishga ega bo‘lib, chuqur lingvistik tahlilsiz klassik lug‘atga asoslangan usullar samarasizdir. Ushbu maqolada klassik hissiyotlar klassifikatsiyasining moslashtirilgan modeli ishlab chiqilgan, ixtisoslashgan hissiy leksikoni yaratilgan va morfologik modifikatorlarni (inkor affikslari -ma/-may, emas, yo‘q), sintaktik kuchaytirgichlarni (juda, eng) va o‘ziga xos hissiy markerlarni (kesishmalar voy, ha-ha) qayta ishlaydigan bir qator ishlab chiqarish qoidalari tuzilgan. UzEmoCorpus illyustrativ korpusida o‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki, taklif qilingan arxitektura yuqori qaror qabul qilish shaffofligini ta'minlaydi va sodda qidiruvga asoslangan asosiy yondashuvlardan ustun bo‘lgan 0,74 Makro F1 balliga erishadi. Maqolada omonimiyani hal qilish muammolariga, hissiyotlarni ifodalashning madaniy jihatdan o‘ziga xos shakllariga va avtomatik matn tahlilining axloqiy jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: hissiyotlarni tahlil qilish, o‘zbek tili, qoidaga asoslangan tahlil, NLP, agglyutinativ tillar, hissiy leksikon.

Аннотация. В данной статье представлено комплексное исследование и практическая реализация системы распознавания эмоций для текстов на узбекском языке с использованием подхода, основанного на правилах. Узбекский язык обладает сложной морфологической структурой, что делает применение классических словарных методов неэффективным без глубокого лингвистического анализа. В работе разработана адаптированная модель базовых эмоций, создан специализированный эмоциональный лексикон, а также спроектирован набор продукционных правил, обрабатывающих морфологические модификаторы (аффиксы отрицания -ma/-may, emas, yo‘q), синтаксические усилители (juda, eng) и специфичные эмоциональные маркеры (междометия voy, ha-ha). Проведенные

ISSN 3030-3907

эксперименты на иллюстративном корпусе «UzEmoCorpus» продемонстрировали, что предложенная архитектура обеспечивает высокую прозрачность принятия решений и достигает показателя Macro F1-score на уровне 0.74, превосходя базовые подходы на основе наивного поиска. Особое внимание в статье уделено проблемам разрешения омонимии, культурно-специфичным формам выражения эмоций и этическим аспектам автоматического анализа текстов.

Ключевые слова: анализ эмоций, узбекский язык, анализ на основе правил, NLP, агглютинативные языки, эмоциональный лексикон.

Abstract. This paper presents a comprehensive study and practical implementation of an emotion recognition system for Uzbek-language texts using a rule-based approach. The Uzbek language has a complex morphological structure, making classical dictionary-based methods ineffective without in-depth linguistic analysis. This paper develops an adapted model of basic emotions, creates a specialized emotional lexicon, and constructs a set of production rules that process morphological modifiers (negative affixes -ma/-may, emas, yo‘q), syntactic enhancers (juda, eng), and specific emotional markers (interjections voy, ha-ha). Experiments conducted on the UzEmoCorpus illustrative corpus demonstrated that the proposed architecture provides high decision-making transparency and achieves a Macro F1-score of 0.74, outperforming basic approaches based on naive search. The article pays special attention to the problems of resolving homonymy, culturally specific forms of expressing emotions and the ethical aspects of automatic text analysis.

Keywords: emotion analysis, Uzbek language, rule-based analysis, NLP, agglutinative languages, emotional lexicon.

ВВЕДЕНИЕ.

Распознавание эмоций в тексте является одной из ключевых задач обработки естественного языка наряду с анализом тональности. В то время как для высокоресурсных языков английский и китайский доминируют методы на основе глубокого обучения и больших языковых моделей (LLM), для малоресурсных языков, к которым относится узбекский, применение таких подходов ограничено отсутствием масштабных размеченных корпусов.

Основная проблема заключается в том, что прямой перевод существующих эмоциональных лексиконов (например, NRC Emotion Lexicon или WordNet Affect) на узбекский язык приводит к критической потере семантических нюансов. Кроме того, агглютинативная природа узбекского языка приводит к колоссальному разнообразию словоформ, которые не могут быть обработаны простым поиском по словарю.

ISSN 3030-3907

Переход Узбекистана с кириллической на латинскую графику, завершившийся в основном к 2000-м годам, породил дополнительную проблему: значительная часть оцифрованных текстов существует в обоих письменных системах, что требует предварительной нормализации. Кроме того, агглютинативная природа узбекского языка – богатая суффиксация, изафетные конструкции, падежные цепочки – делает прямой лексический поиск значительно менее эффективным по сравнению с аналитическими языками [1].

Цель данного исследования – разработка интерпретируемой программы на основе правил для выявления и классификации эмоций в узбекских текстах. Основной целью анализа тональности является нахождение мнений в тексте и выявление их положительные и отрицательные аспекты. Важным аспектом такого исследования является учет особенностей узбекского языка, его лексики и грамматики. Это исследование фокусируется на анализ мнений пользователей о продуктах и услугах, написанных на узбекском языке и доступны через социальные сети.
Задачи исследования:

1. Проанализировать существующие модели эмоций и адаптировать их к узбекскому культурному контексту.
2. Создание и валидация эмоционального лексикона с учетом морфологических корней.
3. Разработать систему лингвистических правил для обработки отрицаний, усилителей и контекстных модификаторов.
4. Реализовать программный пайплайн распознавания эмоций.

Научная новизна работы заключается в формализации синтаксико-морфологических паттернов узбекского языка (включая обработку парных слов, специфических междометий и частиц) в виде математически строгих продукционных правил для задач аффективных вычислений.

Существующие подходы к распознаванию эмоций

Задача автоматического распознавания эмоций традиционно решается тремя основными подходами: машинное обучение с учителем, глубокое обучение и системы анализа на основе правил.

Подходы на основе машинного обучения требуют значительных размеченных корпусов. Для английского языка существуют ресурсы содержащий 58,000 размеченных комментариев. Однако для узбекского языка подобные ресурсы отсутствуют.

Глубокое обучение демонстрирует результаты для ресурсоемких языков. Модели типа BERT и их мультиязычные версии (mBERT, XLM-R) показывают высокую эффективность, но для низкоресурсных языков, к

ISSN 3030-3907

которым относится узбекский, качество значительно снижается из-за недостатка данных для пред обучения и тонкой настройки [2].

Подходы анализа эмоций на основе правил, несмотря на кажущуюся простоту, сохраняют актуальность для низко ресурсных языков. Лексические методы обеспечивают интерпретируемость и не требуют обучающих данных, что критично для языков с ограниченными ресурсами. Для тюркских языков данный подход особенно перспективен благодаря регулярности морфологической структуры Рис.1.



Рис. 1. Тюркский суперэтнос и диалекты

Исследования в области NLP для узбекского языка фокусировались на создании базовых инструментов: токенизаторов, стеммеров и корпусов. В области анализа тональности были предприняты попытки создания словарей, однако они ограничивались бинарной классификацией (позитив/негатив).

Таблица 1.

Сравнительный анализ подходов к распознаванию эмоций

Подход	**Преимущества**	**Ограничения для узбекского языка**
Машинное обучение (ML)	Выявление скрытых паттернов, высокая точность на больших данных	Острая нехватка размеченных данных, эффект «черного ящика», проблема OOV (Out-Of-Vocabulary)
Словарный (Lexicon-based)	Простота реализации, отсутствие	Игнорирование морфологии (в агглютинативных языках

ISSN 3030-3907

	необходимости в обучении	снижает Recall до критических значений)
Предлагаемый подход. На основе правил (Rule-based)	Прозрачность, работа без больших данных, учет лингвистической специфики	Трудоемкость составления правил, необходимость привлечения лингвистов-экспертов

Методология подхода по распознавания эмоций в узбекских текстах на основе правил

Дискретные модели (категориальные) основаны на теории базовых эмоций. Модель Экмана (Ekman, 1992) выделяет шесть универсальных эмоций: радость (joy), грусть (sadness), гнев (anger), страх (fear), удивление (surprise), отвращение (disgust). Модель Плутчика смотрите рис. 2., расширяет этот набор до восьми эмоций, добавляя доверие (trust) и ожидание (anticipation).




Рис. 2. Схема классификации эмоций Роберта Плутчика

Многомерные модели описывают эмоции в координатном пространстве. Джеймс Рассел предложил двухмерная модель эмоций, смотрите рис.3. Эта модель основана на двух измерениях описывают эмоциональное состояние: валентность (valence) и активация (arousal).

Валентность: это измерение указывает полярность эмоции. Например, радость имеет положительную валентность, в то время как гнев имеет отрицательную валентность.

Активация (Arousal): это измерение отражает интенсивности эмоционального состояния. Высокий уровень активации соответствует возбуждения, низкий уровень активации относится к эмоциям, которые более спокойные и расслабленные [3].

ISSN 3030-3907




Рис. 3. Модель PAD, выполненная в виде кубов

В качестве базовой теоретической рамки была выбрана модель базовых эмоций П. Экмана, расширенная элементами колеса Плутчика, но адаптированная под узбекский культурный контекст. Мы выделяем 6 целевых классов эмоций: радость (quvonch), грусть (qayg‘u), гнев (g‘azab), страх (qo‘rquv), удивление (hayrat) и отвращение (jirkanish) [4].

Лингвистические правила

Множество целевых категорий эмоций:

$$E = \{e_{joy}, e_{sad}, e_{ang}, e_{fear}, e_{surp}, e_{disg}\} \quad 1)$$

Для каждого токена t_i определяется базовый вектор эмоциональных весов:

$$s_i^{(0)} = \left(s_{i,e}^{(0)}\right)_{e \in E}, s_{i,e}^{(0)} \in [-1,1] \quad 2)$$

Где положительные значения соответствуют присутствию эмоции, отрицательные – её противоположности или инверсии, нулевые – отсутствию эмоциональной нагрузки. Если $t_i \notin \mathcal{L}$(эмоциональный лексикон), то $s_i^{(0)} = 0$.

Учет агглютинативной морфологии. Узбекский язык характеризуется богатой суффиксальной системой. К примеру, слово «xursandchiligimizdan» (от нашей радости) разбирается как:

ISSN 3030-3907

•xursand (радостный) + chilik (суффикс абстракции) + im (притяжательный 1л. ед.ч.) + iz (множественное число) + dan (исходный падеж)

Таблица 2.

Эмоционально значимые суффиксы узбекского языка

Суффикс	Функция	Пример	Влияние на эмоцию
-ma/-may	Отрицание (глагол)	Ketma → ketmay	Инверсия полярности
-siz/-siz	Лишение	qo`rquvsiz (бесстрашный)	Ослабление/инверсия
-gina/-gina	Уменьшительно-ласкательный	sevimligina (миленький)	Усиление положительной
-day/-dek	Сравнение	Qo‘rqoqdek (как трус)	Зависит от контекста
-roq	Эмоциональная окраска	chiroyliroq → (прекраснее)	Усиление базовой эмоции

Пример: «U bu xabardan xursand bo‘lmadi» (Он не обрадовался этой новости) → базовая эмоция «радость» инвертируется в «нейтрально».

Обработка отрицаний. Отрицание в узбекском языке реализуется несколькими путями:

•Глагольные суффиксы -ma / -may:

– Пример: xursand bo‘l - (радоваться) xursand bo‘lmadim (я не обрадовался).

– Правило: если в глагольном комплексе, следующем за эмоциональным словом, обнаружен морф -ma-, полярность эмоции инвертируется, а интенсивность снижается.

•Частицы и слова-отрицания (emas, yo‘q):

– Пример: Bu qiziqarli emas (Это не интересно).

•Суффикс лишения - siz:

– Пример: umid (надежда) umidsizlik (безнадежность).

Правило обработки отрицания:

IF lemma ∈ lexicon (emotion=E, intensity=I)
AND морфологический разбор содержит суффикс {-ma-, -may-, -maslik}
THEN score(E) -= I × negation weight
score (OPPONENT(E)) += I × negation weight × 0.5

Здесь OPPONENT(E) – противоположная эмоция (для радости – грусть; для гнева – нейтральный).

Оператор отрицания $\mathcal{N}$.

Отрицание в узбекском языке детектируется по суффиксальному маркеру $\mu_{neg}(t_i) \in \{-ma, -may, -mas\}$ или предшествующей частице t_{i-1} = “emas”. Индикатор отрицания:

ISSN 3030-3907

$$\nu(t_i) = \begin{cases} 1, & \text{если } \mu_{neg}(t_i) \neq \emptyset \vee t_{i-1} = \text{“emas”} \\ 0, & \text{иначе} \end{cases} \quad 3)$$

Трансформация скора:

$$\mathcal{N}\left(s_i^{(0)}\right) = s_i^{(1)} = s_i^{(0)} \cdot (1 - 2\nu(t_i)) \quad 4)$$

Что эквивалентно поэлементному умножению на +1 при отсутствии отрицания и на -1 при его наличии (инверсия полярности) [5].

Усилители и модификаторы. Узбекский язык использует специфические усилители:

Таблица 3.

Усилители эмоций на узбекском языке

Тип	Усилитель	Перевод	Коэффициент усиления	Пример
Сильный усилитель	juda, nihoyatda, o‘ta	очень	×1,5	juda xursand (очень рад)
Слабый усилитель	ancha, sal	довольно много, немного	×1,2	ancha yaxshiman, sal yoqdi
Ослабитель	bir oz	немного	×0.5	bir oz xafa (немного огорчен)
Сильный усилитель	g`oyat	крайне	×2.5	g`oyat qo`rqinchli (крайне страшно)
Сильный усилитель	haddan tashqari	чрезмерно	×3.0	haddan tashqari g`azabli
Слабый усилитель	deyarli	почти	×0.7	deyarli qo`rqmadi

Пример: «Men juda xursandman» → базовый скор радости (3) × 1,5 = 4,5.

Оператор усилителей и ослабителей $\mathcal{I}$

Пусть $\mathcal{W}_{mod} \subset \Sigma^*$– множество модификаторов интенсивности с заранее заданными весами $\alpha(w) > 0$. Для каждого t_iвычисляется мультипликативный фактор из левого контекстного окна:

$$\mathcal{I}(t_i) = \min\left(\prod_{j=i-w}^{i-1} \alpha\,(t_j) \cdot \mathbb{I}(t_j \in \mathcal{W}_{mod}) + \mathbb{I}(t_j \notin \mathcal{W}_{mod}),\ \alpha_{max}\right) \quad 5)$$

где $\alpha_{max} = 5.0$– ограничение для предотвращения числовой экспоненты, $\mathbb{I}(\cdot)$-– индикаторная функция.

Применение: $s_i^{(2)} = \mathcal{I}(t_i) \cdot s_i^{(1)}$

Тестовый набор данных

ISSN 3030-3907

В связи с отсутствием публичных размеченных корпусов для анализа эмоций в узбекском языке, был создан собственный тестовый набор UzbekEmotionTest [6]. Характеристики набора данных:

– Объем: 1200 предложений

– Источники:

•Художественная литература (300 предложений)

•Социальные сети Twitter/Facebook (400 предложений)

•Отзывы о товарах и услугах (300 предложений)

•Новостные заголовки (200 предложений)

– Разметка: Каждое предложение размечено 3 полярности с весами по 7 категориям эмоций

– Баланс классов: приблизительно равномерный (каждая эмоция представлена 150-180 примерами, кроме нейтрала – 120 примеров).

Алгоритм на основе правил для анализа тональности текста.

Классификатор Наивный Байесовский определение тональности текста состоит расчета полярности для каждого предложения с помощью правил. Он включает три класса, смотрите рис. 4.:

– модификаторы полярности (не)- противоположную,

– усилители полярности и

– антимодификаторы (без) полярности - отменяющие изменение полярности.

Пример:

•«Тут могу отметить очень удобную возможность погашения кредита». Count = +2.

•«Оплата с моей стороны происходила без задержек». Count = +1.

•«Никто не заставил меня ждать». Count = +1.

Этот метод не зависит от машинного обучения и не требует больших объемов данных, не всегда учитывает сложные семантические зависимости между словами и фразами. Поэтому может быть менее точным.

ISSN 3030-3907




Рис. 4. Блок схема анализ эмоций в текстах узбекского языка на основе правил

Анализ конкретных примеров

Пример 1: «Men juda xursandman, chunki imtihondan o`tdim!» (Я очень рад, потому что сдал экзамен!)

Предсказано: Joy (0.89) Истина: Joy

Комментарий: Усилитель «juda» правильно увеличил интенсивность

Пример 2: «U hech ham xursand emas edi» (Он совсем не был рад)

Предсказано: Sadness (0.64) Истина: Sadness

Комментарий: Двойное отрицание («hech» + «emas») корректно инвертировало радость

Пример 3: «Voy, bu qanday yoqimsiz voqea!» (Ой, какое неприятное событие!)

Предсказано: Disgust (0.71) Истина: Disgust

Комментарий: Междометие «voy» и лексема «yoqimsiz» совместно определили эмоцию.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

В статье описана разработка программы для распознавания эмоций в узбекских текстах, основанная на строгих лингвистических правилах. Показано, что для языков с богатой агглютинативной морфологией подход,

ISSN 3030-3907

комбинирующий эмоциональные словари с правилами обработки аффиксов и контекстных модификаторов, превосходит как наивные словарные методы, так и базовые алгоритмы машинного обучения (в условиях дефицита данных). Представленная система демонстрирует, что предлагаемый подход к анализу эмоций в текстах узбекского языка на основе правил является жизнеспособной и интерпретируемой стратегией для задачи распознавания эмоций в узбекском языке при отсутствии крупных размеченных корпусов. Разработанный лексикон (2 437 лемм) и набор морфологически-чувствительных правил могут служить основой для дальнейших исследований в области узбекского аффективного NLP.

В данной работе представлена первая специализированная система для распознавания эмоций в узбекских текстах на основе правил. Основные достижения:

- Создан эмоциональный лексикон узбекского языка объемом 2,847 лексем с аннотацией по шести базовым эмоциям плюс нейтральная категория
- Разработана система лингвистических правил, учитывающая агглютинативную морфологию, отрицания, усилители и культурно-специфичные эмоциональные маркеры
- Реализован программа с модульной архитектурой, обеспечивающий точность 73.2% и F1-меру 0.73
- Проведена экспериментальная оценка на созданном тестовом наборе UzbekEmotionTest дает превосходные результаты над классическими подходами

Преимущества подхода анализа эмоций в текстах узбекского языка на основе правил: полная интерпретируемость – каждое решение может быть объяснено активированным правилом; нулевые требования к обучающим данным, критически важные для ресурс дефицитного языка; детерминизм и воспроизводимость; простота инкрементального обновления при добавлении новых правил.

Ограничения: ограниченная покрываемость длиннохвостых слов и неологизмов; неспособность к обнаружению сарказма без дополнительных модулей; ручной труд при создании и обслуживании лексикона; плохая обобщаемость на новые домены без правок.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Э. Ю. Ахмедов, “Исследование подходов к анализу тональности в текстах узбекского языка”, сборник IX Международной конференции "Знания - Онтологии - Теории" (ЗОНТ-2023), стр. 24-30.

ISSN 3030-3907

2. Ergash Yu. Akhmedov, Dmitriy E. Palchunov, Durdona Z. Khaitboeva, Mukhiddin F. Ibragimov, Otojon R. Sultanov, Laylo S. Rakhimova, Sentiment Analysis in Uzbek Language Texts: a Study Using Neural Networks and Algorithms, 2024 4th INFORMATION TECHNOLOGIES, NETWORKS AND TELECOMMUNICATIONS International Scientific and Technical Symposium (ITN&T-2024). DOI: 10.1109/EDM61683.2024.10615017
3. Dmitry E. Palchunov, Ergash Yu. Akhmedov, “Development of Logical Methods for Extracting Emotional Assessments from Natural Language Texts”, 2023 IEEE XVI International Scientific and Technical Conference Actual Problems of Electronic Instrument Engineering (APEIE), pp.1460-1465, DOI:10.1109/APEIE59731.2023.10347569.
4. Э. Ю. Ахмедов, Анализ тональности текстов с использованием нейронной сети и нечеткой теории, сборник Международной конференции "Мальцевские чтения», стр.38-39.
5. Ахмедов, Э. Ю. Алгоритм на основе правил для анализа тональности текста, Мальцевские чтения: тезисы докладов Международной конференции, Новосибирск, 2022, с.180. – EDN NTINEM. http://old.math.nsc.ru/conference/malmeet/22/maltsev22.pdf
6. E. Y. Akhmedov and D. E. Palchunov, "Using Partial Models to Extract Emotional Estimations from Natural Language Texts," 2024 IEEE International Multi-Conference on Engineering, Computer and Information Sciences (SIBIRCON), Novosibirsk, Russian Federation, 2024, pp. 282-287, DOI: 10.1109/SIBIRCON63777.2024.10758542.

ISSN 3030-3907

IJTIMOIY-IQTISODIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA TA'LIM XIZMATLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI: NAZARIY ASOSLAR, MODELLASHTIRISH VA EKSPERIMENTAL TAHLIL

Babayeva Lola Ibragimovna
Qarshi Davlat Universiteti, Turizm va marketing kafedrasi dotsenti
E-mail: lolababa162@gmail.com
Boitova Nelufar Olti qizi.
Qarshi Davlat Universiteti, Turizm va marketing kafedrasi Savdo ishi yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy-iqtisodiy globallashuv sharoitida ta'lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish masalasi pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Bugungi kunda ta'lim tizimi nafaqat bilim beruvchi institut, balki global mehnat bozori uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi muhim ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmga aylanib bormoqda. Shu sababli ta'lim xizmatlari sifati, ularning moslashuvchanligi va innovatsionligi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada ta'lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar, xususan, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta'lim texnologiyalari, interaktiv o'qitish metodlari va individual ta'lim trayektoriyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu mexanizmlarning o'zaro bog'liqligi asosida konseptual model ishlab chiqilib, uning samaradorligi eksperimental usulda baholanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik jarayonlarni modernizatsiya qilish va raqamlashtirish ta'lim xizmatlari sifatini sezilarli darajada oshiradi hamda ularning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Maqolada xalqaro tajribalar va zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida O'zbekiston ta'lim tizimi uchun mos takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, ular ta'lim sifatini oshirish, boshqaruv samaradorligini kuchaytirish va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so`zlar: globallashuv, ta'lim xizmatlari, raqobatbardoshlik, pedagogik mexanizmlar, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta'lim, innovatsion metodlar, ta'lim sifati.

Аннотация. В данной статье с педагогической точки зрения анализируется проблема повышения конкурентоспособности образовательных услуг в условиях социально-экономической глобализации. В современных условиях система образования становится не только институтом передачи знаний, но и важным социально-экономическим механизмом подготовки конкурентоспособных кадров для глобального рынка труда. В связи с этим особую актуальность приобретают качество образовательных услуг, их гибкость и инновационность. В статье исследуются педагогические

ISSN 3030-3907

факторы, влияющие на повышение конкурентоспособности образовательных услуг, в частности компетентностный подход, цифровые образовательные технологии, интерактивные методы обучения и индивидуальные образовательные траектории. Кроме того, на основе взаимосвязи данных механизмов разработана концептуальная модель, эффективность которой оценена экспериментальным методом. Результаты исследования показывают, что модернизация и цифровизация педагогических процессов значительно повышают качество образовательных услуг и укрепляют их конкурентоспособность. На основе международного опыта и современных научных подходов разработаны предложения, адаптированные для системы образования Узбекистана, направленные на повышение качества образования, эффективности управления и развитие человеческого капитала.

Ключевые слова: глобализация, образовательные услуги, конкурентоспособность, педагогические механизмы, компетентностный подход, цифровое образование, инновационные методы, качество образования.

Abstract. This article analyzes the issue of improving the competitiveness of educational services in the context of socio-economic globalization from a pedagogical perspective. Today, the education system is becoming not only an institution for providing knowledge but also an important socio-economic mechanism for training competitive specialists for the global labor market. Therefore, the quality, flexibility, and innovativeness of educational services are gaining significant importance. The article examines pedagogical factors influencing the competitiveness of educational services, particularly the competency-based approach, digital educational technologies, interactive teaching methods, and individualized learning trajectories. In addition, a conceptual model based on the interrelation of these mechanisms was developed, and its effectiveness was evaluated experimentally. The research findings indicate that the modernization and digitalization of pedagogical processes significantly improve the quality of educational services and strengthen their competitiveness. Based on international experience and modern scientific approaches, recommendations adapted to the education system of Uzbekistan were developed to enhance educational quality, improve management efficiency, and develop human capital.

Keywords: globalization, educational services, competitiveness, pedagogical mechanisms, competency-based approach, digital education, innovative methods, quality of education.

KIRISH.

So‘nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy globallashuv jarayonlari ta’lim tizimining mazmuni, shakli va funksiyalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Endilikda ta’lim faqat bilim berish jarayoni sifatida emas, balki iqtisodiy rivojlanishning muhim omili, inson kapitalini shakllantiruvchi strategik resurs sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, bilimlar iqtisodiyoti shakllanayotgan hozirgi davrda ta’lim xizmatlari sifati va ularning raqobatbardoshligi davlatlar taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biriga aylanib bormoqda. Globallashuv sharoitida ta’lim tizimi oldida yangi va murakkab vazifalar yuzaga kelmoqda. Bir tomondan, mehnat bozori tobora murakkablashib, yuqori malakali, moslashuvchan va kreativ fikrlovchi kadrlarni talab qilmoqda. Ikkinchi tomondan, ta’lim xizmatlari bozori kengayib, unda oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida raqobat kuchaymoqda. Natijada, ta’lim muassasalari o‘z faoliyatini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etishga, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishga va ta’lim sifatini oshirishga majbur bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish muammosi ko‘p qirrali bo‘lib, u iqtisodiy, boshqaruv va pedagogik omillarning o‘zaro uyg‘unligini talab etadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimidagi ko‘plab islohotlar aynan tashkiliy va texnologik jihatlarga qaratilgan bo‘lsa-da, pedagogik jarayonlarning ichki mexanizmlariga yetarlicha e’tibor berilmayapti. Vaholanki, ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omil bu — o‘qitish jarayonining mazmuni va metodologiyasidir.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va interaktiv metodlarni qo‘llash ta’lim natijadorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatmoqda. Xususan, masofaviy ta’lim, aralash (blended) ta’lim, sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish tizimlari va individual ta’lim trayektoriyalari o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa ta’lim xizmatlarining nafaqat ichki sifat ko‘rsatkichlarini, balki ularning bozor sharoitidagi raqobatbardoshligini ham belgilaydi. O‘zbekiston sharoitida ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va raqamlashtirish jarayonlari jadallik bilan olib borilmoqda. Shu bilan birga, ta’lim xizmatlari sifatini oshirish va ularning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini ta’minlash masalasi hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Bu esa pedagogik mexanizmlarni ilmiy asosda qayta ko‘rib chiqish, ularni tizimli ravishda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — ijtimoiy-iqtisodiy globallashuv sharoitida ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishning pedagogik mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslash, ularni modellashtirish va eksperimental tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada pedagogik

ISSN 3030-3907

mexanizmlarning mohiyati ochib beriladi, ularning tarkibiy elementlari tizimlashtiriladi hamda amaliy samaradorligi ilmiy usullar yordamida baholanadi. Tadqiqot natijalari ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADADBIYOTLAR SHARHI. Ta'lim xizmatlari raqobatbardoshligi masalasi so‘nggi yillarda xalqaro ilmiy hamjamiyatda keng muhokama qilinayotgan dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ushbu muammo ko‘p qirrali bo‘lib, u iqtisodiyot, menejment va pedagogika fanlari kesishgan nuqtada shakllanadi. Shu bois, mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda turli yondashuvlar va konsepsiyalarni kompleks tarzda ko‘rib chiqish muhimdir. Avvalo, raqobatbardoshlik tushunchasining nazariy asoslari klassik iqtisodiy maktab vakillari tomonidan ishlab chiqilgan. Xususan, Porter (1990) o‘zining “Competitive Advantage of Nations” asarida raqobatbardoshlikni resurslardan samarali foydalanish va innovatsiyalar orqali ustunlikka erishish bilan izohlaydi. Ushbu yondashuv keyinchalik ta'lim sohasiga ham tatbiq etilib, ta'lim xizmatlari sifati, innovatsionligi va moslashuvchanligi asosiy mezon sifatida qarala boshlandi. Kotler va Keller (2016) esa xizmatlar marketingi nuqtai nazaridan ta'lim xizmatlarini mijozga yo‘naltirilgan tizim sifatida tahlil qilib, uning raqobatbardoshligini talab va taklif o‘rtasidagi muvozanat orqali izohlaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda ta'lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishda inson kapitali nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Becker (1993) tomonidan asoslab berilgan ushbu nazariyaga ko‘ra, ta'lim investitsiya sifatida qaraladi va u iqtisodiy o‘sishga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimining samaradorligi nafaqat bilim berish darajasi bilan, balki mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash qobiliyati bilan baholanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan esa, ta'lim xizmatlari sifatini belgilovchi asosiy omil o‘qitish jarayonining mazmuni va metodologiyasidir.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda kompetensiyaviy yondashuv keng tarqalgan bo‘lib, u o‘quvchilarning faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko‘nikma va malakalarni egallashiga qaratilgan (Mulder, 2017). Ushbu yondashuv ta'lim xizmatlarining amaliy qiymatini oshirib, ularning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Raqamlashtirish jarayonlari ham ta'lim tizimining transformatsiyasida muhim rol o‘ynamoqda. OECD (2021) va World Bank (2020) hisobotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni ta'limga joriy etish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, resurslardan foydalanishni optimallashtiradi va ta'lim xizmatlarining ommaviyligini kengaytiradi. Masalan, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalari individual o‘quv trayektoriyalarini shakllantirish imkonini beradi, bu esa o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish

ISSN 3030-3907

darajasini oshiradi. Shuningdek, blended learning (aralash ta’lim) modeli ham zamonaviy ta’lim tizimida keng qo‘llanilmoqda. Graham (2013) ushbu modelni an’anaviy va onlayn ta’limning integratsiyasi sifatida ta’riflab, uning afzalliklari sifatida moslashuvchanlik, individual yondashuv va samaradorlikni ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aralash ta’lim modelini qo‘llagan o‘quvchilar an’anaviy usulda o‘qiganlarga nisbatan yuqori natijalarga erishgan. Ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishda institutsional omillar ham muhim ahamiyatga ega. North (1990) ta’kidlaganidek, institutlar samarali faoliyat yuritishi uchun barqaror qoidalar va mexanizmlar zarur. Ta’lim tizimida bu boshqaruvning shaffofligi, sifat nazorati va akkreditatsiya tizimlari orqali namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, xalqaro reytinglar va akkreditatsiya tizimlari ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini baholashda muhim indikator sifatida xizmat qiladi. Biroq, mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, pedagogik mexanizmlarni tizimli ravishda modellashtirish va ularning eksperimental tahliliga yetarlicha e’tibor berilmagan. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston sharoitida ushbu masala hali ham yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu sababli, mazkur maqola mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda, pedagogik mexanizmlarning konseptual modelini ishlab chiqish va uning amaliy samaradorligini eksperimental asosda baholashga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqotda ijtimoiy-iqtisodiy globallashuv sharoitida ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishning pedagogik mexanizmlarini aniqlash, ularni nazariy va amaliy jihatdan asoslash hamda samaradorligini baholashga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, kompetensiyaviy, innovatsion va integratsion yondashuvlarga asoslandi. Tadqiqot jarayonida avvalo ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligi, pedagogik boshqaruv, inson kapitali, innovatsion ta’lim texnologiyalari hamda globallashuv jarayonlari bilan bog‘liq mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Ushbu bosqichda qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Shuningdek, rivojlangan davlatlarning ta’lim xizmatlari bozoridagi tajribasi o‘rganilib, ularning samarali pedagogik mexanizmlari umumlashtirildi. Tadqiqotning empirik qismida oliy ta’lim muassasalari faoliyati misolida ta’lim xizmatlari sifati va raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillar aniqlash uchun sotsiologik so‘rovnoma, ekspert baholash va kuzatuv metodlari qo‘llanildi. Respondentlar sifatida professor-o‘qituvchilar, talabalar hamda ta’lim boshqaruvi mutaxassislari jalb etildi. So‘rovnoma natijalari asosida pedagogik omillarning ta’lim xizmatlari samaradorligiga ta’siri statistik jihatdan tahlil qilindi.

ISSN 3030-3907

Shuningdek, tadqiqotda pedagogik mexanizmlarning konseptual modeli ishlab chiqildi. Modelda ta’lim sifati, raqamlashtirish darajasi, innovatsion pedagogik texnologiyalar, akademik mobillik, xalqaro hamkorlik va kompetensiyaviy yondashuv kabi omillarning o‘zaro bog‘liqligi tizimli ravishda ifodalandi. Modelni shakllantirishda strukturaviy-funksional tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish va grafik vizualizatsiya usullaridan foydalanildi. Eksperimental tadqiqot bosqichida ishlab chiqilgan pedagogik mexanizmlarning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Tajriba va nazorat guruhlari shakllantirilib, ularda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim metodlari joriy etildi. Olingan natijalar taqqoslama tahlil asosida baholandi hamda ularning ishonchliligi matematik-statistik usullar, jumladan foizli tahlil, korrelyatsion tahlil va dinamik taqqoslash metodlari yordamida tekshirildi. Natijada tadqiqot metodologiyasi ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishning pedagogik mexanizmlarini kompleks baholash, ularning amaliy samaradorligini aniqlash hamda zamonaviy globallashuv sharoitida rivojlantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Ushbu tadqiqotni tashkil etishda masalaga haddan tashqari “quruq” nazariy yondashuvdan qochib, real ta’lim jarayoniga yaqinroq turadigan, amaliy natija beradigan uslubni tanlashga harakat qilindi. Chunki ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligi — bu faqat tushuncha emas, balki kundalik pedagogik faoliyatda seziladigan real natijadir. Shu sababli tadqiqot metodologiyasi nazariy tahlil bilan cheklanib qolmay, amaliy tajriba va eksperiment bilan boyitildi. Tadqiqotda aralash yondashuv (mixed approach) qo‘llanildi. Ya’ni bir tomondan ilmiy adabiyotlar, mavjud nazariyalar va xalqaro tajribalar o‘rganildi, ikkinchi tomondan esa real o‘quv jarayonida sinov o‘tkazildi. Bu yondashuv masalaga har ikki tomondan — nazariy va amaliy jihatdan qarash imkonini berdi. Ish uch bosqichda olib borildi. Dastlab mavjud holat o‘rganildi, ya’ni talabalarning bilim darajasi, darslarga qiziqishi, o‘qitish metodlarining samaradorligi tahlil qilindi. Keyingi bosqichda shu muammolarni hisobga olgan holda pedagogik model ishlab chiqildi. Eng muhim bosqich esa ushbu modelni amaliyotda sinab ko‘rish bo‘ldi. Tadqiqot oliy ta’lim muassasasida olib borildi. Unda jami 120 nafar talaba ishtirok etdi. Ular ikki guruhga bo‘lindi:

- 60 nafar talaba — eksperimental guruh
- 60 nafar talaba — nazorat guruhi

Guruhlarni shakllantirishda ularning boshlang‘ich bilim darajasi deyarli bir xil bo‘lishiga e’tibor berildi. Bu keyinchalik olingan natijalarni solishtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Tadqiqot davomida bir nechta usullar birgalikda qo‘llanildi. Masalan:

ISSN 3030-3907

• Kuzatuv — oddiy qilib aytganda, dars jarayoni diqqat bilan kuzatildi. Qaysi metod ishlayapti, qaysisi yo‘q — shu aniqlandi.
• So‘rovnoma — talabalardan bevosita fikr olindi. Ular darslar haqida nima o‘ylaydi, qaysi usullar ularga qulay — shu o‘rganildi.
• Eksperiment — eng muhim qism. Yangi pedagogik yondashuvlar amalda qo‘llab ko‘rildi.
• Taqqoslash — eski va yangi usullar natijalari solishtirildi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan model murakkab sxema emas, balki sodda va amaliy jihatdan tushunarli tizimga asoslandi. U beshta asosiy qismdan iborat bo‘ldi:

1. Maqsad — ta’lim sifatini oshirish va talabani real hayotga tayyorlash
2. Mazmun — faqat nazariya emas, balki amaliy ko‘nikmalarni berish
3. Usullar — interaktiv darslar, muammoli vaziyatlar, muhokamalar
4. Texnologiya — onlayn platformalar, raqamli vositalar
5. Natija — talabaning bilim darajasi va mustaqil fikrlashi

Aslida, modelning asosiy g‘oyasi juda oddiy: talaba darsda passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘lishi kerak.

Eksperimental guruhda darslar biroz boshqacha tashkil qilindi. An’anaviy “ma’ruza va yozish” usulidan biroz chetga chiqildi. Quyidagilar qo‘llanildi:

• muammoli savollar asosida dars boshlash
• kichik guruhlarda ishlash
• real hayotiy vaziyatlarni muhokama qilish
• raqamli platformalardan foydalanish
• har bir darsda fikr almashish

Nazorat guruhida esa odatdagi, an’anaviy usullar davom ettirildi. Eksperiment bir semestr davomida olib borildi. Bu vaqt ichida talabalar asta-sekin yangi tizimga moslashdi. Natijalarni baholashda faqat ballarga qarab qolmadi. Bir nechta mezon hisobga olindi:

• talabalar baholari
• ularning darsdagi faolligi
• mustaqil fikrlash darajasi
• darsdan qoniqish hissi

Eng qiziq tomoni shundaki, ayrim talabalar dastlab yangi usullarga biroz qiynaldi, lekin vaqt o‘tishi bilan ular ancha faol va mustaqil bo‘lib borishdi.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi shuni ko‘rsatdiki, ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish uchun faqat tashkiliy o‘zgarishlar yetarli emas. Eng katta o‘zgarish aynan dars ichida, pedagogik jarayonning o‘zida bo‘lishi kerak.

ISSN 3030-3907

Tadqiqotning bu bosqichida asosiy e’tibor qog‘ozdagi modelga emas, balki u amalda qanday ishlaganiga qaratildi. Chunki nazariyada hamma narsa chiroyli ko‘rinadi, lekin haqiqiy natija dars jarayonida, talabaning o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Eksperiment boshlanishidan oldin ikkala guruh ham deyarli bir xil holatda edi. Talabalar bilim darajasi o‘rtacha, darsdagi faollik esa unchalik yuqori emas edi. Ko‘pchilik darsda tinglovchi rolida qolib, faollik kam namoyon qilardi. Oddiy qilib aytganda, bu biz ko‘nikib qolgan klassik holat edi: o‘qituvchi tushuntiradi, talaba yozadi, lekin hamma ham chuqur o‘ylab, faol ishtirok etavermaydi. Bir semestr davomida eksperimental guruhda darslar boshqacha tashkil etildi. Darslar ko‘proq muloqotga, muhokamaga va mustaqil fikrlashga yo‘naltirildi. Shu kichik o‘zgarishlar asta-sekin katta natija bera boshladi.

Semestr oxiriga kelib quyidagi holat kuzatildi:

- talabalar darsda ancha faol bo‘lib qoldi;
- savol berishdan cho‘chimaydigan bo‘ldi;
- fikrini asoslab gapirishga harakat qildi;
- darsni “majburiyat” emas, jarayon sifatida qabul qila boshladi.

Eng muhim o‘zgarish — talabalar o‘qishga boshqacha qaray boshladi.

Raqamlar ham bu o‘zgarishni tasdiqladi. Eksperimental guruhda o‘rtacha baholar sezilarli oshdi. Bu oddiy “ball ko‘tarildi” degani emas — bu bilim sifati yaxshilanganini ko‘rsatadi. Nazorat guruhida ham kichik o‘sish bo‘ldi, lekin u tabiiy jarayon doirasida qoldi. Eksperimental guruhdagi o‘sish esa ancha sezilarli bo‘ldi.

Eng qiziq jihat shundaki, o‘zgarish faqat baholarda emas, balki talabalar fikrlashida ham sezildi. Masalan:

- oldin tayyor javob kutgan talabalar endi o‘zi izlanishga harakat qila boshladi;
- muammoli savollarda tezroq fikr yurita boshladi;
- jamoada ishlash ko‘nikmasi ancha yaxshilandi.

Bu esa ta’limning asl maqsadiga yaqinlashganini ko‘rsatadi.

So‘rovnoma natijalari ham juda muhim ma’lumot berdi. Eksperimental guruhdagi talabalar darslar haqida quyidagilarni aytdi:

- “darslar qiziqarli bo‘ldi”;
- “o‘z fikrimni aytish imkoniyati paydo bo‘ldi”;
- “faqat yozib o‘tirishdan ko‘ra, muhokama qilish osonroq ekan”;
- “material yaxshiroq yodda qolmoqda”.

Bu oddiy gaplar bo‘lsa ham, ularning ortida katta pedagogik o‘zgarish turibdi.

Tahlil davomida shunday xulosa qilish mumkin bo‘ldi: muammo ko‘pincha talabaning o‘zida emas, balki o‘qitish usulida bo‘ladi.

Agar dars:

ISSN 3030-3907

• faqat bir tomonlama bo‘lsa → talaba passiv bo‘ladi
• interaktiv bo‘lsa → talaba o‘z-o‘zidan faollashadi

Shu sababli eksperimental guruhda qo‘llanilgan oddiy o‘zgarishlar (savol berish, muhokama, guruh ishlari) katta natija berdi.

Natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, pedagogik usullar bilan natija o‘rtasida aniq bog‘liqlik bor. Oddiy qilib aytganda:

• qancha ko‘p interaktivlik → shuncha yaxshi natija
• qancha ko‘p ishtirok → shuncha chuqur o‘zlashtirish

Bu bog‘liqlik tasodifiy emas, balki tizimli ekanligi kuzatildi. Tadqiqotdan kelib chiqqan eng oddiy, lekin muhim xulosa shuki:

Talabani o‘zgartirish uchun avvalo darsni o‘zgartirish kerak. Ya’ni, ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish uchun:

• yangi bino qurish yetarli emas,
• yangi fan qo‘shish ham yetarli emas, eng muhim o‘zgarish — pedagogik jarayonning o‘zida bo‘lishi kerak.

Olingan natijalarni shunchaki “yaxshi chiqdi” deb baholash yetarli emas. Muhimi — bu natijalar nimani anglatadi, ular boshqa tadqiqotlar bilan qanchalik mos keladi va eng asosiysi, amaliyot uchun qanday xulosa chiqarish mumkin — shuni tushunishdir. Avvalo, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligi masalasi ko‘p hollarda noto‘g‘ri talqin qilinadi. Amaliyotda bu tushuncha ko‘pincha tashqi omillar bilan bog‘lanadi: yangi bino, zamonaviy jihozlar, xalqaro hamkorlik va hokazo. Albatta, bular muhim, lekin tadqiqot natijalari yana bir bor ko‘rsatdiki, asosiy omil — bu darsning o‘zi, ya’ni pedagogik jarayondir. Bu xulosa xalqaro tadqiqotlar bilan ham mos keladi. Masalan, kompetensiyaviy yondashuvni o‘rgangan tadqiqotchilar (Mulder, 2017) ta’lim samaradorligi aynan o‘quv jarayonining tashkil etilishiga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni ta’limga integratsiya qilish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar (OECD, 2021) ham shuni ko‘rsatadiki, texnologiyaning o‘zi emas, balki uni qanday qo‘llash muhim hisoblanadi. Bizning natijalar ham aynan shu fikrni tasdiqladi. Biroq, bu yerda bir muhim jihatni tan olish kerak: har qanday yangi pedagogik yondashuv darhol natija bermaydi. Eksperiment davomida ham ayrim talabalar dastlab yangi usullarga moslashishda qiynaldi. Bu tabiiy holat, chunki ko‘p yillar davomida shakllangan an’anaviy o‘qitish tizimidan chiqish oson emas.

Demak, pedagogik o‘zgarishlar bosqichma-bosqich va tizimli ravishda amalga oshirilishi kerak. Yana bir muhim jihat — o‘qituvchining roli. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, eng zamonaviy texnologiyalar ham o‘qituvchining faolligi va yondashuvisiz kutilgan natijani bermaydi. Ya’ni, muammo ko‘pincha texnologiya yetishmasligida emas, balki undan samarali foydalanish ko‘nikmasida bo‘ladi. Bu

ISSN 3030-3907

esa o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini alohida e’tiborga olish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari ta’limda individual yondashuvning ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi. Har bir talaba bir xil tezlikda va bir xil usulda o‘rganmaydi. Eksperimental guruhda aynan shu jihat hisobga olingani natijaning oshishiga sabab bo‘ldi. Bu esa ta’lim xizmatlari sifatini oshirishda “hamma uchun bir xil model” samarasiz ekanini ko‘rsatadi. Biroq tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Masalan, eksperiment faqat bir semestr davomida o‘tkazildi va ishtirokchilar soni nisbatan cheklangan edi. Bundan tashqari, barcha fanlar yoki barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun natijalar bir xil bo‘lishi ham kafolatlanmaydi. Shu sababli kelgusida tadqiqotni kengroq miqyosda, turli sharoitlarda o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish uchun murakkab va qimmat loyihalardan ko‘ra, ba’zan oddiy, lekin to‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik yondashuvlar ko‘proq samara beradi. Eng muhimi — talabaning darsdagi ishtirokini oshirish va uni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishdir.

Ushbu tadqiqotni yakunlar ekanmiz, eng avvalo bir narsani aniq aytish mumkin: ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish deganda ko‘pincha tashqi o‘zgarishlar — yangi binolar, zamonaviy texnika yoki xalqaro aloqalar ko‘z oldimizga keladi. Ammo olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, eng katta o‘zgarish aslida dars ichida, ya’ni pedagogik jarayonning o‘zida sodir bo‘ladi.

Tadqiqot davomida sinovdan o‘tkazilgan yondashuvlar oddiy ko‘rinsa-da, ular sezilarli natija berdi. Talabalar darsga boshqacha munosabat bilan qaray boshladi, faolroq bo‘ldi, mustaqil fikrlashga harakat qildi. Eng muhimi, ular o‘qishni “majburiyat” sifatida emas, balki o‘zlari uchun foydali jarayon sifatida qabul qila boshladi. Bu esa ta’lim sifatining oshganini bildiradi. Shu o‘rinda bir muhim xulosaga kelish mumkin: ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish uchun katta va murakkab islohotlardan boshlash shart emas. Ba’zan kichik, lekin to‘g‘ri yo‘naltirilgan pedagogik o‘zgarishlar ancha katta samara beradi. Masalan, oddiy savol-javob, muhokama yoki guruh bilan ishlash kabi metodlar talabani darsga tortadi va uning fikrlashini faollashtiradi. Tadqiqot yana shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar bugungi kunda ta’limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Lekin bu yerda asosiy masala texnologiyaning o‘zida emas, balki uni qanday ishlatishda. Agar u faqat ko‘rgazma uchun bo‘lsa, natija bermaydi. Ammo to‘g‘ri qo‘llansa, u o‘quv jarayonini ancha samarali qiladi. Yana bir muhim jihat — individual yondashuv. Har bir talaba turlicha o‘rganadi, turlicha fikrlaydi. Shu sababli hammaga bir xil yondashuv har doim ham yaxshi natija bermaydi. Eksperiment davomida talabaga moslashilgan yondashuv natijaning oshishiga sezilarli ta’sir qilgani kuzatildi.

ISSN 3030-3907

XULOSA. Olingan natijalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni berish mumkin:

- darslarni imkon qadar interaktiv shaklga o‘tkazish, ya’ni talabani faol ishtirokchiga aylantirish;
- o‘qituvchilarning zamonaviy metodlar bo‘yicha malakasini oshirishga jiddiy e’tibor qaratish;
- raqamli texnologiyalarni shunchaki qo‘llash emas, balki uni pedagogik maqsadga xizmat qildirish;
- talabalar uchun individual yondashuvni bosqichma-bosqich joriy etish;
- dars jarayonida muntazam fikr almashish (feedback) tizimini yo‘lga qo‘yish.

Oddiy qilib aytganda, ta’limni yaxshilash uchun avvalo darsni yaxshilash kerak. Chunki talaba uchun ta’lim tizimi aynan dars orqali namoyon bo‘ladi. Agar dars samarali bo‘lsa, qolgan tizim ham asta-sekin o‘zgaradi.

Shu sababli ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishning eng to‘g‘ri yo‘li — bu pedagogik yondashuvni zamonaviylashtirish, talabani markazga qo‘yish va uni faol o‘quv jarayoniga jalb qilishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Porter Michael E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press.
2. Kotler Philip, & Keller Kevin Lane (2016). *Marketing Management* (15th ed.). Pearson Education.
3. Becker Gary S. (1993). *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education* (3rd ed.). Chicago: University of Chicago Press.
4. OECD (2021). *Education at a Glance 2021: OECD Indicators*. Paris: OECD Publishing.
5. World Bank (2020). *World Development Report 2021: Data for Better Lives*. Washington, DC: World Bank.
6. Mulder Martin (2017). Competence-based vocational and professional education: Bridging the worlds of work and education. *Springer International Publishing*.
7. Graham Charles R. (2013). Emerging practice and research in blended learning. In M. G. Moore (Ed.), *Handbook of Distance Education* (pp. 333–350). Routledge.
8. North Douglass C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press.
9. UNESCO (2022). *Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education*. Paris: UNESCO.

ISSN 3030-3907

10. UNWTO (2022). *Global Report on Digital Transformation and Innovation in Tourism*. Madrid: UNWTO.
11. Schwab Klaus (2017). *The Fourth Industrial Revolution*. Crown Business.
12. Salmon Gilly (2013). *E-tivities: The Key to Active Online Learning*. Routledge.
13. Biggs John, & Tang Catherine (2011). *Teaching for Quality Learning at University*. Open University Press.
14. European Commission (2020). *Digital Education Action Plan 2021–2027*. Brussels.
15. World Economic Forum (2020). *The Future of Jobs Report*. Geneva: WEF.

ИССЛЕДОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНГИБИТОРОВ КОРРОЗИИ ГРАВИМЕТРИЧЕСКИМ МЕТОДОМ В УСЛОВИЯХ ШУРТАНСКОГО ГАЗОКОНДЕНСАТНОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ

Евстафеев Евгений Александрович
Филиал РГУ нефти и газа (НИУ) имени И.М. Губкина в г. Ташкенте, преподаватель
E-mail: johnnygeniy@mail.ru
Сафонов Энвер Дмитриевич
Филиал РГУ нефти и газа (НИУ) имени И.М. Губкина в г. Ташкенте, студент

Annotatsiya. Mazkur ishda Sho‘rtan gaz-kondensat koni quduqlarini ekspluatatsiya qilish sharoitlarini modellashtiruvchi muhitda po‘lat korroziyasini ingibirlash samaradorligi tadqiq etildi. Korroziya tezligi gravimetrik usul yordamida, tarkibida xloridlar va karbonat angidrid mavjud bo‘lgan hamda qatlam suvini imitatsiya qiluvchi eritmada metall namunalarning massa yo‘qotishi asosida baholandi. Ingibitor sifatida titan oksidi (TiO_2) nanozarrachalari hamda amidamin turidagi IK GRDC-0421 ingibitori ko‘rib chiqildi. Shuningdek, ingibitorlar qo‘llanilmagan holatda korroziya tezligi gazkondensat konlarining agressiv muhitlariga xos bo‘lgan yuqori qiymatlarga yetishi ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: korroziya, ingibitor, gravimetrik usul, nanozarrachalar, gaz-kondensat koni, quduq.

Аннотация. В данной работе исследована эффективность ингибирования коррозии стали в условиях, моделирующих эксплуатацию скважин Шуртанского газоконденсатного месторождения. Оценка скорости коррозии проводилась гравиметрическим методом по потере массы металлических образцов в растворе, имитирующем пластовую воду с содержанием хлоридов и углекислого газа. В качестве ингибиторов рассматривались наночастицы оксида титана (TiO_2) и ингибитор амидоаминного типа ИК GRDC-0421. Также показано, что в отсутствие ингибиторов скорость коррозии достигает высоких значений, характерных для агрессивных сред газоконденсатных месторождений.

Ключевые слова: коррозия, ингибитор, гравиметрический метод, наночастицы, газоконденсатное месторождение, скважина.

Abstract. This study investigates the efficiency of steel corrosion inhibition under conditions simulating the operation of wells at the Shurtan gas condensate field. The corrosion rate was evaluated using the gravimetric method based on the mass loss of metal samples in a solution simulating formation water containing chlorides and carbon dioxide. Titanium oxide (TiO_2) nanoparticles and the amidoamine-type inhibitor IK GRDC-0421 were considered as corrosion

inhibitors. The study also demonstrates that, in the absence of inhibitors, the corrosion rate reaches high values characteristic of aggressive environments in gas condensate fields.

Key words: corrosion, inhibitor, gravimetric method, nanoparticles, gas condensate field, well.

ВВЕДЕНИЕ.

В процессе эксплуатации нефтегазовых скважин одной из основных проблем является коррозионное разрушение металлов [1-3], обусловленное воздействием агрессивных компонентов пластовых флюидов, таких как углекислый газ, вода и хлориды [2,3]. Коррозия приводит к снижению прочности трубопроводов, увеличению гидравлических потерь и сокращению срока службы оборудования [1].

Одним из наиболее перспективных ингибиторов, позволяющих эффективно бороться с коррозией при добыче газа является диоксид титана (TiO_2), который представляет собой неорганическое соединение, широко применяемое в различных отраслях промышленности благодаря своей химической стабильности, низкой токсичности и высокой устойчивости к агрессивным средам [1,2]. К основным особенностям наночастиц TiO_2 относятся: высокая удельная поверхность, повышенная адсорбционная способность, увеличение химической активности, способность к формированию устойчивых защитных покрытий. Ингибирующее действие наночастиц TiO_2 реализуется за счет комплекса физико-химических процессов. Во-первых, частицы адсорбируются на поверхности металла, формируя плотный защитный слой (рисунок 1). Во-вторых, данный слой выполняет барьерную функцию, препятствуя диффузии агрессивных компонентов среды, таких как ионы хлора (Cl^-), углекислый газ (CO_2) и кислород.




Рисунок 1 – Структура и развитие пористой оксидной пленки TiO_2 [1]

ISSN 3030-3907

Кроме того, наночастицы TiO_2 оказывают влияние на электрохимические процессы коррозии, снижая скорость как анодных, так и катодных реакций. Таким образом, ингибирование коррозии в присутствии TiO_2 носит адсорбционно-пленочный характер. Указанные свойства обусловливают их высокую эффективность в процессах ингибирования коррозии металлов [1,2].

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ. Оценка скорости коррозии в данной работе проводилась гравиметрическим методом, основанным на определении потери массы металлического образца после воздействия агрессивной среды.

Сущность метода заключается в сравнении массы образца до и после проведения эксперимента. Потеря массы характеризует количество металла, перешедшего в раствор в результате коррозионных процессов. Данный метод является одним из наиболее простых и наглядных способов количественной оценки коррозии металлов [4,5].

К основным преимуществам гравиметрического метода относятся: высокая точность при соблюдении условий эксперимента, простота реализации, возможность прямого определения скорости коррозии. Однако метод имеет ряд ограничений, связанных с необходимостью строгого соблюдения условий проведения эксперимента. В частности, требуется полное удаление продуктов коррозии с поверхности образца без дополнительного механического повреждения, что может влиять на точность измерений [5].

Скорость коррозии при гравиметрическом методе определяется по величине потери массы, отнесенной к площади поверхности образца и времени воздействия среды:

$$V = \frac{\Delta m}{S \cdot \mathrm{t}} \qquad (1)$$

где Δm – потеря массы образца, г; S – площадь поверхности образца, м²; t – продолжительность испытания, ч.

Для перевода скорости коррозии в мм/год использовалось соотношение:

$$v_k = \frac{8{,}76 \cdot \mathrm{V}}{\rho} \qquad (2)$$

где v_k – скорость коррозии, мм/год; V – скорость коррозии, г/(м²·ч); ρ – плотность металла, г/см³.

Эффективность ингибирования определялась по формуле:

$$\eta = \frac{v_{k0} - v_k}{v_{k0}} \cdot 100\ \% \qquad (3)$$

ISSN 3030-3907

где v_{k0} – скорость коррозии без ингибитора; v_k – скорость коррозии при использовании ингибитора.

Полученные значения позволяют оценить интенсивность коррозионного разрушения и эффективность применяемых ингибиторов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ. На основе экспериментальных данных выполнен расчет потери массы, скорости коррозии на образце без ингибитора, с ингибитором ИК GRDC-0421 и с TiO_2 в качестве ингибитора. Дополнительно определена эффективность ингибирования и проведена оценка влияния коррозионных процессов на срок службы оборудования. Результаты расчета приведены в таблице 1.

Таблица 1

Результаты гравиметрического расчета

Случай	Δm, г	V, г/м²·ч	v_k, мм/год	η, %
Без ингибитора	0,3	1,25	1,4	0
ИК GRDC-0421	0,14	0,583	0,65	53,333
TiO_2	0,1	0,417	0,47	66,667

Сравнительный анализ полученных данных показывает, что применение ингибиторов приводит к существенному снижению скорости коррозии. В частности, использование ингибитора ИК GRDC-0421 снижает скорость коррозии более чем в 2 раза по сравнению с исходным случаем. При этом эффективность ингибирования составляет более 50%. Наиболее высокий защитный эффект наблюдается при использовании наночастиц TiO_2, где снижение скорости коррозии достигает примерно 3 раз, а эффективность ингибирования составляет около 67%, это связано с высокой удельной поверхностью наночастиц и их способностью формировать плотный защитный слой на поверхности металла. Полученные результаты свидетельствуют о том, что наноструктурированные материалы обладают более выраженными защитными свойствами по сравнению с традиционными ингибиторами.

Полученные результаты согласуются с опубликованными исследованиями, посвященными применению покрытий и защитных слоев на основе диоксида титана. Согласно литературным данным, эффективность TiO_2 определяется не только его химической стойкостью, но и способностью формировать плотный барьерный слой на поверхности металла, препятствующий проникновению агрессивных компонентов среды.

Анализ экспериментальных данных, представленных на рисунке 2, показывает, что увеличение толщины покрытия TiO_2 приводит к устойчивому снижению скорости коррозии независимо от температуры

ISSN 3030-3907

эксплуатации. При отсутствии покрытия наблюдаются максимальные значения скорости коррозии, тогда как увеличение толщины защитного слоя обеспечивает последовательное снижение интенсивности коррозионного разрушения. Это подтверждает адсорбционно-пленочный механизм действия TiO_2, рассмотренный ранее.




Рисунок 2 – Влияние толщины покрытия TiO_2 на скорость коррозии при различных температурах [6]

Особый интерес представляет влияние температуры на эффективность защитного покрытия. Как видно из рисунка 3, повышение температуры от 40 до 60 °C сопровождается увеличением скорости коррозии во всех исследованных случаях. Однако наличие покрытия TiO_2 существенно уменьшает интенсивность этого роста. При максимальной толщине покрытия скорость коррозии остается значительно ниже по сравнению с незащищенной поверхностью даже при повышенных температурах.

ISSN 3030-3907




Рисунок 3 – Влияние температуры на скорость коррозии при различных уровнях покрытия TiO_2 [6]

Полученные зависимости подтверждают возможность применения наночастиц TiO_2 в условиях нефтегазовых месторождений, где оборудование подвергается воздействию агрессивных пластовых вод, углекислого газа и повышенных температур. Формирование устойчивого защитного слоя способствует не только снижению скорости коррозии, но и увеличению срока службы технологического оборудования.

Следует отметить, что интенсивность коррозии в условиях эксплуатации скважин существенно зависит от скорости потока флюида. Увеличение скорости приводит к росту дебита, однако одновременно усиливает коррозионные процессы. При высоких скоростях потока происходит разрушение защитных пленок и усиление массопереноса агрессивных компонентов к поверхности металла, что приводит к резкому увеличению скорости коррозии [2,3]. Таким образом, существует оптимальный диапазон скоростей потока, при котором достигается компромисс между повышением дебита и минимизацией коррозионного износа оборудования. Зависимость интенсивности коррозии от скорости потока (рисунок 4) показывает, что при увеличении скорости движения флюида наблюдается нелинейный рост скорости коррозии.

ISSN 3030-3907




Рисунок 4 – Характер интенсивности коррозии от скорости [2]

Полученные экспериментальные значения скорости позволяют сделать вывод о расширении допустимого диапазона скоростей потока при использовании ингибиторов. В частности, снижение скорости коррозии при применении TiO_2 позволяет увеличить допустимую скорость потока без превышения критических значений коррозионного износа, что приводит к увеличению дебита скважины. Приняв допустимую скорость коррозии 1 мм/год получим увеличенные значения скорости потока флюида, результаты приведены в таблице 2.

Таблица 2

Оценка влияния ингибиторов на допустимую скорость потока и дебит

Случай	v_k,мм/год	v*, м/с	Q/Q_0
Без ингибитора	1,4	4,3	0,71
ИК GRDC-0421	0,65	9,2	1,54
TiO_2	0,47	12,8	2,13

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ.

Таким образом, результаты проведенного исследования показывают, что применение ингибиторов коррозии существенно снижает интенсивность коррозионного разрушения оборудования в условиях, моделирующих эксплуатацию скважин Шуртанского газоконденсатного месторождения. Наиболее высокой эффективностью характеризуются наночастицы оксида титана TiO_2, обеспечивающие снижение скорости коррозии примерно в 3 раза по сравнению с исходным случаем без ингибитора. Установлено, что снижение скорости коррозии позволяет увеличить допустимую скорость потока флюида без превышения критических значений коррозионного износа оборудования. Это создает

ISSN 3030-3907

предпосылки для повышения дебита скважин и увеличения эффективности доразработки месторождения. В частности, применение TiO_2 позволяет увеличить допустимую скорость потока более чем в 2 раза по сравнению с эксплуатацией без ингибитора. Полученные результаты подтверждают перспективность использования наноструктурированных ингибиторов для защиты нефтегазопромыслового оборудования в агрессивных средах газоконденсатных месторождений и повышению надежности эксплуатации скважин.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Розенфельд И. Л. Ингибиторы коррозии — М.: Химия, 1977. — 350 с.
2. Томашов Н. Д., Чернова Г. П. Теория коррозии и защиты металлов — М.: Металлургия, 1974. — 400 с.
3. Жук Н. П. Курс теории коррозии и защиты металлов — М.: Металлургия, 1976. — 472 с.
4. Тихвинская М. Ю., Волынский В. Е. Практикум по химической технологии — М.: Просвещение, 1984. — 160 с.
5. Ямпольская А. М. Контроль качества защитных покрытий — Л.: Машиностроение, 1966. — 232 с.
6. K. Somayeh, G. Bahram, Y. Reza. The effect of nanoparticle coating on anticorrosion performance of centrifugal pump blades // Jordan J Mech Ind Eng. – 2018. – Vol. 12. – No. 2. – P. 117-122.

ISSN 3030-3907

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI O‘QITISHDA KOGNITIV-KOMMUNIKATIV YONDASHUV: NAZARIY ASOSLARI VA INNOVATSION METODLARI

Jumayeva Sadbarg Mirolimovna
O‘zDJTU, Ingliz tili 3-fakulteti, Ingliz tili amaliy fanlar №3 kafedrasi
ORCID:0009-0006-2805-2883
E-mail: Sadbarg_8788@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola frazeologik birliklarni interaktiv metodlar asosida o‘rgatishning samarali yo‘llarini tahlil etishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda til ta’limida interaktiv metodlarning semantik, stilistik va madaniy xususiyatlarini o‘rgatishdagi dolzarb muammolar va ularni interaktiv metodlar yordamida bartaraf etishning nazariy hamda amaliy asoslari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: interaktiv metodlar, til o‘rgatish, kontekstual yondashuv, madaniy komponent, muammoli vaziyat, rolli o‘yin, dramatizatsiya, grafik-organayzer, milliy mentalitet, stilistik yuklama.

Abstract. This article is devoted to analyzing effective ways of teaching phraseological units through interactive methods. The study examines current issues related to teaching the semantic, stylistic, and cultural features of interactive methods in language education, as well as the theoretical and practical foundations for overcoming these challenges through interactive teaching approaches.

Keywords: interactive methods, language teaching, contextual approach, cultural component, problem-based situation, role-play, dramatization, graphic organizer, national mentality, stylistic load.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу эффективных способов обучения фразеологическим единицам на основе интерактивных методов. В исследовании рассматриваются актуальные проблемы преподавания семантических, стилистических и культурных особенностей языка с использованием интерактивных методов, а также теоретические и практические основы их преодоления посредством современных интерактивных подходов к обучению.

Ключевые слова: интерактивные методы, обучение языку, контекстуальный подход, культурный компонент, проблемная ситуация, ролевая игра, драматизация, графический органайзер, национальный менталитет, стилистическая нагрузка.

KIRISH.

So‘nggi yillarda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, bilimga bo‘lgan qiziqishi, izlanish ruhidagi faoliyati, muloqotga kirisha olish qobiliyatini rivojlantirish masalalari ta’lim sohasining dolzarb muammolaridan biriga

ISSN 3030-3907

aylangan. Bunda interaktiv metodlar asosiy vosita sifatida maydonga chiqmoqda. Ayniqsa, frazeologik birliklarni o‘rgatishda o‘quvchilarning faol ishtirokini talab qiladigan, muloqotga asoslangan, kontekstda o‘zlashtiriladigan yondashuvlar zarur bo‘ladi. Frazeologik birliklar mazmunan murakkab, konnotativ ranglarga boy, milliylik bilan sug‘orilgan birliklar bo‘lganligi sababli, ularni faqatgina ta’rif va yodlash asosida o‘rgatish samarali emas. Shu boisdan, interaktiv metodlardan foydalanish orqali bu til birliklarini o‘rganish jarayoniga innovatsion yondashuvni joriy etish mumkin.

Interaktiv ta’lim metodlari zamonaviy pedagogikaning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi asosida shakllanadi. Bu metodlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zgaruvchan jamiyatda talab etiladigan yangi avlod shaxsini tarbiyalash maqsadida ishlab chiqildi. Bunday metodlar psixologik-pedagogik yondashuvlarning integratsiyasiga asoslanadi: konstruktivizm, kommunikativ yondashuv, faoliyatga asoslangan ta’lim va kooperativ o‘qitish[8]. Masalan, konstruktivizm nazariyasiga ko‘ra, har bir shaxs bilimni tayyor holatda emas, balki o‘zining faoliyat tajribasi orqali yaratadi. Demak, frazeologizmlarni o‘rganayotgan o‘quvchi ularni turli kontekstlarda qo‘llab, ularning mazmunini shaxsiy tahlil orqali anglab yetadi. Bu esa interaktiv metodlarga katta ehtiyoj tug‘diradi. Interaktiv metodlar nafaqat bilim berish, balki shaxsiy rivojlanishni, ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish, kreativ fikrlash, ko‘p nuqtayi nazardan yondashishni ta’minlaydi. Ular quyidagi didaktik imkoniyatlarga ega[9]:

- O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi;
- Faol ishtirok, ijodiy yondashuv, jamoaviy muhokamani rivojlantiradi;
- Tillarni o‘rganishda nutqiy faollikni oshiradi;
- Frazeologik birliklarning konnotatsion ma’nosini, uslubiy rangini chuqur anglashga yordam beradi;
- Madaniy kontekstni anglashga xizmat qiladi.

Misol uchun, “Ko‘z quvonchi” frazeologik birligini kitobiy ta’rifda emas, balki roli o‘ynalgan hayotiy vaziyatda (masalan, yangi tug‘ilgan chaqaloqni tabriklash sahnasida) ishlatish orqali o‘quvchi bu iboraning chuqur ma’nosini his etadi, eslab qoladi va kerakli joyda qo‘llashni o‘rganadi.

Interaktiv metodlar ko‘plab shakl va usullarga ega. Ular quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ajratiladi:

Muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish (PBL) — bu o‘quvchilarni faollashtirishga qaratilgan ta’lim yondashuvi bo‘lib, unda bilim faqat o‘qituvchi

[8] Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). *Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning* (5th ed.). Allyn & Bacon.
[9] Jonassen, D. H. (1999). *Designing Constructivist Learning Environments*. In C. M. Reigeluth (Ed.), *Instructional-Design Theories and Models: A New Paradigm of Instructional Theory* (Vol. II, pp. 215–239). Lawrence Erlbaum.

ISSN 3030-3907

tomonidan emas, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish va muammoni hal qilish jarayoni orqali shakllanadi[10].

Frazeologik birliklarni o‘rgatishda PBL o‘quvchilarning lingvistik va madaniy bilimlarini chuqurlashtiradi. Masalan, “Milliy mentalitetni ifodalovchi frazeologizmlar” mavzusida berilgan muammo — “Nega ‘Yuziga fotiha o‘qildi’ degan ibora doim salbiy ma’noda qo‘llaniladi?” — o‘quvchilarda frazeologizmlarning lug‘aviy va madaniy ma’nolari ustida mustaqil izlanish olib borishga undaydi. Natijada, ular bu iboraning ijtimoiy konnotatsiyasi, uning tarixiy va madaniy konteksti bilan tanishadi. Bunday muammoli vaziyatlar o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, argumentatsiya va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi (Hmelo-Silver, 2004).

Rol o‘ynash va dramatizatsiya usullari: Rol o‘ynash va dramatizatsiya metodlari frazeologik birliklarni jonli, kontekstual tarzda o‘rganishga imkon beradi. Bu usullar o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini oshirish bilan birga, frazeologizmlarning stilistik va emosional yuklamasini chuqurroq anglashiga xizmat qiladi[11].

Masalan, “Tilini yutib yuboray dedi” frazeologizmini ifodalovchi sahna yaratish jarayonida o‘quvchilar frazeologizmni faqat lug‘aviy ma’nosidan emas, balki uning hayotiy kontekstda qanday ishlatilishini ham o‘rganadilar. Bu jarayon ijodkorlikni rag‘batlantiradi va kommunikativ vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga yordam beradi.

Grafik-organayzerlardan foydalanish: Grafik-organayzerlar – bilimlarni tizimlashtirish va vizual ko‘rinishda ifodalash uchun samarali vositalardan biridir (Novak & Cañas, 2008).

1. **Cluster** (to‘plam diagrammasi) frazeologizmlarni tematik guruhlarga ajratishda qo‘llaniladi. Masalan, “Tana a’zolari bilan bog‘liq frazeologizmlar” klasterida o‘quvchilar bog‘liq iboralarni guruhlab, ularning umumiy xususiyatlari va farqlarini tahlil qiladilar.

2. **Venn diagrammasi** yordamida o‘zbek va ingliz tilidagi frazeologik birliklarni taqqoslash o‘quvchilarga ikki til o‘rtasidagi madaniy va lingvistik farqlarni ko‘rish imkonini beradi, bu esa tarjima va madaniyatlararo tushunishni rivojlantiradi.

Ko‘rgazmali-metodik vositalardan foydalanish: Ko‘rgazmali vositalar o‘quv jarayonini yanada jonli va esda qolarli qiladi.

[10] Barrows, H. S. (1986). *A taxonomy of problem-based learning methods* (p. 3). Medical Education, 20(6), 481–486. https://doi.org/10.1111/j.1365-2923.1986.tb01386.x

[11] Bonwell, C. C., & Eison, J. A. (1991). *Active learning: Creating excitement in the classroom* (pp. 5–6). ASHE-ERIC Higher Education Report No. 1. Washington, DC: The George Washington University, School of Education and Human Development.

ISSN 3030-3907

1. **Frazeologik kartochkalar** — har bir kartochkada frazeologizm va uning kontekstda ishlatilishi misollari beriladi. O‘quvchi kartochkani tahlil qilib, iboraning ma’nosini va qo‘llanilish holatini mustaqil ravishda o‘rganadi, bu mustaqil o‘rganish va mustahkamlash uchun muhimdir (Mayer, 2001).

2. **Mantiqiy zanjir** usuli frazeologik iborani mantiqiy tarzda tushuntirishga yordam beradi. Masalan, iboraning ma’nosini tushuntirib, undan keyingi ehtimoliy voqealar yoki oqibatlarni taxmin qilish o‘quvchilarda sabab-oqibat munosabatlarini rivojlantiradi.

Texnologik vositalar asosidagi metodlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, interaktivlikni kuchaytiradi hamda ta’lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi (Wang et al., 2014).

1. **Quizizz, Kahoot** kabi platformalar frazeologik birliklar bo‘yicha testlarni o‘tkazishda foydalaniladi. Bu o‘quvchilarda raqobat va qiziqish uyg‘otib, bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

2. **Jamboard, Padlet** kabi onlayn kollaborativ vositalar yordamida frazeologizmlar bilan bog‘liq munozaralar, fikrlar almashish va assotsiatsiyalar yaratish mumkin. Bu o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantiradi.

3. **YouTube-dan frazeologizmlar ishlatilgan video tahlili** esa tilni real kontekstda eshitish va tushunishni oshiradi, frazeologizmlarning nutqiy vaziyatlardagi qo‘llanilishini vizual ravishda ko‘rsatadi.

1. Muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish (Problem-based learning). Bu yondashuv o‘quvchining mustaqil fikrlashi, kuzatuvchanligi va muammoni hal qilish kompetensiyasini shakllantiradi.

Misol: Mavzu: “Milliy mentalitetni ifodalovchi frazeologizmlar” Muammo: Nega “Yuziga fotiha o‘qildi” degan ibora doim salbiy ma’noda qo‘llaniladi?

O‘quvchilar bu frazeologizmning lug‘aviy va madaniy ma’nosini muhokama qiladilar va yakunda uning ijtimoiy konnotatsiyasini aniqlaydilar.

2. Rol o‘ynash va dramatizatsiya usullari: Bu usullar frazeologizmlarni jonli kontekstda o‘rganish imkonini beradi. **Misol:** “Tilini yutib yuboray dedi” frazeologizmini ifodalovchi sahnani yaratish: o‘quvchilardan biri to‘satdan kutilmagan mehmon kelganida hayratlanadi, qolganlar esa bu holatni rol orqali ifodalaydi.

3. Grafik-organayzerlardan foydalanish: Bilimlarni vizual tarzda tizimlashtirishga xizmat qiladi.

- “Cluster” – frazeologizmlarni tematik guruhlarga ajratish: masalan, “tana a’zolari bilan bog‘liq frazeologizmlar”.

ISSN 3030-3907

• “Venn diagrammasi” – o‘zbek va ingliz tilidagi frazeologik birliklarni taqqoslash.

4. Ko‘rgazmali-metodik vositalardan foydalanish

• **Frazeologik kartochkalar** – ibora va u bilan bog‘liq kontekst beriladi. O‘quvchi uni tahlil qiladi va kerakli holatda qo‘llaydi.

• **“Mantiqiy zanjir” usuli** – frazeologik iborani mantiqiy tarzda tushuntirish va undan keyingi hodisani taxmin qilish.

5. Texnologik vositalar asosidagi metodlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari interaktiv metodlarning samaradorligini oshiradi.

• **Quizizz, Kahoot** orqali frazeologik testlar o‘tkazish;

• **Jamboard yoki Padlet** orqali onlayn munozaralar, frazeologik assotsiatsiyalar yaratish;

• **YouTube-dan frazeologizmlar ishlatilgan video tahlili.**

Ta’lim jarayonida o‘quvchining psixologik faolligini ta’minlash — zamonaviy pedagogikaning asosiy talablaridan biridir. Chunki shunchaki bilim berish emas, balki o‘quvchining bilishga, izlanishga, bahslashishga, savollar berishga, fikr bildirishga tayyor ruhiy holatini shakllantirish zamonaviy ta’lim samaradorligining mezoniga aylangan. Aynan **interaktiv metodlar** o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi[12].

Psixologik jihatdan faollik deganda, o‘quvchining:

• e’tiborini dars mavzusiga yo‘naltirishi,

• o‘z fikrini mustaqil va erkin bildira olishi,

• boshqalarning fikrini tinglab, o‘z pozitsiyasini himoya qilishi,

• vaziyatni tahlil qilish va unga nisbatan shaxsiy munosabat bildira olish qobiliyatlari nazarda tutiladi.

Bu kabi sifatlar, ayniqsa, **frazeologik birliklar** kabi emotsional, obrazli va ko‘p qatlamli ma’noga ega til birliklarini o‘rganishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchi uni nafaqat tushunib olishi, balki his qilishi, his-hayajon bilan qabul qilishi, uni real hayotdagi holatlar bilan bog‘lashi zarur.

Frazeologizmlar va psixologik idrok: Frazeologik birliklar ko‘pincha inson hissiyotlari, kayfiyati, psixik holati, hayotiy vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan:

– “Yuragi og‘ziga chiqdi” – qo‘rquv, hayajon

– “Ko‘ngli g‘ash” – ranjish, g‘am

– “Boshi osmonga yetdi” – shodlik, zavq

[12]Bonwell, C. C., & Eison, J. A. (1991). *Active learning: Creating excitement in the classroom*. ASHE-ERIC Higher Education Report No. 1. Washington, DC: The George Washington University, School of Education and Human Development.

ISSN 3030-3907

Bu iboralarni chuqur anglash uchun o‘quvchining *emotsional empatiyasi*, ya’ni holatni his qilish qobiliyati rivojlangan bo‘lishi kerak. Interaktiv metodlar bu qobiliyatni rag‘batlantiradi.

Interaktiv metodlar va hissiy idrok: Ko‘plab interaktiv metodlar o‘quvchining shaxsiy tajribasiga, hissiyotlariga tayanadi. Jumladan:

– **Rollarni o‘ynash**: o‘quvchi ibora mazmunini sahnada ifodalashi, obrazga kirishi orqali uni chuqur his qiladi.

o *Masalan:* “Yuragi hovuchiga sig‘madi” iborasi dramatizatsiya qilinadi: o‘quvchi hayajonli vaziyatda yuragi tez urayotgan personajni jonlantiradi.

– **Bahsli muhokamalar**: frazeologik iboraning qo‘llanilishi to‘g‘rimi yoki yo‘qmi? Qaysi vaziyatda ishlatish joiz? O‘quvchilar fikr bildiradi, isbotlaydi, tahlil qiladi.

– **Assotsiativ metodlar**: biror frazeologik birikmaga shaxsiy assotsiatsiyalar beriladi. Bu orqali iboraning shaxsiy mazmuni shakllanadi.

Misol: “Tilidan asal tomadi” iborasiga o‘quvchi “buvimning mehribonligi” yoki “do‘stimning muloyim gaplari” kabi real hayotiy konnotatsiyalarni bog‘laydi.

Interaktiv metodlarning motivatsiyaga ta’siri: Psixologiyada motivatsiya — shaxsning faoliyatga intilishini belgilovchi ichki kuch sifatida qaraladi. Interaktiv metodlar aynan o‘quvchining ichki motivatsiyasini oshiradi:

– O‘z fikrini bildirish imkoniyati uni qadrlanganini his ettiradi.

– Bahslashish, munozara qilish unga faollik bag‘ishlaydi.

– Faoliyatga asoslangan topshiriqlar (ijodiy yozish, jamoaviy sahna ko‘rinishi) – o‘zini namoyon qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, interaktiv yondashuvlar yordamida frazeologizmlarni o‘rganish jarayoni o‘quvchi uchun shunchaki lug‘aviy bilim emas, balki *ruhiy-mazmunli tajriba*ga aylanadi. Bu esa bilimlarning chuqurroq singishiga xizmat qiladi.

Psixolingvistik yondashuv: Psixolingvistika fanida til birliklari faqat mantiqiy emas, balki hissiy-idrokiy tizimda ham shakllanishi va qo‘llanilishi nazarda tutiladi. Frazeologizmlar aynan shunday birliklardir[13]. Ular:

– obrazli;

– his-hayajonga boy;

– konnotatsiyali;

– madaniy semantikani o‘z ichiga oladi.

ISSN 3030-3907

Interaktiv metodlar bu ko‘p qatlamli semantikani ochib berish uchun mos vosita hisoblanadi. O‘quvchi faqat so‘zlarning tarjimasini emas, balki ularning mazmuniy psixologik konnotatsiyasini anglaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). *Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning* (5th ed.). Allyn & Bacon.
2. Jonassen, D. H. (1999). *Designing Constructivist Learning Environments*. In C. M. Reigeluth (Ed.), *Instructional-Design Theories and Models: A New Paradigm of Instructional Theory* (Vol. II, pp. 215–239). Lawrence Erlbaum.
3. Barrows, H. S. (1986). *A taxonomy of problem-based learning methods* (p. 3). Medical Education, 20(6), 481–486. https://doi.org/10.1111/j.1365-2923.1986.tb01386.x
4. Leontyev, A. A. (1999). *Psikholingvistika*. Moskva: Smysl.
5. Bonwell, C. C., & Eison, J. A. (1991). *Active learning: Creating excitement in the classroom*. ASHE-ERIC Higher Education Report No. 1. Washington, DC: The George Washington University, School of Education and Human Development.

ISSN 3030-3907

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA AXLOQIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI)

Inomxo‘jaeva Sanobar Muxammadixonovna
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: s.inomkhujaeva@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida axloqiy qadriyatlarning transformatsiyasi ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. XXI asrning global axborot oqimi va raqamli texnologiyalar hukmronligida qadriyatlarning shakllanishi, ularning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi va qadimiy an’anaviy axloqiy normalar bilan yuzaga kelayotgan ziddiyatlar ilmiy izohlanadi. Axborotlashgan jamiyatda kommunikativ maydonlarning kengayishi, ijtimoiy tarmoqlarning dominant kuch sifatida vujudga chiqishi hamda virtual makondagi axloqiy xulq-atvor me’yorlari an’anaviy qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqishga majbur qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, maqolada qadriyatlar tizimining dinamikasi, axborotlashuvning inson ongiga ko‘rsatadigan transformativ ta’siri hamda axloqiy tamoyillarning universallashuvi va relativlashuvi jarayonlari falsafiy asosda ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Axborotlashgan jamiyat, axloqiy qadriyatlar, transformatsiya, ijtimoiy-falsafiy tahlil, globalizatsiya, raqamli madaniyat, kommunikativ maydon, ijtimoiy ong, virtual makon, axloqiy me’yorlar.

Аннотация. В статье анализируется трансформация моральных ценностей в условиях информационного общества с социально-философской точки зрения. В эпоху глобальных информационных потоков и господства цифровых технологий рассматриваются процессы формирования ценностей, их адаптация к новой социальной среде, а также возникающие противоречия с традиционными моральными нормами. Раскрывается влияние расширения коммуникативных пространств, доминирование социальных сетей и формирование норм морального поведения в виртуальной среде, что заставляет переосмысливать традиционные ценности. В данной связи в статье философски обоснованы динамика системы ценностей, трансформирующее воздействие информатизации на человеческое сознание, а также процессы универсализации и релятивизации моральных принципов.

Ключевые слова: информационное общество, моральные ценности, трансформация, социально-философский анализ, глобализация, цифровая культура, коммуникативное пространство, социальное сознание, виртуальная среда, моральные нормы.

Abstract. The article analyzes the transformation of moral values in the context of the information society from a socio-philosophical perspective. In the era of

global information flows and the dominance of digital technologies, the processes of value formation, their adaptation to the new social environment, and the emerging contradictions with traditional moral norms are scientifically explained. The study reveals the influence of expanding communicative spaces, the dominance of social networks, and the establishment of moral behavior norms in the virtual sphere, which necessitates a rethinking of traditional values. From this standpoint, the article philosophically substantiates the dynamics of the value system, the transformative impact of informatization on human consciousness, as well as the processes of universalization and relativization of moral principles.

Keywords: information society, moral values, transformation, socio-philosophical analysis, globalization, digital culture, communicative space, social consciousness, virtual sphere, moral norms.

KIRISH.

Axborotlashgan jamiyat zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotining o‘ziga xos bosqichi bo‘lib, u insoniyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini tubdan o‘zgartirmoqda. XXI asrda insoniyat hayoti raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, global kommunikatsiya tarmoqlari va tezkor axborot almashinuvi asosida qayta qurilmoqda. Mazkur jarayonlarning eng muhim oqibatlaridan biri — axloqiy qadriyatlarning transformatsiyasidir. Chunki axloqiy qadriyatlar jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, ma’naviy madaniyati va shaxsning ongli faoliyatida asosiy tartibga soluvchi mezon sifatida amal qilib kelgan. Biroq axborotlashgan muhit ushbu qadriyatlarni yangi sharoitlarga moslashishga, ba’zi hollarda esa ularni butunlay qayta talqin qilishga majbur etmoqda. Avvalo, “axborotlashgan jamiyat” tushunchasi ijtimoiy-falsafiy ilmda yangi paradigma sifatida qaraladi. Bu tushuncha nafaqat texnologik jarayonlarni, balki inson tafakkurining yangicha shakllanishini ham ifodalaydi. Masalan, M. Kastels o‘zining “Axborot davri” konsepsiyasida axborot texnologiyalari jamiyatning asosiy ishlab chiqarish resursiga aylanganini ta’kidlaydi. Shuningdek, A. Toffler “Uchinchi to‘lqin” asarida insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini axborot oqimlari va kommunikatsiya jarayonlarining ustuvorligi bilan izohlaydi[1]. Bu yondashuv shuni ko‘rsatadiki, axborot jamiyatining falsafiy mohiyati faqatgina texnik taraqqiyot emas, balki ijtimoiy ong, madaniyat va axloqiy tizimlarning tubdan o‘zgarishidir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, axloqiy qadriyatlarning transformatsiyasi masalasi dolzarb bo‘lib chiqadi. Chunki qadriyatlar doimo jamiyatni barqarorlashtiruvchi va uni ma’naviy jihatdan uyg‘unlashtiruvchi funksiyani bajargan. Masalan, sharqona tafakkurda “halollik”, “adolat”, “or-nomus”, “mehr-oqibat” kabi qadriyatlar ijtimoiy hayotning poydevorini tashkil etgan. G‘arb falsafasida esa “erkinlik”, “inson sha’ni”, “huquqiy tenglik” kabi qadriyatlar jamiyatning demokratik tuzilishini ta’minlab kelgan[2]. Ammo

ISSN 3030-3907

axborotlashgan muhitda mazkur qadriyatlar o‘zining an’anaviy ko‘rinishida saqlanib qolmayapti. Ular yangi kommunikativ makonlarda qayta talqin qilinmoqda. Misol uchun, internet va ijtimoiy tarmoqlarda “sha’niyat” tushunchasi ko‘pincha shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, kiberxavfsizlik va axborot erkinligi kabi tushunchalar bilan bog‘lanmoqda. Bundan tashqari, axborotlashgan jamiyatning muhim jihati shundaki, u insonlarning kundalik xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsning axloqiy qarorlari ko‘p hollarda real hayotdagi ijtimoiy normalardan ko‘ra virtual makondagi “layk”, “kommentariya” yoki “obunachi soni” kabi indikatorlarga qarab shakllanmoqda[3]. Bu esa qadriyatlarning baholash mezonlarini o‘zgartiradi. Natijada qadriyatlarning ijtimoiy mazmuni bilan ularning virtual ekvivalenti o‘rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Shu bilan birga, qadriyatlarning transformatsiyasi doimo ikkiyoqlama xarakter kasb etadi: bir tomondan, axborot muhitida qadriyatlar universallashtiriladi, ya’ni turli madaniyatlar va jamiyatlar o‘rtasida umumiy qadriyatlar paydo bo‘ladi; ikkinchi tomondan esa, ular relativlashadi, ya’ni qadriyatlar ko‘proq sub’ektiv talqin va individual ehtiyojlarga bog‘lanadi. Axborotlashuv jarayoni qadriyatlarning demokratlashuviga ham olib kelmoqda. Ilgari faqat elitalar yoki diniy institutlar tomonidan shakllantirilgan qadriyatlar endilikda keng omma tomonidan muhokama qilinmoqda va qayta baholanmoqda. Misol tariqasida, ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga keladigan global kampaniyalarni ko‘rsatish mumkin: masalan, “MeToo” harakati axloqiy qadriyatlarning jamoaviy muhokama jarayonida qayta shakllanishining yorqin namunasi bo‘ldi[4]. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, axborotlashgan jamiyatda qadriyatlar endi faqat an’anaviy institutlar emas, balki keng kommunikativ maydonlar ta’sirida ham shakllanmoqda.

Inson ongining shakllanishi va rivojlanishi, aslida, qadriyatlar tizimiga bevosita bog‘liqdir. Axborot oqimining tezligi va ko‘lami insonni doimiy yangilikka intilish, tezkor xulosa chiqarish va qisqa muddatli manfaatlarga ustuvorlik berishga majbur qilmoqda[5]. Bu esa an’anaviy qadriyatlar — sabr-toqat, uzoq muddatli rejalashtirish, chuqur tafakkur kabi me’yorlarning zaiflashuviga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, yangi axborot texnologiyalari orqali shakllanayotgan qadriyatlar — tezkorlik, ochiqlik, global hamkorlik va virtual birdamlik kabi tushunchalar jamiyat ongiga chuqur singmoqda. Shu o‘rinda yana bir falsafiy jihatni ta’kidlash zarur: qadriyatlarning transformatsiyasi hech qachon to‘liq “yo‘qolish” yoki “paydo bo‘lish” ko‘rinishida kechmaydi. Aksincha, qadriyatlar doimo “qayta talqin”, “moslashuv” yoki “dinamika” jarayonlari orqali rivojlanadi. Misol uchun, sharqona madaniyatda oilaviy qadriyatlar doimiy ravishda muhim o‘rin tutgan bo‘lsa, axborotlashgan jamiyatda bu qadriyatlar global migratsiya, masofaviy mehnat va virtual muloqot ta’sirida

ISSN 3030-3907

yangi ko‘rinish kasb etmoqda. Endilikda “oilaviy birdamlik” tushunchasi nafaqat jismoniy yaqinlikni, balki virtual aloqa orqali doimiy muloqotni ham o‘z ichiga olmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Axborotlashgan jamiyatda axloqiy qadriyatlarning transformatsiyasini tadqiq etishda xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ularning konseptual qarashlari mazkur masalani keng qamrovli falsafiy asosda anglash imkonini beradi. Masalan, amerikalik sotsiolog Manuel Kastels o‘zining “Axborot davri: iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat” nomli fundamental tadqiqotida axborotlashuv jarayonini global miqyosda ijtimoiy munosabatlarning yangi modeli sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, axborot jamiyati nafaqat iqtisodiy va siyosiy tizimni o‘zgartiradi, balki shaxs ongidagi axloqiy tamoyillarni ham qayta shakllantiradi. Kastels axborot tarmoqlari orqali qadriyatlarning universallashuvi va ularning milliy-madaniy kontekstdan chiqib ketishini alohida ta’kidlaydi[6]. Bunday yondashuv qadriyatlarning transformatsiyasini global kommunikativ maydon bilan bog‘laydi va ularning ijtimoiy ongdagi nisbiyligini ko‘rsatadi. Boshqa tomondan, nemis faylasufi Yürgen Habermasning kommunikativ harakat nazariyasi mazkur mavzuni tahlil qilishda muhim falsafiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Habermasning nazariyasiga ko‘ra, axloqiy qadriyatlarning barqarorligi va ularning ijtimoiy hayotdagi legitimligi muloqot jarayonida shakllanadi. Axborotlashgan jamiyatda esa ushbu muloqot jarayonlari tobora ko‘proq virtual makonga ko‘chib o‘tmoqda va natijada qadriyatlar “ochiq diskurs” orqali qayta belgilab olinmoqda. Habermasning nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, qadriyatlar transformatsiyasi oddiy bir yo‘nalishda emas, balki doimiy ravishda bahs-munozara, konsensus va qarama-qarshiliklar asosida amalga oshadi[7]. Demak, Kastels va Habermas qarashlari o‘zaro uzviy bog‘liq holda axborotlashgan jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o‘zgarish mexanizmlarini ikki qirrali tarzda ochib beradi: bir tomondan, global tarmoqlar qadriyatlarning universallashuvi va yangi axloqiy kodlarning shakllanishiga zamin yaratmoqda (Kastels), ikkinchi tomondan esa, bu jarayon faqat kommunikativ diskurslar, ijtimoiy dialog va muloqotlar orqali ijtimoiy ongda mustahkamlanmoqda (Habermas). Shu bois mazkur olimlarning konsepsiyalari axborotlashuv sharoitida qadriyatlarning transformatsiyasini falsafiy va sotsiologik jihatdan chuqurroq tushunishga imkon beradi.

METODOLOGIK ASOSLAR. Mazkur tadqiqotda axborotlashgan jamiyatda axloqiy qadriyatlar transformatsiyasini tahlil qilishda ijtimoiy-falsafiy tafakkurning ko‘p qirrali yondashuvlari metodologik poydevor sifatida qo‘llanildi, xususan, dialektik yondashuv qadriyatlarning dinamik va ziddiyatli rivojlanish tabiatini ochib berishda qo‘llanilib, axborotlashuv jarayonining

ISSN 3030-3907

qadriyatlar tizimiga ko‘rsatadigan qarama-qarshi ta’sirlarini tushuntirishga xizmat qildi; komparativ tahlil metodi an’anaviy axloqiy me’yorlar bilan zamonaviy virtual qadriyatlarni qiyosiy ravishda solishtirish va ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligini aniqlashda muhim o‘rin tutdi; sotsiokultural yondashuv axborotlashuvning ma’naviy-madaniy jarayonlarga kirib kelishi va ijtimoiy ong transformatsiyasini tushunishga yo‘naltirildi; normativ-aksiologik metod esa qadriyatlarning mazmuni, ularning jamiyatni barqarorlashtiruvchi yoki beqarorlashtiruvchi roli va axloqiy me’yorlarning ijtimoiy hayotdagi funksiyalarini falsafiy tahlil qilishga asos bo‘ldi; nihoyat, diskursiv-analitik yondashuv yordamida axborotlashgan jamiyatda qadriyatlar transformatsiyasining kommunikativ jarayonlarda qayta shakllanishi, ya’ni muloqot, bahs-munozara va ijtimoiy diskurslar orqali legitimlashuvi izohlandi, shunday qilib tadqiqot metodologiyasi uzviy bog‘liq usullar majmuasi asosida shakllanib, mavzuni chuqur va keng qamrovli ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish imkonini berdi.

NATIJALAR. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, axborotlashgan jamiyatda axloqiy qadriyatlar transformatsiyasi uzluksiz va ko‘p qirrali jarayon sifatida namoyon bo‘lib, bir tomondan, qadimiy va an’anaviy me’yorlarning zaiflashuvi va qayta talqin qilinishi, ikkinchi tomondan esa, global axborot oqimlari ta’sirida yangi axloqiy paradigmalarning shakllanishi kuzatildi, bunda qadriyatlar universallashuvi va relativlashuvi bir vaqtning o‘zida kechib, jamiyat ongida yangi axloqiy kodlar — tezkorlik, ochiqlik, global birdamlik va virtual muloqot ustuvor o‘rin egallay boshladi, shu bilan birga axborotlashuv jarayonlari qadriyatlarning ijtimoiy diskurslarda qayta legitimlanishini ta’minlab, ularni nafaqat milliy madaniyatlar, balki transmilliy kommunikativ maydonlar darajasida ham muhokama qilinishini yuzaga chiqardi.

MUXOKAMA. Axborotlashgan jamiyatda axloqiy qadriyatlar transformatsiyasi masalasi borasida turli olimlar o‘rtasida ilmiy bahs va polemikalar yuzaga kelmoqda. Xususan, Manuel Kastels va Yürgen Habermasning qarashlari o‘zaro uyg‘un va ziddiyatli jihatlarni qamrab olgani bois, ushbu mavzuni chuqurroq yoritishda ular o‘rtasidagi ilmiy polemika alohida ahamiyatga ega. Manuel Kastels o‘zining “Axborot davri” kontseptsiyasida global tarmoqlarning jamiyat hayotiga ta’sirini markaziy o‘ringa qo‘yadi[8]. Uning fikricha, axborotlashuv jarayonlari qadriyatlarning an’anaviy ramziy chegaralarini buzib, ularni global miqyosda universallashtirmoqda. Unga ko‘ra, qadriyatlar endilikda alohida bir jamiyatning yoki milliy madaniyatning o‘ziga xosligi bilan cheklanmaydi, balki ularning taqdiri global kommunikativ maydon bilan chambarchas bog‘lanadi. Kastelsning konsepsiyasida “tarmoqlashgan jamiyat” modeli qadriyatlarning transformatsiyasini ijtimoiy-iqtisodiy va

ISSN 3030-3907

madaniy jarayonlar bilan uzviy bog‘lab tushuntiradi[9]. Habermas esa, aksincha, qadriyatlar transformatsiyasini faqat texnologik jarayonlarga bog‘lashni biryoqlama yondashuv deb hisoblaydi. U o‘zining “Kommunikativ harakat nazariyasi”da qadriyatlarning barqarorligi va ularning legitimligi ijtimoiy diskurs va ochiq muloqot orqali ta’minlanishini ta’kidlaydi. Habermas nazarida, axborotlashuv qadriyatlarning shakllanishiga vosita sifatida xizmat qilishi mumkin, biroq ularning mazmunini belgilab bera olmaydi[10]. Chunki har qanday axloqiy norma yoki qadriyat faqat ijtimoiy muloqot jarayonida, ya’ni konsensus va bahs orqali o‘z kuchini topadi. Demak, uning yondashuvi qadriyatlarning transformatsiyasini ijtimoiy diskursiy jarayonlarga ko‘proq urg‘u berish orqali izohlaydi. Bu ikki olimning qarashlarini qiyosiy tahlil qilganda, Kastels qadriyatlar transformatsiyasining global kontekstini yoritib, texnologiya va kommunikatsiya tarmoqlarini markaziy omil sifatida ilgari sursa, Habermas qadriyatlarning ijtimoiy diskurslar orqali shakllanishini muhim deb biladi. Kastelsning nazariyasi qadriyatlarning universallashuvini asoslab, ularning global oqimlarda erkin harakat qilishini ijobiy jarayon sifatida ko‘radi. Habermas esa, agar qadriyatlar muloqot asosida shakllanmasa, ular yuzaki va zaif bo‘lib qolishini ta’kidlaydi. Shunday qilib, ularning bahsida ikki muhim jihat yuzaga chiqadi: birinchidan, axborotlashuv qadriyatlarni global maydonga olib chiqadi (Kastels), ikkinchidan esa, qadriyatlar faqat ijtimoiy diskursiy jarayonlarda mustahkamlanadi (Habermas). Bu ikki qarash uyg‘unlashgan holda axborotlashgan jamiyatdagi qadriyatlar transformatsiyasini har tomonlama tushunishga imkon beradi.

XULOSA. Axborotlashgan jamiyat sharoitida axloqiy qadriyatlarning transformatsiyasi zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotining eng muhim falsafiy-madaniy jarayonlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur transformatsiya qadriyatlarning yo‘qolishi yoki rad etilishi emas, balki ularning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashuvi, qayta talqini va zamonaviy ong shakllariga integratsiyalashuvi bilan izohlanadi. An’anaviy qadriyatlar — halollik, adolat, inson sha’ni va mehr-oqibat kabi tushunchalar axborotlashuv oqibatida yangi mazmun kasb etib, raqamli madaniyat, global birdamlik va virtual etik normalar bilan uyg‘unlashmoqda. Shu bilan birga, qadriyatlarning transformatsiyasi ikkiyoqlama xususiyatga ega bo‘lib, bir tomondan universallashuv, ikkinchi tomondan esa relativlashuv jarayonlarini keltirib chiqarmoqda. Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, axborotlashuv qadriyatlarni global kommunikativ maydonlarga olib chiqib, ularni transmilliy jarayonlarning bir qismi sifatida shakllantirsa-da, ularning haqiqiy legitimligi va barqarorligi ijtimoiy diskurs, ochiq muloqot va madaniy konsensus orqali mustahkamlanadi. Shu nuqtayi nazardan, Kastelsning tarmoqlashgan jamiyat haqidagi konsepsiyasi

ISSN 3030-3907

va Habermasning kommunikativ harakat nazariyasi o‘zaro uyg‘unlikda axborotlashgan jamiyatdagi qadriyatlar transformatsiyasining ikki asosiy mexanizmini — texnologik globalizatsiya va diskursiy konsensusni yoritib beradi. Xulosa qilib aytganda, axborotlashgan jamiyatda axloqiy qadriyatlarning transformatsiyasi ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan murakkab, ammo ijobiy oqibatlarga ega bo‘lgan jarayon bo‘lib, u jamiyatni yangicha ma’naviy paradigmalarga olib chiqmoqda. Shu bois, mazkur jarayonni ilmiy asosda chuqur tahlil qilish va uni milliy hamda global madaniyatlar kontekstida to‘g‘ri boshqarish kelajakdagi barqaror taraqqiyotning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qiyom o‘g‘li O. A. et al. AXBOROTLASHGAN JAMIYAT VA UNING ISTIQBOLLARI //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2025. – Т. 70. – №. 5. – С. 426-429.
2. Atxamjonovna B. D., Shohbozbek E. RESPUBLIKAMIZDA MAKTABGACHA TA'LIMDA YOSHLARNING MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 221-228.
3. Shohsanam U., Dilyora A., Marhabo S. RIVOJLANAYOTGAN JAMIYATDA QADRIYATLAR DINAMIKASI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2025. – Т. 3. – №. 34. – С. 244-250.
4. Abdusattarovna O. X., Shohbozbek E. IJTIMOIY FALSAFADA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 175-182.
5. Yuldashev S. JAMIYAT TRANSFORMATSIYALASHUVINING YANGI IJTIMOIY-MADANIY USULLARI //Farg‘ona davlat universiteti. – 2023. – №. 1. – С. 40-40.
6. Diloram M., Shohbozbek E. O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNING MA’NAVIY DUNYO QARASHINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 207-215.
7. Ismatov A. AXBOROTLASHGAN JAMIYAT: IJTIMOIY ONG VA TARAQQIYOT NUQTAI NAZARIDAN FALSAFIY QARASHLAR //Наука и технология в современном мире. – 2025. – Т. 4. – №. 12. – С. 64-67.
8. Ергашбаев Ш. O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish //Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 314-316.

ISSN 3030-3907

9. Turapov V. AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING TRANSFORMATSIYASI //TAMADDUN NURI JURNALI. – 2024. – T. 11. – №. 62. – C. 308-310.
10. Muruvvat A., Shohbozbek E. O‘ZBEKISTONDA MA'NAVIY VA AHVOQIY QADRYATLARDA MAKTABGACHA TA'LIMNING RO‘LI //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 2. – C. 246-253.

YO‘LOVCHI TASHUVCHI VAGONLARDA O‘RINDIQ TEBRANISHLARINI KAMAYTIRISHNING ERGONOMIK VA KONSTRUKTIV ASOSLARI

Zuxridinov Xayotbek Kaxramonjon o‘g‘li
Toskent davlat transport universiteti, PhD, dotsent v.b.
Email: hayotbek6868@mail.ru
G‘aniyev Farruxbek Bobir o‘g‘li
Toskent davlat transport universiteti, mustaqil izlanuvchisi
Email: farruxbekganiyev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yo‘lovchi tashuvchi temir yo‘l vagonlarida yuzaga keladigan tebranishlarning yo‘lovchilar salomatligi va komfort darajasiga ta’siri tahlil qilindi. Tadqiqot davomida o‘rindiqlarda hosil bo‘ladigan vibratsiyalar manbalari, ularning inson organizmiga biomekanik ta’siri hamda mavjud konstruksiyalarning kamchiliklari o‘rganildi. Ergonomik talablar asosida zamonaviy amortizatsion materiallar, elastik birikmalar va vibratsiyani yutuvchi konstruktiv elementlardan foydalanish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, taklif etilgan konstruktiv yechimlar yo‘lovchi o‘rindiqlaridagi tebranish amplitudasini sezilarli darajada kamaytirishi hamda yo‘lovchilarning qulaylik ko‘rsatkichlarini oshirishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: vibratsiya, ergonomika, yo‘lovchi vagoni, o‘rindiq konstruktsiyasi, amortizatsiya, komfort, tebranish, elastik materiallar, dinamik yuklama, vibratsion xavfsizlik.

Abstract. This article analyzes the impact of vibrations occurring in passenger railway cars on passenger health and comfort levels. During the study, the sources of vibrations generated in the seats, their biomechanical impact on the human body, and the shortcomings of existing structures were studied. Based on ergonomic requirements, the possibilities of using modern shock absorbing materials, elastic connections, and vibration-absorbing structural elements have been scientifically substantiated. According to the research results, it was determined that the proposed structural solutions significantly reduce the vibration amplitude in passenger seats and enhance passenger comfort indicators.

Keywords: vibration, ergonomics, passenger car, seat design, shock absorption, comfort, vibration, elastic materials, dynamic load, vibration safety.

Аннотация. В данной статье проанализировано влияние вибраций, возникающих в пассажирских железнодорожных вагонах, на здоровье и уровень комфорта пассажиров. В ходе исследования были изучены источники вибраций, возникающих в сиденьях, их биомеханическое воздействие на организм человека, а также недостатки существующих конструкций. На основе эргономических требований научно обоснованы

возможности использования современных амортизационных материалов, эластичных соединений и вибропоглощающих конструктивных элементов. Согласно результатам исследования, было установлено, что предложенные конструктивные решения значительно снижают амплитуду вибрации на пассажирских сиденьях и повышают показатели комфорта пассажиров.

Ключевые слова: вибрация, эргономика, пассажирский вагон, конструкция сидений, амортизация, комфорт, вибрация, эластичные материалы, динамическая нагрузка, вибрационная безопасность.

KIRISH.

Temir yo‘l transporti bugungi kunda dunyo bo‘yicha eng muhim strategik transport tizimlaridan biri hisoblanadi. Ushbu transport turi yuqori yuk va yo‘lovchi tashish imkoniyatlari, energiya tejamkorligi, ekologik xavfsizligi hamda uzoq masofalarga barqaror qatnovni ta’minlashi bilan boshqa transport vositalaridan ajralib turadi. So‘nggi yillarda temir yo‘l transporti tizimlarini modernizatsiya qilish, yuqori tezlikdagi poyezdlar sonini oshirish va yo‘lovchilarga ko‘rsatiladigan xizmat sifatini yaxshilash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yo‘lovchi tashuvchi vagonlarda komfort darajasini oshirish transport ergonomikasining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Komfort ko‘rsatkichlari yo‘lovchining safar davomida o‘zini qulay his qilishi, jismoniy va ruhiy charchoqning kamayishi hamda salomatligining saqlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa uzoq muddatli safarlarda yo‘lovchi organizmiga ta’sir etuvchi omillar orasida vibratsiya va tebranishlar asosiy noqulaylik manbalaridan biri hisoblanadi.

Temir yo‘l vagonlarida tebranishlar relslarning geometrik notekisligi, g‘ildirak juftliklaridagi eksantriklik, rels bo‘g‘inlari, kuzov rezonansi, tortuv dvigatellari ishlashi va aerodinamik qarshiliklar natijasida yuzaga keladi. Ushbu tebranishlar vagon kuzovi orqali o‘rindiqlarga uzatiladi hamda bevosita yo‘lovchi organizmiga ta’sir qiladi. Natijada inson organizmida turli fiziologik va psixologik noqulayliklar paydo bo‘ladi. Jumladan, bosh aylanishi, mushaklarning zo‘riqishi, bel va umurtqa pog‘onasi sohasida og‘riqlar, tez charchash, qon aylanish tizimining buzilishi va umumiy ish qobiliyatining pasayishi kuzatilishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, 4–8 Hz diapazondagi tebranishlar inson organizmi uchun ayniqsa xavfli hisoblanadi. Chunki ushbu chastota inson ichki organlari va umurtqa pog‘onasining tabiiy rezonans chastotalariga yaqin bo‘ladi. Uzoq muddat davomida bunday vibratsion ta’sir ostida qolish inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli transport vositalarida vibratsion

ISSN 3030-3907

xavfsizlikni ta’minlash zamonaviy ergonomika va mehnat muhofazasining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi [1,7].

Hozirgi vaqtda ko‘plab davlatlarda temir yo‘l transportida vibratsiyani kamaytirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalar joriy qilinmoqda. Xususan, pnevmatik amortizatsiya tizimlari, elastomer birikmalar, ko‘p qatlamli yumshoq materiallar, “memory foam” texnologiyalari va aktiv vibratsiya boshqaruv tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar nafaqat yo‘lovchilar komfortini oshiradi, balki transport xizmatlarining sifatini ham yaxshilaydi.

Shunga qaramasdan, amaliyotda foydalanilayotgan ko‘plab an’anaviy yo‘lovchi o‘rindiqlari vibratsiyani yetarli darajada kamaytira olmaydi. Ayniqsa metall karkasli qattiq konstruksiyalar tebranish energiyasini deyarli to‘liq holda yo‘lovchi tanasiga uzatadi. Natijada uzoq masofali qatnovlarda yo‘lovchilarning charchashi ortadi va safar sifati pasayadi. Shu sababli o‘rindiq konstruktsiyalarini ergonomik va konstruktiv jihatdan takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ergonomik jihatdan to‘g‘ri loyihalashtirilgan o‘rindiq inson antropometrik o‘lchamlariga mos bo‘lishi, umurtqa pog‘onasini qo‘llab-quvvatlashi, vibratsiyani yutishi hamda dinamik yuklamalarni kamaytirishi kerak. Shu bilan birga, o‘rindiq konstruktsiyasida qo‘llaniladigan materiallarning elastikligi, zichligi, amortizatsion xususiyatlari va xizmat muddati ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, temir yo‘l transportida yo‘lovchi komfortini oshirish va vibratsion xavfsizlikni ta’minlash zamonaviy transport tizimlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa yuqori tezlikdagi poyezdlar sonining ortib borishi vibratsion yuklamalarni kamaytiruvchi yangi konstruktiv yechimlarni ishlab chiqishni talab etmoqda.

Tadqiqotning asosiy мақсади yo‘lovchi tashuvchi vagonlarda o‘rindiq tebranishlarini kamaytirishning ergonomik va konstruktiv asoslarini ilmiy jihatdan o‘rganish, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda zamonaviy amortizatsion texnologiyalar asosida samarali texnik yechimlarni ishlab chiqishdan iboratdir [2].

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- yo‘lovchi vagonlarida vibratsiya hosil bo‘lish manbalarini aniqlash;
- tebranishlarning inson organizmiga ta’sirini ergonomik jihatdan baholash;
- mavjud o‘rindiq konstruktsiyalarining kamchiliklarini tahlil qilish;
- vibratsiyani kamaytiruvchi zamonaviy materiallar va amortizatsion tizimlarni o‘rganish;
- ergonomik va konstruktiv takomillashtirilgan o‘rindiq modelini ishlab chiqish.

ISSN 3030-3907

Mazkur tadqiqot natijalari temir yo‘l transportida yo‘lovchilar uchun qulay va xavfsiz sharoit yaratish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda zamonaviy yo‘lovchi vagonlari konstruktsiyalarini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy аҳамият kasb etadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI. Tadqiqot davomida temir yo‘l vagonlarida uchraydigan vibratsion jarayonlar nazariy va amaliy jihatdan o‘rganildi. Ish jarayonida quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

- texnik va ergonomik adabiyotlarni tahlil qilish;
- vibratsion yuklamalarni taqqoslash usuli;
- o‘rindiq konstruksiyalarining mexanik xususiyatlarini o‘rganish;
- elastik materiallarning vibratsiyani yutish koeffitsiyentlarini tahlil qilish;
- biomekanik baholash usuli;
- konstruktiv modellashtirish.

Yo‘lovchi vagonlaridagi vibratsiya manbalari quyidagi guruhlarga ajratildi:

- mexanik tebranishlar;
- dinamik zarbalar;
- rels notekisliklari;
- kuzov rezonansi;
- harakat tezligining o‘zgarishi.

Tadqiqot davomida o‘rindiqlarda tebranishlarni kamaytiruvchi quyidagi konstruktiv elementlar o‘rganildi (1-rasm):


- prujinali amortizatsiya tizimlari;
- pnevmatik amortizatorlar;
- poliuretan asosidagi yumshoq qatlamlar;
- elastomer birikmalar;
- vibratsiyani so‘ndiruvchi metall karkaslar.

Temir yo‘l vagonlarida harakat jarayonida relslarning notekisligi, g‘ildirak juftliklaridagi nosozliklar, podshipniklar ishlashi, aerodinamik qarshiliklar va konstruktiv tebranishlar natijasida vibratsiyalar yuzaga keladi. Ushbu vibratsiyalar vagon kuzovi orqali o‘rindiqlarga uzatiladi [3]. Natijada yo‘lovchilarda charchash, bosh aylanishi, mushak zo‘riqishi, umurtqa pog‘onasida noqulaylik va psixofiziologik stress kuzatiladi.

Bugungi kunda temir yo‘l transportida komfort masalasi muhim ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, vibratsiyalarni kamaytirishga qaratilgan ergonomik va konstruktiv yechimlarni ishlab chiqish transport ergonomikasi, sanoat dizayni va mehnat xavfsizligi sohalarining dolzarb yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Mazkur tadqiqotning maqsadi yo‘lovchi tashuvchi vagonlarda o‘rindiq tebranishlarini kamaytirishning ergonomik va konstruktiv asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda samarali texnik yechimlarni ishlab chiqishdan iborat.



1-rasm. Yo‘lovchi vagonlaridagi vibratsiya manbalari.

Vibratsiyaning inson organizmiga ta’siri ergonomik mezonlar asosida baholandi. Tadqiqotda 4–8 Hz oralig‘idagi tebranishlar inson organizmi uchun eng xavfli diapazon ekanligi aniqlandi, chunki ushbu chastotalar inson ichki organlarining tabiiy rezonans chastotalariga yaqin hisoblanadi [4,5].

TADQIQOT NATIJALARI. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy yo‘lovchi o‘rindiqlari vibratsiyani yetarli darajada kamaytira olmaydi. Metall karkasli va qattiq birikmali o‘rindiqlarda tebranishlarning asosiy qismi yo‘lovchi tanasiga bevosita uzatiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, vibratsiyani kamaytirishda quyidagi konstruktiv yechimlar samarali ekanligi aniqlandi:

1. Ko‘p qatlamli yumshoq konstruksiyalar. Poliuretan, lateks va elastomer materiallardan iborat ko‘p qatlamli o‘rindiqlar vibratsiya energiyasining bir qismini yutadi. Natijada tebranish amplitudasi kamayadi va yo‘lovchi tanasiga uzatiladigan dinamik yuklama pasayadi.

2. Prujinali amortizatsion tizimlar. O‘rindiq karkasiga integratsiyalangan spiral prujinalar zarbalarni yumshatishda samarali ishlashi aniqlandi. Bunday tizimlar ayniqsa relslar tutashgan qismlarda hosil bo‘ladigan vertikal zarbalarni kamaytiradi.

ISSN 3030-3907

3. Elastik birikmalar. Karkas va pol orasiga elastomer prokladkalar o‘rnatilishi vibratsiyaning uzatilishini 20–35 % gacha kamaytirishi mumkinligi aniqlandi.

4. Ergonomik shakllantirish. O‘rindiqning orqa qismi va bel sohasini anatomik shaklda loyihalash inson umurtqa pog‘onasiga tushadigan yuklamani kamaytiradi. Bu esa uzoq muddatli safarlarda charchashni kamaytiradi.

5. Vibratsiyani so‘ndiruvchi zamonaviy materiallar. Kompozit materiallar va “memory foam” texnologiyalari vibratsion energiyani samarali so‘ndirishi aniqlandi. Ushbu materiallar yo‘lovchi komfortini oshirish bilan birga xizmat muddatini ham uzaytiradi (2-rasm).



2-rasm. Yo‘lovchi vagonlardagi o‘rindiqlarning vibratsiyasini kamaytirishning konstruktiv yechimlari.

Tahlillar natijasida taklif etilgan modernizatsiyalangan o‘rindiq konstruktsiyasi quyidagi afzalliklarga ega ekanligi aniqlandi:

- vibratsiya amplitudasining kamayishi;
- yo‘lovchi charchoqlarining pasayishi;
- umurtqa pog‘onasiga tushuvchi yuklamaning kamayishi;
- komfort ko‘rsatkichlarining ortishi;
- shovqin va mikro tebranishlarning kamayishi.

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, temir yo‘l transportida vibratsiya muammosi kompleks xarakterga ega bo‘lib, uni faqat bitta texnik yechim bilan bartaraf etish qiyin. Vibratsiyalarni kamaytirish uchun

ISSN 3030-3907

konstruktiv, ergonomik va materialshunoslik yondashuvlarini birgalikda qo‘llash talab etiladi.

Ergonomik nuqtai nazardan qaralganda, yo‘lovchi organizmi uzoq muddatli vibratsion ta’sirlarga sezgir hisoblanadi. Ayniqsa yuqori tezlikdagi vagonlarda vibratsion yuklamalar ortib boradi. Shu sababli o‘rindiqlarni loyihalashda inson biomekanikasi va antropometrik ko‘rsatkichlarni hisobga olish muhimdir [6].

Konstruktiv jihatdan esa amortizatsion tizimlarning samaradorligi ularning elastiklik koeffitsiyenti, material tarkibi va geometrik shakliga bog‘liq. Zamonaviy kompozit materiallardan foydalanish vibratsiyani kamaytirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatadi.

Shuningdek, o‘rindiq va vagon kuzovi orasidagi bog‘lanishlarni elastiklashtirish ham muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasida elastomer prokladkalar va pnevmatik amortizatorlar kombinatsiyasi eng optimal variantlardan biri ekanligi kuzatildi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda temir yo‘l transportida “aqlli o‘rindiqlar” texnologiyasi joriy qilinmoqda. Bunday tizimlarda aktiv amortizatsiya, sensorli monitoring va avtomatik vibratsiya boshqaruvi qo‘llaniladi. Kelajakda ushbu texnologiyalarni mahalliy temir yo‘l tizimlariga ham joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida yo‘lovchi tashuvchi vagonlarda o‘rindiq tebranishlarini kamaytirish transport komfortini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Yo‘lovchi vagonlarida vibratsiyalar asosan rels notekisliklari, dinamik zarbalar va kuzov rezonansi natijasida yuzaga keladi.

2. Vibratsiyalar inson organizmiga salbiy fiziologik va psixologik таъсир ko‘rsatadi.

3. Ko‘p qatlamli yumshoq materiallar va elastomer konstruksiyalar vibratsiyani samarali kamaytiradi.

4. Prujinali va pnevmatik amortizatsion tizimlar o‘rindiq komfortini sezilarli darajada oshiradi.

5. Ergonomik shakllantirilgan o‘rindiqlar umurtqa pog‘onasiga tushadigan yuklamani kamaytiradi.

6. Zamonaviy kompozit materiallardan foydalanish vibratsion xavfsizlikni ta’minlashda istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

7. Taklif etilgan konstruktiv yechimlarni amaliyotga joriy etish yo‘lovchilarning komfort darajasini oshirish, charchoqni kamaytirish va transport xizmatlari sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Temir yo‘l transportida ergonomika asoslari. – Toshkent: Transport nashriyoti 2025yil.
2. Sh.X.Abdazimov, X.K.Zuxridinov, Sh.G.Musayev. “Ergonomika” Uslubiy qo‘llanma T: TDTU, “Transort” nashriyoti, 2024, 180 b.
3. S.S.Sulaymanov, R.S.Razikov, O.T.Aliyev, Z.SH.Tursunov “HAYOT FAOLIYAT XAVFSIZLIGI” (temir yo‘l transportida). O‘quv qo‘llanma TDTrU, “Transort” nashriyoti, 2022, 272 bet
4. Saidov A.A. “Erganomika” fanidan dasrlik. “Yoshlar matbuoti” nashriyoti 2018, 170b.
5. R.S. Bridger “Introduction to Ergonomics” This edition published in the Taylor & Francis e-Library, ISBN 0-203-42613-4, 2003, 543 p.
6. Jan Dul and Bernard Weerdmeester. “Ergonomics for Beginners” Second edition. ISBN 0-203-21209-6. 2001, 139 p.
7. ISO 2631 – Mechanical vibration and shock evaluation standards.

ПРОГНОЗИРОВАНИЕ И ПРОФИЛАКТИКА ЖЕЛЕЗОДЕФИЦИТНОЙ АНЕМИИ У БЕРЕМЕННЫХ: КЛИНИКО-ЛАБОРАТОРНЫЕ ФАКТОРЫ РИСКА И ВЛИЯНИЕ НА ИСХОДЫ БЕРЕМЕННОСТИ

Тураева Файоза Ортиковна

Клинический ординатор кафедры акушерства и гинекологии №3
Самаркандский Государственный Медицинский Университет
Самарканд, Узбекистан. Научный руководитель: PhD., Ким В.С.

Аннотация. Железодефицитная анемия является одной из наиболее распространенных форм экстрагенитальной патологии у беременных и остается значимой медико-социальной проблемой современного акушерства. Дефицит железа может формироваться до выраженного снижения гемоглобина, поэтому раннее выявление латентного железодефицита имеет важное прогностическое значение. Изучить клинико-лабораторные факторы риска развития железодефицитной анемии у беременных, определить значение ранних маркеров дефицита железа и оценить влияние профилактических мероприятий на течение беременности и перинатальные исходы. Проведен клинико-аналитический анализ данных беременных женщин с оценкой анамнестических, акушерских и лабораторных показателей. Изучались возраст, паритет, интергенетический интервал, срок постановки на учет, особенности питания, уровень гемоглобина, эритроцитов, гематокрита, сывороточного железа и ферритина. Отдельно оценивались акушерские осложнения и состояние новорожденных. Установлено, что наиболее значимыми факторами риска железодефицитной анемии являются повторные беременности, короткий интервал между родами, поздняя постановка на диспансерный учет, недостаточное употребление продуктов, богатых железом, а также снижение уровня ферритина. У беременных с анемией чаще отмечались слабость, головокружение, тахикардия, угроза преждевременных родов, фетоплацентарная недостаточность и рождение детей с более низкой массой тела. Ранняя оценка ферритина, гемоглобина и сывороточного железа позволяет своевременно выделить беременных группы риска. Профилактика, включающая коррекцию питания, препараты железа и фолиевую кислоту, способствует снижению частоты анемии и улучшению исходов беременности.

Ключевые слова: беременность, железодефицитная анемия, ферритин, гемоглобин, профилактика, факторы риска, перинатальные исходы.

Abstract. Iron deficiency anemia is one of the most common forms of extragenital pathology in pregnant women and remains a significant medical and

ISSN 3030-3907

social problem in modern obstetrics. Iron deficiency may develop before a pronounced decrease in hemoglobin levels; therefore, early detection of latent iron deficiency has important prognostic value. The aim of this study was to investigate the clinical and laboratory risk factors for the development of iron deficiency anemia in pregnant women, determine the significance of early markers of iron deficiency, and evaluate the impact of preventive measures on the course of pregnancy and perinatal outcomes. A clinical and analytical assessment of pregnant women was conducted, including the evaluation of anamnestic, obstetric, and laboratory parameters. The study analyzed maternal age, parity, interpregnancy interval, timing of antenatal registration, dietary habits, hemoglobin level, erythrocyte count, hematocrit, serum iron, and ferritin concentrations. Obstetric complications and neonatal outcomes were also assessed separately. The results demonstrated that the most significant risk factors for iron deficiency anemia were multiparity, short interpregnancy intervals, late antenatal registration, insufficient consumption of iron-rich foods, and decreased ferritin levels. Pregnant women with anemia more frequently experienced weakness, dizziness, tachycardia, threatened preterm labor, fetoplacental insufficiency, and delivered infants with lower birth weight. Early assessment of ferritin, hemoglobin, and serum iron levels enables timely identification of pregnant women at risk. Preventive measures, including dietary correction, iron supplementation, and folic acid administration, contribute to reducing the incidence of anemia and improving pregnancy outcomes.

Keywords: pregnancy, iron deficiency anemia, ferritin, hemoglobin, prevention, risk factors, perinatal outcomes.

Annotatsiya. Temir tanqisligi anemiyasi homilador ayollarda uchraydigan ekstragenital patologiyaning eng keng tarqalgan shakllaridan biri bo‘lib, zamonaviy akusherlikda muhim tibbiy-ijtimoiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Temir tanqisligi gemoglobin darajasining yaqqol pasayishidan oldin ham rivojlanishi mumkin, shu sababli latent temir tanqisligini erta aniqlash muhim prognostik ahamiyatga ega. Tadqiqotning maqsadi homilador ayollarda temir tanqisligi anemiyasi rivojlanishining klinik va laborator xavf omillarini o‘rganish, temir tanqisligining erta markerlari ahamiyatini aniqlash hamda profilaktik chora-tadbirlarning homiladorlik kechishi va perinatal natijalarga ta’sirini baholashdan iborat. Homilador ayollarning anamnestik, akusherlik va laborator ko‘rsatkichlari klinik-tahliliy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot davomida ayollarning yoshi, tug‘ruqlar soni, homiladorliklar oralig‘i, antenatal nazoratga turish muddati, ovqatlanish xususiyatlari, gemoglobin, eritrotsitlar, gematokrit, zardob temiri va ferritin darajalari baholandi. Shuningdek, akusherlik asoratlari va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning holati alohida tahlil qilindi. Aniqlanishicha,

ISSN 3030-3907

temir tanqisligi anemiyasining eng muhim xavf omillari takroriy homiladorliklar, tug‘ruqlar orasidagi qisqa interval, homiladorlik bo‘yicha kech ro‘yxatga turish, temirga boy mahsulotlarni yetarli iste’mol qilmaslik hamda ferritin darajasining pasayishi hisoblanadi. Anemiya bilan og‘rigan homiladorlarda holsizlik, bosh aylanishi, taxikardiya, muddatidan oldingi tug‘ruq xavfi, fetoplatsentar yetishmovchilik va tana vazni past bo‘lgan chaqaloqlarning tug‘ilishi ko‘proq kuzatildi. Ferritin, gemoglobin va zardob temiri darajalarini erta baholash xavf guruhidagi homiladorlarni o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Ovqatlanishni korreksiya qilish, temir preparatlari va foliy kislotasi qo‘llashni o‘z ichiga olgan profilaktik chora-tadbirlar anemiya uchrash tezligini kamaytirib, homiladorlik natijalarini yaxshilashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: homiladorlik, temir tanqisligi anemiyasi, ferritin, gemoglobin, profilaktika, xavf omillari, perinatal natijalar.

ВВЕДЕНИЕ.

Железодефицитная анемия у беременных является одной из наиболее частых патологий гестационного периода. Во время беременности потребность в железе значительно возрастает, что связано с увеличением объема циркулирующей крови, развитием плаценты, ростом плода и подготовкой организма женщины к родам. При недостаточном поступлении железа с пищей, нарушении его всасывания или истощении запасов железа постепенно формируется железодефицитное состояние, переходящее в анемию. Клиническая значимость железодефицитной анемии заключается не только в снижении гемоглобина, но и в неблагоприятном влиянии на течение беременности. Анемия ассоциирована с повышенной утомляемостью, тахикардией, снижением толерантности к физической нагрузке, угрозой преждевременных родов, плацентарной недостаточностью, хронической гипоксией плода и рождением детей с низкой массой тела. В опубликованных исследованиях по проблеме прогнозирования анемии у беременных подчеркивается значение раннего выявления нарушений эритропоэза и своевременной селективной профилактики для предупреждения осложнений гестационного периода и перинатальной патологии. В современной клинической практике особое значение имеет не только определение гемоглобина, но и оценка ферритина как показателя запасов железа. Согласно рекомендациям Всемирной организации здравоохранения, ежедневное применение железа и фолиевой кислоты во время беременности снижает риск материнской анемии, дефицита железа, низкой массы тела при рождении и преждевременных родов. Международная федерация гинекологии и акушерства также

ISSN 3030-3907

подчеркивает необходимость скрининга анемии при постановке на учет и повторного обследования в 28 недель беременности.

ЦЕЛЬ ИССЛЕДОВАНИЯ.

Изучить клинико-лабораторные факторы риска развития железодефицитной анемии у беременных, определить прогностическое значение показателей обмена железа и оценить влияние профилактических мероприятий на течение беременности и перинатальные исходы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ.

Проведен клинико-аналитический анализ беременных женщин во II-III триместрах гестации. В исследование включались беременные с одноплодной беременностью, состоявшие на диспансерном наблюдении в женской консультации. Оценивались следующие показатели: возраст, паритет, интергенетический интервал, срок постановки на учет, особенности питания, наличие анемии в анамнезе, индекс массы тела, уровень гемоглобина, эритроцитов, гематокрита, цветовой показатель, сывороточное железо и ферритин. Для оценки акушерских и перинатальных исходов анализировались частота угрозы преждевременных родов, фетоплацентарной недостаточности, преждевременных родов, масса тела новорожденного, оценка по шкале Апгар и признаки внутриутробной гипоксии плода. Беременные были условно распределены на три группы: I группа - беременные без признаков анемии; II группа - беременные с железодефицитной анемией; III группа - беременные группы риска, получавшие профилактику железодефицитной анемии. Профилактические мероприятия включали коррекцию питания, назначение препаратов железа и фолиевой кислоты по показаниям, динамический контроль общего анализа крови и ферритина.

Таблица 1.

Основные клинико-анамнестические факторы риска железодефицитной анемии у беременных

Фактор риска	**Клиническое значение**	**Прогностическая оценка**
Повторные беременности и роды	Повышенный расход запасов железа	Высокий риск латентного железодефицита

ISSN 3030-3907

Фактор риска	Клиническое значение	Прогностическая оценка
Интергенетический интервал менее 2 лет	Недостаточное восстановление депо железа после предыдущей беременности	Высокий риск анемии во II-III триместрах
Поздняя постановка на учет	Отсутствие раннего лабораторного контроля	Позднее выявление анемии
Недостаточное употребление мясных продуктов	Снижение поступления гемового железа	Риск алиментарного железодефицита
Токсикоз, рвота беременных	Нарушение питания и всасывания нутриентов	Усиление дефицита железа и фолатов
Анемия в анамнезе	Исходно сниженные запасы железа	Высокая вероятность рецидива при беременности
Обильные менструации до беременности	Хроническая потеря железа	Риск низкого ферритина уже в I триместре
Низкий социально-пищевой статус	Дефицит белка, железа, витаминов	Комбинированный нутритивный дефицит

Таблица 2.

Лабораторные показатели для прогнозирования железодефицитной анемии у беременных

Показатель	Ориентировочное значение	Изменения при риске ЖДА	Клиническая интерпретация
Гемоглобин	>=110 г/л	<110 г/л	Основной критерий анемии у беременных

ISSN 3030-3907

Показатель	Ориентировочное значение	Изменения при риске ЖДА	Клиническая интерпретация
Эритроциты	В пределах нормы беременности	Снижение	Отражает нарушение эритропоэза
Гематокрит	Индивидуально по сроку беременности	Снижение	Может отражать гемодилюцию или анемию
Цветовой показатель / MCH	Норма	Снижение	Признак гипохромии
Сывороточное железо	В пределах референса лаборатории	Снижение	Отражает недостаточное железо в циркуляции
Ферритин	Достаточный уровень депо железа	Снижение до падения Hb	Ранний маркер латентного железодефицита
Ретикулоциты	Норма	Снижение или компенсаторное повышение	Отражают активность костномозгового ответа

Результаты исследования

При анализе клинико-анамнестических данных было установлено, что железодефицитная анемия чаще наблюдалась у беременных с повторными родами, коротким интергенетическим интервалом, поздней постановкой на диспансерный учет, нерегулярным питанием и недостаточным употреблением продуктов животного происхождения.

Наиболее частыми жалобами у беременных с железодефицитной анемией были общая слабость, быстрая утомляемость, головокружение, сердцебиение, одышка при физической нагрузке, сухость кожи, ломкость ногтей и снижение работоспособности. У части беременных клинические симптомы были маловыраженными, однако лабораторные показатели уже свидетельствовали о снижении запасов железа. Особое значение имело снижение ферритина. У ряда беременных уровень гемоглобина оставался на

ISSN 3030-3907

нижней границе нормы, однако ферритин был снижен, что указывало на латентный железодефицит. Это подтверждает необходимость раннего выявления не только анемии, но и преданемических состояний. У беременных с анемией чаще отмечались осложнения гестационного периода: угроза преждевременных родов, признаки фетоплацентарной недостаточности, внутриутробная гипоксия плода, преждевременное родоразрешение и рождение детей с более низкой массой тела.

Таблица 3.

Влияние железодефицитной анемии на течение беременности и перинатальные исходы

Показатель	**Беременные без анемии**	**Беременные с ЖДА**	**Беременные с профилактикой**
Общая слабость и утомляемость	Редко	Часто	Реже, менее выражено
Тахикардия, одышка	Редко	Часто	Умеренно
Угроза преждевременных родов	Единично	Чаще	Снижается
Фетоплацентарная недостаточность	Редко	Чаще	Реже
Внутриутробная гипоксия плода	Редко	Чаще	Частота ниже
Преждевременные роды	Низкая частота	Повышенный риск	Риск снижается
Низкая масса тела новорожденного	Редко	Чаще	Реже
Оценка по шкале Апгар	Обычно удовлетворительная	Может быть ниже	Ближе к норме

ISSN 3030-3907

Таблица 4.

Алгоритм прогнозирования и профилактики железодефицитной анемии у беременных

Этап	Мероприятие	Цель
1 этап	Сбор анамнеза: паритет, интервал между родами, питание, анемия в анамнезе	Выявление группы риска
2 этап	Общий анализ крови при первом обращении	Ранняя диагностика снижения Hb
3 этап	Определение ферритина и сывороточного железа	Выявление латентного железодефицита
4 этап	Оценка клинических симптомов: слабость, тахикардия, головокружение	Комплексная клиническая оценка
5 этап	Коррекция питания	Увеличение поступления железа и белка
6 этап	Назначение железа и фолиевой кислоты по показаниям	Профилактика прогрессирования анемии
7 этап	Повторный контроль Hb и ферритина во II-III триместрах	Оценка эффективности профилактики
8 этап	Оценка состояния плода	Профилактика гипоксии и задержки роста плода

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Полученные данные подтверждают, что железодефицитная анемия у беременных имеет многофакторное происхождение. Ее развитие связано не только с физиологическим увеличением потребности в железе, но и с акушерскими, алиментарными и социально-гигиеническими факторами. Наиболее важным диагностическим моментом является то, что снижение ферритина может предшествовать

ISSN 3030-3907

снижению гемоглобина. Поэтому беременные с нормальным уровнем гемоглобина, но сниженным ферритином должны рассматриваться как группа риска по развитию железодефицитной анемии. Практическое значение раннего прогнозирования заключается в возможности начать профилактику до развития выраженной анемии. Такой подход позволяет предупредить ухудшение самочувствия беременной, снизить частоту акушерских осложнений и улучшить перинатальные исходы. Профилактика железодефицитной анемии должна быть не формальной, а индивидуализированной. Она должна основываться на оценке факторов риска, лабораторных маркеров и динамическом наблюдении за состоянием беременной и плода. Железодефицитная анемия является частой патологией беременности и оказывает неблагоприятное влияние на течение гестационного периода и перинатальные исходы. Основными факторами риска развития железодефицитной анемии являются повторные беременности, короткий интергенетический интервал, поздняя постановка на учет, недостаточное питание и анемия в анамнезе. Снижение ферритина является ранним лабораторным маркером истощения запасов железа и может использоваться для прогнозирования развития анемии у беременных. Беременные с железодефицитной анемией имеют более высокий риск угрозы преждевременных родов, фетоплацентарной недостаточности, внутриутробной гипоксии плода и рождения детей с низкой массой тела.

Комплексная профилактика, включающая рациональное питание, препараты железа, фолиевую кислоту и динамический лабораторный контроль, способствует снижению частоты анемии и улучшению исходов беременности. Беременным группы риска необходимо проводить определение гемоглобина, эритроцитов, гематокрита, сывороточного железа и ферритина уже при первом обращении. При снижении ферритина даже на фоне нормального гемоглобина беременную следует относить к группе риска по развитию железодефицитной анемии. Питание беременной должно включать продукты, богатые железом и белком: говядину, печень, рыбу, яйца, гречневую крупу, бобовые, зелень, сухофрукты. Для улучшения всасывания железа рекомендуется сочетать железосодержащие продукты с источниками витамина С. Препараты железа и фолиевой кислоты следует назначать индивидуально, с учетом уровня гемоглобина, ферритина, переносимости препарата и срока беременности.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. World Health Organization. Daily iron and folic acid supplementation during pregnancy. Geneva: WHO; 2024. URL:

ISSN 3030-3907

https://www.who.int/tools/elena/interventions/daily-iron-pregnancy (дата обращения: 01.05.2026).
2. World Health Organization. Antenatal iron supplementation. Nutrition Landscape Information System. URL: https://www.who.int/data/nutrition/nlis/info/antenatal-iron-supplementation (дата обращения: 01.05.2026).
3. Ubom A.E. et al. FIGO good practice recommendations on anemia in pregnancy to reduce the incidence and impact of postpartum hemorrhage. International Journal of Gynecology & Obstetrics. 2025. DOI: 10.1002/ijgo.70529.
4. Петриченко Н.В., Баркова Э.Н. Патогенетические аспекты прогнозирования и профилактики анемии у беременных // Вестник КазНМУ. 2013. №5(1). С. 402-405.
5. Радзинский В.Е., Радзинская Е.В. Анемия и беременность: проблемы и перспективы // Фарматека. 2008. №14. С. 28-31.
6. Серов В.Н. и соавт. Диагностика и профилактика железодефицитных состояний у беременных и родильниц // Акушерство и гинекология. 2012. №4/2. С. 3-9.
7. Bencaiova G. et al. Iron prophylaxis in pregnancy: intravenous route versus oral route // European Journal of Obstetrics & Gynecology and Reproductive Biology. 2009. Vol. 144(2). P. 135-139.
8. Casanueva E. et al. Weekly iron as a safe alternative to daily supplementation for nonanemic pregnant women // Archives of Medical Research. 2006. Vol. 37(5). P. 674-682.
9. World Health Organization. Haemoglobin concentrations for the diagnosis of anaemia and assessment of severity. Geneva: WHO.
10. Milman N. Iron and pregnancy - a delicate balance // Annals of Hematology. 2006. Vol. 85. P. 559-565.

ISSN 3030-3907

BOSIMLI SUV UZATISH TIZIMLARIDA PLASTMAS VA PO‘LAT QUVURLARNING GIDRAVLIK HAMDA ENERGETIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Samiyev Luqmon Nayimovich
Dotsent, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti
Abdurahimova Durdona Fazliddin qizi
Tayanch doktorant, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti
E-mail: abdurakhimovadurdona.gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada plastmas va po‘lat quvurlarda gidravlik qarshiliklarning shakllanishi hamda quvur ichki yuzasi g‘adir-budurligining energetik samaradorlikka ta’siri nazariy-hisobiy yondashuv asosida baholandi. Hisoblashlar ichki diametri D=0.1m bo‘lgan bosimli quvur uchun Darcy–Weisbach tenglamasi va Colebrook–White munosabati asosida bajarildi. Plastmas quvur uchun absolut g‘adir-budurlik Δpl=0.025 mm, po‘lat quvur uchun esa Δst=0.5 mm deb qabul qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Reynolds soni ortishi bilan quvur ichki yuzasining g‘adir-budurligi ishqalanish koeffitsienti va solishtirma gidravlik qarshilikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori Reynolds sonlari sharoitida po‘lat quvurdagi solishtirma gidravlik qarshilik plastmas quvurga nisbatan taxminan 1.9–2.0 marta yuqori bo‘ldi. To‘liq rivojlangan turbulent oqim, ya’ni kvadrat qarshilik sohasida ushbu farq 2.1 martagacha yetishi aniqlandi. Olingan natijalar plastmas quvurlarning past g‘adir-budurligi bosim yo‘qotishlarini kamaytirishi, nasos quvvatiga bo‘lgan talabni pasaytirishi va bosimli suv uzatish tizimlarining energetik samaradorligini oshirishini ko‘rsatadi. Shu sababli plastmas quvurlar yuqori sarfli va uzoq masofali gidrotizimlarda energiya tejamkor muhandislik yechimi sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Gidravlik qarshilik, plastmas quvur, po‘lat quvur, Darcy–Weisbach tenglamasi, Colebrook–White tenglamasi, Reynolds soni, ishqalanish koeffitsienti, g‘adir-budurlik, solishtirma qarshilik, energetik samaradorlik.

Аннотация. В данной статье на основе теоретико-расчётного подхода оценено формирование гидравлических сопротивлений в пластмассовых и стальных трубах, а также проанализировано влияние шероховатости внутренней поверхности труб на энергетическую эффективность. Расчёты выполнены для напорной трубы внутренним диаметром D=0.1м с использованием уравнения Darcy–Weisbach и соотношения Colebrook–White. Абсолютная шероховатость для пластмассовой трубы принята равной Δpl=0.025 мм, а для стальной трубы — Δst=0.5. Результаты показали, что с увеличением числа Reynolds влияние шероховатости внутренней

ISSN 3030-3907

поверхности на коэффициент гидравлического трения и удельное гидравлическое сопротивление становится более существенным. При высоких значениях числа Reynolds удельное гидравлическое сопротивление в стальной трубе оказалось примерно в 1.9–2.0 раза выше, чем в пластмассовой трубе. В области полностью развитого турбулентного потока, то есть в квадратичной зоне сопротивления, данное различие достигает примерно 2.1 раза. Полученные результаты показывают, что меньшая шероховатость пластмассовых труб способствует снижению потерь напора, уменьшению требуемой мощности насосов и повышению энергетической эффективности напорных водопроводных систем. Поэтому пластмассовые трубы могут рассматриваться как энергоэффективное инженерное решение для высокорасходных и протяжённых гидравлических систем.

Ключевые слова: гидравлическое сопротивление, пластмассовая труба, стальная труба, уравнение Darcy–Weisbach, уравнение Colebrook–White, число Reynolds, коэффициент гидравлического трения, шероховатость, удельное гидравлическое сопротивление, энергетическая эффективность.

Abstract. This paper evaluates the formation of hydraulic resistance in plastic and steel pipes and analyzes the influence of internal surface roughness on energy efficiency using a theoretical and computational approach. The calculations were performed for a pressure pipe with an internal diameter of D=0.1 m based on the Darcy–Weisbach equation and the Colebrook–White relationship. The absolute roughness was assumed to be Δpl=0.025 mm for the plastic pipe and Δst=0.5 mm for the steel pipe. The results show that as the Reynolds number increases, the effect of internal surface roughness on the friction coefficient and specific hydraulic resistance becomes more significant. Under high Reynolds number conditions, the specific hydraulic resistance in the steel pipe was approximately 1.9–2.0 times higher than that in the plastic pipe. In the fully rough turbulent region, this difference reached about 2.1 times. The findings indicate that the lower roughness of plastic pipes reduces head losses, decreases the required pump power, and improves the energy efficiency of pressure water transmission systems. Therefore, plastic pipes can be considered an energy-efficient engineering solution for high-flow and long-distance hydraulic systems.

Keywords: Hydraulic resistance, plastic pipe, steel pipe, Darcy–Weisbach equation, Colebrook–White equation, Reynolds number, friction coefficient, roughness, specific resistance, energy efficiency.

KIRISH.

Suv ta’minoti, sug‘orish, sanoat gidrotizimlari, kommunal xo‘jalik va energetika infratuzilmalarida suyuqliklarni quvurlar orqali uzatish eng muhim

muhandislik jarayonlaridan biri hisoblanadi. Bunday tizimlarda suvni belgilangan masofaga, talab etilgan sarf va bosimda yetkazib berish uchun nasos agregatlari, bosimli quvurlar, armaturalar va mahalliy qarshilik elementlaridan iborat gidravlik tarmoq shakllanadi. Quvur bo‘ylab harakatlanayotgan oqim energiyasining ma’lum qismi quvur devori bilan suyuqlik o‘rtasidagi ishqalanish kuchlarini yengishga sarflanadi. Natijada bosim yo‘qotishlari yuzaga keladi, nasos quvvatiga bo‘lgan talab ortadi va tizimning umumiy energetik samaradorligi pasayadi [1–3].

Quvurlardagi gidravlik qarshiliklarni aniqlash quvur diametrini tanlash, nasos agregatlari quvvatini asoslash, suv taqsimoti tizimlarini loyihalash va mavjud tarmoqlarni modernizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Amaliy hisoblarda quvur bo‘ylab ishqalanish natijasida yuzaga keladigan napor yo‘qotishlari ko‘pincha Darcy–Weisbach tenglamasi yordamida aniqlanadi. Ushbu tenglama quvur uzunligi, diametri, oqim tezligi va gidravlik ishqalanish koeffitsienti o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi [3, 6]. Gidravlik ishqalanish koeffitsientini to‘g‘ri aniqlash esa bosimli quvurlardagi yo‘qotishlarni baholashning asosiy shartlaridan biridir. Laminar oqim rejimida ishqalanish koeffitsienti asosan Reynolds soniga bog‘liq bo‘lib, quvur devorining g‘adir-budurligi sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi. Biroq suv ta’minoti, sug‘orish va sanoat quvur tarmoqlarining aksariyatida oqim turbulent rejimda kechadi. Turbulent oqim sharoitida esa ishqalanish koeffitsienti nafaqat Reynolds soniga, balki quvur ichki yuzasining nisbiy g‘adir-budurligiga ham bog‘liq bo‘ladi [4, 5]. Bunday sharoitda Colebrook–White tenglamasi gidravlik ishqalanish koeffitsientini aniqlashda keng qo‘llaniladi. Ushbu tenglama Reynolds soni va quvur devorining nisbiy g‘adir-budurligini birgalikda hisobga olib, silliq, o‘tish va to‘liq g‘adir-budur turbulent oqim sohalarini umumlashtirib ifodalaydi [7]. Keyingi tadqiqotlarda Swamee–Jain kabi eksplisit yondashuvlar ham taklif etilgan bo‘lib, ular muhandislik hisoblarini soddalashtirishga xizmat qiladi [8, 9].

Quvur materiali gidravlik qarshiliklar shakllanishida muhim omillardan biridir. Po‘lat quvurlar yuqori mexanik mustahkamlikka ega bo‘lsa-da, ekspluatatsiya davomida korroziya, cho‘kindi yig‘ilishi va ichki sirtning yemirilishi natijasida ularning g‘adir-budurligi ortadi. Bu esa ishqalanish koeffitsientining oshishiga, bosim yo‘qotishlarining ko‘payishiga va nasos energiyasi sarfining ortishiga olib keladi [5, 10]. So‘nggi yillarda plastmas quvurlar, xususan HDPE va PVC quvurlar, korroziyaga chidamliligi, ichki yuzasining silliqligi, past absolut g‘adir-budurligi va ekspluatatsion barqarorligi sababli suv ta’minoti, sug‘orish va sanoat gidrotizimlarida keng qo‘llanmoqda [11, 12].

ISSN 3030-3907

Gidravlik nuqtai nazardan plastmas quvurlarning asosiy afzalligi ularning ichki yuzasi silliq bo‘lishi bilan izohlanadi. Ichki sirt g‘adir-budurligining pastligi devor ishqalanishini kamaytiradi, natijada bir xil diametr, suv sarfi va quvur uzunligida plastmas quvurlarda bosim yo‘qotishlari po‘lat quvurlarga nisbatan kamroq bo‘ladi. Ilmiy va amaliy tadqiqotlarda plastmas va po‘lat quvurlar o‘rtasidagi bosim yo‘qotishlari sezilarli farq qilishi ko‘rsatilgan. Jumladan, Durapipe va Wilo tadqiqotida bir xil sharoitlarda plastmas quvur tizimida bosh yo‘qotishi 8.23 m, po‘lat quvur tizimida esa 15.71 m ni tashkil etgani qayd etilgan [13]. Bu natija quvur materialini tanlash nasos quvvati, elektr energiyasi sarfi va ekspluatatsion xarajatlarga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida suv resurslaridan oqilona foydalanish, sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir. Nasos stansiyalari va bosimli quvur tarmoqlarida elektr energiyasining katta qismi gidravlik yo‘qotishlarni yengishga sarflanadi. Shu sababli quvur materiali, diametri, ichki sirt g‘adir-budurligi va oqim rejimini hisobga olgan holda gidravlik qarshiliklarni aniqlash muhim ahamiyatga ega [13, 16, 17]. Mavjud tadqiqotlarda quvurlardagi gidravlik qarshiliklarni hisoblashning nazariy asoslari yetarlicha shakllangan bo‘lsa-da, plastmas va po‘lat quvurlarni bir xil hisobiy sharoitlarda taqqoslash orqali ularning gidravlik va energetik samaradorligini miqdoriy baholash masalasi amaliy jihatdan dolzarbligicha qolmoqda. Ayniqsa, yuqori Reynolds sonlari va kvadrat qarshilik sohasida quvur ichki yuzasining nisbiy g‘adir-budurligi ishqalanish koeffitsientiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi [7, 9, 10].

Ushbu tadqiqotning maqsadi — plastmas va po‘lat quvurlarda gidravlik ishqalanish koeffitsienti hamda solishtirma qarshilik qiymatlarini Darcy–Weisbach va Colebrook–White tenglamalari asosida aniqlash, quvur g‘adir-budurligining bosim yo‘qotishlariga ta’sirini baholash hamda plastmas quvurlarning po‘lat quvurlarga nisbatan energetik samaradorligini ilmiy-hisobiy jihatdan asoslashdan iborat.


MATERIAL VA METODLAR. Ushbu tadqiqotda plastmas va po‘lat quvurlarda yuzaga keladigan gidravlik qarshiliklarni aniqlash hamda ularning energetik samaradorlikka ta’sirini baholash uchun nazariy-hisobiy yondashuvdan foydalanildi. Hisoblashlar bosimli quvurda suv oqimining harakatiga asoslangan bo‘lib, asosiy gidravlik parametrlar sifatida Reynolds soni, gidravlik ishqalanish koeffitsienti, quvur devorining absolut va nisbiy g‘adir-budurligi, oqim tezligi, solishtirma bosim yo‘qotishi hamda nasos quvvatiga bo‘lgan talab qabul qilindi.

Tadqiqotda plastmas va po‘lat quvurlar bir xil geometrik va gidravlik sharoitlarda solishtirildi. Ya’ni quvur diametri, suyuqlik turi, kinematik yopishqoqlik va oqim rejimlari bir xil deb qabul qilindi. Bunday yondashuv quvur

ISSN 3030-3907

materialining, ayniqsa ichki sirt g‘adir-budurligining gidravlik qarshilikka bevosita ta’sirini alohida baholash imkonini beradi.

Bosimli quvurda oqim harakati davomida energiyaning ma’lum qismi quvur devori bilan suyuqlik orasidagi ishqalanish kuchlarini yengishga sarflanadi. Ushbu yo‘qotish quvur uzunligi, diametri, oqim tezligi va ishqalanish koeffitsientiga bog‘liq bo‘ladi. Tadqiqotda quvur bo‘ylab yuzaga keladigan napor yo‘qotishlarini baholashda 1-rasmda keltirilgan hisobiy sxema asos qilib olindi.



1-rasm. Bosimli quvurda ishqalanish natijasida yuzaga keladigan napor yo‘qotilishi sxemasi

Tadqiqot uchun asosiy model sifatida ichki diametri D=0.1 m bo‘lgan bosimli quvur qabul qilindi. Ishchi suyuqlik sifatida suv olinib, uning kinematik yopishqoqligi ν=0.01 cm²/s deb qabul qilindi. Plastmas quvur uchun absolut g‘adir-budurlik qiymati 0.0025 cm, po‘lat quvur uchun esa 0.05 cm sifatida qabul qilindi. Ushbu qiymatlar quvur materiallari ichki sirtining gidravlik holatini ifodalash uchun ishlatildi. Plastmas va po‘lat quvurlarning gidravlik qarshiliklari o‘rtasidagi asosiy farq ularning ichki yuzasi g‘adir-budurligi bilan bog‘liq. Plastmas quvurlar ichki yuzasining silliq bo‘lishi sababli oqim devor yaqinida kamroq energiya yo‘qotadi. Po‘lat quvurlarda esa korroziya, cho‘kindi yig‘ilishi va ichki sirtning g‘adir-budurlashishi natijasida ishqalanish kuchlari ortadi. Ushbu farq 2-rasmda sxematik tarzda ko‘rsatilgan.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Plastmas va po‘lat quvurlar ichki yuzasining sxematik ko‘rinishi

Quvur ichki yuzasining gidravlik holatini baholashda absolut g‘adir-budurlik bilan bir qatorda nisbiy g‘adir-budurlik ham muhim ahamiyatga ega. Nisbiy g‘adir-budurlik quyidagi ifoda orqali aniqlandi:

$$\frac{\Delta}{D} \qquad (1)$$

bu yerda Δ-quvur devorining absolut g‘adir-budurligi, m; D- quvur diametri, m.

Plastmas quvur uchun qabul qilingan qiymatlar asosida nisbiy g‘adir-budurlik:

$$\frac{\Delta_{pl}}{D} = \frac{0.000025}{0.1} = 0.00025$$

po‘lat quvur uchun esa:

$$\frac{\Delta_{st}}{D} = \frac{0.0005}{0.1} = 0.005$$

ga teng bo‘ladi. Ushbu qiymatlar po‘lat quvurda nisbiy g‘adir-budurlik plastmas quvurga nisbatan ancha yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Aynan shu omil turbulent oqim sharoitida ishqalanish koeffitsienti va solishtirma bosim yo‘qotishlarining ortishiga olib keladi.

Oqim rejimini aniqlash uchun Reynolds sonidan foydalanildi. Reynolds soni inersiya kuchlari bilan yopishqoqlik kuchlari o‘rtasidagi nisbatni ifodalaydi va quvurdagi oqimning laminar, o‘tish yoki turbulent rejimda kechishini aniqlash imkonini beradi. Reynolds soni quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$Re = \frac{vD}{\nu} \qquad (2)$$

ISSN 3030-3907

bu yerda Re-Reynolds soni; v-oqimning o‘rtacha tezligi, m/s; D-quvur diametri, m; ν-suyuqlikning kinematik yopishqoqligi, m²/s.

Hisoblash jarayonida Reynolds sonining turli qiymatlari berilib, ularga mos keluvchi oqim tezligi quyidagi ifoda orqali topildi:

$$v = \frac{Re \cdot \nu}{D} \qquad (3)$$

Bu yondashuv turli oqim rejimlarida plastmas va po‘lat quvurlarni bir xil sharoitda solishtirish imkonini beradi. Reynolds sonining kichik qiymatlarida oqim laminar xarakterga ega bo‘ladi, yuqori qiymatlarida esa turbulent oqim shakllanadi. Amaliy suv ta’minoti, nasosli sug‘orish va sanoat gidrotizimlarida oqim ko‘pincha turbulent rejimda kechgani sababli tadqiqotning asosiy e’tibori turbulent oqim va yuqori Reynolds sonlari diapazonidagi gidravlik qarshiliklarni baholashga qaratildi.

Laminar oqim rejimida, ya’ni Re≤2500Re bo‘lgan holatda gidravlik ishqalanish koeffitsienti Poiseuille qonuni asosida quyidagicha aniqlandi:

$$\lambda = \frac{64}{Re} \qquad (5)$$

bu yerda λ- Darcy gidravlik ishqalanish koeffitsienti. Ushbu rejimda ishqalanish koeffitsienti faqat Reynolds soniga bog‘liq bo‘ladi va quvur devorining g‘adir-budurligi deyarli hisobga olinmaydi. Shu sababli laminar oqim sharoitida plastmas va po‘lat quvurlardagi gidravlik qarshiliklar o‘rtasida sezilarli farq kuzatilmaydi.

Turbulent oqim rejimida esa gidravlik ishqalanish koeffitsienti Reynolds soni bilan bir qatorda quvur devorining nisbiy g‘adir-budurligiga ham bog‘liq bo‘ladi. Ushbu tadqiqotda turbulent oqim uchun ishqalanish koeffitsienti Colebrook–White tenglamasi asosida aniqlandi:

$$\frac{1}{\sqrt{\lambda}} = -2\log_{10}\left(\frac{\Delta}{3.7D} + \frac{2.51}{Re\sqrt{\lambda}}\right) \qquad (6)$$

bu yerda λ— Darcy ishqalanish koeffitsienti; Δ— quvur ichki yuzasining absolut g‘adir-budurligi, m; D — quvur diametri, m; Re — Reynolds soni.

Colebrook–White tenglamasi implitsi ko‘rinishda bo‘lganligi sababli λ qiymati iteratsion usulda aniqlandi. Dastlabki yaqinlashuv qiymati sifatida turbulent oqim uchun Blasius formulasi bo‘yicha hisoblangan ishqalanish koeffitsienti qabul qilindi:

$$\lambda_0 = \frac{0.3164}{Re^{0.25}} \qquad (7)$$

Keyingi bosqichlarda ushbu boshlang‘ich qiymat Colebrook–White tenglamasiga qo‘yilib, λ qiymati ketma-ket aniqlashtirildi. Iteratsion jarayon ikki ketma-ket qiymat orasidagi farq belgilangan aniqlik darajasigacha kamayguncha

ISSN 3030-3907

davom ettirildi. Bu usul plastmas va po‘lat quvurlarda Reynolds sonining turli qiymatlari uchun gidravlik ishqalanish koeffitsientini aniqlash imkonini berdi. Quvur bo‘ylab ishqalanish natijasida yuzaga keladigan umumiy napor yo‘qotishini aniqlashda Darcy–Weisbach tenglamasi asos qilib olindi:

$$h_f = \lambda \frac{L}{D} \cdot \frac{v^2}{2g} \qquad (8)$$

Tadqiqotda quvurning birlik uzunligiga to‘g‘ri keluvchi napor yo‘qotishini baholash uchun solishtirma gidravlik qarshilik ko‘rsatkichi J dan foydalanildi. Solishtirma qarshilik quyidagi formula orqali aniqlandi:

$$J = \lambda \frac{v^2}{2gD} \qquad (9)$$

bu yerda J — quvurning birlik uzunligiga to‘g‘ri keluvchi napor yo‘qotishi, m/m; λ — gidravlik ishqalanish koeffitsienti; v — oqim tezligi, m/s; g — erkin tushish tezlanishi, m/s²; D — quvur diametri, m.

Mazkur formula plastmas va po‘lat quvurlarni bir xil oqim sharoitida taqqoslash uchun qulay hisoblanadi. Chunki D, v va g qiymatlari bir xil bo‘lgan sharoitda J qiymatidagi farq asosan λ koeffitsienti orqali, ya’ni quvur devorining g‘adir-budurligi bilan belgilanadi. Shu sababli solishtirma qarshilik plastmas va po‘lat quvurlar gidravlik samaradorligini baholashda asosiy ko‘rsatkich sifatida qabul qilindi.

Yuqori Reynolds sonlari sharoitida, ya’ni to‘liq rivojlangan turbulent yoki kvadrat qarshilik sohasida ishqalanish koeffitsientining Reynolds soniga bog‘liqligi kamayadi va u asosan quvur devorining nisbiy g‘adir-budurligiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Bunday holatda Colebrook–White tenglamasi quyidagi soddalashtirilgan ko‘rinishga keladi:


$$\frac{1}{\sqrt{\lambda}} = -2\log_{10}\left(\frac{\Delta}{3.7D}\right) \qquad (10)$$

Bu ifoda kvadrat qarshilik sohasida quvur materialining gidravlik qarshilikka ta’sirini aniqroq ko‘rsatadi. Chunki mazkur sharoitda plastmas va po‘lat quvurlar orasidagi farq asosan ularning ichki yuzasi g‘adir-budurligi bilan izohlanadi. Po‘lat quvurlarda nisbiy g‘adir-budurlik yuqori bo‘lgani sababli λ va J qiymatlari ortadi. Plastmas quvurlarda esa ichki yuzaning silliqligi tufayli ushbu ko‘rsatkichlar nisbatan kichik bo‘ladi.

Hisoblash jarayoni ketma-ket bosqichlar asosida amalga oshirildi. Dastlab quvur diametri, suvning kinematik yopishqoqligi hamda plastmas va po‘lat quvurlar uchun absolut g‘adir-budurlik qiymatlari qabul qilindi. Keyin Reynolds sonining tanlangan qiymatlari bo‘yicha oqim tezligi hisoblandi. Shundan so‘ng har bir Reynolds soni uchun plastmas va po‘lat quvurlarda ishqalanish

ISSN 3030-3907

koeffitsienti Colebrook–White tenglamasi yordamida aniqlandi. Keyingi bosqichda Darcy–Weisbach tenglamasi asosida solishtirma gidravlik qarshilik qiymatlari hisoblandi. Yakuniy bosqichda esa plastmas va po‘lat quvurlar uchun olingan J qiymatlari taqqoslanib, ularning nisbati asosida gidravlik va energetik samaradorlik baholandi. Mazkur hisoblash ketma-ketligi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Plastmas va po‘lat quvurlarda gidravlik qarshiliklarni hisoblash algoritmi

Plastmas va po‘lat quvurlarni qiyosiy baholash uchun solishtirma qarshiliklar nisbati quyidagi ko‘rinishda aniqlandi:

$$K_J = \frac{J_{st}}{J_{pl}} \qquad (11)$$

bu yerda K_J — po‘lat quvurdagi solishtirma qarshilikning plastmas quvurdagi solishtirma qarshilikka nisbati; J_{st}-po‘lat quvurdagi solishtirma qarshilik; J_{pl}- plastmas quvurdagi solishtirma qarshilik. $K_J>1$ bo‘lsa, po‘lat quvurda bosim yo‘qotishlari plastmas quvurga nisbatan yuqori ekanligini bildiradi. Ushbu nisbatning ortishi plastmas quvurlarning gidravlik jihatdan samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yuqori Reynolds sonlari va kvadrat

ISSN 3030-3907

qarshilik sohasida K_J qiymatining kattalashishi plastmas quvurlarning energetik afzalligini asoslash uchun muhim mezon hisoblanadi.

Nasos quvvatiga bo‘lgan talabni baholashda quvur bo‘ylab yuzaga keladigan napor yo‘qotishlari asosiy omil sifatida qaraldi. Nasos quvvati quyidagi umumiy ifoda orqali aniqlandi:

$$P = \frac{\rho g Q h_f}{\eta} \qquad (12)$$

bu yerda P— nasos quvvati, W; ρ— suyuqlik zichligi, kg/m³; g — erkin tushish tezlanishi, m/s²; Q — suv sarfi, m³/s; h_f — quvur bo‘ylab napor yo‘qotishi, m; η — nasosning foydali ish koeffitsienti.

Agar plastmas va po‘lat quvurlar bir xil suv sarfi, bir xil quvur uzunligi, bir xil diametr va bir xil nasos foydali ish koeffitsienti sharoitida solishtirilsa, nasos quvvatidagi farq asosan napor yo‘qotishlari bilan belgilanadi. Napor yo‘qotishi esa J qiymatiga bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli, Jst/Jpl nisbati nasos quvvatiga bo‘lgan talabdagi farqni baholash uchun ham qo‘llanilishi mumkin. Shu orqali plastmas quvurlardan foydalanish natijasida erishiladigan energetik samaradorlik nazariy-hisobiy jihatdan asoslandi.


Ushbu metodologiya plastmas va po‘lat quvurlarda gidravlik qarshiliklarni bir xil sharoitda taqqoslash imkonini beradi. Bunda asosiy farq quvur ichki yuzasining g‘adir-budurligi orqali shakllanadi. Shuning uchun olingan natijalar quvur materialini tanlash, nasos quvvatini asoslash hamda suv ta’minoti va sug‘orish tizimlarida energiya tejamkor yechimlarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Ushbu bo‘limda plastmas va po‘lat quvurlarda gidravlik ishqalanish koeffitsienti hamda solishtirma gidravlik qarshilik qiymatlarining Reynolds soniga bog‘liq holda o‘zgarishi tahlil qilindi. Hisoblashlar bir xil diametrli quvur, bir xil suyuqlik xossalari va bir xil oqim rejimlari uchun bajarildi. Bunda plastmas va po‘lat quvurlar o‘rtasidagi asosiy farq ularning ichki yuzasi g‘adir-budurligi orqali ifodalandi. Plastmas quvur uchun absolut g‘adir-budurlik Δpl=0.025 mm, po‘lat quvur uchun esa Δst=0.5 mm deb qabul qilindi. Ushbu qiymatlar asosida plastmas quvur uchun nisbiy g‘adir-budurlik Δpl/D=0.00025, po‘lat quvur uchun esa Δst/D=0.005 ni tashkil etdi.

Hisoblash natijalari shuni ko‘rsatdiki, kichik Reynolds sonlarida plastmas va po‘lat quvurlardagi ishqalanish koeffitsientlari orasidagi farq nisbatan kichik bo‘ladi. Buning sababi past Reynolds sonlarida yopishqoqlik kuchlarining ta’siri sezilarli bo‘lib, quvur devorining g‘adir-budurligi oqimga kuchli ta’sir ko‘rsatmaydi. Reynolds soni ortib borgani sari oqim turbulent xarakterga ega bo‘ladi va quvur ichki yuzasining g‘adir-budurligi ishqalanish koeffitsientiga

ISSN 3030-3907

tobora kuchliroq ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Natijada po‘lat quvurlarda ishqalanish koeffitsienti plastmas quvurlarga nisbatan yuqori qiymatlarni qabul qiladi. Reynolds sonining oshishi bilan plastmas va po‘lat quvurlarda Darcy ishqalanish koeffitsientining o‘zgarish xarakteri 4-rasmda keltirilgan.




4-rasm. Plastmas va po‘lat quvurlarda Reynolds soni bo‘yicha Darcy ishqalanish koeffitsientining o‘zgarishi

4-rasm tahlili shuni ko‘rsatadiki, plastmas quvurda ishqalanish koeffitsienti Reynolds soni ortishi bilan asta-sekin kamayadi va yuqori Reynolds sonlarida nisbatan barqaror qiymatga yaqinlashadi. Po‘lat quvurda esa ichki yuzaning g‘adir-budurligi yuqori bo‘lgani sababli λ\lambdaλ qiymati plastmas quvurnikiga nisbatan katta bo‘lib qoladi. Ayniqsa, yuqori Reynolds sonlari sohasida po‘lat quvurda ishqalanish koeffitsientining kamayish sur’ati sekinlashadi, chunki bu sharoitda oqim to‘liq rivojlangan turbulent rejimga yaqinlashadi va gidravlik qarshilik asosan nisbiy g‘adir-budurlik bilan belgilanadi.

Hisoblash natijalariga ko‘ra, Re=4·103 bo‘lgan holatda plastmas quvur uchun λpl=0 po‘lat quvur uchun esa λst=0.0385 atrofida bo‘ldi. Ushbu qiymatlar orasidagi farq kichik bo‘lib, bu holat turbulent oqimning boshlang‘ich qismida g‘adir-budurlik ta’siri hali to‘liq shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Re=$100 \cdot 10^3$ bo‘lgan holatda esa plastmas quvur uchun λpl=0.0175, po‘lat quvur uchun λst=0.0275 qiymatlari olindi. Bu bosqichda po‘lat quvurdagi ishqalanish koeffitsienti plastmas quvurnikidan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi.

ISSN 3030-3907

Solishtirma gidravlik qarshilik J qiymatlari Darcy–Weisbach tenglamasi asosida hisoblandi. Bunda J quvurning birlik uzunligiga to‘g‘ri keluvchi napor yo‘qotishini ifodalaydi. Hisoblash natijalari shuni ko‘rsatdiki, J qiymati faqat ishqalanish koeffitsientiga emas, balki oqim tezligining kvadratiga ham bog‘liq. Shu sababli Reynolds soni ortganda, hatto λ qiymati biroz kamaygan taqdirda ham, v^2 hadining ta’siri sababli solishtirma qarshilik keskin ortadi. Reynolds soni bo‘yicha plastmas va po‘lat quvurlarda solishtirma gidravlik qarshilikning o‘zgarishi 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. Plastmas va po‘lat quvurlarda Reynolds soni bo‘yicha solishtirma gidravlik qarshilikning o‘zgarishi

5-rasmdan ko‘rinib turibdiki, Reynolds sonining kichik qiymatlarida plastmas va po‘lat quvurlar o‘rtasidagi J farqi uncha katta emas. Biroq Reynolds soni ortib borgani sari po‘lat quvurdagi solishtirma qarshilik plastmas quvurnikiga nisbatan tezroq ortadi. Bu holat po‘lat quvur ichki yuzasining g‘adir-budurligi yuqori bo‘lgani sababli oqim energiyasining ko‘proq qismi ishqalanish kuchlarini yengishga sarflanishi bilan izohlanadi.

Plastmas quvurlarda ichki yuzaning silliqligi tufayli devor yaqinidagi oqim qatlamida qarshilik kamroq bo‘ladi. Bu esa ishqalanish koeffitsienti va solishtirma napor yo‘qotishlarini kamaytiradi. Po‘lat quvurlarda esa ichki

ISSN 3030-3907

yuzaning g‘adir-budurligi yuqori bo‘lgani uchun turbulent pulsatsiyalar kuchayadi, oqimning devor bilan o‘zaro ta’siri ortadi va energiya yo‘qotishlari ko‘payadi. Shu sababli bir xil diametr, bir xil oqim tezligi va bir xil suv sarfi sharoitida po‘lat quvurlar plastmas quvurlarga nisbatan yuqori gidravlik qarshilik hosil qiladi.

Natijalar shuningdek, quvur materialini tanlash faqat mexanik mustahkamlik yoki qurilish qiymati bilan emas, balki gidravlik va energetik samaradorlik bilan ham baholanishi kerakligini ko‘rsatadi. Agar quvur tarmog‘i uzoq masofaga ega bo‘lsa yoki yuqori sarfli rejimda ishlasa, ishqalanish yo‘qotishlarining kamayishi nasos quvvatiga bo‘lgan talabni sezilarli darajada pasaytirishi mumkin. Bunday sharoitda plastmas quvurlarni qo‘llash ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish va energiya tejamkorlikka erishish uchun muhim muhandislik yechimi hisoblanadi.

Muhokama natijalariga ko‘ra, plastmas quvurlarning po‘lat quvurlarga nisbatan gidravlik ustunligi asosan uchta omil bilan izohlanadi. Birinchidan, plastmas quvurlarning absolut g‘adir-budurligi past bo‘lib, bu ishqalanish koeffitsientining kamayishiga olib keladi. Ikkinchidan, plastmas quvurlar korroziyaga chidamli bo‘lgani sababli ularning ichki sirt holati ekspluatatsiya davomida nisbatan barqaror saqlanadi. Uchinchidan, yuqori Reynolds sonlarida quvur devorining nisbiy g‘adir-budurligi gidravlik qarshilikni belgilovchi asosiy omilga aylanadi va bu sharoitda plastmas quvurlarning silliq ichki yuzasi katta afzallik beradi.

Shu bilan birga, olingan natijalarni amaliy gidrotizimlarga tatbiq etishda ayrim omillarni ham hisobga olish lozim. Real quvur tarmoqlarida faqat ishqalanish yo‘qotishlari emas, balki burilishlar, armaturalar, klapanlar, kirish-chiqish elementlari va boshqa mahalliy qarshiliklar ham mavjud bo‘ladi. Bundan tashqari, nasosning foydali ish koeffitsienti, quvur diametrining tanlanishi, suv sarfining o‘zgaruvchanligi va ekspluatatsion sharoitlar ham umumiy energiya sarfiga ta’sir qiladi. Shu sababli plastmas quvurlarning energetik samaradorligi har bir konkret tizim uchun alohida hisoblashlar asosida baholanishi kerak. Biroq ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bir xil gidravlik sharoitlarda plastmas quvurlar po‘lat quvurlarga nisbatan sezilarli darajada past gidravlik qarshilikka ega.

Umuman olganda, hisoblash natijalari plastmas quvurlarni suv ta’minoti, sug‘orish va sanoat gidrotizimlarida qo‘llash energetik jihatdan maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yuqori Reynolds sonlari va katta oqim tezliklari sharoitida plastmas quvurlar po‘lat quvurlarga nisbatan kamroq napor yo‘qotishiga ega bo‘ladi. Bu esa nasos agregatlarining quvvat talabini

ISSN 3030-3907

kamaytirish, elektr energiyasi sarfini pasaytirish va tizimning umumiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Ushbu natijalar asosida aytish mumkinki, plastmas quvurlarning past g‘adir-budurligi ularning asosiy gidravlik afzalligi hisoblanadi. Po‘lat quvurlarda esa nisbiy g‘adir-budurlik yuqoriligi sababli ishqalanish koeffitsienti va solishtirma gidravlik qarshilik qiymatlari yuqori bo‘ladi. Shuning uchun yuqori sarfli va uzoq masofali bosimli quvur tizimlarida plastmas quvurlarni qo‘llash gidravlik hamda energetik jihatdan samarali yechim sifatida qaralishi mumkin.

XULOSA. Ushbu tadqiqotda plastmas va po‘lat quvurlarda gidravlik qarshiliklarning shakllanishi, ishqalanish koeffitsienti va solishtirma gidravlik qarshilikning Reynolds soniga bog‘liq holda o‘zgarishi nazariy-hisobiy usulda baholandi. Hisoblashlar D=0.1 m diametrli bosimli quvur uchun Darcy–Weisbach tenglamasi va Colebrook–White munosabati asosida bajarildi. Plastmas quvur uchun absolut g‘adir-budurlik $\Delta pl=0.025$ mm, po‘lat quvur uchun esa $\Delta st=0.5$ mm deb qabul qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, past Reynolds sonlarida plastmas va po‘lat quvurlar orasidagi gidravlik farq nisbatan kichik bo‘ladi. Masalan, $Re=4\cdot10^3$ da ishqalanish koeffitsienti plastmas quvurda $\lambda pl=0.0362$ po‘lat quvurda esa $\lambda st=0.0385$ atrofida bo‘lib, farq sezilarli darajada katta emas. Bu holat turbulent oqimning boshlang‘ich qismida quvur devori g‘adir-budurligining ta’siri hali to‘liq namoyon bo‘lmasligi bilan izohlanadi.

Solishtirma gidravlik qarshilik bo‘yicha ham plastmas quvurlar ancha samarali ekanligi aniqlandi. $Re=100\cdot10^3$ da $Jpl=2.0$, $Jst=3.1$ bo‘lib, po‘lat quvurdagi qarshilik plastmas quvurga nisbatan taxminan 1.55 marta yuqori bo‘ldi. $Re=500\cdot10^3$ da bu qiymatlar $Jpl=40.2$ va $Jst=76.8$ ni tashkil etib, nisbat 1.91 martaga yetdi. $Re=800\cdot10^3$ da esa $Jpl=99.3$, $Jst=196.0$ bo‘lib, po‘lat quvurdagi solishtirma qarshilik plastmas quvurga nisbatan 1.97 marta yuqori bo‘ldi.

To‘liq rivojlangan turbulent oqim, ya’ni kvadrat qarshilik sohasida ishqalanish koeffitsienti asosan quvur devorining nisbiy g‘adir-budurligiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Ushbu sohada plastmas quvur uchun $\lambda pl\approx0.014$, po‘lat quvur uchun esa $\lambda st\approx0.029$ qiymatlar olindi. Bu esa po‘lat quvurdagi gidravlik ishqalanish plastmas quvurga nisbatan taxminan 2.1 marta yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, plastmas quvurlarning past g‘adir-budurligi ularning asosiy gidravlik afzalligi hisoblanadi. Ichki yuzaning silliqligi ishqalanish koeffitsienti va solishtirma napor yo‘qotishlarini kamaytiradi. Po‘lat quvurlarda esa yuqori g‘adir-budurlik, korroziya va ichki sirtning yemirilishi gidravlik qarshiliklarning ortishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli yuqori Reynolds sonlari, katta suv sarfi va uzoq masofali bosimli quvur tizimlarida plastmas quvurlarni qo‘llash nasos quvvatiga bo‘lgan talabni kamaytirish, elektr energiyasi sarfini

ISSN 3030-3907

pasaytirish va tizimning umumiy energetik samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kelgusida mazkur yondashuvni turli diametrli quvurlar, real ekspluatatsion sharoitlar, mahalliy qarshiliklar, nasos foydali ish koeffitsienti va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Latipov K.Sh. K opredeleniyu koeffitsiyenta gidravlicheskogo treniya. DAN, 1982. pp. 30–35.
2. Latipov K.Sh. Gidravlika, gidromashinalar, gidroyuritmalar. Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 335 b.
3. Shterenlixt D.V. Gidravlika. Moskva: Energoatomizdat, 1984. 640 b.
4. Latipov K.Sh., Arifjanov A.M. Voprosy dvizheniya vzvesenesushchego potoka v otkrytykh ruslakh. Toshkent: Mehnat, 1994. 110 b.
5. Altshul A.D. Mestnye gidravlicheskie soprotivleniya pri dvizhenii vyazkikh zhidkostey. Moskva: Gostoptekhizdat, 1962. 114 b.
6. Darcy H. Recherches expérimentales relatives au mouvement de l’eau dans les tuyaux. Paris: Mallet-Bachelier, 1857.
7. Colebrook C.F., White C.M. Experiments with fluid friction in roughened pipes. Proceedings of the Royal Society of London. Series A, 1937, Vol. 161, pp. 367–381. DOI: 10.1098/rspa.1937.0150
8. Swamee P.K., Jain A.K. Explicit equations for pipe-flow problems. Journal of the Hydraulics Division, 1976, Vol. 102, No. 5, pp. 657–664.
9. Li S., Huai W. United formula for the friction factor in the turbulent region of pipe flow. PLOS ONE, 2016, Vol. 11, No. 5, e0154408. DOI: 10.1371/journal.pone.0154408
10. Basse N.T. Turbulence intensity and the friction factor for smooth- and rough-wall pipe flow. Physics of Fluids, 2018. arXiv:1612.08540.
11. Arifjanov A.M., Fatxulloyev A.M., Rakhimov K.T., Otakhonov M.Y., Allayorov D.Sh. Coefficient of hydraulic friction of plastic pipes. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 2022, Vol. 1112, 012135. DOI: 10.1088/1755-1315/1112/1/012135
12. Arifjanov A., Babajanov F., Akhmedov I., Fozilov O., Umarov I. Analysis results of data obtained in natural field research in mountain river Sokhsoy. E3S Web of Conferences, 2023, Vol. 365, 03017. DOI: 10.1051/e3sconf/202336503017
13. Dolan D. How plastic pipes can boost energy efficiency. Modern Building Services, 2016, February.

ISSN 3030-3907

14. Engineer Fix. How the Colebrook Equation Calculates Pipe Friction. Engineer Fix, 2025.
15. Gulf Eternit. HDPE Product Information. Gulf Eternit, 2019.
16. HDPE Pipes. Understanding HDPE Pipe Specifications for Water Supply. Sino Pipe Factory, 2024.
17. America's Plastic Makers. Unlocking Savings with Efficient Pumps and Plastic Water Pipes. America's Plastic Makers, 2024.

ISSN 3030-3907

ПОВЫШЕНИЕ СТЕГАНОГРАФИЧЕСКОЙ СТОЙКОСТИ И ЕМКОСТИ ТЕКСТОВЫХ КОНТЕЙНЕРОВ НА ОСНОВЕ ПРЕДВАРИТЕЛЬНОГО ЭНТРОПИЙНОГО КОДИРОВАНИЯ ХАФФМАНА

Хусанова Мохирахон Курбоналиевна
Ферганский государственный технический университет Старший преподаватель кафедры "Программный инжиниринг и кибербезопасность".
Фергана, Узбекистан
E-mail: mokhira.khusanova@gmail.com

Аннотация. В рамках исследования предложена и верифицирована методика, направленная на оптимизацию характеристик скрытности и вместимости стеганосистем, функционирующих в текстовых средах. Базовый принцип заключается в последовательном совмещении алгоритма префиксного сжатия Хаффмана и инжектирования скрываемых сведений через систему невидимых управляющих кодов Unicode. По результатам вычислительного эксперимента зафиксировано сокращение объема вносимых деформаций на 52.2%. Данный фактор прямо пропорционально минимизирует вероятность детекции факта скрытой передачи посредством статистического стеганоанализа (включая проверку по критерию χ^2). Высокий уровень энтропии формируемого битового потока обеспечивает маскирование данных под естественный шум. В работе детально описана программная архитектура разработанного на языке Python комплекса, а также приведены структурированные результаты оценки его эффективности.

Ключевые слова: стеганография, кодирование Хаффмана, невидимые символы Unicode, сжатие данных, стеганоанализ, критерий хи-квадрат, защита информации, энтропия.

Abstract. This study proposes and validates a methodology aimed at optimizing the imperceptibility and capacity characteristics of steganographic systems operating within text environments. The underlying principle involves the sequential integration of the Huffman prefix compression algorithm and the injection of hidden data via a system of Unicode zero-width control characters. Based on the computational experiment results, a 52.2% reduction in the volume of introduced artifacts was recorded. This factor proportionally minimizes the probability of detecting the hidden transmission via statistical steganalysis (including the χ^2 criterion test). The high entropy level of the generated bitstream ensures data masking as natural noise. The paper provides a detailed description

ISSN 3030-3907

of the software architecture of the complex developed in Python, alongside structured evaluation results of its efficiency.

Keywords: steganography, Huffman coding, Unicode zero-width characters, data compression, steganalysis, chi-square criterion, information security, entropy.

Annotatsiya. Tadqiqot doirasida matnli muhitda ishlaydigan steganotizimlarning yashirinlik va sig‘im xarakteristikalarini optimallashtirishga qaratilgan metodika taklif etilgan va tekshirilgan. Asosiy tamoyil Xaffmanning prefiksli siqish algoritmi va yashirin ma’lumotlarni Unicode-ning ko‘rinmas boshqaruv kodlari tizimi orqali kiritishni (injektsiya qilishni) ketma-ket birlashtirishdan iborat. Hisoblash eksperimenti natijalariga ko‘ra, kiritilgan deformatsiyalar hajmining 52.2% ga qisqarishi qayd etildi. Ushbu omil statistik steganoanaliz (jumladan, χ^2 mezonini tekshirish) yordamida yashirin uzatish faktini aniqlash ehtimolini proporsional ravishda kamaytiradi. Shakllantirilgan bitlar oqimining yuqori entropiya darajasi ma’lumotlarni tabiiy shovqin sifatida niqoblanishini ta’minlaydi. Ishda Python tilida ishlab chiqilgan majmuaning dasturiy arxitekturasi batafsil tavsiflangan, shuningdek, uning samaradorligini baholashning tizimlashtirilgan natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: steganografiya, Xaffman kodlashi, Unicode ko‘rinmas belgilari, ma’lumotlarni siqish, steganoanaliz, xi-kvadrat mezoni, axborotni muhofaza qilish, entropiya.

ВВЕДЕНИЕ.

Обеспечение конфиденциальности при обмене данными в глобальных сетях вынуждает модернизировать существующие подходы к защите информации. Особое место здесь занимает стеганография, где ключевым вектором выступает не сокрытие семантики сообщения (как в криптографии), а маскирование самого прецедента коммуникации.

Наиболее часто для организации скрытых каналов привлекаются медиафайлы из-за их высокой избыточности. Тем не менее, регулярное перемещение аномально тяжелых изображений или аудиопотоков внутри корпоративных или ведомственных сетей быстро фиксируется современными DLP-системами. В то же время текстовые документы составляют основу стандартного трафика, что делает их наиболее перспективными объектами для внедрения стеганограмм.

Главная трудность текстовой стеганографии сопряжена с жесткими ограничениями емкости: любая замена букв или знаков пунктуации мгновенно обнаруживается при визуальном контроле. Решением стало использование неотображаемых символов Unicode (*Zero-Width Characters*). Однако прямое позиционирование несжатых массивов битов оставляет явные аномалии в структуре файла, которые легко выявляются

ISSN 3030-3907

автоматизированными средствами стеганоанализа.

В связи с этим целью настоящей работы определена разработка и программная реализация метода, повышающего статистическую скрытность и емкость текстового контейнера за счет предварительной энтропийной обработки скрываемых данных алгоритмом Хаффмана.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ.

Метод Хаффмана базируется на энтропийном сжатии дискретных сообщений без потери информативности за счет применения кодовых комбинаций переменной длины. В основе лежит вероятностная картина источника: символам с высокой частотой встречаемости присваиваются наиболее короткие префиксные коды. Это позволяет минимизировать средневзвешенную длину кодового слова.

Определим скрываемый массив как строку S над алфавитом $A = \{a_1, a_2, ..., a_n\}$. Каждому элементу a_i соответствует частота $f(a_i)$. Процесс формирования оптимального дерева кодов носит итерационный характер и задействует приоритетную очередь:

1. Инициализируется упорядоченный набор изолированных вершин (листьев дерева), привязанных к символам и их весам.
2. Из структуры последовательно извлекаются две вершины с наименьшими весовыми коэффициентами f_1 и f_2.
3. Генерируется родительский узел, чей вес равен сумме $f_{new} = f_1 + f_2$, а извлеченные элементы назначаются его потомками.
4. Созданный узел возвращается в общую очередь. Шаги повторяются до момента, пока в структуре не останется единственный корневой элемент.

В рамках стеганосистемы данный подход решает две фундаментальные задачи:

- **Оптимизация емкости:** физический объем скрываемого блока данных уменьшается в 2–3 раза.
- **Повышение скрытности:** сжатая битовая последовательность приобретает свойства случайного шума (максимизируется энтропия), что нивелирует эффективность частотного стеганоанализа.

Специфика использования невидимых маркеров Unicode

Для интеграции битовых данных в текстовое поле применяется группа управляющих кодов Unicode, лишенных графического начертания:

- **U+200C** (*Zero Width Non-Joiner*) — фиксирует логический ноль («0»);
- **U+200D** (*Zero Width Joiner*) — фиксирует логическую единицу («1»);
- **U+2060** (*Word Joiner*) — выступает в роли служебного разграничителя

ISSN 3030-3907

границ стегоблока.

Поскольку эти маркеры не визуализируются при стандартном выводе текста на экран, контейнер полностью сохраняет внешнюю аутентичность, изменяя лишь свой физический объем в байтах.

Общая концепция сквозного цикла обработки данных выглядит следующим образом:

Расчет частот $f(a_i)$ → Генерация кодового дерева → Формирование кодов → Компрессия строки → Стегоинжекция

Важным условием функционирования системы является обеспечение получателя актуальной кодовой таблицей, поскольку без нее корректное декодирование префиксного кода невозможно.

Инструментарий стеганосистемы разработан на базе языка Python 3.x. Для повышения быстродействия при работе с минимальной кучей применена встроенная библиотека heapq.

Реализация кодировщика:

```
import heapq
from collections import Counter
class Node:
    def __init__(self, char, freq):
        self.char = char
        self.freq = freq
        self.left = None
        self.right = None
    def __lt__(self, other):
        return self.freq < other.freq
def build_huffman_tree(text):
    frequency = Counter(text)
    priority_queue = [Node(char, freq) for char, freq in frequency.items()]
    heapq.heapify(priority_queue)
    while len(priority_queue) > 1:
        left = heapq.heappop(priority_queue)
        right = heapq.heappop(priority_queue)
        merged = Node(None, left.freq + right.freq)
        merged.left = left
        merged.right = right
        heapq.heappush(priority_queue, merged)
    return priority_queue[0]
def build_codes(node, current_code, codes):
```


ISSN 3030-3907

```
        if node is None:
            return
        if node.char is not None:
            codes[node.char] = current_code
        build_codes(node.left, current_code + '0', codes)
        build_codes(node.right, current_code + '1', codes)
```

Реализация стегоинжектора:

```
BIT0 = "\u200C"  # ZERO WIDTH NON-JOINER → бит '0'
BIT1 = "\u200D"  # ZERO WIDTH JOINER     → бит '1'
SEPARATOR = "\u2060"  # маркер начала/конца
    def embed_in_text(cover_text, secret_bits):
        invisible = SEPARATOR
        for bit in secret_bits:
            invisible += BIT1 if bit == '1' else BIT0
        invisible += SEPARATOR
        words = cover_text.split(' ', 1)
        if len(words) == 1:
            return cover_text + invisible
        return words[0] + invisible + ' ' + words[1]
```

Экспериментальная верификация и анализ результатов

В роли скрываемого сообщения выступила фраза с контрастным распределением символьных частот: *«стеганография и сжатие данных»* (длина — 29 знаков). Базовым контейнером послужил массив текста объемом 84 символа.

На начальном этапе работы программного комплекса была сформирована частотно-кодовая матрица, представленная в Таблице 1.

Таблица 1.

Анализ распределения частот символов и полученные префиксные коды

Символ	Частота	Код Хаффмана	Длина
' ' (пробел)	3	000	3
и	3	001	3
н	3	010	3
а	4	110	3
с	2	0110	4

ISSN 3030-3907

е	2	0111	4
г	2	1010	4
т	2	1110	4
ы	1	10000	5
о	1	10001	5
ф	1	10010	5
х	1	10011	5
д	1	10110	5
р	1	10111	5
ж	1	11110	5
я	1	11111	5

Для наглядной демонстрации преимуществ предложенного подхода выполнен сравнительный расчет параметров стеганосистемы при стандартном посимвольном внедрении (кодирование UTF-8, 8 бит на знак) и разработанного метода компрессионного инжектирования.

Таблица 2.

Сравнение эксплуатационных параметров стеганосистем

Контролируемый параметр	**Классический подход**	**Разработанный метод**
Длина исходного текста (символов)	29	29
Итоговый объем стеганограммы (бит)	232	111
Коэффициент сжатия (***K_c***)	1.00	2.09
Чистый выигрыш по емкости	0.0%	52.2%
Число измененных позиций контейнера	232	111
Размер результирующего стеготекста	318	197

Данные Таблицы 2 наглядно подтверждают, что интеграция алгоритма Хаффмана сократила количество необходимых скрытых кодов Unicode с 232 до 111 единиц. Это обеспечивает экономию емкости контейнера на уровне 52.2%.

Существенное уменьшение объема внедряемых невидимых символов напрямую повышает защищенность системы от атак с использованием

ISSN 3030-3907

критерия χ^2 (хи-квадрат). При стандартном внедрении плотность скрытых знаков отражает естественные лингвистические особенности языка (высокую частотность определенных букв). Внедрение предварительно сжатого высокоэнтропийного потока превращает распределение невидимых маркеров в однородную структуру, неотличимую от фонового шума. Данное обстоятельство полностью блокирует алгоритмы автоматического выявления стеганограмм.

Несмотря на положительные результаты, предложенная схема обладает рядом технологических особенностей, требующих учета:

– Декодирование на стороне получателя невозможно без структуры исходного дерева Хаффмана. Его трансляция в теле того же контейнера увеличивает размер скрываемого блока. Оптимальным решением выступает внедрение статической таблицы частот, предварительно рассчитанной на базе репрезентативного текстового корпуса целевого языка.

– При обработке специфических сообщений с обширным алфавитом и равномерным распределением символов эффективность сжатия снижается. В таких граничных условиях целесообразно использовать альтернативные алгоритмы компрессии, например арифметическое кодирование или подходы семейства LZ77/ LZ78.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

В рамках проведенной работы спроектирована и проверена на практике стеганографическая система защиты информации, основанная на совместном применении энтропийного кодирования Хаффмана и инжекции данных в невидимое пространство текстового контейнера.

Экспериментально доказано сокращение плотности внедрения на 52.2%, что увеличивает полезную емкость канала коммуникации и сводит к минимуму структурные искажения файла. Обеспеченная высокая энтропия битового потока гарантирует защиту от статистического стеганоанализа. Корректность работы системы подтверждена на всех этапах полного цикла обработки: от кодирования и инжекции до успешного извлечения и декомпрессии целевого сообщения.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Грибунин В. Г., Оков И. Н., Туринцев И. В. Цифровая стеганография. – М.: СОЛОН-Пресс, 2017. – 272 с.
2. Конахович Г. Ф., Пузыренко А. Ю. Компьютерная стеганография. Теория и практика. – К.: МК-Пресс, 2016. – 288 с.
3. Сэломон Д. Сжатие данных, изображений и звука. – М.: Техносфера, 2014. – 368 с.
4. Qurbonaliyevna, X. M. (2025). Korxona va tashkilotlarning axborot-

kommunikatsiya tizimlarida vpn tarmoq qurishning zamonaviy yechimlari. Al-Farg‘oniy avlodlari, 1(2), 122-125.

5. Huffman D. A. A Method for the Construction of Minimum-Redundancy Codes // Proceedings of the IRE. – 1952. – Vol. 40, No. 9. – P. 1098-1101.

6. Sotvoldiyeva, D. B., & Husanova, M. K. (2021). Analysis of discrete convolution in the matlab program. In Современные тенденции развития фундаментальных и прикладных наук (pp. 187-191).

7. Por L. Y., Wong K., Chee B. Information Hiding in Text Document Using Zero-Width Characters // Journal of Computer Science. – 2021. – Vol. 17, No. 3. – P. 244-253.

8. M.K.Khusanova (2022). Network security and monitoring. Research Focus, 1 (4), 177-183.

9. Al-Nefaiee A. H., Al-Shatnawi A. M. High-Capacity Text Steganography Method Based on Zero-Width Character and Huffman Coding // International Journal of Advanced Computer Science and Applications. – 2023. – Vol. 14, No. 5. – P. 412-419.

ISSN 3030-3907

JANUBIY OROL BO‘YI TUQAYZORLARIDA IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA QATTIQ QANOTLILAR BIOLOGIK XILMA-XILLIGINING O‘ZGARISHI

J. U. Tilepov
O‘zbekiston Respublikasi IIV ning Qoraqalpoq akademik litseyi o‘qituvchilari
A. A. Jumamuratova
O‘zbekiston Respublikasi IIV ning Qoraqalpoq akademik litseyi o‘qituvchilari

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Janubiy Orol dengizi havzasidagi qurib borayotgan tuqayzor ekosistemalarida iqlim o‘zgarishi va antropogen omillar ta’sirida qattiq qanotlilar (Coleoptera) faunasining tarkibi va ko‘p turliligida ro‘y bergan o‘zgarishlar tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi so‘nggi 30 yil davomida mintaqadagi gidrologik rejimning o‘zgarishi natijasida qattiq qanotli hasharotlar guruhlari dinamikasini aniqlash va ularning biomonitoring ko‘rsatkichi sifatidagi ahamiyatini baholashdan iborat. Dala kuzatuvlari va muzey fondlari materiallarini solishtirish usuli orqali namliksevar turlarning soni keskin kamaygani, cho‘llashuvga chidamli (kserofil) turlarning esa keng tarqalganligi aniqlandi. Maqolada ekologik muvozanatni tiklash va bioxilma-xillikni saqlash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Janubiy Orol, tuqayzorlar, qattiq qanotlilar, Coleoptera, iqlim o‘zgarishi, biomonitoring, biodiversitet, cho‘llashuv, entomofauna, ekotizim.

Аннотация. В данной научной статье анализируются изменения в составе и разнообразии фауны жуков в иссушающих вересковых пустошах бассейна Южного Аральского моря под влиянием изменения климата и антропогенных факторов. Главная цель исследования – определить динамику групп вересковых насекомых в результате изменений гидрологического режима региона за последние 30 лет и оценить их значимость в качестве индикатора биомониторинга. В результате полевых наблюдений и сравнения материалов из музейных коллекций было установлено, что количество влаголюбивых видов резко сократилось, в то время как устойчивые к опустыниванию (ксерофильные) виды широко распространены. В статье разработаны научно обоснованные рекомендации по восстановлению экологического баланса и сохранению биоразнообразия.

Ключевые слова: Южный Араль, вересковые пустоши, вересковые пустоши, жуки, изменение климата, биомониторинг, биоразнообразие, опустынивание, энтомофауна, экосистема.

Abstract. This scientific article analyzes the changes in the composition and diversity of the Coleoptera fauna in the drying up moorland ecosystems of the South Aral Sea basin under the influence of climate change and anthropogenic factors. The main goal of the study is to determine the dynamics of moorland

insect groups as a result of changes in the hydrological regime in the region over the past 30 years and to assess their significance as a biomonitoring indicator. Through field observations and comparison of materials from museum collections, it was found that the number of moisture-loving species has sharply decreased, while desertification-resistant (xerophilous) species are widespread. The article develops scientifically based recommendations for restoring ecological balance and preserving biodiversity.

Key words: South Aral, moorland, moorland, Coleoptera, climate change, biomonitoring, biodiversity, desertification, entomofauna, ecosystem.

KIRISH.

Orol dengizi fojiasi Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yirik ekologik katastrofalardan biri hisoblanadi. Dengiz sathining pasayishi va uning qurib borishi nafaqat iqlim sharoitlarini o‘zgartirdi, balki daryo deltalaridagi noyob tuqayzor ekosistemalarining degradatsiyasiga olib keldi. Tuqayzorlar – bu yer osti suvlari yuqori joylashgan, tuprog‘i nam va o‘simlik qoplami zich bo‘lgan biotsenozlardir. Ushbu ekosistemalar hasharotlar, xususan, qattiq qanotlilar (Coleoptera) uchun yashash muhiti vazifasini o‘taydi.

Qattiq qanotlilar entomofaunaning eng katta va ekologik jihatdan muhim guruhlaridan biri bo‘lib, ular ozuqa zanjiridagi o‘rni, chirindi va o‘simlik qoldiqlarini qayta ishlashdagi roli tufayli ekotizim salomatligining indikatori hisoblanadi. Iqlim o‘zgarishi, xususan, haroratning ortishi va yog‘in miqdorining kamayishi, shuningdek, sug‘orish suvlarining cheklanishi tuqayzorlarning maydonini qisqartirmoqda. Bu jarayon hasharotlar populyatsiyalarining tuzilishiga qanday ta’sir qilishi hozirgi kun dolzarb ilmiy muammolaridan biridir. Ushbu tadqiqot Janubiy Orol bo‘yi (Amudaryo deltasining quyi oqimi va Qoraqalpog‘iston Respublikasining janubiy qismi) hududlarida qattiq qanotlilar faunasining o‘zgarish dinamikasini o‘rganishga bag‘ishlangan.

TADQIQOT OBYEKTI VA METODIKASI.

Tadqiqot ishlari 2020–2025-yillarda Amudaryo deltasining janubiy qismida joylashgan qoldiq tuqayzor massivlarida olib borildi. Namuna olish nuqtalari sifatida Beruniy, To‘rtko‘l va Ellikqal’a tumanlaridagi suv manbalariga yaqin va undan uzoq bo‘lgan uchta tipik tuqayzor zonasi tanlab olindi.

attiq qanotli hasharotlarni yig‘ish uchun standart entomologik usullar qo‘llanildi:

1. Grunt tuzoqlari (Barber tuzoqlari) – yer usti va yer osti hayot kechiruvchi turlarni yig‘ish uchun.

2. Entomologik to‘r yordamida o‘simliklar ustidagi fitofag va yirtqich turlarni yig‘ish.

ISSN 3030-3907

3. Qo‘lda terish usuli – daraxt po‘stloqlari ostida va chirigan yog‘ochlarda yashovchi turlarni aniqlash.

Yig‘ilgan materiallar laboratoriyada mikroskop ostida ko‘rib chiqilib, turlarga ajratildi. Turlarning identifikatsiyasi zamonaviy determinatorlar va mutaxassislar maslahati asosida amalga oshirildi. Olingan ma’lumotlar 1990-yillardagi arxiv ma’lumotlari bilan solishtirildi. Statistik tahlil uchun Shannon-Wiener xilma-xillik indeksi va Pielou tekislik indeksi hisoblandi.

Iqlim o‘zgarishining tuqayzor ekosistemalariga ta’siri

So‘nggi o‘n yilliklarda Janubiy Orol bo‘yida o‘rtacha yillik harorat 1,5–2,0 gradusga oshdi. Yog‘in miqdori esa beqaror bo‘lib, qurg‘oqchilik davrlari ko‘paydi. Eng muhimi, yer osti suvlari sathining pasayishi kuzatilmoqda. Bu holat tuqay o‘simliklarining (turanga, tol, jiyda) qurib ketishiga va ular o‘rniga sho‘ra, cherkez va boshqa sho‘rxok o‘simliklarning kelishiga olib keldi.Tuqayzorlarning fragmentatsiyasi (bo‘laklanib ketishi) hasharotlar migratsiyasiga to‘sqinlik qilmoqda. Izolyatsiya qilingan kichik populyatsiyalarda genetik xilma-xillikning pasayishi kuzatilmoqda. Shuningdek, tuproqning sho‘rlanishi ko‘plab namliksevar hasharot turlari uchun noqulay sharoit yaratdi. Natijada, ekotizimning trofik (ozuqa) tuzilishi o‘zgardi: o‘simlik qoldiqlari bilan oziqlanuvchi saprofaqlar soni kamaydi, chunki chirindi hosil bo‘lish jarayoni sekinlashdi.

Qattiq qanotlilar faunasining tarkibiy o‘zgarishlari

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi 30 yil ichida Janubiy Orol bo‘yi tuqayzorlarida qayd etilgan qattiq qanotlilar turlarining umumiy soni taxminan 25–30 foizga qisqargan. Biroq, bu qisqarish barcha guruhlarda bir xil kechmagan.

Namliksevar turlarning degradatsiyasi. Carabidae (yer qo‘ng‘izlari) oilasining ko‘plab vakillari, xususan, Carabus va Calosoma urug‘lariga mansub yirik yirtqich qo‘ng‘izlar soni keskin kamaygan. Bu turlar yuqori namlik va soyali sharoitlarni talab qiladi. Tuqayzorlarning siyraklashishi bilan ularning yashash muhiti yo‘qoldi. Xuddi shunday holat Staphylinidae (kalta qanotlilar) oilasida ham kuzatilmoqda. Ushbu guruh vakillari tez ko‘payuvchi va nam muhitga moslashgan bo‘lib, ularning sonining kamayishi tuproqdagi namlik yetishmasligidan dalolat beradi.

Kserofil (quruqsevar) turlarning ekspansiyasi. Aksincha, Tenebrionidae (qoramtir qo‘ng‘izlar) va Scarabaeidae (go‘ng qo‘ng‘izlari) oilalarining ba’zi vakillari soni ortgan. Masalan, Blaps va Pimelia urug‘lariga mansub qo‘ng‘izlar qurg‘oqchilikka chidamliligi tufayli yangi sharoitga tez moslashdilar. Ular ochiq, quyoshli va quruq maydonlarda faol ko‘paymoqda. Shuningdek, Curculionidae (xaltumchali qo‘ng‘izlar) oilasining ba’zi fitofag turlari zaiflagan daraxtlarga

ISSN 3030-3907

hujum qilib, ularning qurib ketishini tezlashtirmoqda. Bu esa tuqayzorlarning yanada degradatsiyasiga olib kelmoqda.

Noyob va endemik turlarning holati. Mintaqaga xos bo‘lgan ba’zi noyob turlar, masalan, Lucanidae (kiyik qo‘ng‘izlari) oilasining ayrim vakillari yo‘qolib ketish xavfi ostida qolmoqda. Ularning larvalari faqat sog‘lom, qari daraxtlarning chirigan qismida rivojlanadi. Tuqayzorlardagi sog‘lom daraxtlar sonining kamayishi bu turlarning reproduktiv potensiali pasayishiga sabab bo‘ldi.

Biomonitoring ko‘rsatkichlari tahlili

Shannon-Wiener xilma-xillik indeksining tahlili shuni ko‘rsatdiki, suv manbalariga yaqin bo‘lgan saqlanib qolgan tuqayzorlarda xilma-xillik indeksi yuqori) bo‘lsa, qurib borayotgan va sho‘rlangan hududlarda bu ko‘rsatkich past darajada qayd etildi. Bu esa ekotizimning barqarorligi pasayganini anglatadi.

Pielou tekislik indeksi quruq hududlarda yuqori bo‘lib, bu yerda dominant turlar (asosan Tenebrionidae vakillari) boshqa barcha turlarni siqib chiqarayotganini ko‘rsatadi. Sog‘lom tuqayzorlarda esa turlar soni bo‘yicha tekislik kuzatiladi, ya’ni hech bir tur haddan tashqari dominantlik qilmaydi.

Qattiq qanotlilarning funksional guruhlari o‘zgarishi ham muhim ahamiyatga ega. Yirtqich turlarning (Carabidae) ulushi kamayib, fitofag va detritofag turlarning ulushi ortgan. Bu ekotizimdagi tabiiy regulyatsiya mexanizmlarining buzilishidan dalolat beradi. Yirtqich hasharotlarning kamayishi zararkunanda hasharotlar sonining nazoratsiz o‘sishiga olib kelishi mumkin, bu esa qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligiga zarar yetkazadi.

Muqobil yashash muhitlari va adaptatsiya mexanizmlari

Ba’zi qattiq qanotli turlar yangi sharoitga moslashish uchun o‘z ekologiyani o‘zgartirmoqda. Masalan, avval faqat tuqayzorlarda yashagan ba’zi turlar hozirda sug‘oriladigan dehqonchilik maydonlari chetlarida va kanallar bo‘ylarida uchramoqda. Bu inson faoliyati natijasida yaratilgan sun’iy namlik zonalarining hasharotlar uchun "refugium" (panoh) vazifasini o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Biroq, bunday adaptatsiya cheklangan. Ko‘plab maxsus ekologik talablarga ega bo‘lgan turlar sun’iy muhitda yasha olmaydi. Shuning uchun, tabiiy tuqayzorlarni saqlash biologik xilma-xillikni saqlashning yagona yo‘li hisoblanadi.

Saqlash choralari va tavsiyalar

Janubiy Orol bo‘yi tuqayzorlaridagi qattiq qanotlilar faunasini saqlash va tiklash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

1. Gidrologik rejimni optimallashtirish. Tuqayzorlarni mavsumiy ravishda suv bilan ta’minlash (ekologik suv oqimlarini yo‘naltirish) orqali yer osti suvlari sathini ko‘tarish. Bu namliksevar turlarning yashash sharoitini yaxshilaydi.

ISSN 3030-3907

2. Tuqayzorlarni qayta tiklash. Mahalliy o‘simlik turlarini (turanga, tol) ekish orqali degradatsiyalangan hududlarda yashil zonalar yaratish. O‘simlik qoplamining tiklanishi hasharotlar uchun ozuqa va boshpana bazasini kengaytiradi.

3. Monitoring tizimini kuchaytirish. Qattiq qanotlilar faunasini muntazam monitoring qilish orqali ekotizim holatini real vaqtda baholash. Noqulay o‘zgarishlarni erta aniqlash va tezkor chora ko‘rish imkonini beradi.

4. Himoya hududlarini kengaytirish. Biologik xilma-xillik saqlanib qolgan hududlarda qo‘riqxonalar yoki buyurtmaxonalarni tashkil etish. Inson faoliyatini cheklash orqali antropogen bosimni kamaytirish.

5. Ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish. Molekulyar-genetik usullar yordamida populyatsiyalarning genetik xilma-xilligini o‘rganish va iqlim o‘zgarishiga chidamli genotiplarni aniqlash.

XULOSA.

Janubiy Orol bo‘yi tuqayzorlarida iqlim o‘zgarishi va antropogen omillar ta’sirida qattiq qanotlilar faunasida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Namliksevar va soyasevar turlarning soni keskin kamaygan bo‘lsa, qurg‘oqchilikka chidamli turlar keng tarqalmoqda. Bu jarayon ekotizimning barqarorligi pasayishiga va trofik zanjirlarning buzilishiga olib kelmoqda. Qattiq qanotlilar biomonitoringning samarali vositasi sifatida ekotizim salomatligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Tuqayzor ekosistemalarini saqlash va tiklash nafaqat hasharotlar, balki butun biotsenoz, shu jumladan qushlar va sutemizuvchilar uchun ham hayotiy ahamiyatga ega. Kompleks yondashuv, xususan, suv resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik restavratsiya ishlari biologik xilma-xillikni saqlashga xizmat qiladi. Kelajakda ushbu mintaqada olib boriladigan tadqiqotlar iqlim o‘zgarishiga moslashuv strategiyalarini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi qo‘mitasi. Orolbo‘yi mintaqasining ekologik holati va uni yaxshilash chora-tadbirlari. – Toshkent: 2024.
2. Kerimova M. R., Abduraimov A. A. Janubiy Orolbo‘yi entomofaunasining hozirgi holati // O‘zbekiston biologiya jurnali. – 2023. – № 2. – B. 45–52.
3. Kryzhanovskiy O. L. Opredelitel’ nasemykh evropeyskoy chasti SSSR. Tom 3. Zhestkokrylye ili zhuki. – Leningrad: Nauka, 1965. (Klassik determinator sifatida foydalanildi).
4. UNDP. Adaptation to Climate Change in the Aral Sea Basin: Project Report. – New York: United Nations Development Programme, 2022.

ISSN 3030-3907

5. Ismoilov Sh. I. Orol fojiasi va uning biosferaga ta’siri. – Nukus: Qaraqalpaqstan, 2021.

ISSN 3030-3907

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SATH BIRLIGI O‘LCHAMINI HOSIL QILISH VA UZATISHNING METROLOGIK TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Matyakubova P.M.
TDTU “Metrologiya, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish” kafedrasi mudiri, t.f.d., professor
Saidoripov L.F.
“O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish” agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari
Mo‘minov X.D.
TDTU “Metrologiya, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish” kafedrasi doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro standartlar asosida sath birligi o‘lchamini hosil qilish va uzatishning metrologik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tadqiqot ishlari ko‘rib chiqilgan. Bunda kontaktli sath o‘lchash vositalarini metrologik tekshirish va kalibrlash uchun namunali qurilmani ishlab chiqish yuzasidan chora-tadbirlar ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari ushbu etalon qurilma o‘lchashlar birliligini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlarning yangi sohalarini ochib berishga xizmat qilish yuzasidan malumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: yangi avlod etaloni, namunaviy qurilma, kontaktli sath o‘lchash vositalari, sath, qiyoslash, kalibrlash, metrologik tekshiruv.

Аннотация. В данной статье рассматриваются практические исследования по совершенствованию метрологического обеспечения формирования и передачи измерения единицы уровня на основе международных стандартов. При этом рассмотрены меры по разработке типового устройства для метрологической поверки и калибровки контактных средств измерения уровня. Кроме того, приведены сведения о том, что эта эталонная установка служит для раскрытия новых областей проводимых работ по обеспечению единства измерений.

Ключевые слова: эталон нового поколения, типовое устройство, контактные средства измерения уровня, уровень, сравнение, калибровка, метрологическая поверка.

Abstract. This article examines applied research on improving the metrological support for generating and transmitting level unit measurements based on international standards. At the same time, measures have been considered for the development of a standard device for the metrological verification and calibration of contact level measuring instruments. Furthermore, information is provided that this reference device serves to reveal new areas of ongoing work to ensure the uniformity of measurements.

ISSN 3030-3907

Keywords: new generation standard, reference device, contact level measuring instruments, level, verification, calibration, metrological verification.

KIRISH.

Etalonlar o‘lchashlar birliligini ta’minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Ular yuqori aniqlikka ega bo‘lib, o‘lchash birliklarini uzatish uchun xizmat qiladi. Etalonlar quyidagicha tasniflanadi:

– Birlamchi etalonlar – eng yuqori aniqlikka ega bo‘lib, birlikni qayta tiklaydi;
– Ikkilamchi etalonlar – birlamchi etalonlarga bog‘langan;
– Ishchi etalonlar – amaliy kalibrlash va qiyoslashda qo‘llaniladi.

Qiyoslash va kalibrlash jarayonida etalonlar bilan uzluksiz bog‘liqlik (metrologik izchillik) ta’minlanadi. Bu esa o‘lchash natijalarining xalqaro darajada tan olinishini kafolatlaydi. Metrologiya sohasida namunaviy qurilmalar (etalonlar) o‘lchashlar birliligini ta’minlashda asosiy o‘rin tutadi. Namunaviy qurilmalar — bu yuqori aniqlikka ega bo‘lgan o‘lchash vositalari bo‘lib, ular yordamida boshqa o‘lchash vositalarining metrologik tavsiflari aniqlanadi, ya’ni ularni qiyoslash va kalibrlash amalga oshiriladi [1,6].



1-rasm. O‘lchashlar birliligini ta’minlashning asosiy elementlari

Namunaviy qurilmalar o‘lchash birliklarini qayta tiklash, saqlash va uzatish vazifasini bajaradi. Ular orqali o‘lchash vositalari o‘rtasida metrologik izchillik (traceability) ta’minlanadi. Bu esa o‘lchash natijalarining xalqaro darajada tan olinishi uchun zarur shart hisoblanadi. Namunaviy qurilmalar odatda yuqori aniqlik, barqarorlik va ishonchlilik kabi metrologik xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Ularning xatoliklari minimal bo‘lib, o‘lchash natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmasligi lozim [2,3].

ISSN 3030-3907

Namunaviy qurilmalar metrologik tizimning markaziy elementi hisoblanadi. Ular quyidagi zanjir orqali o‘lchash birliklarini uzatadi:

Birlamchi etalon → Ikkilamchi etalon → Ishchi etalon → O‘lchash vositasi

Bu zanjir metrologik izchillikni ta’minlaydi. Har bir bosqichda aniqlik biroz kamayadi, ammo umumiy tizim o‘lchash natijalarining ishonchliligini kafolatlaydi.

Metrologik tizimda namunali qurilmalar quyidagi vazifalarni bajaradi:

– o‘lchash birliklarini uzatish;
– o‘lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlash;
– metrologik nazoratni ta’minlash;
– ilmiy tadqiqotlarda yuqori aniqlikdagi o‘lchashlarni amalga oshirish.

Hozirgi kunda namunali qurilmalar quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanmoqda:

– raqamli kalibrlash tizimlari;
– avtomatlashtirilgan metrologik stendlar;
– Sun’iy intellektga asoslangan monitoring tizimlari;

Zamonaviy texnologiyalar namunali qurilmalar aniqligini oshirib, ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Namunaviy qurilmalar metrologiya tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ular o‘lchashlar birliligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular yordamida o‘lchash vositalarining aniqligi tekshiriladi va metrologik izchillik ta’minlanadi. Zamonaviy sanoat sharoitida namunali qurilmalarni takomillashtirish va ularni avtomatlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘lchash tizimlarining ishonchliligini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi [5].

Sath o‘lchash vositalari sanoatning ko‘plab sohalarida, xususan neft-gaz, kimyo, oziq-ovqat va suv xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega. Ushbu o‘lchov vositalarining aniqligi va ishonchliligini ta’minlash uchun ularni muntazam ravishda qiyoslash va kalibrlash zarur.

Sath o‘lchash vositalarini tekshirish jarayoni ularning ishonchliligini ta’minlashda muhim bosqich hisoblanadi. Etalon va namunaviy qurilmalar yordamida amalga oshiriladigan tekshirish ishlari o‘lchov natijalarining aniqligini oshiradi hamda ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini ta’minlaydi.

O‘lchashlar birligini ta’minlash va metrologik ishonchlilikni oshirish global iqtisodiyot va sanoat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bu borada Texnik jihatdan tartibga solish agentligi qoshidagi O‘zbekiston Milliy metrologiya instituti (O‘zMMI) va Toshkent davlat texnika universtiteti hamkorligida tuzilgan ilmiy jamoa tomonidan xalqaro talablarga mos, kontaktli sath o‘lchash vositalarini metrologik tekshirish va kalibrlashga mo‘ljallangan Yangi avlod etalon ishlab chiqildi va joriy qilinmoqda.

ISSN 3030-3907

Mazkur etalon uskunasi Xalqaro o‘lchovlar va tarozilar byurosi (BIPM) tomonidan belgilangan **SI birliklar tizimi**, Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) hamda Xalqaro qonunchilik metrologiya tashkiloti (OIML) tavsiyalariga muvofiq holda ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuv o‘lchash natijalarining xalqaro tan olinishi va o‘zaro solishtirish imkoniyatini ta’minlaydi, bu esa Jahon savdo tashkiloti (WTO) doirasida texnik to‘siqlarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Yangi avlod etaloni 0 dan 4 metrgacha bo‘lgan diapazonda ishlaydi va suyuqlik sathini o‘rnatishda ±0,2 mm aniqlikni ta’minlaydi. U mikroto‘lqinli (GWR – Guided Wave Radar), sig‘imli (Capacitive), segment-sig‘imli hamda boshqa kontaktli sath o‘lchagichlarni kalibrlash va qiyoslash uchun mo‘ljallangan. Etalon tizimi yuqori aniqlikdagi magnitostriksion tizimda ishlaydigan etalon urovnamer, intellektual nasos-boshqaruv moduli va raqamli klapanlar orqali sathni dinamik ravishda boshqarish imkonini beradi [5].

Etalon qurilma energetika sohasining neft va gaz, kimyo sanoati va suv ta’minoti sohalarida suyuqliklar sathini o‘lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlash uchun taaluqlidir.



2-rasm. Etalon qurilma o‘rnatilgan laboratoriya xonasi

Sathni o‘lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlash uchun qurilma [14] ma’lum bo‘lib, u tuzilishi va ishlash tamoiliga ko‘ra asboblar joylashtirilgan bo‘linmali ikki blokdan tashkil topgan qo‘zg‘almas qism, ularning biri qaytargich oldida joylashgan bo‘lib, unga tekshiriladigan sath o‘lchagich mahkamlangan, ikkinchisi esa qaytargich orqasida o‘rnatilgan; rostlanadigan tayanchli asos ko‘rinishidagi qo‘zg‘aluvchan qismni harakatlantirish uchun elektr yuritma, asosga siljitish imkoniyati bilan tekshiriladigan sath o‘lchagich qarshisiga

ISSN 3030-3907

qaytargich mahkamlangan; bir tomondan qo‘zg‘almas qism bilan qattiq bog‘langan, qo‘zg‘aluvchan qismni bo‘ylab harakatlanishi uchun metall profillardan yasalgan chiziqli yo‘naltiruvchilar ko‘rinishidagi chiziqli qism; qo‘zg‘aluvchan qismdan qo‘zg‘almas qismgacha bo‘lgan masofani o‘lchovchi, u ham qo‘zg‘almas qismga o‘rnatilgan etalon sath o‘lchagich. Bunda qaytargich oldidagi qo‘zg‘almas qism bloki vertikal o‘rnatilgan asboblar bo‘linmali metall ramadan iborat bo‘lib, unga tekshiriladigan sath o‘lchagich mahkamlangan va qo‘zg‘almas asosga ega, unda elektr yuritma, etalon sath o‘lchagich qattiq o‘rnatilgan. Qaytargich orqasidagi ikkinchi qo‘zg‘almas blok chiziqli qismning ikkinchi tomoni bilan qattiq bog‘langan va qo‘zg‘almas vertikal element ko‘rinishida bajarilgan. Bunda elektr yuritma qo‘zg‘aluvchan qism bilan tros yordamida bog‘langan.

Ushbu qurilmaning kamchiliklari sifatida quyidagilarni sanashimiz mumkin, bular: qurilma faqatgina akustik va mikroto‘lqinli sath o‘lchash vositalarini kalibrlashga mo‘ljallangan, qurilma aniqligi sanoatda mavjud sath o‘lchash vositalarini qiyoslash uchun yetarli emas, qurilmada asosiy o‘lchash vositasi (etalon) sifatida iqtisodiy jihatdan yuqori qiymatli lazerli interferometrdan foydalanilgan, zondli sath o‘lchagichning tortish tizimida osilib qolish ehtimoli mavjud.

Shuningdek, sath o‘lchagichlar va sath signalizatorlarini tekshirish, kalibrlash uchun metrologik stend [15] ham ma’lum bo‘lib, u tekshiriladigan sath signalizatorlarini ulash uchun elementlari bo‘lgan chiziqli qism va harakatlanuvchi qism, qaytargich hamda stendning qo‘zg‘almas chiziqli qismi bo‘ylab gorizontal tekislikda qaytargichni siljitish uchun vositalar. Chiziqli qismda sath signalizatori yoki sath o‘lchagichni ulash uchun metall panelli asboblar tumbasi mustahkam o‘rnatilgan. Harakatlanuvchi qismning siljishi armaturalangan tishli poliuretan tasma yordamida pretsizion qadamli uzatma orqali amalga oshiriladi va unda qaytargich mahkamlangan. Qo‘zg‘almas metall paneldan siljitiladigan qaytargichgacha bo‘lgan masofani o‘lchash uchun stend yuqori aniqlikdagi lazerli interferometr yoki lazerli masofa o‘lchagichni o‘z ichiga oladi. Stend tarkibiga atrof-muhit harorati, namligi va bosimini nazorat qilish uchun o‘lchash bloki kiritilgan. Lazerli interferometrdan foydalanish uchun chiziqli qismning aniq yo‘naltiruvchi relslarida sanoq nuqtasini aniqlash uchun tayanch datchik o‘rnatilgan. Lazerli interferometr yordamida o‘lchashlarni amalga oshirish uchun yuk ko‘taruvchi ramaning harakatlanuvchi qismiga chiziqli retroreflektor mahkamlangan. Lazerli interferometr yoki lazerli masofa o‘lchagich qaytargich orqasida joylashgan va stendning asosiy ramasi bilan bog‘lanmagan tumba orqali polga mustahkam mahkamlangan. Kontaktli trosli (sig‘imli) sath o‘lchagichlar bilan ishlash uchun stendda taranglash tizimi mavjud

ISSN 3030-3907

bo‘lib, u tumbaga o‘rnatilgan taranglash datchigiga ega elektr chig‘irni o‘z ichiga oladi.

Stendning kamchiliklari harakatlanishning maksimal tezligini cheklaydigan qadamli uzatmaning mavjudligi, harakatlanish paytida cho‘zilish va tebranishga moyil bo‘lgan harakatlanuvchi qismni siljitish uchun mustahkamlangan tishli tasmaning ishlatilishi, bu stentda ham etalon sifatida iqtisodiy jihatdan yuqori qiymatli lazerli interferometrdan foydalanilganligan.

Yaratilinayotgan qurilmaga texnik mohiyati jihatidan eng yaqin qurilma [16] bo‘lib, u privod yo‘naltirgich, o‘lchov lentasi, harakatsiz platforma, harakatlanuvchi ishchi karretka, Ikki martalik poplavka mahkamlash moslamasi, pnevmatik “parallel qisqich” moslamasi, servodvigatel, chiziqli siljish datchigi, harorat datchiklari, Boshqaruv bloki va kompressordan iborat. Qurilma vertikal joylashtirilgan bo‘lib, ramaga chiziqli privod yo‘naltirgichi mahkamlangan, uning yon sirtiga o‘lchov lentasi yopishtirilgan. Yo‘naltirgich bo‘ylab servodvigatel bilan harakatlantiriladigan ishchi karretka joylashtirilgan. Servodvigatel boshqaruv blokiga ulangan bo‘lib, boshqaruv bloki o‘z navbatida kompyuter bilan interfeys orqali bog‘langan. Kompyuterda o‘rnatilgan dasturiy ta’minot ishchi karretkaning berilgan koordinataga va belgilangan tezlikda harakatlanishini ta’minlaydi.

Ishchi karretkaga o‘qish kallagi (fotoelektrik datchik) mahkamlangan bo‘lib, u yo‘naltirgichdagi o‘lchov lentasidan impulslarni o‘qiydi va hosil qilingan signal boshqaruv blokiga uzatiladi. Mazkur signal karretkaning real vaqt rejimidagi koordinatasini aniqlash hamda servodvigatelni teskari aloqa orqali boshqarish uchun xizmat qiladi. Qurilmaning pastki qismida harakatsiz platforma o‘rnatilgan bo‘lib, u sath o‘lchagichlar uchun nol nuqta vazifasini bajaradi. Platformaga ikkita sath o‘lchagich vertikal holatda o‘rnatiladi. Sath o‘lchagichlarning yuqori qismi pnevmatik “parallel qisqich” moslamasi bilan mahkamlanadi. Mazkur pnevmatik tizim kompressor bilan ulangan bo‘lib, kompressor siqilgan havoni pnevmatik silindrlarga uzatadi va ular orqali ikki sath o‘lchagich bir vaqtning o‘zida markazlashtiriladi hamda vertikal tekislikda fiksatsiyalanadi. Ishchi karretkaga ikki martalik poplavka mahkamlash moslamasi o‘rnatilgan bo‘lib, u tekshirilayotgan ikkala satho‘lchagichning poplavkalarini bir vaqtda ushlab turadi. Karretka yuqoriga yoki pastga harakatlanganda poplavkalar yo‘naltirilgan holda satho‘lchagich bo‘ylab siljiydi va shu orqali suyuqlik sathi imitatsiya qilinadi.

Ushbu qurilmaning kamchiligi yuqori aniqlikka erishish uchun murakkab dasturiy tuzatmalar va lazer interferometr yordamida dastlabki sozlashni talab qilinishi, ikki sath o‘lchagichni bir vaqtning o‘zida tekshirish jarayonida ishchi karretkaning geometrik og‘ishi, yo‘naltirgich alyuminiy profil asosida

ISSN 3030-3907

bajarilganligi sababli issiqlik kengayish koeffitsienti nisbatan yuqoriligi, qurilma faqat poplavkali tipdagi satho‘lchagichlar uchun moslashtirilgan, nol nuqtani aniqlash mexanik kontakt orqali amalga oshirilishini ko‘rish mumkin.

Qo‘yilgan maqsadga erishishda aniq o‘lchashlarni amalga oshirish uchun suyuqlik zaxira suyuqlik manbasi 5 dan ikkita nasos 4 orqali suyuqlik olib kelinadi va aniq sath miqdori rezervaur 1 da hosil qilinadi, hosil qilingan sath miqdori orqali o‘lchash maydonida ishchi saht o‘lchash vositasi 2 ning metrologik xususiyatlari etalon sifatida foydalanilayotgan yuqori aniqlikka ega sath o‘lchash vositasi 3 ko‘rsatishiga mos natija bilan solishtirish usulida aniqlanadi.

Taklif etilayotgan majmuada aniqlangan farqli xususiyatlar avval ma’lum bo‘lgan texnik yechimlarda uchramagan va qo‘yilgan maqsadga erishishni ta’minlaydi hamda muhim farqlar sifatida tasniflanishi mumkin. Kontaktli vertikal sath o‘lchash etalonining texnik xarakteristikasi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Kontaktli vertikal sath o‘lchash etalonining texnik xarakteristikasi

Etalonning muhim jihati — to‘liq raqamlashtirilgan va avtomatlashtirilgan dasturiy ta’minot majmuasidir. U industiriya 4.0 (Industry 4.0) konsepsiyasiga mos ravishda ishlab chiqilgan bo‘lib, real-time monitoring, data logging, traceability va avtomatik hisobot shakllantirish funksiyalarini o‘z ichiga oladi. Dasturiy ta’minot ISO/IEC standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan va qiyoslash natijalarini elektron formatda saqlash hamda eksport qilish (MS Word, MS Excel) imkonini beradi [5,7].

Xavfsizlik, sifat va ishonchlilik masalalari mukammal e’tiborga olingan. Tizimda overfill protection, favqulotda o‘chirish, chegaraviy sath signalizatsiyasi, elektr xavfsizligi va zazemleniye tizimlari joriy etilgan. Barcha konstruktiv

ISSN 3030-3907

yechimlar mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi bo‘yicha amaldagi ISO va GOST standartlariga muvofiq mos keladi. Kontaktli vertikal sath o‘lchash etalon yordamida o‘tkazilgan tajriba jarayoni 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Kontaktli vertikal sath o‘lchash etalon yordamida o‘tkazilgan tajriba jarayoni

Mazkur etalon o‘rnatmasining ishga tushirilishi milliy metrologiya infratuzilmasini mustahkamlab, kalibrlash xizmatlarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish nazarda tutilgan. Bu esa mahsulot va xizmatlarning eksport salohiyatini kengaytirish, texnik reglamentlar va muvofiqlikni baholash sohasida Jahon savdo tashkilotining Savdodagi texnik to‘siqlar to‘g‘risidagi bitimi (WTO TBT) talablariga muvofiq ish yuritishga xizmat qiladi [8].

Yangi avlod sath o‘lash etaloni nafaqat yuqori aniqlik, balki innovasion yondashuv, xalqaro standartlarga moslik va raqamli metrologiya konsepsiyasining amaliy ifodasi sifatida baholanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Матякубова П.М., Жуманазаров А.Р., Саидорипов Л.Ф. Проектирование и разработка простой, и эффективной недорогой встраиваемой системы измерения уровня жидкости ИННОВАЦИИ В НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ ТОМ 5, НОМЕР 1. №1 | 2024. 36-44 с. http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14565615
2. Matyakubova P.M., To‘rayev Sh.A., Saidoripov L.F. Ishlab chiqarishning metrologik ta’minoti. Darslik: – Toshkent: “Fan va texnologiyalar nashriyot batbaa uyi”, 2025, 312 b.
3. Матякубова П.М., Муминов Х.Д., Саидорипов Л.Ф., Маҳмуджонов М. Резервуардаги суюқлик сатҳини назорат қилиш ва ўлчаш натижаларини статистик таҳлил этиш дастурий таъминоти. Ўзбекистон Республикаси Интеллектуал мулк агентлиги. № DGU 63328 Рўйхатдан ўтказилган сана: 30.04.2026.
4. Matyakubova P.M., Jumanazarov A.R., Saidoripov L.F., Mo‘minov X.D. Sath o‘lchagichlarni zamonaviy usullar yordamida qiyoslash. DGU 54373. Dasturiy mahsulotlar davlat reyestri 2025 y.

6. Matyakubova P.M., Jumanazarov A.R., Saidoripov L.F., Mo‘minov X.D. Yangi avlod etaloni – Xalqaro standartlar asosida aniqlikni ta’minlovchi innovatsion yechim. «O‘zbekiston metrologiyasi» ilmiy-texnik jurnali 2025/4, ISSN 3093-8805.
7. Matyakubova P.M., Mo‘minov X.D., Toxirov N.A. Sath o‘lchash jarayonida noaniqlikni baholash. DGU 46378. Dasturiy mahsulotlar davlat reyestri 2024 y.
8. Matyakubova P.M. Eksperimentni tashkil etish va rejalashtirish. O‘quv qo‘llanma. ISBN 978-9910-9838-1-8 «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2023, 183 b.
9. Matyakubova P.M., Saidoripov L.F. O‘lchash asboblarini metrologik ta’minoti, etalonlar. Monografiya. Globe Edit India ISBN 978-620-0-64588-3. 2023.
10. Matyakubova P.M., Avezova N.I., Mahmudjonov M.M., Usmanova X.A., Turgunboyev A. Katta diametrli quvurda namlik o‘lchagich. № FAP 2700 Foydali modellar davlat reyestri - 2025-yil.
11. Матякубова П.М., Саидорипов Л.Ф. Роль метрологических институтов в инфраструктуре качества. ИННОВАЦИИ В НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ ТОМ 6, НОМЕР 2. № 2 -2025 УДК 006.91:389.1. 42-48 с.
12. Matyakubova P.M., Jumanazarov A.R., Masharipov SH.M. Sath o‘lchash qurilmalarini tekshirish va kalibrlash. FAP 20250169. Foydali modellar davlat reyestri - 2025 y.
13. Matyakubova P.M., Shamuratov Sh.U, Ismatullayev P.R. Suyuqlikning qovushqoqligini o‘lchash uchun tebranish viskozimetri. № IAP 7707. Ixtirolar davlat reyestri - 2024.
14. Матякубова П.М., Саидорипов Л.Ф., Муминов Х.Д., Маҳмуджонов М. Классификация методов измерения и контроля уровня жидких сред. Инновации в нефтегазовой отрасли. том 6, номер 3. 2025. 32-39 с. http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000
15. Патент на изобретение RU 197046 U1, МПК G 01 F 25/00 Устройство для поверки и калибровки средств измерения уровня / Терехин А.А., Терехин С.А.; - № 2019124438; заявл. 29.07.2019; опубл. 26.03.2020.
16. Патент на изобретение RU 2690701 C2, МПК G 01 F 25/00 Метрологический стенд по поверке, калибровке уровнемеров и сигнализаторов уровня / Фокина Е.В., Фёдоров Н.В., Николаев А.Г., Агафонов С.Н., Шашуков А.Е.; - № 2018140202; заявл. 14.11.2018; опубл. 05.06.2019.
17. Патент на изобретение RU 2495384 C2, МПК G 01 F 25/00 Установка поверочная линейных перемещений автоматизированная и способ повышения точности вертикальных установок для метрологической

аттестации двух уровнемеров одновременно / Быстров И.М., Галкин А.С., Лакеев А.И., Мустаев Н.Я., Равикович Е.М.; - № 2012114246/28; заявл. 12.04.2012; опубл. 10.10.2013.

ISSN 3030-3907

ПРОГНОЗИРОВАНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ УСПЕВАЕМОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ТЕКУЩИХ РЕЗУЛЬТАТОВ ОБУЧЕНИЯ

Шакаров Мухамад Хаётович
Магистр БГТУ
Асраев Зафар Ризакулович
Доцент БГТУ

Аннотация. В статье рассматриваются возможности прогнозирования академической успеваемости студентов на основе анализа текущих результатов обучения, получаемых в цифровой образовательной среде. Актуальность исследования обусловлена необходимостью своевременного выявления студентов группы риска и повышения эффективности образовательного процесса. Предлагается модель прогнозирования, основанная на использовании текущих оценок, результатов тестирования, активности в системе дистанционного обучения и показателей выполнения учебных заданий.

Ключевые слова: академическая успеваемость, прогнозирование, образовательная аналитика, цифровая образовательная среда, Moodle, студенты, машинное обучение, учебная аналитика.

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhitida olinadigan joriy o‘quv natijalarini tahlil qilish asosida talabalarning akademik o‘zlashtirishini prognozlash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotning dolzarbligi o‘quv jarayonida xavf guruhiga kiruvchi talabalarni o‘z vaqtida aniqlash va ta’lim samaradorligini oshirish zarurati bilan izohlanadi. Maqolada joriy baholar, test natijalari, masofaviy ta’lim tizimidagi faollik hamda o‘quv topshiriqlarini bajarish ko‘rsatkichlariga asoslangan prognozlash modeli taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: akademik o‘zlashtirish, prognozlash, ta’lim analitikasi, raqamli ta’lim muhiti, Moodle, talabalar, mashinali o‘qitish, o‘quv analitikasi.

Abstract. This article examines the possibilities of predicting students’ academic performance based on the analysis of current learning outcomes obtained in a digital educational environment. The relevance of the study is determined by the need for timely identification of at-risk students and the improvement of the effectiveness of the educational process. A predictive model is proposed based on current grades, test results, activity in the distance learning system, and indicators of students’ assignment completion.

Keywords: academic performance, prediction, educational analytics, digital educational environment, Moodle, students, machine learning, learning analytics.

ВВЕДЕНИЕ.

Современная система высшего образования активно внедряет цифровые технологии, позволяющие не только организовывать учебный процесс, но и анализировать большие объемы образовательных данных. Одним из перспективных направлений является прогнозирование

ISSN 3030-3907

академической успеваемости студентов на основе информации, накапливаемой в электронных образовательных системах.

Традиционные методы оценки успеваемости позволяют определить уровень знаний студентов только по итогам изучения дисциплины. Однако современные информационные технологии дают возможность выявлять тенденции в обучении значительно раньше, используя текущие результаты тестирования, выполнения заданий, посещаемости и активности обучающихся. Это открывает новые возможности для повышения качества образования и принятия своевременных педагогических решений.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ.

Проблема прогнозирования академической успеваемости студентов является одним из актуальных направлений современных исследований в области образовательной аналитики и цифровых технологий обучения. В работах Г. Сименса, Р. Фергюсон, К. Ромеро и С. Вентуры рассматриваются теоретические основы Learning Analytics и Educational Data Mining, позволяющие использовать данные образовательных платформ для анализа и прогнозирования результатов обучения. Авторы отмечают, что систематический сбор и обработка информации о текущей учебной деятельности студентов способствует своевременному выявлению факторов, влияющих на успеваемость, а также повышает эффективность принятия управленческих решений в образовательных учреждениях. Особое внимание уделяется использованию данных электронных образовательных сред для прогнозирования итоговых результатов обучения и выявления студентов группы риска.

Вопросы применения систем дистанционного обучения, в частности Moodle, для мониторинга и оценки учебной деятельности обучающихся нашли отражение в исследованиях М. Дугиамаса, П. Тейлора, Дж. Коула и Х. Фостера. Исследователи подчеркивают, что современные LMS-платформы аккумулируют значительные объемы данных о поведении студентов, включая результаты тестирования, выполнение заданий, посещаемость и активность в системе. Анализ этих данных с использованием методов статистики и машинного обучения позволяет строить прогностические модели академической успеваемости с высокой степенью точности. Несмотря на значительное количество исследований в данной области, вопросы комплексного использования текущих результатов обучения для прогнозирования успеваемости студентов в условиях цифровой образовательной среды остаются недостаточно изученными, что определяет актуальность настоящего исследования.

МЕТОДОЛОГИЯ.

ISSN 3030-3907

Прогнозирование академической успеваемости представляет собой процесс определения вероятных результатов обучения на основе анализа имеющихся данных. Основная цель таких моделей заключается в раннем выявлении студентов, испытывающих трудности в обучении, и разработке мер по повышению их академической успешности.

В научной литературе выделяются следующие группы факторов, влияющих на успеваемость студентов:

- академические показатели;
- посещаемость занятий;
- активность в электронной образовательной среде;
- своевременность выполнения заданий;
- участие в онлайн-дискуссиях и форумах;
- социально-психологические характеристики.

Наиболее объективными и доступными для анализа являются данные, автоматически собираемые системами управления обучением (Learning Management Systems).

Источники данных для прогнозирования

Цифровая образовательная среда позволяет собирать большое количество информации о деятельности студентов. В качестве основных источников данных могут использоваться:

Результаты текущего контроля

К ним относятся:

- результаты тестов;
- контрольные работы;
- лабораторные задания;
- практические работы;
- промежуточные оценки.

Данные показатели непосредственно отражают уровень усвоения учебного материала.

Активность в системе дистанционного обучения

В современных LMS-платформах фиксируются:

- количество входов в систему;
- продолжительность работы;
- число просмотренных материалов;
- участие в форумах;
- взаимодействие с электронными ресурсами.

Исследования показывают наличие устойчивой корреляции между уровнем активности студентов и их итоговыми результатами обучения.

Выполнение учебных заданий

ISSN 3030-3907

Важными показателями являются:

- своевременность сдачи работ;
- количество попыток выполнения заданий;
- частота обращений к учебным материалам;
- динамика результатов тестирования.

Предлагаемая прогностическая модель

Для прогнозирования академической успеваемости предлагается использовать интегральную модель, включающую несколько групп показателей.

Общая оценка прогноза может определяться следующим образом:

$$P = 0{,}4T + 0{,}3A + 0{,}2Z + 0{,}1F$$

где:

- **P** – прогнозируемый показатель успеваемости;
- **T** – средний балл текущих тестов;
- **A** – показатель активности в LMS;
- **Z** – показатель выполнения заданий;
- **F** – участие в форумах и обсуждениях.

Использование весовых коэффициентов позволяет учитывать различную значимость каждого показателя.

В более сложных моделях могут применяться методы машинного обучения:

- линейная регрессия;
- логистическая регрессия;
- деревья решений;
- случайный лес;
- нейронные сети.

Такие методы позволяют повысить точность прогнозирования и учитывать нелинейные зависимости между параметрами.

Этапы реализации модели

Процесс построения прогностической модели включает следующие этапы:

Сбор данных

На данном этапе осуществляется выгрузка информации из LMS-системы, электронного журнала и других информационных ресурсов университета.

Предварительная обработка данных

Выполняются:

- очистка данных;
- удаление пропусков;

ISSN 3030-3907

- нормализация показателей;
- формирование единой базы данных.

Формирование признаков

Создаются показатели, характеризующие учебную активность студентов:

- средний балл;
- динамика оценок;
- частота посещений LMS;
- процент выполненных заданий.

Построение модели

На основе подготовленных данных осуществляется обучение модели прогнозирования.

Оценка точности

Для проверки качества модели используются показатели:

- Accuracy;
- Precision;
- Recall;
- F1-score;
- коэффициент детерминации R^2.

Практическое применение модели

Использование прогностических моделей в университетах позволяет решать следующие задачи:

- раннее выявление студентов группы риска;
- персонализация образовательных траекторий;
- повышение качества учебного процесса;
- снижение академической задолженности;
- поддержка принятия управленческих решений.

Особенно эффективным является применение подобных моделей в системах дистанционного обучения, где большая часть образовательной деятельности фиксируется автоматически.

Преимущества использования цифровой аналитики

Применение технологий образовательной аналитики обеспечивает следующие преимущества:

- объективность оценки;
- оперативность получения результатов;
- возможность автоматизации мониторинга;
- повышение эффективности педагогического сопровождения;
- снижение риска академической неуспеваемости.

Кроме того, использование аналитических инструментов способствует переходу от реактивного управления образовательным

ISSN 3030-3907

процессом к проактивному подходу, основанному на прогнозировании возможных проблем.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

Прогнозирование академической успеваемости студентов на основе текущих результатов обучения является одним из перспективных направлений развития цифрового образования. Использование данных, формируемых в электронных образовательных средах, позволяет своевременно выявлять обучающихся, нуждающихся в дополнительной поддержке, и принимать эффективные управленческие решения.

Предложенная модель может быть интегрирована в системы управления обучением, включая Moodle, и использована для повышения качества образования в высших учебных заведениях. Дальнейшие исследования могут быть направлены на применение методов искусственного интеллекта и машинного обучения для повышения точности прогнозирования и разработки адаптивных образовательных систем.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Siemens G. Learning Analytics: The Emergence of a Discipline. – American Behavioral Scientist, 2013.
2. Romero C., Ventura S. Educational Data Mining and Learning Analytics. – Wiley Interdisciplinary Reviews, 2020.
3. Baker R., Inventado P. Educational Data Mining and Learning Analytics. – Learning Analytics, Springer, 2019.
4. Ferguson R. Learning Analytics: Drivers, Developments and Challenges. – International Journal of Technology Enhanced Learning, 2012.
5. Source Course Management System. – Proceedings of EDMEDIA, 2003.
6. Siemens G., Long P. Penetrating the Fog: Analytics in Learning and Education. – EDUCAUSE Review, 2011.

ISSN 3030-3907

UDK 621.311.21:621.224

MIKRO GES UCHUN OPTIMAL TURBINA TANLASH METODIKASI: GIDROLOGIK TAHLIL VA TEXNIK-IQTISODIY BAHOLASH

Baxramov Shohruxbek Kozimjon o‘g‘li
Andijon Davlat Texnika Instituti Muqobil energiya manbalari kafedrasi assistenti va mustaqil izlanuvchisi
170019, O‘zbekiston
E-mail: shohrux.baxramov7811742@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0008-2763-4640
Hakimov Farxodbek
Andijon Davlat Texnika Instituti Muqobil energiya manbalar yo‘nalishi talabasi
170019, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada mikro gidroelektrostansiyalar (mikro GES) uchun optimal turbina tanlash metodikasi tahlil qilinadi. Tadqiqot gidrologik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, turli turdagi turbinalarning texnik xususiyatlarini qiyoslash hamda iqtisodiy samaradorlikni baholash usullarini qamrab oladi. Pelton, Francis va Kaplan turbinalarining ishlash prinsipi, tanlash mezonlari va qo‘llanish sohalari batafsil ko‘rib chiqilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, 25-100 metr bosim diapazonida Francis turbinasi 85-93% foydali ish koeffitsienti bilan eng optimal variant hisoblanadi. Maqolada O‘zbekiston sharoitida mikro GES loyihalash uchun amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: mikro GES, gidroturbina, Pelton turbinasi, Francis turbinasi, Kaplan turbinasi, gidrologik tahlil, foydali ish koeffitsienti, qayta tiklanuvchi energiya.

Abstract. This article analyzes the methodology for selecting the optimal turbine for micro hydroelectric power plants (micro HPPs). The study covers methods for collecting and analyzing hydrological data, comparing the technical characteristics of different types of turbines, and assessing economic efficiency. The operating principle, selection criteria, and application areas of Pelton, Francis, and Kaplan turbines are considered in detail. The results show that in the pressure range of 25-100 meters, the Francis turbine is the most optimal option with a useful work coefficient of 85-93%. The article provides practical recommendations for designing micro HPPs in the conditions of Uzbekistan.

Keywords: micro HPP, hydroturbine, Pelton turbine, Francis turbine, Kaplan turbine, hydrological analysis, useful work coefficient, renewable energy.

Аннотация. В данной статье анализируется методология выбора оптимальной турбины для микрогидроэлектростанций (микроГЭС). Исследование охватывает методы сбора и анализа гидрологических данных,

сравнение технических характеристик различных типов турбин и оценку экономической эффективности. Подробно рассматриваются принцип работы, критерии выбора и области применения турбин Пелтона, Фрэнсиса и Каплана. Результаты показывают, что в диапазоне давлений 25-100 метров наиболее оптимальным вариантом является турбина Фрэнсиса с коэффициентом полезной работы 85-93%. В статье приводятся практические рекомендации по проектированию микроГЭС в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: микроГЭС, гидротурбина, турбина Пелтона, турбина Фрэнсиса, турбина Каплана, гидрологический анализ, коэффициент полезной работы, возобновляемая энергия.

1. KIRISH.

Mikro gidroelektrostansiyalar (mikro GES) 100 kW gacha quvvatga ega bo‘lgan kichik gidroenergetika qurilmalari bo‘lib, mahalliy energiya ta’minoti va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega [1]. O‘zbekistonda tog‘li va tekislik hududlarida ko‘plab kichik daryolar, kanallar va irrigatsiya tizimlari mavjud bo‘lib, ular mikro GES o‘rnatish uchun katta potentsialga ega [2].

Mikro GES samaradorligi ko‘p jihatdan turbina turini to‘g‘ri tanlashga bog‘liq. Turli gidrologik sharoitlar (suv sarfi, bosim, mavsumiy o‘zgarishlar) uchun Pelton, Francis yoki Kaplan turbinalaridan qaysi birini tanlash masalasi muhim texnik va iqtisodiy ahamiyatga ega. Noto‘g‘ri tanlangan turbina foydali ish koeffitsiyentining pasayishiga, qurilish va ekspluatatsiya xarajatlarining oshishiga olib keladi [3].

Tadqiqotning maqsadi: mikro GES uchun turbina tanlashning ilmiy asoslangan metodikasini ishlab chiqish va O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini tahlil qilish.

2. ADABIYOTLAR TAHLILI.

Gidroturbinalar tarixini o‘rganish ko‘rsatadiki, birinchi zamonaviy turbina 1827-yilda B. Fourneyron tomonidan ishlab chiqilgan [4]. Keyinchalik 1870-yillarda L.A. Pelton impulsli turbina, 1913-yilda J.B. Francis reaktiv turbina va 1913-yilda V. Kaplan sozlanuvchi pichoqli turbina ixtiro qildi [5].

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turbina samaradorligi ko‘p omillarga bog‘liq: suv sarfi va bosimning o‘zgarishi, turbina geometriyasi, materiallar sifati va ekspluatatsiya rejimlari [6].

Pelton turbinasi 90-92% FIK bilan yuqori naporli (100-1500 m) sharoitlarda eng samarali ishlaydi. Impulsli prinsipida ishlaydi - suv yuqori bosimli soplo orqali turbina pattalariga yo‘naltiriladi va kinetik energiya mexanik energiyaga aylanadi [7].

ISSN 3030-3907

Francis turbinasi 85-93% FIK bilan o‘rta napor (25-300 m) uchun mo‘ljallangan. Reaktiv prinsipida ishlaydi va xarakteristik tezlik ns = 60-300 diapazonida optimal samaradorlikni ta’minlaydi [8].

Kaplan turbinasi 85-93% FIK bilan past napor (5-50 m) va katta suv sarflarida yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Sozlanuvchi pichoqlar turli rejimlarda optimal ishlash imkonini beradi [9].

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

3.1. Gidrologik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish

Mikro GES loyihalash uchun quyidagi gidrologik ma’lumotlar talab etiladi:

- Daryoning ko‘p yillik suv sarfi (Q), m^3/s
- Minimal, o‘rtacha va maksimal sarflar
- Suv sathi va balandliklar farqi (napor, H)
- Oylik yoki kunlik gidrologik kuzatuvlar (5-10 yil)

O‘rtacha yillik suv sarfi quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$Q_{o‘rtacha} = (\Sigma Q_i) / n$$

bu yerda: Q_i – kuzatuv davridagi suv sarflari; n – kuzatuvlar soni.

Ta’minlanganlik egri chizig‘i (Flow Duration Curve) turli suv sarflari ehtimolini ko‘rsatadi. Amaliyotda: - 30-50% ta’minlangan Q → ishchi (hisobiy) sarf - 90-95% ta’minlangan Q → minimal ekspluatatsion sarf

3.2. Turbina quvvatini hisoblash

Mikro GES quvvati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P = \eta \times \rho \times g \times Q \times H$$

bu yerda: - P – quvvat (W) - η – foydali ish koeffitsienti (0.6-0.9) - ρ – suv zichligi (1000 kg/m^3) - g – erkin tushish tezlanishi (9.81 m/s^2) - Q – suv sarfi (m^3/s) - H – bosim (m)

Hisoblash

$$Q = 0.8\ m^3/s,\ H = 25\ m,\ \eta = 0.85 \text{ uchun:}$$

$$P = 0.85 \times 1000 \times 9.81 \times 0.8 \times 25 = 166{,}770\ W \approx 167\ kW$$

3.3. Turbina tanlash mezonlari

Turbina tanlashda asosiy mezon – xarakteristik tezlik (ns) parametridir:

$$ns = n \times \sqrt{P} / H^{5/4}$$

bu yerda: - n – aylanish tezligi (ayl/min) - P – quvvat (kW) - H – napor (m)

Xarakteristik tezlik qiymati asosida turbina turi tanlanadi: - ns = 10-40 → Pelton turbinasi - ns = 60-300 → Francis turbinasi - ns = 300-800 → Kaplan turbinasi

4. NATIJALAR VA TAHLIL.

4.1. Turbina turlarini qiyoslash

ISSN 3030-3907

1-jadval.

Turbina turlarining texnik xususiyatlari

Parametr	Pelton	Francis	Kaplan
Napor diapazoni (m)	100-1500	25-300	5-50
FIK (%)	90-92	85-93	85-93
Xarakteristik tezlik (ns)	10-40	60-300	300-800
Ish prinsipi	Impulsli	Reaktiv	Reaktiv
Afzalliklari	Yuqori FIK, oddiy konstruksiya	Keng diapazon, barqaror ish	Katta suv sarfi, sozlanuvchi
Kamchiliklari	Faqat yuqori napor	O‘rta FIK	Murakkab konstruksiya

4.2. Amaliy hisoblash natijalari

2-jadval.

O‘zbekiston sharoitida turbina tanlash natijalari

№	Joylashuv	H (m)	Q (m^3/s)	P (kW)	Tanlangan turbina	ns	FIK (%)
1	Farg‘ona viloyati	8	0.9	50	Kaplan	450	88
2	Andijon viloyati	15	1.2	120	Francis	85	90
3	Namangan viloyati	10	1.5	100	Kaplan	380	89
4	Chirchiq kaskadi	7	15	800	Kaplan	620	87
5	Hisorak GES	100	3	2000	Francis	95	91

4.3. Iqtisodiy samaradorlik tahlili

Turbina tanlash to‘g‘ri amalga oshirilganda quyidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar ta’minlanadi:

3-jadval.

Turbina turlarining iqtisodiy ko‘rsatkichlari (50-120 kW mikro GES uchun)

Ko‘rsatkich	Pelton	Francis	Kaplan
O‘rnatish xarajati (USD/kW)	2000-2500	1800-2200	2200-2800
Texnik xizmat (USD/yil)	500-800	600-1000	800-1200
Xizmat muddati (yil)	30-40	25-35	20-30
Yillik samaradorlik	92%	90%	88%

Francis turbinasi o‘rta xarajat va yuqori samaradorlik kombinatsiyasi bilan

ISSN 3030-3907

optimal variant hisoblanadi.

5. MUHOKAMA.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

1. **Napor 100 m dan yuqori** sharoitlarda Pelton turbinasi eng samarali variant. Yuqori FIK (90-92%) va oddiy konstruksiya tufayli ekspluatatsiya xarajatlari kam.

2. **Napor 25-100 m** diapazonida Francis turbinasi optimal. 85-93% FIK, barqaror ishlash va keng qo‘llanish doirasi tufayli O‘zbekiston sharoitida eng ko‘p qo‘llaniladi.

3. **Napor 5-25 m** va katta suv sarflarda Kaplan turbinasi afzal. Sozlanuvchi pichoqlar mavsumiy suv sarfi o‘zgarishlariga moslashish imkonini beradi.

O‘zbekiston sharoitida ko‘pchilik mikro GES loyihalari 10-50 m napor va 0.5-2 m^3/s suv sarfi bilan tavsiflanadi. Ushbu diapazon uchun Francis va Kaplan turbinalari eng mos keladi.

6. XULOSA

11. Mikro GES uchun turbina tanlash metodikasi ishlab chiqildi. Metodika gidrologik tahlil, quvvat hisoblash va xarakteristik tezlik parametri asosida optimal turbina turini aniqlashni o‘z ichiga oladi.

12. O‘zbekiston sharoitida eng ko‘p qo‘llaniladigan turbina turlari aniqlandи: 8-15 m napor uchun Kaplan, 15-100 m uchun Francis turbinasi tavsiya etiladi.

13. Andijon viloyati Jalaquduq tumanida 120 kW mikro GES (4×30 kW) va boshqa loyihalar tahlili asosida Francis turbinasining 90% FIK bilan optimal ishlashi tasdiqlandi.

14. Iqtisodiy tahlil ko‘rsatdiki, Francis turbinasi o‘rnatish xarajati (1800-2200 USD/kW) va yuqori samaradorlik (90%) kombinatsiyasi bilan eng tejamkor variant hisoblanadi.

15. Ishlab chiqilgan metodika O‘zbekistonda rejalashtirilgan 2983 ta mikro GES loyihalarini amalga oshirishda qo‘llanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. IEA. “Renewables 2023 – Analysis and forecast to 2028”. International Energy Agency, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi PQ-4779-son qarori, 2020.
3. Singh P., Nestmann F. “An optimization routine on a prediction and selection model for the turbine operation of pump as turbine”. Renewable Energy, vol. 34(1), pp. 23-31, 2009.
4. Paish O. “Small hydro power: technology and current status”. Renewable and Sustainable Energy Reviews, vol. 6(6), pp. 537-556, 2002.

ISSN 3030-3907

5. Dixon S.L., Hall C.A. “Fluid Mechanics and Thermodynamics of Turbomachinery”. Butterworth-Heinemann, 7th Edition, 2014.
6. Quaranta E., Revelli R. “Gravity water wheels as a micro hydropower energy source: A review based on historic data, design methods, efficiencies and modern optimizations”. Renewable and Sustainable Energy Reviews, vol. 97, pp. 414-427, 2018.
7. Brekke H. “Hydraulic Turbines - Design, Erection and Operation”. Norwegian University of Science and Technology, 2001.
8. Egusquiza E., et al. “Condition monitoring of pump-turbines. New challenges”. Measurement, vol. 67, pp. 151-163, 2015.
9. Giosio D.R., et al. “Design and performance evaluation of a pump-as-turbine micro-hydro test facility with incorporated inlet flow control”. Renewable Energy, vol. 78, pp. 1-6, 2015.
10. O‘zbekiston Energetika vazirligi. “Andijon viloyatida yangi mikro GES ishga tushiriladi”. 2021. https://minenergy.uz

ISSN 3030-3907

QUYOSH VA SHAMOL ENERGIYASIGA ASOSLANGAN GIBRID ENERGIYA TIZIMINING TEXNIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGI

Dilshod Qodirov
TIQXMMI "Milliy tadqiqot universiteti" Texnika fanlari doktori, Professor
Rakhimjon Qobilov
TIQXMMI "Milliy tadqiqot universiteti" 2-kurs doktaranti
Aygera Yeskuatova
TIQXMMI "Milliy tadqiqot universiteti" 2-kurs magistrantni

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot Qoraqalpog'iston Respublikasi, Kungrad tumani 36-maktab misolida quyosh va shamol energiyasiga asoslangan gibrid energiya tizimini loyihalash hamda uning texnik-iqtisodiy samaradorligini baholashga bag'ishlangan. Tadqiqotda maktabning 24,5 kVt o'rnatilgan yuklamasi va kunlik elektr energiyasi iste'moli asosida 23,2 kVt quvvatga ega bo'lgan 40 dona monokristalli quyosh panellari hamda Bergey exsel 5 kVt quvvatli shamol generatoridan iborat gibrid tizim konfiguratsiyasi taklif etildi.Fotoelektr modullarining ishlash jarayoni quyosh nurlanishi intensivligi, harorat koeffitsienti va modul samaradorligiga bog'liq holda matematik modellar yordamida tahlil qilindi. Shamol energiyasi salohiyati o'rtacha 4,5–5,5 m/s tezlik oralig'ida baholanib, shamol turbinasining ishlab chiqarish ko'rsatkichlari aniqlashtirildi. Hisob-kitoblarga ko'ra, taklif etilgan tizim maktabning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qoplash bilan birga, energiya ta'minotining barqarorligini oshiradi va tarmoqdan qaramlikni kamaytiradi. Iqtisodiy tahlil natijalariga ko'ra, loyiha uchun umumiy kapital xarajat (CAPEX) 190 000 000 so'mni tashkil etadi. Investitsiya samaradorligi o'rnatilgan quvvat va ishlab chiqariladigan energiya hajmiga nisbatan baholandi hamda tizimning uzoq muddatli ekspluatatsiya sharoitida iqtisodiy va ekologik jihatdan maqsadga muvofiqligi asoslab berildi. Olingan natijalar chekka hududlarda joylashgan ta'lim muassasalari va ijtimoiy obyektlar uchun qayta tiklanuvchi energiyaga asoslangan gibrid mikrogrid tizimlarini joriy etishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, energiya xavfsizligi va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Gibrid energiya tizimi; quyosh energiyasi; shamol energiyasi; monokristalli fotovoltaik panel; mikrogrid; energiya samaradorligi; iqtisodiy tahlil; ekologik barqarorlik.

Abstract. This study focuses on the design and techno-economic assessment of a hybrid renewable energy system based on solar and wind power, using School No. 36 in the Kungrad district of the Republic of Karakalpakstan as a case study. The proposed hybrid system configuration includes 40 monocrystalline solar panels with a total capacity of 23.2 kW and a Bergey Exsel 5 kW wind turbine, considering the school's installed load of 24.5 kW and its average daily electricity

ISSN 3030-3907

consumption. The operation of the photovoltaic modules was analyzed using mathematical models accounting for solar irradiance, temperature coefficient, and panel efficiency. The wind energy potential was assessed at an average wind speed of 4.5–5.5 m/s, and the wind turbine output performance was estimated accordingly. Calculations showed that the proposed system can meet the school's electricity demand, enhance supply reliability, and reduce dependence on the centralized grid. Economic analysis indicated that the total capital expenditure (CAPEX) of the project is 190,000,000 UZS. Investment efficiency was evaluated based on installed capacity and expected energy production, confirming the system's economic and environmental feasibility in the long term. The results provide practical insights for implementing hybrid microgrid systems based on renewable energy sources in remote areas, ensuring reliable energy supply and promoting environmental sustainability.

Keywords: Hybrid energy system; solar energy; wind energy; monocrystalline photovoltaic panel; microgrid; energy generation; economic analysis; ecological culture.

Аннотация. Данное исследование посвящено проектированию гибридной энергосистемы на основе солнечной и ветровой энергии и оценке её технико-экономической эффективности на примере школы №36 в Республике Каракалпакстан, район Кунград. В исследовании предложена конфигурация гибридной системы, включающая 40 монокристаллических солнечных панелей общей мощностью 23,2 кВт и ветрогенератор мощностью Бергеи Excel 5 кВт, с учётом установленной нагрузки школы 24,5 кВт и её среднесуточного потребления электроэнергии. Работа фотогальванических модулей анализировалась с использованием математических моделей, учитывающих интенсивность солнечного излучения, температурный коэффициент и эффективность панелей. Потенциал ветровой энергии оценен при средней скорости ветра 4,5–5,5 м/с, а показатели выработки ветрового генератора определены на основе этих данных. Расчёты показали, что предложенная система способна покрыть потребность школы в электроэнергии, повысить стабильность энергоснабжения и снизить зависимость от централизованной сети. Экономический анализ показал, что капитальные затраты (CAPEX) проекта составляют 190 000 000 сумов. Эффективность инвестиций оценивалась с учётом установленной мощности и объёма вырабатываемой энергии, что подтверждает экономическую и экологическую целесообразность системы в долгосрочной перспективе. Полученные результаты имеют практическое значение для внедрения гибридных микро-грид систем на базе

ISSN 3030-3907

возобновляемых источников энергии в удалённых районах, обеспечивая надёжность энергоснабжения и экологическую устойчивость

Ключевые слова: Гибридная энергетическая система; солнечная энергия; энергия ветра; монокристаллическая фотоэлектрическая панель; микросеть; производство энергии; экономический анализ; экологическая культура.

KIRISH.

So‘nggi o‘n yillikda global energetika tizimi jadal o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Urbanizatsiya jarayonlarining tezlashuvi, aholi sonining ortishi hamda sanoat va ijtimoiy sohalarning rivojlanishi natijasida elektr energiyasiga bo‘lgan talab shahar va qishloq hududlarida izchil ravishda oshib bormoqda. Biroq qazilma yoqilg‘ilarga asoslangan an’anaviy energiya ishlab chiqarish ekologik muammolarni kuchaytirib, ayniqsa karbonat angidrid (CO_2) va boshqa zararli gazlarning atmosferaga chiqarilishi orqali iqlim o‘zgarishi jarayonini tezlashtirmoqda. Shu munosabat bilan quyosh, shamol, gidro va biogaz kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish zamonaviy energetika siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan gibrid energiya tizimlari mazkur muammolarga samarali yechim sifatida qaralmoqda. Gibrid tizimlar bir nechta energiya manbalarini yagona tizimda birlashtirib, energiya ta’minotining uzluksizligi va ishonchliligini oshiradi hamda umumiy samaradorlikni yaxshilaydi. Masalan, quyosh fotoelektr panellari asosan kunduzgi vaqtda yuqori samaradorlikka ega bo‘lsa, shamol turbinalari shamol tezligiga bog‘liq holda elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Ushbu manbalarni integratsiyalash energiya ishlab chiqarishdagi o‘zgaruvchanlikni kamaytiradi, ortiqcha yoki yetishmayotgan energiya miqdorini minimallashtiradi.

Energiya saqlash qurilmalari bilan birgalikda ishlaydigan gibrid tizimlar deyarli uzluksiz energiya ta’minotini ta’minlash imkonini beradi. Bu, ayniqsa, markazlashgan elektr tarmoqlaridan uzoqda joylashgan, chekka va izolyatsiyalangan hududlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy jihatdan insoniyat quyosh, shamol va suv kabi tabiiy energiya manbalaridan foydalanib kelgan bo‘lsa-da, zamonaviy texnologiyalar ushbu resurslardan samarali va barqaror foydalanish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda ham noan’anaviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada ortib bormoqda. Xorijiy davlatlar va xalqaro moliya institutlari tomonidan qayta tiklanuvchi energiya asosidagi energiya obyektlarini qurishga qaratilgan investitsiyalar amalga oshirilmoqda. Bunday loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish ilmiy-tadqiqot ishlari, loyihalash, qurilish, ekspluatatsiya va texnik xizmat ko‘rsatish

ISSN 3030-3907

jarayonlarini kompleks tarzda olib borishni talab etadi hamda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan gibrid mikrogrid tizimlarining optimal konfiguratsiyasini aniqlash tizim samaradorligini oshirish, energiya ta’minotining barqarorligini ta’minlash va iqtisodiy jihatdan maqbul yechimlarni tanlashga qaratilgan muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Ushbu jarayonda Quantitative Energy Management (RES) yondashuvi energiya manbalarini samarali boshqarish, resurslarni optimal taqsimlash hamda energiya ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotda Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan 36-maktab misolida quyosh va shamol energiyasiga asoslangan gibrid energiya tizimining ishlash samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi soatlik va kunlik elektr energiyasi ishlab chiqarish profillarini aniqlash, ularni iste’mol yuklamasi bilan mosligini baholash hamda tizimning texnik, iqtisodiy va ekologik samaradorligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida uskunalarni tanlash, eksperimental baholash, samaradorlik tahlili va optimallashtirish ishlari amalga oshiriladi. Olingan natijalar chekka va tarmoqdan uzilgan hududlar uchun ishonchli, ekologik toza va iqtisodiy jihatdan samarali energiya ta’minoti yechimlarini ishlab chiqishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

METODOLOGIYA. Quyosh energiyasi eng istiqbolli qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan biri bo‘lib, uni o‘zlashtirishda fotoelektrik (PV) tizimlar muhim o‘rin tutadi. PV tizimlarning ishlash samaradorligi va energiya ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari ilmiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan. PV panellar ishlab chiqaradigan energiya miqdori bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, ularga panellarning joylashish zichligi, o‘simliklar yoki yaqin binolar sababli yuzaga keladigan soyalanish holatlari, shuningdek texnik xizmat ko‘rsatish darajasi, xususan, panellar yuzasida chang to‘planishi kiradi.

Bundan tashqari, PV panel chiqish quvvati unga tushadigan quyosh nurlanishi miqdoriga ham bevosita bog‘liq. Ushbu nurlanish darajasi mahalliy iqlim sharoiti, o‘rnatish usuli va modul turi kabi omillar bilan belgilanadi. Alohida fotoelektrik elementlar talab etiladigan chiqish kuchlanishini ta’minlash maqsadida ketma-ket ulanib, PV zanjiri (string) hosil qiladi. Aksincha, bir nechta zanjirlar parallel ulanib, chiqish tokini oshiradi.

Natijada, to‘liq fotoelektrik panel yoki modul shakllanadi va uning chiqish quvvati chiqish kuchlanishi va tok qiymatlarining ko‘paytmasi orqali aniqlanadi. PV tizimining energiya ishlab chiqarish hajmini baholashda uning nominal quvvati, real quyosh nurlanishi darajasi va atrof-muhit harorati hisobga olinadi.

$$P_{pv(t)} = P_{ref} \cdot G_{(t)} \cdot G_{ref} \cdot [1 \cdot \alpha_t (T_{c(t)} - T_{cref})] \quad (1)$$

ISSN 3030-3907

bu yerda $P_{pv}(t)$ — t vaqt momentidagi fotoelektrik (PV) modulning chiqish quvvati bo‘lib, vattlarda (W) ifodalanadi;

P_{ref} — standart sinov sharoitlarida (STC) aniqlangan PV modulning nominal (pasport) quvvati, vattlarda (W);

$G(t)$ — PV panellarining qiya (egilgan) sirtiga tushayotgan real quyosh nurlanishi bo‘lib, vatt/metr kvadrat (W/m²) da o‘lchanadi;

G_{ref} — standart quyosh nurlanishi qiymati bo‘lib, odatda 1000 W/m² ga teng;

T_{ref} — standart sinov sharoitidagi harorat bo‘lib, odatda 25 °C ni tashkil etadi;

α_t — PV modulning harorat koeffitsienti bo‘lib, monokristalli va polikristalli kremniy (Si) asosidagi quyosh elementlari uchun odatda $-3.7 \cdot 10^{-3}$ (1/°C) atrofida bo‘ladi;

T_{amb} — atrof-muhit (ambiyent) harorati bo‘lib, daraja Selsiy (°C) da ifodalanadi.

$$T_{c(t)} = T_{amb(t)} + 0.0256 \cdot G_{(t)} \quad (2)$$


Hozirgi kunda toza va barqaror energiyaga bo‘lgan global e’tibor uning ko‘plab ekologik afzalliklari sababli jadal sur’atlarda ortib bormoqda [2]. Xususan, shamol va quyosh energiyasi energiya bozorini dekarbonizatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq ushbu energiya manbalarining hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanganligi sababli shamol va quyosh elektr stansiyalari uchun eng maqbul joylarni aniqlash murakkab vazifa hisoblanadi.

So‘nggi yillarda gibrid qayta tiklanuvchi energiya tizimlari elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojni qondirishning eng maqbul yechimi sifatida shakllanmoqda, ayniqsa elektr tarmog‘ini kengaytirish qiyin bo‘lgan va ekologik masalalar muhim ahamiyat kasb etadigan hududlarda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Indoneziyaning Sharqiy Yava hududi uchun mos keladigan standart komponentlarning eng samarali kombinatsiyasini aniqlashdan iborat. Shu maqsadda to‘rtta fotoelektrik (PV) panel modeli, to‘rtta shamol turbina varianti va ikkita akkumulyator turi tanlab olindi hamda HOMER dasturi yordamida tizimning barcha mumkin bo‘lgan konfiguratsiyalari 32 ta ssenariy (Sen) bo‘yicha modellashtirildi.


Mazkur bo‘limda avvalo tadqiqot olib borilgan hudud, yuklama (iste’mol) ko‘rsatkichlari va qayta tiklanuvchi energiya manbalari haqida ma’lumot beriladi. So‘ngra tizim komponentlarining — shamol turbinalari, PV panellar, akkumulyatorlar va generatorlarning — texnik xususiyatlari muhokama qilinadi. Keyin taklif etilgan ssenariylar keltiriladi va yakunida MCDM (ko‘p mezonli qaror qabul qilish) usuli hamda uning muqobil variantlari va mezonlari tahlil qilinadi.

ISSN 3030-3907



1-Rasm Oylik quyosh radiatsiyasi darajasi [2].

21.47'N, 80 ° 08'00.15'E da joylashgan sinov maydoni uchun NREL ma'lumotlar bazasi 15 metr balandlikdagi anemometr uyasi balandligida o‘lchangan shamol manbalari ma'lumotlaridan foydalangan holda tuzilgan [4]. Ma'lumotlar yuqoridagi 2-rasmda ko‘rsatilganidek, o‘rtacha shamol tezligi 5,51 m / s ni ko‘rsatadi.



2-rasm Shamol tezligi [3].

Ushbu tadqiqot Iroqning Diyala universiteti Muhandislik kolleji dekanat binosini elektr energiyasi bilan ta’minlash uchun tarmoqqa ulangan (on-grid) gibrid qayta tiklanuvchi energiya tizimining (HRES) texnik-iqtisodiy jihatdan samarali ekanligini tasdiqladi [5].

Iroqning Diyala hududida joylashgan universitet binosi misolida olib borilgan amaliy tadqiqot elektr ta’minotini yuqori darajadagi barqarorlik asosida ta’minlash uchun elektr tarmog‘i bilan integratsiyalashgan HRES majmuasining texnologik va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan [6].

ISSN 3030-3907

Quyidagi bo‘limlarda HRES tizimining optimal konfiguratsiyasini aniqlash jarayoni batafsil bayon etiladi. HRES tahlili natijasida *t* vaqt momentida ishlab chiqarilgan elektr energiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$P_{HRES,(t)} = P_{pv,t} + P_{WT,t} + P_{BT,t} + P_{grid,t} \quad (3)$$

Gibrid energiya tizimida birlamchi energiya manbalari sifatida fotoelektr panellar (PV) va shamol turbinalari qo‘llaniladi. Quyoshli kunning soatlari davomida PV modullar maksimal quvvatda ishlaydi. Shamol tezligi yetarli bo‘lgan hollarda esa shamol turbinalari qo‘shimcha elektr energiyasi ishlab chiqaradi. PV panellar va shamol turbinalari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi, avvalo iste’molchi yuklamasini qondirishga yo‘naltiriladi.

36-maktabning umumiy elektr quvvati 24,5 kW ni tashkil etadi. Maktabning kuniga o‘rtacha 8 soat faoliyat yuritishini hisobga olsak, uning sutkalik elektr energiyasi iste’moli quyidagicha aniqlanadi.

Obyekt tavsifi (36-maktab)

Turi: Ayrim fanlar chuqurlashtirib o‘qitiladigan (ixtisoslashtirilgan) umumta’lim maktabi.

Tom yopma maydoni: 100 m × 60 m = 6000 m²

Xonalar: Sinf xonalari, ma’muriy xonalar, laboratoriyalar, sport zali va oshxona (standart maktab konfiguratsiyasi)

Quyosh panellari uchun amaliy maydon: tom maydonining taxminan 70 % → 4200 m².Standart quyosh paneli maydoni: 1,7 m².Rejalashtirilgan o‘rnatiladigan panellar soni: 40 dona

Monokristalli quyosh panellari yagona kristall quyma (ingot)dan kesib olingan yupqa quyosh elementlaridan tayyorlanadi. Har bir element bitta kristalldan ishlab chiqarilganligi sababli ular “mono” (yagona) kristalli deb ataladi. Ushbu turdagi panellar yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, cheklangan maydonda ko‘proq elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi [7].

1-Jadval

Monokristalli panellarning xarakteristikalari

Parametr	**Qiymati**
Model	Jinko Tiger Neo 580W
Nominal quvvat	580 W
Maksimal quvvat kuchlanishi	~43,3 V
Maksimal quvvat oqimi	~13,38 A
Ochiq zanjir kuchlanishi	~52,3 V
Qisqa tutashuv toki	~14,0 A
Modul samaradorligi	~22,4 %

ISSN 3030-3907

Element turi	N-turdagi monokristalli, 144 ta element
O‘lchamlari	2278 × 1134 × 35 mm
Og‘irligi	~27 kg
Ishlash harorati oralig‘i	−40 °C dan +70 °C gacha
Maksimal tizim kuchlanishi	1500 V (IEC)
Quvvat toleransiyasi	0 ~ +3 %

Ushbu N-turdagi monokristalli quyosh panellari yuqori samaradorlikka ega bo‘lib (~21–22 %) Qoraqalpog‘iston hududiga xos bo‘lgan keskin harorat sharoitlarida ishonchli ishlash uchun mo‘ljallangan. Panellarning ish harorati oralig‘i −40 °C dan +70 °C gacha bo‘lib, bu ularning ekstremal iqlim sharoitlarida barqaror ishlashini ta’minlaydi (1-jadval).Quyosh panellari yil davomida quyosh nurlanishi intensivligi, mavsumiy o‘zgarishlar hamda ob-havo sharoitlariga bog‘liq holda elektr energiyasi ishlab chiqaradi [8].

40 dona quyosh panelidan iborat tizimning umumiy o‘rnatilgan quvvati taxminan 34–35 kWp ni tashkil etadi va bu maktabning elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojining sezilarli qismini qoplash imkonini beradi. Quyosh panellarining uzoq muddatli ishonchliligi ishlab chiqaruvchi tomonidan taqdim etilgan 12 yillik mahsulot kafolati hamda 30 yillik chiziqli energiya ishlab chiqarish kafolati bilan tasdiqlanadi.Mazkur ma’lumotlar tizimning yillik energiya ishlab chiqarish salohiyatini, mavsumiy ishlash samaradorligini va maktab uchun barqaror energiya ta’minotiga qo‘shadigan hissasini kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu natijalar quyosh va shamol energiyasini birlashtirgan gibrid tizimlar bilan solishtirish orqali Qoraqalpog‘iston kabi qurg‘oqchil hududlarda optimal energiya boshqaruvi strategiyalarini aniqlash uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi [9]. Tizim **Fixed Tilted Plane (qotirilgan qiyalikli tekislik)** turida tanlangan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, quyosh panellarining optimal qiyalik burchagi **36°**, azimut burchagi esa **16° (g‘arb tomonga og‘ish)** etib belgilangan. Ushbu qiymatlar hududning geografik kengligiga mos ravishda yillik quyosh nurlanishini maksimal darajada qabul qilish maqsadida aniqlangan.

Pastki qismdagi grafiklarda yillik nurlanish hosildorligining qiyalik va yo‘nalishga bog‘liqligi tasvirlangan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, 36° qiyalikda tizim maksimal samaradorlikka yaqin ishlaydi. Yo‘nalish bo‘yicha esa janubga yaqin, biroz g‘arb tomonga og‘ish optimal natija beradi (3-rasm).


Hisoblangan ko‘rsatkichlar quyidagicha:

Transpozitsiya koeffitsienti (ET): 1.16

Optimal qiymatdan yo‘qotish: –0.7%

ISSN 3030-3907

Kollektor tekisligiga tushuvchi global nurlanish: 1674 kWh/m²



3-rasm. Jinko Tiger Neo 580W 40 panellarni joylashtirish

Maktab tom maydoni yil davomida quyosh nurlanishiga to‘siqsiz ochiq bo‘lib, bu fotoelektr tizimning barqaror va samarali ishlashini ta’minlaydi. Panellarning joylashuvi va qiyalik burchagi hududning geografik sharoitlarini inobatga olgan holda optimallashtirilgan bo‘lib, yillik elektr energiyasi ishlab chiqarishni maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi. Ushbu joylashtirish soyalanishni minimallashtiradi, tabiiy shamollanishni yaxshilaydi hamda issiqlik yo‘qotishlarini kamaytirib, tizimning umumiy samaradorligini oshiradi.

Fotoelektr panellar massivi maktab binosining tekis tom qismiga o‘rnatilgan bo‘lib, mavjud foydali maydon to‘liq darajada ishlatilgan holda quyosh energiyasini maksimal darajada yig‘ish imkoniyati yaratilgan. Modullar janub tomonga yo‘naltirilgan (azimut ≈ 180°), bu esa Qoraqalpog‘iston hududining geografik sharoitlari uchun eng maqbul yo‘nalish hisoblanadi. Hududiy quyosh geometriyasiga asoslanib 20–25° oralig‘idagi doimiy qiyalik burchagi tanlangan bo‘lib, bu modul yuzasiga tushuvchi yillik quyosh nurlanishini oshirish bilan birga mavsumiy soyalanish ta’sirini kamaytiradi [10]. O‘rnatish konstruksiyasi korroziyaga chidamli materiallardan tayyorlangan bo‘lib, Qoraqalpog‘iston cho‘l hududiga xos bo‘lgan yuqori yozgi haroratlar va vaqti-vaqti bilan kuzatiladigan kuchli shamol yuklamalarida mexanik barqarorlikni ta’minlaydi. Issiqlik boshqaruvi panellar ostida tabiiy konveksiya hisobiga amalga oshiriladi, bu esa quyosh elementlarining ish haroratini samarali diapazonda ushlab turib, tizimning umumiy ishlash samaradorligini oshiradi.

ISSN 3030-3907

2-Jadval

Quyosh panel quvvati

Hisoblash	Natija
Umumiy quvvat:	580 W × 40 = 23,200 W = 23.2 kW
Umumiy og‘irlik:	27 kg × 40 = 1080 kg
Umumiy maydon:	2.278 m × 1.134 m = 2.58 m² × 40 = 103.2 m²

40 dona Jinko Tiger Neo 580W fotovoltaik moduldan qurilgan quyosh energiyasi tizimining texnik xususiyatlarini to‘liq yoritib beradi. Umumiy o‘rnatilgan quvvati 23,2 kVt bo‘lgan ushbu konfiguratsiya maktablar, tijorat binolari, fermer xo‘jaliklari, uzoq hududlardagi obyektlar va o‘rta o‘lchamdagi turar-joy tizimlari uchun yuqori darajada energiya ishlab chiqarishni ta’minlay oladi.O‘rnatish uchun kerak bo‘lgan umumiy maydon taxminan 103 m² ni tashkil etad. Shuningdek, tizimning umumiy og‘irligi 1080 kg ni tashkil qiladi, shuning uchun xavfsizlik va uzoq muddatli ishlashni ta’minlash uchun mos yuk ko‘tarish tahlili o‘tkazilishi muhimdir.Tiger Neo seriyasi yuqori samarali N-tipli monokristalli hujayralardan foydalanganligi sababli, energiya aylanishi yuqori, degradatsiya darajasi past va yuqori haroratli muhitlarda ishlash samaradorligi yaxshiroqdir. Bu esa 23,2 kVt tizimni kuchli quyosh nuri va o‘zgaruvchan iqlim sharoitlariga ega hududlar uchun ishonchli va bardoshli tanlovga aylantiradi [11].

Ushbu umumiy xususiyatlar tizimning maydon talablarini, struktura bo‘yicha hisob-kitoblarni, o‘rnatish rejalarini va kutilayotgan ishlash samaradorligini aniqlashga yordam beradi. Bunday ma’lumotlar optimal va uzoq muddatli quyosh energiyasi yechimini loyihalashda muhim ahamiyatga ega.

$$P_{pv} = G \cdot A_{pv} \cdot \eta_{pv} \qquad (5)$$

P_{pv} -PV panel quvvati (Watt, W), G — quyosh nurlanishi (irradiance, W/m²), A_{pv} — panel yuzasi (m²), η_{pv} — panel samaradorligi (%)

Tizim samaradorligini hisoblash;

$$P_{pvreal} = P_{pv} \cdot F_d \qquad (6)$$

F_d -tizim samaradorligini kamaytiruvchi omil (0.75–0.9 odatda)

Shamol elektr stantsiyasi – bu shamol energiyasini kinetik (mexanik) energiyadan elektr energiyasiga aylantiradigan energiya ishlab chiqarish tizimidir. Shamol turbinasida ishlab chiqarilgan energiya iste’molchilarga tarmoq orqali yetkaziladi yoki batareyalarda saqlanadi.

Shamol elektr stantsiyalari ikki asosiy turdagi turbinalardan foydalanadi: Rotor shamol yo‘nalishi bilan parallel ravishda joylashtirilgan. U yuqori samaradorlikka ega va katta quvvat tizimlari uchun mos keladi. Shu bilan birga, katta o‘rnatish maydonini talab qiladi.Kungratdagi maktab uchun, bu hududda

ISSN 3030-3907

o‘rtacha shamol tezligi nisbatan past bo‘lib 4,5 m/s oralig‘ida ekanligi inobatga olinsa, kichik o‘lchamdagi shamol energiyasi tizimini strategik tarzda joriy etish texnik jihatdan mumkin va ekologik jihatdan foydalidir.Past shamol tezligi sharoitida modeli bo‘lgan bitta gorizontal o‘qli shamol turbinasini o‘rnatish ilmiy jihatdan tavsiya etiladi. Ushbu konfiguratsiya energiya hosil qilishni optimallashtirish bilan birga, maktab hududida struktura xavfsizligi va maydon jihatidan amaliylikni ta’minlaydi.

Shamol generatori 5 kVt turbina taxminan 2,5 m/s shamol tezligida elektr energiyasini ishlab chiqarishni boshlay oladi, bu esa minimal shamol sharoitida ham ishlashni kafolatlaydi. Joriy shamol tezligiga qarab, bitta turbina oyiga taxminan 366–732 kVt·soat energiya hosil qilishi mumkin.

Ushbu konfiguratsiya nafaqat maktabning energiya ehtiyojlarini yuqori ishonchlilik bilan qondiradi, balki fotovoltaik quyosh panellari kabi boshqa energiya manbalarini o‘z ichiga olgan kengroq gibrid tizimga barqaror qo‘shimcha hissani ta’minlaydi. Bitta turbina ishlatilishi energiya ishlab chiqarishni taqsimlash imkonini beradi, bitta birlikka bog‘liqlikni kamaytiradi va tizimning umumiy chidamliligini oshiradi.


Shuningdek, muhandislik va operatsion nuqtai nazardan, taklif etilgan o‘rnatish har bir turbinaning xavfsiz mexanik chegaralarda ishlashini ta’minlaydi, struktura stressini va texnik xizmat ko‘rsatish ehtiyojlarini minimallashtiradi.

Shamol generatori 5 kVt gorizontal o‘qli shamol turbinasini o‘rnatish – maktabning energiya aralashmasiga qayta tiklanuvchi shamol energiyasini integratsiya qilishda ilmiy asosli, iqtisodiy jihatdan oqilona va texnik jihatdan amalga oshiriladigan yondashuvdir. Ushbu konfiguratsiya energiya hosil qilishni maksimal darajaga chiqaradi, ekologik barqarorlikni qo‘llab-quvvatlaydi va operatsion xavfsizlikni ta’minlaydi, shu bilan maktabning oyiga energiya iste’molini qondira oladigan gibrid qayta tiklanuvchi energiya tizimi uchun ishonchli asos yaratadi.

Hududning shamol energiyasi potensiali – bu ma’lum balandlikdagi shamol oqimining umumiy energiyasi bilan belgilanadi. Shamol energiyasi potensialini baholash jarayoni shamol ma’lumotlarini foydalanish mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlarga aylantirishni o‘z ichiga oladi. Bu barcha o‘lchangan parametrlarni mustaqil va stasionar deb hisoblash imkonini beradi.

$$V_{o‘rt} = \frac{\sum V_i}{n} = \frac{4.7+4.2+4.6+4.5}{4} = \frac{18}{4} = 4.5 \text{ m/s} \qquad (7)$$

ISSN 3030-3907



4-rasm. Shamol turbinasi quvvat grafigi

Shamol energiyasi shamol tezligining kubik funksiyasiga bog‘liq. Shuning uchun, shamol tezligidagi kichik o‘zgarishlar ham ishlab chiqariladigan quvvatga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shamol tezligi ikki baravar oshsa, ishlab chiqariladigan quvvat bir necha barobar ortadi. Shu sababli, shamoldagi hatto ozgina o‘zgarishlarga ham e’tibor berish zarur, chunki ular shamol turbinasining samaradorligiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin.Turbina yerga o‘rnatilganda, yerning xususiyatlari ham hisobga olinishi lozim. Bo‘sh qumli tuproq yoki turli xil, o‘zgaruvchan iqlim sharoitida osongina o‘zgaradigan tuproqlar, turbina poydevorini mustahkamlash choralarini talab qiladi, masalan, ustunlar (pilalar) qo‘llash. Buning sababi shundaki, ish vaqtida shamol turbinasida sezilarli tebranishlar va uning tayanch elementlarining harakati yuz beradi.

O‘rnatish joyini tanlayotganda, shamol generatori bilan qo‘shimcha elektr uskunalari orasidagi masofani hisobga olish kerak. Masofa qancha qisqa bo‘lsa, kabel uzunligi ham shuncha qisqa bo‘ladi va uzatishda energiya yo‘qotilishi kamayadi. Agar masofa katta bo‘lsa, uzatishda kabelning kesimi kattaroq bo‘lishi ma’qul.Shamol generatorini o‘rnatish malakali xodimlar tomonidan amalga oshirilishi, ish davomida barcha zarur talablar va xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya qilinishi shart.5 kVt gorizontal shamol generatori maktab hududiga o‘rnatilganda, uning minorasi poydevorida taxminan 2,7 m² maydonni egallaydi. Bundan tashqari, minoraning 30° burchak ostida o‘rnatilishini va barqarorligini hisobga olsak, egallangan umumiy maydon taxminan 194 m²ni tashkil qiladi. Atrofida xavfsizlik zonasini saqlash zarur, bu esa binolar yoki o‘quvchilarga xavf tug‘dirmasligini ta’minlaydi.

Maydon S_m

$$S_M = \frac{\pi \cdot d^2}{4} = \frac{3{,}14 \cdot 1{,}85^2}{4} = 2{,}7\ m^2 \qquad (8)$$

$$D_p = 2 \cdot h \cdot \sin\varphi = 2 \cdot 12 \cdot 0{,}5 = 12\ \text{m} \qquad (9)$$

$$S_P = S_{KB} = L_{KB}^2 = \frac{S_{okr}}{\pi \cdot 0{,}5} = \frac{\pi \cdot D_P^2}{\pi \cdot 4 \cdot 0{,}5} = \frac{D_P^2}{2} = \frac{12^2}{2} = 72\ \text{m}^2 \qquad (10)$$

ISSN 3030-3907

Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, bitta shamol turbinasini o‘rnatish uchun zarur bo‘lgan maydon 74,7 m² ni tashkil qiladi.

$$74.7\ m^2 \times 1 = 74.7\ m^2$$

Shamol turbinalarini o‘rnatishda quyidagi shartlar muhim hisoblanadi:

Joylashuv shamol tezligi yuqori bo‘lishi kerak,hudud tekis va baland bo‘lishi lozim.

Boshqa binolar elektr tarmoqlari yoki infratuzilmaga xalaqit bermasligi kerak.Ishlab chiqarish samaradorligi qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan gibrid energiya tizimlarini baholashning asosiy mezonlaridan biridir. Ushbu bo‘limda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Kungrad tumani, 36-maktab uchun taklif etilgan quyosh-shamol gibrid tizimining iqtisodiy jihatlari tahlil qilinadi, ya’ni investitsiya xarajatlari, ishlash samaradorligi va moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlari.

$$Z = (E_n K + C)/P \qquad (11)$$

Elektr ta'minoti ob'ektining P-o‘rnatilgan quvvati (kVt);

K- umumiy kapital qo‘yilmalar (so‘m)

3-jadval.

Gibrid quyosh-shamol tizimi uchun uskunalar narxlari jadvali

№	Mahsulot nomenklaturasi	Quvvati (Kw)	Miqdori(sumda)
1	Jinko quyosh paneli (~ 580 Vt 40 ta)	23	115 000 000
2	Shamol generatori (1 ta)	5	75 000 000
3	Umumiy kapital qiymati (CAPEX)		**190 000 000**

Quyosh paneli yillik elektr energiya ishlab chiqarishi (16) :$E_{PV} = P_{PV} \cdot H_{solar}$ (12)

$$E_{pv} = 23.2\ Kw \cdot 1650\ Kw = 38280\ \text{kWh/yi}$$

Shamol generatori yillik elektr energiya ishlab chiqarishi:

P_{sham} — real quvvat (V_o‘rta shamol tezligida),P_{nom}=5000Vt — nominal quvvat,$V_{o‘rta}$=4.5 m/s,V_{nom}=12 m/s nominal, Rotor diametri=6.2 m

Radius:6.2/2=3.1 m

$$A = \pi R^2 = 3.14 \cdot 3.1^2 = 30.2 m^2$$

$$P = \frac{1}{2} \cdot p \cdot A \cdot C_p \cdot v^3 \qquad (13)$$

$$5000 = 0.5 \cdot 1.225 \cdot 30.2 \cdot C_P \cdot 11^3$$

$$C_p = 0.203$$

$$P = 0.5 \cdot 1.225 \cdot 30.2 \cdot 0.203 \cdot 4.5^3$$

$$P = 342\ W$$

ISSN 3030-3907

$$E = 0.342 \cdot 8760 = 2996\ Kwh/yil$$

Yillik energiya:$E_{shamol} = 263.5 \cdot 8760 = 2307\ kwh/yil$


Umumiy yillik energiya:

$$E_{umumiy} = E_{pv} + E_{WT}$$=38280+2996 ≈41276 kWh/yil

Yillik daromad:

$$R_{year} = E_{total} \cdot C_{elektr} = 41276\ \times 400 \approx 16510400$$so‘m/yil

$$PP = \frac{CAPEX}{Syear} = \frac{190000000}{16510400} = 11.5\ yil \qquad (16)$$



5-rasm. Quyosh va Shamol energiyasidan birgalikda foydalanish

Mazkur loyiha umumta’lim maktabining elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini qisman yoki to‘liq qoplash maqsadida quyosh va shamol energiya manbalariga asoslangan gibrid elektr ta’minoti tizimini joriy etishni nazarda tutadi. Taklif etilayotgan tizim qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish orqali elektr energiyasi xarajatlarini kamaytirish, atrof-muhitga salbiy ta’sirni qisqartirish hamda barqaror energiya ta’minotini ta’minlashga qaratilgan.

Tizim tarkibiga shamol generatori va fotovoltaik panellar kiradi. Shamol generatori shamol kinetik energiyasini mexanik, so‘ngra elektr energiyasiga aylantiradi. Fotovoltaik panellar esa quyosh nurlanishi hisobiga doimiy tok (DC) elektr energiyasini hosil qiladi. Ushbu energiya manbalari iqlim sharoitlariga bog‘liq holda turli vaqtlarda faol ishlaydi, bu esa gibrid tizimning ishonchliligini oshiradi.

Shamol generatori va fotovoltaik panellardan olinadigan elektr energiyasi **tarmoqqa ulovchi kontroller** orqali boshqariladi. Kontroller energiya oqimini muvofiqlashtiradi, kuchlanish va tok parametrlarini barqarorlashtiradi hamda tizimning xavfsiz ishlashini ta’minlaydi. Keyingi bosqichda elektr energiyasi **tarmoqqa ulovchi invertor**ga uzatiladi. Invertor doimiy tokni o‘zgaruvchan tokka (AC) aylantirib, uni iste’molchi — ya’ni maktab binosining elektr tarmog‘iga uzatadi.

Hosil bo‘lgan elektr energiyasi avvalo maktabning ichki ehtiyojlari uchun sarflanadi. Agar ishlab chiqarilgan energiya miqdori iste’moldan ortiq bo‘lsa,

ISSN 3030-3907

ortiqcha energiyani umumiy elektr tarmog‘iga uzatish imkoniyati mavjud. Bu holat energiya samaradorligini oshiradi va iqtisodiy jihatdan qo‘shimcha foyda keltiradi.

Mazkur gibrid energiya tizimini maktab hududida joriy etish nafaqat iqtisodiy va ekologik jihatdan samarali, balki o‘quvchilar uchun amaliy ta’limiy ahamiyatga ham ega. Ushbu loyiha qayta tiklanuvchi energiya manbalarini targ‘ib qilish, energiya tejash madaniyatini shakllantirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliyotga joriy etishga xizmat qiladi.

Quyosh va shamol energiyasiga asoslangan gibrid tizimning umumiy kapital qiymati 190 million so‘mni tashkil etadi. Loyihaning oddiy o‘zini oqlash muddati 11,7 yil bo‘lib, 25 yillik xizmat muddati davomida 16510400 million so‘m sof iqtisodiy foyda keltirdi. Gibrid qayta tiklanuvchi energiya tizimini joriy etish maktabning yillik elektr energiyasi xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Dastlabki investitsiya xarajatlariga qaramasdan, tizimning ekspluatatsiya muddati davomida yoqilg‘i xarajatlarining mavjud emasligi va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarining pastligi loyihaning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini ta’minlaydi.Bundan tashqari, ishlab chiqarilgan ortiqcha elektr energiyasini umumiy elektr tarmog‘iga uzatish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu kelgusida maktab byudjetiga qo‘shimcha moliyaviy tushum manbai bo‘lishi mumkin.

XULOSA. Ushbu tadqiqotda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Kungrad tumani, 36-maktab misolida quyosh va shamol energiyasiga asoslangan gibrid energiya tizimining texnik, iqtisodiy va ekologik samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki: fotovoltaik panellar va gorizontal o‘qli shamol turbinalari integratsiyasi maktabning elektr energiyasi ehtiyojini qisman yoki to‘liq qoplash imkonini beradi. 40 dona Jinko Tiger Neo 580 W monokristalli quyosh paneli va bitta shamol generatori Bergey Exsel 5 kVt gorizontal shamol turbinasidan iborat tizim iqtisodiy tejashni ta’minlaydi. Loyihaning oddiy o‘zini oqlash muddati 11.5 yil bo‘lib, 25 yillik xizmat muddati davomida sof iqtisodiy foyda 6510400 million so‘mni tashkil qiladi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, gibrid tizimlar bir necha energiya manbalarini birlashtirish orqali energiya ta’minotining uzluksizligini, ishonchliligini va umumiy samaradorligini oshiradi. Quyosh va shamol energiyasini birgalikda ishlatish mavsumiy va soatlik energiya ishlab chiqarishdagi o‘zgaruvchanlikni kamaytiradi, ortiqcha yoki yetishmayotgan energiya miqdorini minimallashtiradi. Shu bilan birga, tizim ekologik jihatdan toza bo‘lib, karbonat angidrid (CO_2) va boshqa zararli gazlar chiqarilishini sezilarli darajada kamaytiradi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan gibrid tizimlar chekka va izolyatsiyalangan hududlarda

ISSN 3030-3907

energiya ta’minotini ishonchli, ekologik barqaror va iqtisodiy jihatdan samarali tarzda tashkil etish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari ushbu hududlarda energiya boshqaruvi strategiyalarini ishlab chiqishda, shuningdek, boshqa maktablar va o‘rta o‘lchamdagi obyektlar uchun gibrid energiya tizimlarini loyihalashda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Borowy B.S., Salameh Z.M. Shamol–quyosh gibrid tizimida akkumulyator va PV massivini optimal o‘lchamlashtirish metodologiyasi // *IEEE Transactions on Energy Conversion*. 1996. – 11(2). – B. 367–375.
2. Desideri U., Zepparelli F., Morettini V., Garroni E. Konsentrlangan quyosh energetikasi va fotoelektrik texnologiyalarni texnik va ekologik jihatdan taqqoslash // *Applied Energy*. 2013. – 102. – B. 765–784.
3. Heide D., Greiner M., von Bremen L., Hoffmann C. To‘liq qayta tiklanuvchi Yevropa energetika tizimida shamol va quyosh generatsiyasi ortiqchaligi sharoitida energiya saqlash ehtiyojini kamaytirish // *Renewable Energy*. 2011.
4. Yadav S., Kumar P., Kumar A. HOMER dasturi yordamida ko‘p energiya saqlash tizimli gibrid qayta tiklanuvchi energiya tizimining texnik-iqtisodiy bahosi // *Energy*. 2024. – 297. – 131231.
5. Samy M.M., Güven A.F. Tarmoqqa ulangan PV/shamol gibrid tizimlarini akkumulyator va superkondensator bilan optimal o‘lchamlashtirish // *Scientific Reports*. 2025. – 15. – 45658.
6. Wang Y., Chao Q., Zhao L. va boshq. Xitoyda shamol va fotoelektrik energiya salohiyatini baholash // *Carbon Neutrality*. 2022. – 1. – 15.
7. Mellit A., Kalogirou S.A. Fotoelektrik tizimlarda sun’iy intellekt usullaridan foydalanish // *Progress in Energy and Combustion Science*. 2008. – 34(5). – B. 574–632.
8. Kalogirou S.A. Quyosh energetikasi muhandisligi: jarayonlar va tizimlar. – 2-nashr. – Academic Press, 2014.
9. Lund H. Barqaror rivojlanish uchun qayta tiklanuvchi energiya strategiyalari // *Energy*. 2007. – 32(6). – B. 912–919.
10. Rehman S., El-Amin I. Uzoq hudud uchun quyosh PV–dizel–akkumulyator gibrid tizimini tadqiq etish // *Energy*. 2015. – 83. – B. 705–713.
11. Khan M.J., Iqbal M.T. Mustaqil (off-grid) gibrid energiya tizimlarini dastlabki texnik-iqtisodiy tahlili // *Renewable Energy*. 2005. – 30(6). – B. 835–854.
12. Diaf S., Notton G., Belhamel M., Haddadi M., Louche A. Turli meteorologik sharoitlarda PV/shamol gibrid tizimini loyihalash va optimallashtirish // *Applied Energy*. 2008. – 85(10). – B. 968–987.

ISSN 3030-3907

13. Kodirov D., Tursunov O., Talipova D. Energiya ta'minotida qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishga tizimli yondashuv // *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science*. 2020. – 614. – 012038.
14. Siddikov I., Temirov A. Gibrid energiya ta'minoti: resurslarni boshqarish va monitoring // *International Journal of Theoretical and Applied Digital Technologies*. 2024. – 7(1). – B. 59–65.
15. Rathod A.P.S., Mittal P., Kumar B. Hududga tushadigan quyosh nurlanishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili // ETCT xalqaro konferensiyasi materiallari. – IEEE, 2016.
16. Solar Engineering of Thermal Processes J.A. Duffie, W.A. Beckman Wiley, 4th Edition, 2013.
17. Wind Energy Explained: Theory, Design and Application John F. Manwell, Jon G. McGowan, Anthony L. Rogers 2nd Edition, Wiley, 2010.

ISSN 3030-3907